SHARQ MASH'ALI



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
ilmiy-uslubiy, ma'rifiy jurnali

1
2026

Ilmiy-uslubiy,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal.
Ta'sischi:
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
1992-yildan chiqa boshlagan
Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi
ro'yxatidan qayta o'tgan
(№ 02-0055 26-sentyabr 2014-yil)

Bosh muharrir:
G. RIXSIYEVA (prof., f.f.n.)
Tahrir hay'ati:
D. SAYFULLAYEV (prof., t.f.d.) (bosh muharrir o'rinbosari)
X. ALIMOVA (prof., f.f.d.) (mas'ul kotib)
A. MANNONOV (prof., f.f.d.)
Q. SODIQOV (prof., f.f.d.)
R. XODJAYEVA (prof., f.f.d.)
SH. SHOMUSAROV (prof., f.f.d.)
Q. OMONOV (prof., f.f.d.)
U. MUHIBOVA (prof., f.f.d.)
D. MUHIDDINOVA (f.f.d.)
X. HAMIDOV (f.f. bo'yicha PhD)
B. ABDUHALIMOV (prof., t.f.d.)
A. XODJAYEV (prof., t.f.d.)
M. IS'HOQOV (prof., t.f.d.)
X. FAYZIYEV (dos., t.f.n.)
D.XODJIMURATOVA (t.f. bo'yicha PhD
SH. YOVQOCHEV (prof., s.f.d.)
N. ABDULLAYEV (dos., s.f.d.)
A. VAHOBOV (prof., i.f.d.)
R. ABDULLAYEV (prof., i.f.d.)
I. MAVLANOV (prof., i.f.d.)
R. BAHODIROV (prof., fal.f.d.)
E. IZZETOVA (prof., fal.f.d.)
A. SHONAZAROVA (AQSHning Kolumbiya univ. prof.)
G. GLIZON (AQSHning New Mexico univ. prof.)
ONO MASAKI (Yaponiyaning Tsukuba univ. prof.)
LI DJI IN (Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar univ. prof.)
V. MESAMED (Isroilning Quddus univ. prof.)
A. GURER (Turkiyaning Anqara univ. prof.)
A. VOROBYEV (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi)
G. AVDA (Misr Arab Respublikasining Xelvon univ. prof.)
A. TOHIR (Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori)
S. KURAYM (f.f. bo'yicha PhD)
H. BAYDEMIR (Turkiyaning Otaturk univ. prof.)

Nashrga tayyorlovchilar:
J. ISMOILOV, A. ZIYODOV,
H. SULAYMONOVA

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya va tarix yo'nalishi bo'yicha ilmiy maqolalar chop etiladigan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

SHARQ MASH'ALI

ISSN 2010-9709

MUNDARIJA № 1, 2026-yil

Adabiyotshunoslik

Qoraboyev S. . Muhammad Ibrohim Atoyining "Osiyo yuragida to'fon" romanida syujet masalasi 3
Alimbekov A., Shabanov J. O'zbek adabiyotining targ'ibotchisi 11
Gafurova K. Song Poetry in The Diary of Ephemeral Life and Its Functional Load 19

Tilshunoslik

Hamidov X. G'afur G'ulomnıng "Yodgor" hıkoyasıdagı sovetızmlarnıng turkcha tarjımada berılıshı 32
Asgarli Kh. Functional features of graphemes in karaim texts with hebrew graphics 41
Medesheva B. Sa'diy "Guliston"ida fe'l takrorining uslubiy xususiyatlari..... 52
Sodikova Sh. A Comparative Linguocultural Analysis of the Conceptualization of Illness in the English and Uzbek Languages"..... 63
Hou Yanli, Zhu Xingfei. Exploring the Protection of Dungan Language through the Lens of the Language Attitudes of Dungan People 70
Sa'dullayev Sh.. Hind-oriy va eroniy tillarning dastlabki lingvokontakti hamda etimologiyasi muammolari: fakt, streotip va disinformatsiya..... 76
Muxamedzyanova F. Referensiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi: tarixiy-nazariy tahlil 85
Diniqulov A. Arab maqol-matallarida fe'llarning semantik xususiyatlari..... 94
Shokirova L. Tilshunoslikda gender kategoriyasining lingvopragmatik xususiyatlari 102
Khaled Adel Abdelhady Ahmed Mohamed The impact of Egyptian colloquial arabic on the reduction of semantic distinctions in modern standard arabic constructions: functional redistribution, not decline .. 109
Ochilov A., Mamadaliyev O. "Alfiyya" asarida كان va unga o'xshash fe'llar morfologik xususiyatlarining ochib berilishi..... 119

Jurnal original-maket asosida bosildi.
Sharq mash'ali, 2026 yil 1-son.
e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Tarix

Rahimov K. O'rta asrlarda Buxoroda oliy ta'lim tizimining shakllanishi tarixidan 125
Пулатова М. В классической восточной литературе «Арбаин» 130
Abdullayev U. Amir Temur davlatining tashqi siyosati..... 137
Odilov B. O'zbekiston an'anaviy kulolchilik maktablarining ijtimoiy va madaniy xususiyatlari 146
Xalmuratov B. O'zbek xalqining tuproq va uning sofligi bilan bog'liq qarashlari 156
Bazarbayeva Sh. Turkiston general-gubernatorligining veterinariya strategiyasi: Buxoro va Xiva xonliklari bilan chorvachilik aloqalari tahlili (XIX asr oxiri)..... 165
Hafizov S. "Bahr ul-asror" va "Tarixi mullozoda" asarlarining qiyosiy tahlili 175

Tashqi siyosat

Xojimurodova M. Teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o'rganishning uslubiy yondashuvlari 186
Sadibaqosev H. Zamonaviy davr AQSH va Xitoy munosabatlarida Tayvan muammosi..... 194
Маннопова О. Российский фактор в системе национальных интересов Узбекистана в области безопасности и стабильности 200
Saliyeva M. Zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiyaning roli..... 208
Ризаев А. Историко-политические основы формирования национальной идентичности арабских государств..... 216
Shukurillaev U. The Chinese Factor in Ensuring Energy Security of Central Asian States..... 225
Murzayeva Sh. Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlar foaliyati takomillashtirish mexanizmlari ... 238
Elmuratova R. Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashish tajribasi 249
Maxatov S. Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion salohiyati: global innovation index reytingi tahlili..... 257

MUHAMMAD IBROHIM ATOYINING "OSIYO YURAGIDA TO‘FON" ROMANIDA SYUJET MASALASI

SARDOR QORABOYEV
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: *Maqolada Muhammad Ibrohim Atoyining "Osiyo yuragida to‘fon" romanida syujet masalasi ko‘rib chiqilgan. Unda tarixiy romanda syujet liniyasi, xronikali, konsentrik, retrospektiv syujet tiplari hamda syujetning prolog, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulmunatsiya, badiiy yechim va epilog (xotima) kabi tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy roman, syujet masalasi, syujet liniyasi, syujet tiplari, syujetning asosiy tarkibiy qismlari, syujet tarkibiy qismlarining o‘zaro munosabati.*

Аннотация: *В статье рассматривается вопрос сюжета в историческом романе «Ураган в сердце Азии» Мухаммада Ибрагима Атаи. Анализируются сюжетная линия исторического романа писателя, хроникальный, концентрический и ретроспективный типы сюжета, а также компоненты сюжета, таких как пролог, экспозиция, завязка, развитие событий, кульминация, художественная развязка и эпилог.*

Ключевые слова: *исторический роман, вопрос сюжета, сюжетная линия, типы сюжета, основные компоненты сюжета, взаимоотношение компонентов сюжета.*

Muhammad Ibrohim Atoyining د آسیا په زړه کې توپان [D' osiyo p' zr' ke to‘fon] – "Osiyo yuragida to‘fon" nomli tarixiy romani ikkinchi ingliz-afg‘on urushi voqealariga bag’ishlangan bo’lib, 1980-yilda mazkur urush yakunlanganligining yuz yilligi arafasida chop etildi. Asar an’anaviy tarixiy roman uslubida yozilgan bo‘lib, unda muallif pashtun xalqi hayotidagi murakkab davrni, urushdagi qurolli to‘qnashuvlar, qo‘shinlar harakati, qo‘mondonlar orasidagi baxs-munozaralar, amir atrofidagi fitnalar, yashirin kelishuvlar va noroziliklarni batafsil tasvirlashga harakat qilgan. Roman syujet liniyasining ko‘p tarmoqli ekanligi bilan ajralib turadi.

Syujet – asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi[1] dan iborat. Syujet badiiy asarning eng muhim elementlaridan hisoblanadi.

M.I.Atoyining "Osiyo yuragida to‘fon" tarixiy romanida asosiy syujet chizig’i afg‘on xalqining inglizlarga qarshi kurashiga safarbar etilgan. Shuningdek, Afg‘onistondagi yirik imperiyalar kurashi, amir Sheralixon[2], amir Yoqub[3], Hirot shahri hokimi Ayubxonning siyosiy faoliyati, general Roberts[4]ning jangovar harakatlardagi faoliyati kabi bir nechta yordamchi syujet chiziqlari

[1] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent-2010, 287 b.

[2] Amir Sheralixon (1825-1879) 1863-1879-yillarda Afg‘oniston amiri, barakzaylar urug‘iga mansub Do‘stmuhammadxonning o‘g‘li.

[3] Amir Yoqub (1847-1879) Amir Sheralixonning o‘g‘li, 1879-yilning fevral-oktabr oylarida qisqa muddat Afg‘oniston amiri bo’lgan.

[4] General Frederik Roberts – ikkinchi ingliz-afg’on urushidagi ingliz qo’mondonlaridan biri. Kurram diviziyasini boshqargan qo’mondon. Kobul shahrida Bolohisor qa’lasini yoqib yuborganligi bilan tarixda qolgan.

ham mavjud. Yordamchi syujetlar ko‘pligining sababi asarda davr uzoq vaqt davom etmagan bo‘lsa ham, voqealar ko‘p tarmoqli bo‘lganligidir.

M.I.Atoyining voqealarni tasvirlashda amir Sheralixon, amir Yoqub, sardor Ayubxon, Muhammad Afzalxon, lord Leytin, rus shifokori doktor Yavorskiy, generali Stoletov, ingliz generallari Jorj Burrovs, Tomas Nuttall, Nevill Chembirlin, Styuart, Roberts va Makforsen kabi tarixiy shaxslarning romanga personajlar sifatida kiritishi asar syujetining qiziqarli va ishonchli chiqishini ta’minlagan.

“Osiyo yuragida to‘fon” tarixiy romani rus generali Stoletov[1] va doktor Yavorskiy[2] ning suhbatidan boshlanadi. Doktor Yavorskiyning qo‘lida amir Sheralixonning vorisi shahzoda Abdullaxon[3] vafot etganidan keyin general Stoletov va doktor Yavorskiy suhbatida general bu o‘lim Rossiya va Britaniya o‘rtasida katta mojaroga sabab bo‘lishini aytib, yaqinda bo‘lib o‘tadigan Berlin konferensiyasi bu muammolarga barham berishiga umid qiladi.[4]

Inglizlarning qo’shin bilan Kobulga kelayotganini eshitgan afridiy qabila sardorlari kengashib, ularni Xaybar dovonidan o’tkazmaslikka qaror qiladilar.[5] Mazkur xabar Kobulga yetib kelganida Amir Sheralixon Sherpur qarorgohida harbiy kengash o’tkazadi. Unda bosh vazir Habibulloxon va lashkarboshi Husayn Ali hamda yuqori martabali saroy ayonlari qatnashadilar. Kengashda inglizlarning tahdidomuz xati muhokama qilinadi. Xatda inglizlar Amir Sheralixonga Kobulda ingliz elchisini qabul qilishni shart qilib qo’yadilar. U amalda afg’onlarning tashqi siyosatini nazorat qilishi kerak edi. Xatda agar bu shart 20-noyabrgacha qabul qilinmasa, Afg’oniston hududiga Britaniya Hindistoni qo’shinlari kiritilishi ta’kidlab o’tilgandi. Bu xatga Amir Sheralixon tomonidan yozilgan javob xati inglizlarga yetib bormasdan ular o’z qo’shinini Afg’onistonga olib kirishni boshlagani ushbu favquloda majlis chaqirilishiga sabab bo’lgan edi.

Amir Sheralixonga yetkazilgan ma’lumotlarga ko’ra, inglizlar faqatgina Xaybar va Alimasjid tomondan emas, balki Tel tomondan Bolan yo’li bilan janubiy yo’nalishda Qandahorga ham hujum qilishni boshlaganlar. Amir lashkarboshi Husayn Aliga barcha chegara qo’shinlariga inglizlarni mamlakat ichkarisiga o’tkazib yuborishga buyruq berishni ta’yinlaydi. Amirning niyati inglizlarni dunyo hamjamiyatiga bosqinchi sifatida ko’rsatish va ruslar bilan hamkorlikda ularni Afg’onistondan quvib chiqarish edi. Shu maqsadda Amir Sharalixon Rossiya imperiyasi bilan ikkitomonlama diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qiladi. Rossiya bilan strategik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun imperiya poytaxti Peterburgga bormoqchi bo‘ladi.

Afg’onlar hududiga kirib kelgan inglizlar hamda behsud, shinvoriy, mo’mand qabila oqsoqollari o’rtasida uchrashuv o’tkaziladi. Unda ingliz generali Braun Amir Sheralixon inglizlarga nisbatan xurmatsizlik qilganini, rus delegatsiyasini qabul qilib, ingliz delegatsiyasining yo’lini to’sganligini aytib, unga qarshi kurashda ushbu qabilalar yordamiga umid qilayotganini

---

[1] Stoletov Nikolay Grigoryevich – 1831-1912 yillarda yashagan rus generali hamda siyosiy arbobi. 1978-yilning fevral oyida rus delegatsiyasini rahbari sifatida Afg’onistonga kelgan va amir Sheralixon bilan uchrashgan.

[2] doktor Yavorskiy (Иван Лаврович Яворский) – 1853-1920 yillarda yashagan rus shifokori. U etnograf va yozuvchi sifatida ham tanilgan. 1978-yilning fevral oyida rus delegatsiyasining tarkibida Afg’onistonga kelgan va amir Sheralixonning vafotigacha amir oilasining shifokori bo’lib ishlagan.

[3] Amir Sheralixonning taxt vorisi, 1978-yilda vafot etgan.

[4] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 7 مخ

[5] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 38 مخ

aytadi. Gap orasida ularga yordam bergan mahmand qabilasi maliki Muhammad Shoh va qarshi chiqqan mahmand qabilasining boshqa bir sardori Mug'ulxon haqida gapirib, Mug'ulxonning ta'qibga olingani va taqdiri achinarli bo'lishini aytib, tahdid ham qiladi. Shunda qabila sardorlari orasidan yosh bir vakil chiqib, "Inglizlar bir narsani tushunishi kerak, bu tuproqlarning egasi bizmiz. Biz bilan gaplashayotganda qirq yil oldin sizlar bilan hisobni to'g'rilab qo'ygan jangchilarni farzandlari bilan gaplashayotganingiz esingizdan chiqmasin",[1] deb 1-ingliz-afg'on urushidagi inglizlarning mag'lubiyatiga ishora qiladi. Ingliz ofitseri mayor Kavanyariyning buyrug'i bilan uni hibsga olishadi. Shunda boshqa pushtun oqsoqollari o'rnidan turib ketadilar. Ingliz amaldorlari diplomatik mag'lubiyatga uchraganliklarini, bu ziddiyatning oxiri urush bilan tugashini seza boshladilar. General Makforsen zudlik bilan asosiy qarorgohga qaytish va qolgan masalalarni u yerda muhokama qilishga qaror qiladi.

Asosiy qarorgohda inglizlar ularga qarshi chiqqan mahmand qabilasining sardori Mug'ulxonni tutib jazolash maqsadida polkovnik Jenkins[2] boshchiligida 500 nafar otliq, 300 nafar piyoda va 1 artilleriya rotasidan iborat guruhni Shergiray qishlog'iga yuboradilar. Bu hujum inglizlarga muvaffaqiyat keltirmadi. Mug'ulxon tutish bo'yicha qidiruv ishlari ham natija bermadi. Hujumdan so'ng mahmand, shinvoriy, sofi qabilalari va inglizlar orasidagi ziddiyat kuchaydi. Xaybar yo'li endi inglizlar uchun xavfli bo'lib qoldi.

Shunday vaziyatda mayor Kavanyariy amir Sheralixonning Mozori-Sharifga ketgani haqida xabar oldi va inglizlar bundan unumli foydalanishga harakat qildi. Ular Sheralixonning o'rniga Kobulda qolgan va o'z hokimiyatini mustahkamlashga harakat qilayotgan Yoqubxon hamda Sheralixonning ukasi Vali Muhammadxonga yordam berish yo'li bilan har ikkalasini o'z tomonlariga og'dirib, ular o'rtasida raqobatni yuzaga keltirmoqchi, o'zaro raqobatni esa o'z manfaatlariga ishlatmoqchi bo'ladilar.

1879-yilning 21-noyabrda inglizlarning General Roberts boshchiligidagi katta qo'shini Tal[3]ga yetib keladi. General Roberts bilan birga general Tahilvol[4], general Kobb[5], polkovnik Dryu va mayor Polmer qo'shinni boshqarayotgan edilar. Kuchlar teng bo'lmaganligi sabab afg'onlar partizanlik urushi taktikasiga o'tadilar va aholi punktlari va harbiy istehkomlar inglizlar nazoratiga o'ta boshlaydi.

1879-yilning 18-dekabr kuni amir Sheralixon Mazori-Sharifga yetib keldi. U Mazori-Sharifda vafot etganidan keyin taxtni egallagan amir Yoqubning saroy a'yonlari bilan Kobulga qaytadi. Afg'onistonda hokimiyat almashganidan xabar topgan inglizlar esa o'z vakillari munshi Baxtiyorni Kobulga yuboradilar. Munshi Baxtiyor qirolicha Viktoriya nomidan Britaniya Hindistonining ofitseri Afg'oniston hududidagi ingliz siyosiy agenti Lui Kavanyari tomonidan yozilgan xatni o'qib, yangi amirni muborakbod etadi. Shu bilan birga, munshi Baxtiyorga

---

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 64 مخ

[2] Polkovnik Jenkins - ikkinchi ingliz-afg'on urushida qatnashgan ingliz zobiti, Peshovar diviziyasining 3-brigadasini boshqargan qo'mondon. Dakka qal'asini egallagan va Jalolobodagi janglarda qatnashgan.

[3] Joy nomi, bugungi kunda Afg'oniston va Pokiston chegarasida joylashgan aholi punkti.

[4] General Tahelvall - ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg'on urushida Kurram diviziyasining 2-brigadasini boshqargan qo'mondon. Pevor va Xostdagi janglarda qatnashgan.

[5] General Kobb - ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg'on urushida Kurram diviziyasining 1-brigadasini boshqargan qo'mondon. Pevor va Xostdagi janglarda qatnashgan.

afg'onlarning ingliz qo'shinlarini Afg'oniston hududidan olib chiqib ketish talabiga javoban Kavanyari tomonidan quyidagi talablarni afg'on hukumatiga yetkazish vazifasi yuklatilgandi:

1. Xaybar va Michney vodiylarida o'z hukmronligini to'xtatish hamda ushbu vodiylar va ularning atrofida yashovchi qabilalar bilan aloqalarni tugatish;
2. Kurram viloyatining barcha tumanlari, jumladan, Tal tumanidan Shuturgardan tumanigacha hamda Peshin va Sivey tumanlari ustidan inglizlar vakolatini tan olish;
3. Afg'oniston hukumatining tashqi siyosatini Britaniya hukumati nazorati ostida, uning maslahati bilan yuritilish;
4. Britaniya tomonidan tayinlangan ularning maxsus vakillariga o'z qo'riqchilar guruhi bilan birga Afg'onistonning barcha hududida yashash huquqini berish.[1]

Munshi Baxtiyor Lui Kavanyarining talablari va uning amir bilan ko'rishish maqsadida Kobulga kelayotganini yetkazganidan keyin saroy a'yonlari ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh Yoqubning qaynatasi Yaxyoxon va amakisi Vali Muhammadxon boshchiligida inglizlar shartlarini qabul qilish kerak, degan xulosaga keladilar. Xabibullo Vardak boshchiligidagi ikkinchi guruh esa Kavanyarining Kobulga kelishi turli muammo va xalq noroziligiga olib kelishini aytib, bunga qarshi chiqadilar. Romanda Amir Yoqubxon uzoqni ko'ra olmaydigan, tajribasiz hukmdor, taxtga o'tirishga nomunosib shaxs sifatida tasvirlangan. Mazkur vaziyatda Yoqubxon inglizlarga o'z sadoqatini izhor qiladi. Xabibullo Vardakning noroziligidan keyin uning gapini ma'qullab, Kavanyari bilan Kobulda ko'risha olmasligini ta'kidlaydi. Shunda munshi Baxtiyor unga amir Kobulda ko'rishishga rozi bo'lmasa, Kavanyari u bilan Gandamakda uchrashishga tayyor ekanligini aytadi.[2] Amir Yoqubxon ingliz tarafdorlari bo'lgan Vali Muhammadxon va Yaxyoxon qistovi bilan bunga rozi bo'ladi.

Gandamakda ingliz qarorgohida tantanali kutib olingan amir Yoqubxon muallif tomonidan salbiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Sababi amir Yoqubxon 1879-yilning 26-mayida afg'onlar uchun sharmandali bo'lgan "Gandamak shartnomasi"ga qo'l qo'yib, Afg'onistonni siyosiy mag'lubiyatga duchor qiladi. Muallif shu o'rinda yana bir tarixiy faktni ham keltirib o'tadi. Amir bilan bo'lib o'tgan yakkama-yakka suhbatda ingliz siyosiy agenti Kavanyari uning oldiga shartnoma loyihasini qo'yadi. Amir shartnomaning ba'zi joylariga e'tiroz bildirishni boshlagan paytda Kavanyari "shartnomaga qo'l qo'ymasangiz, sizning o'rningizga taxtga o'tirsa, har qanday shartnomaga qo'l qo'yishga tayyor nomzodimiz bor", deb unga tahdid qiladi.[3] Yoqubxon bu shaxs u bilan birga Gandamakka kelgan amakisi Vali Muhammadxon ekanligini yaxshi bilardi. Yoqubxon shartnoma shartlarini qabul qiladi va qo'l qo'yishga rozi bo'ladi. Shundan so'ng Amir Yoqubxon va Kavanyari shartnomani yuqori lavozimdagi ingliz harbiylari hamda Afg'oniston tomonidan bosh vazir Habibulloxon, qo'mondon Dovudxon va yana 25 nafar sardorlar guvohligida imzoladilar.

Gandamak shartnomasi asosida Kobulga kelgan ingliz missiyasi bir guruh yirik qabila sardorlari va hukumat vakillari noroziligiga sabab bo'ladi. Shartnoma shartlaridan xabardor bo'lgan xalq junbushga keladi. Poytaxtga dastlab Pag'mon (Kobulning shimolidagi tog'li mintaqa) tomondan, keyin chor atrofdan qilich, xanjar, pichoq, o'roq, ketmon va hatto tayoqlar bilan qurollangan odamlar oqib kela boshladi. Ular "farangilar (afg'onlar inglizlarni dastlab shunday ataganlar) mamlakatdan chiqib ketsin", deb qichqirgan holda Bolohisor saroyi va ingliz elchixonasi tomonga yura boshladilar. Saroy ham, elchixona ham qurshab olinadi.

---

[1] د پښتنو تاريخ ، د قاضي عطاء الله ليکنه ، د کابل چاپ ، درېم جلد 382 مخ

[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 151 مخ

[3] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 160 مخ

Kavanyari saroyga yordam so'rab odam yuboradi. Lekin saroyning o'zida ahvol tang edi. Xaloyiqni tinchlantirish uchun chiqqan amirning qaynotasi Yaxyoxon va o'g'li valeahd shahzoda Musoxon saroyga qochib kirishga majbur bo'ladilar. Chunki darg'azab olomon ular bilan birga chiqqan qo'mondon Dovudxonni otidan tushurib, uni noma'lum tomonga olib ketadi. Xaloyiqni sabr kosasini to'ldirgan oxirgi tomchi Kavanyari tomonidan otilgan o'q bo'ldi. Elchixona atrofidagi olomonni tarqatish maqsadida Kavanyari to'pponchasidan ikki marta o'q uzadi. G'azablangan olomon elchixonaga bostirib kiradi va u yerdagi ingliz diplomatlarining hammasi o'ldiriladi. Bino yerto'lasidagi porox zaxirasi portlatib yuborilganligi sababli bino yonib ketadi.

Lo'gar vodiysida Amir Yoqub boshchiligidagi Afg'on va Roberts boshchiligidagi ingliz delegatsiyalari uchrashadilar. Uchrashuvda ingliz elchisining o'ldirilishi masalasi muhokama qilinadi. Amir inglizlarni aydborlar topib jazolanishiga har qancha ishontirishga harakat qilmasin, Roberts "bu yerda faqatgina bir shaxsning o'limi masalasi emas, Buyuk Britaniyaning dunyo hamjamiyati oldidagi shon-shavkati masalasi turganligi uchun aybdorlarni jazolash birgalikda olib borilishi, shu sababli general Brayt boshchiligidagi qo'shin Peshovardan Jalolobod tomonga harakatlanayotgani, yana bir qo'shin Qandahordan Kobulga kelayotganini ma'lum qiladi".[1]

Amir e'tiroz bildirmoqchi bo'lgan paytda bahsga Afg'oniston tarixida katta iz qoldirgan Robertsning maslahatchisi M.Dyurand aralashadi. U amirga "elchi o'ldirilgan paytda ham qo'lingizda anchagina kuch bor edi, lekin uni himoya qila olmadingiz, hozir ichki dushmanlaringiz yana ham kuchaygan, biz Kobulga albatta boramiz",[2] deb uni fikrini o'zgartiradi. Amir ham o'z kuchi bilan masalani hal qila olmasligini tushunib, ingliz qo'shinlaridan o'z manfaatlari uchun foydalanishni umid qiladi va barchalari Kobul tomonga yo'l oladilar.

Ingliz qo'shini Kobulga yetib kelgach, general-mayor Hezald Kobul shahrining gubernatori, G'ulom Husayn uning o'rinbosari sifatida tayinlandi, shuningdek, sud va tergov mahkamalari tashkil etildi.

Tergov mahkamasi elchixonaga hujum qilgan kishilarning amir va uning vazirlari bilan aloqasi borligi haqida ma'lumotlarni aniqlay boshladi. Kobul mirshabboshisi Muhammad Aslamxon, qo'mondon Xusravxon Nuristoniy, Azizxon Barakzay, Ag'irxon va Nasirxon kabi saroy amaldorlari aholini inglizlarga qarshi urushga da'vat etgan degan ayblov bilan dorga osildilar. 14-oktyabr kuni Robertsning buyrug'iga ko'ra Bolohisor saroyi portlatildi va saroy atrofidagi uylar buzib tashlandi. Amir Yoqubning o'zi uy qamog'iga olindi va Muranjon tepaligida ingliz harbiylari nazoratida yashay boshladi. Kobulda harbiy-siyosiy vaziyat keskinlasha boshladi.

Pushtun qabila sardorlari inglizlarga qarshi kurashga qaror qiladilar. G'azni viloyatida bo'lib o'tgan jirgada vardak qabilasi sardori Muhammadjon Kobulda joylashgan ingliz qo'shinlariga qarshi hujum rejasini e'lon qiladi. Unga ko'ra, janub tomondan lo'gar, zammat, mangal va zadron qabilalari lashkari G'ulom Xaydarxon Charxiy va Samandarxon Lo'gariy boshchiligida, shimol tomondan Ko'histon va Tagob[3] lashkari Muhammad Usmonxon va Mir Bachaxon boshchiligida, g'arb tomondan vardak qabilasi lashkari xon Muhammadjon boshchiligida hujum boshlashlari kerak edi.[4]

Jirganing ertasi kuni afg'on lashkarlari har tomondan Kobulga qarab yura boshlaydilar. Buni eshitgan general Roberts harbiy kengash chaqiradi. Harbiy kengashda amirning amakilari Vali

---

1 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 192 مخ

2 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 193 مخ

3 Joy nomlari

4 ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 216 مخ

Muhammad va Muhammad Xasanxon ham qatnashadilar. Kengashda afg'on lashkarining birlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning yo'lini to'sishga qaror qilinadi. Shuningdek, Roberts Jalolobodda turgan general Brayt[1]ga Jalolobodagi ingliz qo'shinining bir qismini zudlik bilan Kobulga yuborishini so'rab xat yozadi.

Afg'on lashkarlari Kobulni har tomondan o'rab ola boshlaydilar. Bir qancha janglarda mag'lubiyatga uchragan inglizlar Sherpur qal'asiga yashirinadilar. Afg'onlar qal'ani olishga har qancha harakat qilmasinlar, inglizlarning texnik jihatdan ustunligi bunga yo'l qo'ymadi. 14-dekabrdagi jangda qal'ani ololmagan afg'onlar uni qamal holatida ushlab turishga va 23-dekabrda keng ko'lamli hujum qilishga qaror qildilar.

Bundan tashvishga tushgan inglizlar afg'onlar orasida nizo chiqarishga harakat qiladilar. Zar Podshoxon va Muhammadxon Sarhoji 60 ming koldor pul evaziga o'z qo'shinlarini, ya'ni ko'histonlik va lo'garlik kurashchilarni jang maydonidan olib ketdilar. Inglizlarga sotilgan Valiulloxon Kobulda inglizlarga qarshi kurashayotgan g'aznilik milliy kurashchilar rahbarlari Abdulqodir Tojik va Gul Muhammad Andarning G'aznidagi uylariga o't qo'ydilar va oila a'zolarini asirga oldilar. Buni eshitgan jang maydonidagi g'aznilik milliy kurashchilar zudlik bilan G'azniga qaytib ketdilar. Shu sababli 23-dekabrdagi hujum kutilgan natijani bermadi. Inglizlar 25-dekabrda qamaldan chiqib, Kobulni qayta egalladilar va Vali Muhammad Lotiyni shahar hokimligiga tayinladilar.

Hirot shahri hokimi Ayubxon Kobuldagi vaziyat afg'onlar foydasiga hal bo'layotgani to'g'risida ma'lumot olib, Qandahorda joylashgan ingliz qo'shinlariga hujum qilish maqsadida darhol Qandahorga qarab yo'lga chiqadi. [2] U Helmand daryosining bo'yida Xaydarobod mintaqasida qarorgoh tikadi.

Ayubxon va inglizlar orasidagi asosiy jang Xaydarobod va Qandahor orasidagi Mayvand dashtida bo'lib o'tadi. Deyarli bir vaqtda Mayvandga yetib kelgan har ikki qo'shin dashtning shimoliy-g'arbiy qismidagi tepalikni egallashga harakat qiladilar. Tepalikka dastlab ingliz qo'shini chiqadi. Lekin afg'onlar tomonidan o'qqa tutiladi. Ularning ortidan yetib kelgan mayor Bleykvud[3] boshchiligidagi ingliz artilleriya batalioni tepalik yonbag'riga to'plarni joylab, o't ochishga tayyorlanayotgan paytda ularga yaqinlashib qolgan Hafizulloxon o'z qo'shiniga "hujum" komandasini beradi. Lekin inglizlar o't ochishni boshlashga ulguradilar va afg'onlar hujumini qaytaradilar. Afg'on otliqlari inglizlarni janub va shimoldan aylanib o'tib qurshab ola boshlaydilar. Buni ko'rgan general Borrouz[4] kapitan Steydga afg'on otliqlarini to'plardan o'qqa tutishni buyuradi. Inglizlarning artilleriya hujumlari natijasida afg'on otliqlarining saflari siyraklasha boshlaydi. Afg'on otliqlarining hujumi ularning taktikasining bir qismi edi. Otliqlar hujumni boshlab, chang ko'tarilgan paytda afg'on piyodalarining asosiy qismi avval engashgan, dushmanga yaqinlashganda esa yotgan holda ingliz qo'shinining markazi tomon harakatlanadilar. Otliqlar bilan chalg'igan inglizlar afg'on piyodalarining yaqinlashganini sezmay qoladilar. Buning ustiga piyodalar ortidan afg'on to'pchilari ham kelayotgan edilar. Inglizlarning markaziga asosiy

---

[1] General-mayor Robert Brayt – ingliz generali, ikkinchi ingliz-afg'on urushida Jalolobodda vaziyatni nazorat qilish va Hindiston bilan aloqani ushlab turish uchun mas'ul bo'lgan qo'mondon.

[2] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کې توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 259 مخ

[3] Mayor G. F. Blackwood – Mayvand jangida qatnashgan ingliz zobiti, jang paytida ingliz artilleriya batalionini boshqargan.

[4] General Jorj Burrows - ingliz generali, Mayvand jangida ingliz qo'shinlarini boshqargan qo'mondon.

hujum 20 ta to'pdan birdaniga o'q otish bilan boshlanadi. Birdaniga to'plardan va afg'on piyodalarining to'satdan markazga qilgan hujumi inglizlarni shoshirib qo'yadi. Shunda inglizlar birinchi taktik xatoni qiladilar. Ularning otliqlari afg'on piyodalarini yorib o'tib, to'plarni egallash maqsadida ularga hujum qiladi. Natijada to'pchilar va piyodalar orasida qurshovda qolib, ikki tomondan qilingan hujumga dosh berolmay tarqalib ketadi.

Saflari siyraklasha boshlagan afg'on otliqlariga madad sifatida Ayubxon qo'shimcha otliqlarni yuboradi. Buni to'xtatish uchun general Nattal[1] 20-bombey brigadasining piyoda diviziyasini yuboradi. Ular hujumni to'xtata olmayotganini ko'rgach, yana qo'shimcha otliq yuboradi va ingliz qo'shinlari qarorgohida favquloda harbiy kengash chaqiradi. Lekin endi kech edi. Chunki piyodalarni yorib afg'on top'chilariga hujum qilgan ingliz otliqlari o'rtada qolib mag'lub bo'lgach, afg'on qo'shini markazga yoppasiga hujumni boshlagan edilar. Harbiy kengash paytida ingliz qarorgohi to'plardan o'qqa tutiladi. Aksariyat ingliz qo'mondonlari halok bo'ladilar, qo'shin tarqoq holda qocha boshlaydi.

Lekin bu paytda frontning shimoliy qismidagi inglizlarning bir batalioni o'z pozitsiyasini mahkam saqlab turardi. Ushbu batalion bir rotasining afg'onlar bilan jangda qo'li baland kela boshlaydi. Afg'onlar ortga chekina boshlaydilar. Shunda front ortida jangni kuzatayotgan ayollar orasidan Malola ismli qiz jang maydoniga kirib keladi va afg'onlar bayrog'ini ko'targan holda dushman tomonga yuguradi. Buni ko'rgan chekinayotgan afg'onlar ortga qaytadilar, saflarini to'ldirib, dushmanga qarshi hujumga o'tadilar va g'alaba qozonadilar.

Jangda inglizlar mag'lubiyatining asosiy sababi ular o'zlarining texnik jihatdan ustunligini ko'rgach, shoshilinch qarorlar qabul qilishda taktik xatolarga yo'l qo'ydilar. Inglizlar artilleriyaga katta e'tibor qaratdilar. Shu sababli markazga hujum qilinganda afg'on piyodalari ortidagi to'plarni qo'lga kiritishga harakat qiladilar. Vaholanki, afg'onlar asosiy e'tiborni piyodalarga qaratgan edilar.

Afg'on to'plarini qo'lga kiritish uchun hujum qilgan ingliz otliqlari afg'on piyodalarini yorib o'tgach, ularni e'tiborsiz qoldirdilar. Ular to'pchilarni qirib, to'plarni qo'lga kiritish bilan ovora bo'lganda afg'on piyodalarining katta qismi ortga buriladilar va ularga ortdan hujum qiladilar. Afg'onlar qurshovida qolgan ingliz otliqlarining aksariyati qirib tashlanadi. Ingliz otliqlarini mag'lub etgandan keyin afg'on to'pchilari va piyodalari ingliz qo'shinining markaziga yoppasiga hujum boshlaydilar.

Mag'lubiyatga uchragan inglizlar jang maydonidan Qandahorga qarab qochadilar va shaharda harbiy holat e'lon qiladilar. Ahvol tobora tanglashib borayotganligini ko'rgan Prayms qirilib ketmaslik uchun hiyla ishlatadi. U Sheralixonning buvisining oldiga boradi va undan Ayubxonning oldiga elchi sifatida borib, qirq kun muddat so'rab berishini, shu muddat ichida inglizlar barcha anjomlarini yig'ib, shaharni Ayubxonga topshirib, chiqib ketishini aytadi. Sheralixonning buvisi Praymsning iltimosiga ko'ra Ayubxonni oldiga boradi va inglizlar Qandahorni Ayubxonga topshirishi uchun qirq kun muhlat so'raydi. Ayubxon amirlik xonadonidan bo'lgan qari onaxonning iltimosiga rozi bo'ladi. Prayms darhol Kobuldagi general Styuartga bu xabarni yetkazib, yordam yuborishini so'raydi. Kobuldan general Roberts boshchiligida yetib kelgan katta qo'shin jangda holdan toygan Ayubxon lashkariga katta talafot

[1] General Thomas Nuttall - ingliz generali, Mayvand jangida ingliz qo'shinlarining yengil otliq kavalyeriyasini boshqargan qo'mondon

yetkazadi va Ayubxon sulh tuzishga majbur bo'ladi. General Roberts keyinchalik shaharni Abdurahmonning vakili Sardor Shamsiddinxonga topshiradi.[1]

Muallif asarni quyidagi afg'on xalq maqoli bilan yakunlaydi: "To'ra b' lolo vahi, mray b' Avdullo vahi" – "Qilichni akasi uradi, ovqatni Abdullo uradi (yeydi)". "Boshqa odam ishlaydi, rohatini esa boshqa ko'radi" qabilidagi bunday maqolni ishlatganidan I.Atoyining voqealar yakunidan norozi ekanligi anglashiladi. Chunki mayvand jangida go'lib bo'lgan Ayubxon o'rniga hokimiyat tepasiga inglizlar bilan kelishgan Abdurahmon keladi. Afg'onlar Kobuldagi jangda ham, mayvand jangida go'lib bo'lgan bo'lsalarda, inglizlar hiyla ishlatib, ularni bir-birlariga qarshi qilib qo'yadilar. Natijada afg'onlar siyosiy jihatdan mag'lubiyatga uchradilar.

Romanning yana bir o'ziga xos xususiyati I.Atoyi mazkur romanda pashtunlarning mag'lubiyati sababini aniqlashga harakat qiladi. Asosiy sabab afg'onlarning "pashtunvoliy"ga amal qilmay qo'yganligi, deb hisoblaydi. Buning ustiga muallif "pashtunvoliy" prinsiplarini har kim o'z manfaatiga mos ravishda talqin eta boshlaganini ko'rsatib bera olgan.

Tarixiy romanlardagi syujetlar aksariyat hollarda prolog (kirish), ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim (xulosa) va epilog (xotima) kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. I.Atoyining "Osiyo yuragida to'fon" syujeti xuddi o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tgan Kunlar" romani kabi so'zboshi[2] bilan boshlansa-da, asarda prolog mavjud emas. Asar ekspozitsiyasida muallif Afg'onistondagi harbiy-siyosiy vaziyatni rus generali Stoletov va doktor Yavorskiyning suhbati orqali ochib beradi. Bunda Afg'oniston yirik mamlakatlar o'rtasida talash bo'layotganligi va katta o'yin orasida qolganligi bayon qilinadi. Muallif shu tarzda o'quvchini tugunga tayyorlab boradi.

Romandagi tugun – ingliz qo'shinining Afg'onistonga kirib kelishidir. Shu yerdan asar konflikti boshlanadi va butun voqealar rivojini davomida ziddiyat kuchayib boradi. Yuqorida bayon etib o'tilgan Mayvand jangi romanning kulminatsiyasi hisoblanadi.

Muallif asarda aniq yechim ko'rsatmaydi. Bundan uning voqealar yakunidan norozi ekanligi anglashiladi. Buni yozuvchining epilogda (xotima) asarni quyidagi afg'on xalq maqoli bilan yakunlaganligi ham tasdiqlaydi: "To'ra b' lolo vahi, mray b' Avdullo vahi".

Roman syujet tiplari nuqtai nazaridan tahlil qilinganda, u voqealar orasidagi vaqt munosabatlari ustunlik qiladigan xronikali syujet tarzida tartibga solinganligi ma'lum bo'ladi. Asarda general Stoletov boshchiligidagi rus delegatsiyasining Kobulda bo'lishi (*1877-yilning yozi*), Britaniya Hindistoni qo'shinlarining Afg'oniston hududiga kirib kelishi (*1878-yil, noyabr*), Amir Sheralixonning vafot etishi (*1879-yil, fevral*), Gandamak shartnomasi (*1879-yil, may*), Kobulda ingliz siyosiy agenti Kavanyariyning o'ldirilishi (*1879-yil, sentabr*), Mayvand janggi (*1880-yil, iyul*), inglizlar qo'shinlarining Afg'onistondan chiqib ketishi (*1881-yil, aprel*) kabi voqealar aniq tarixiy ketma-ketlikda berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, I.Atoyining "Osiyo yuragida to'fon" tarixiy romanida syujet tarkibiy qismlarining bir-biriga mutanosibligi asarning puxta shakllanishiga xizmat qilgan. Asar ko'p tarmoqli syujet liniyaga egaligi, muallifga ushbu syujet liniyalari orqali ikkinchi ingliz-afg'on urushidagi ijtimoiy-siyosiy muhitni tafsilotlari bilan tasvirlash imkonini bergan. Muallif aniq tarixiy shaxslar berish va voqealarni batafsil yoritish orqali o'quvchini o'sha davrdagi siyosiy

---

[1] ابراهيم عطايي ، د آسيا په زړه کي توپان ، جلال آباد - 1390 ش ، 297 مخ

[2] Abdulla Qodiriyning "O'tgan Kunlar" romani "Yozuvchidan" sarlavhali so'zboshi bilan boshlansa, G'.G'.Xaybariyning "Abdaliy qilichi" romanida "Yozuvchining so'zlari" nomli so'zboshi mavjud.

mojarolar, harbiy harakatlar va qurolli to‘qnashuvlar girdobiga olib kira olgan. Umuman olganda, yozuvchi ushbu tarixiy romanda syujet va kompozitsiya elementlarini mohirlik bilan qo‘llaganligi asarning mazmunini to‘liq ochilishida katta ahamiyat kasb etgan.

O‘ZBEK ADABIYOTINING TARG‘IBOTCHISI

ADHAMBEK ALIMBEKOV
Filologiya fanlari nomzodi, professor, TDSHU
JUMALI SHABANOV
Filologiya fanlari nomzodi, professor, TDSHU

Annotatsiya:*Mazkur ilmiy maqolada Turkiyaning taniqli shoiri, yozuvchisi va jamoat arbobi Arslon Bayirning hayoti, ko‘p qirrali ijodiy faoliyati hamda uning o‘zbek-turk adabiy-madaniy va ilmiy aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarishdagi beqiyos o‘rni keng qamrovli tadqiq etilgan. Maqolada adibning o‘zbek tiliga o‘girilgan asarlari misolida uning she’riyatidagi tabiat go‘zalligi, lirik kechinmalar, insonparvarlik, tinchlik g‘oyalari hamda 21-asrdagi global urushlar va ijtimoiy adolatsizliklarga nisbatan keskin munosabati atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqotda Arslon Bayirning O‘zbekiston bilan yo‘lga qo‘ygan mustahkam ijodiy hamkorligi, o‘zbek adiblarining 80 dan ortiq asarlarini Turkiyada nashr ettirib, ikki qardosh xalq o‘rtasida o‘ziga xos "madaniy ko‘prik" va diplomatiya vazifasini bajargani ilmiy-tahliliy asosda ochib berilgan. Alohida e’tibor muallifning “Türkçem seni kim kurtaracak?” nomli ilmiy-publitsistik asari tahliliga qaratilgan bo‘lib, unda internet va sun’iy intellekt asrida milliy til sofligini saqlash, chetdan kirib kelayotgan o‘zlashma so‘zlar o‘rniga turkiy muqobillardan unumli foydalanish g‘oyasi qiyosiy jadvallar orqali asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Arslon Bayir, adabiy aloqalar, madaniy diplomatiya, she’riyat, til sofligi.*

Abstract:*This scientific article comprehensively explores the life, multi-faceted creative activity, and invaluable role of the prominent Turkish poet, writer, and public figure Arslan Bayır in elevating Uzbek-Turkish literary, cultural, and scientific relations to a new level. Through the examples of the author's works translated into the Uzbek language, the article thoroughly analyzes the beauty of nature, lyrical experiences, humanism, and peace ideas in his poetry, as well as his sharp stance toward 21st-century global wars and social injustices. Furthermore, the study provides a scientific and analytical basis for Arslan Bayır's strong creative cooperation established with Uzbekistan, highlighting his publication of more than 80 works of Uzbek writers in Türkiye and his role as a unique "cultural bridge" and diplomat between the two brotherly nations. Particular attention is paid to the analysis of the author's scientific-publicistic work titled “Türkçem seni kim kurtaracak?”, where the idea of preserving the purity of the national language in the age of the internet and artificial intelligence, and the effective use of Turkic equivalents instead of borrowed foreign words are substantiated through comparative tables.*

Keywords: *Arslan Bayır, literary relations, cultural diplomacy, poetry, language purity.*

Аннотация:*В данной научной статье всесторонне исследуются жизнь, многогранная творческая деятельность и неоценимая роль известного турецкого поэта, писателя и общественного деятеля Арслана Байыра в поднятии узбекско-турецких литературно-культурных и научных связей на новый уровень. На примере произведений автора, переведенных на узбекский язык, подробно анализируются красота природы, лирические переживания, гуманизм, идеи мира в его поэзии, а также его резкое отношение к глобальным войнам и социальным несправедливостям XXI века. Кроме того, в исследовании на научно-аналитической основе раскрывается прочное творческое сотрудничество Арслана Байыра с Узбекистаном, его деятельность по изданию более 80 произведений узбекских писателей в Турции и его роль в качестве своеобразного «культурного моста» и дипломата между двумя братскими народами. Особое внимание уделено анализу научно-*

публицистического произведения автора под названием «Türkçem seni kim kurtaracak?», в котором на основе сравнительных таблиц обосновывается идея сохранения чистоты национального языка в эпоху интернета и искусственного интеллекта, а также эффективного использования тюркских эквивалентов вместо заимствованных слов.

Ключевые слова: *Арслан Байыр, литературные связи, культурная дипломатия, поэзия, чистота языка.*

Kirish: Global integratsiya va madaniy muloqotlar rivojlanib borayotgan bugungi davrda turkiy tilli xalqlar, xususan, o‘zbek va turk xalqlari o‘rtasidagi adabiy-madaniy hamkorlik munosabatlari tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Tarixi, tili, dini va qadriyatlari mushtarak bo‘lgan ushbu ikki xalq qadimdan bir-birining adabiy merosini yuksak qadrlab kelgan. Ikki mamlakat rahbarlarining oliy darajadagi strategik sheriklik uchrashuvlari mazkur aloqalarning huquqiy va ma’naviy poydevorini yanada mustahkamlamoqda. Badiiy adabiyot va nashriyot sohasida xalqlararo do‘stlik rishtalarini bog‘lashda, o‘zaro asarlarni tarjima qilib tanitishda ijodkor ziyolilarning shaxsiy hissasi va madaniy diplomatiyadagi o‘rni nihoyatda yuqoridir. Turkiyaning taniqli adibi, Rassomlar va Yozuvchilar uyushmalari a’zosi Arslon Bayir ijodi va uning xalqaro miqyosdagi nashriyot faoliyati ana shunday jonkuyarlikning yorqin namunasidir.

Maqsad va vazifa: Mazkur maqolada turk adibi Arslon Bayirning lirik hamda ilmiy-publitsistik merosini o‘rganish, uning she’rlaridagi g‘oyaviy-badiiy motivlarni (tabiat, muhabbat, tinchlik) aniqlash hamda muallifning o‘zbek-turk adabiy aloqalarini mustahkamlash va turkiy tillar sofligini asrash yo‘lidagi xizmatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish vazifasi qo‘yilgan.

Usullar: Tadqiqot davomida qiyosiy-tarixiy tahlil, sotsiomadaniy va lingvo-badiiy tahlil, tavsiflash hamda statistik-faktologik solishtirish usullaridan foydalanildi.

Natija va mulohazalar:O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, Arslon Bayir faqatgina lirik shoir bo‘lmay, yirik noshir va madaniyat arbobi sifatida turkiy dunyo adabiyotiga xizmat qilib kelmoqda. U o‘zi asos solgan “Baygench” nashriyoti orqali bugungi kunga qadar 87 nafar o‘zbek yozuvchi va olimlarining asarlarini Turkiyada chop ettirib, o‘zbek adabiyotini keng turk kitobxonlar ommasiga targ‘ib qilgan. Shoirning o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Ko‘klam mujdasi”, “Yomg‘ir ostida bo‘kaman” kabi she’riy to‘plamlarida tabiat motivlari (bahor, tog‘lar, kuz fasli tasvirlari) insoniy tuyg‘ular, sevgi va sog‘inch falsafasi bilan go‘zal tarzda sintez qilingan.

Shu bilan birga, mulohazalarimiz shuni ko‘rsatadiki, adib 21-asrning global muammolari va urush fojialariga nisbatan ham o‘z ijodida befarq bo‘lmagan. Uning "Kim javob beradi?", "Bolalar uchun chalinsin qo‘ng‘iroq" kabi asarlarida Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi urushlar, begunoh bolalar qismati chuqur gumanistik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Adibning lingvistik qarashlari aks etgan “Turk tilim! Seni kim qutqaradi” asarida esa ommaviy axborot vositalari va internet ta’sirida tilga kirib kelayotgan yevropa tillaridagi o‘zlashma terminlar o‘rniga sof turkiy muqobillarni (masalan: *kabine* o‘rniga *bakanlar kurulu*, *alternatif* o‘rniga *seçenek*, *radyasyon* o‘rniga *ışınım*) qo‘llash zarurati jadvallar vositasida isbotlab berilgan.

Tili bir, dili bir, qalbi bir, dini bir xalqlardir o‘zbek va turk xalqi. Ular necha ming yillardir qon-qardosh, do‘st birodar, og‘ir va yengil kunlarda yelkadosh bo‘lishgan. O‘zbekistonda Yunus Emro, Jaloliddin Rumiy, Nazim Hikmat, Aziz Nesin, Rashod Nuri Guntekinlar qanchalik sevilib o‘qilsa, Turkiyada Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlar shunchalik sevib o‘qiladi.Turk san’atkorlari Zeki

Muren, Ibrohim Tatlises, Emroh, Mustafa Sandal, Sibel Jan, Turkon Shoray, Qodir Inonir, Aydan Shanarlar qanchalik sevilsa, Turkiyada Sherali Jo‘rayev, Ortiq Otajonov, Yulduz Usmonova, Ozoda Nursaidova, Saida Rametova, Tohir Saidov, Javohir Zokirovlar ulardan-da ko‘proq seviladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganida uning mustaqilligini ilk tan olgan davlat Turkiya bo‘ldi. 35 yil davomida ikki davlat orasida yuzlab siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar bo‘yicha shartnomalar imzolandi. 2017-yildan keyin bu aloqalar yangi bosqichga kirdi.

“Turkiya Respublikasi O‘zbekistonning ishonchli va uzoq muddatli strategik sherigi hisoblanadi. Bizni umumiy tarix, til, din va madaniyat birlashtirib turadi.”**[1] Kuni-kecha 29-yanvar 2026-yil hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga tashrifi bu aloqalarni yanada mustahkamladi.Ikki xalq orasida do‘stlik rishtalarini bog‘lashga harakat qiladigan, ko‘prik vazifasini o‘taydigan turk va o‘zbek insonlari juda ko‘p.

Mana shunday insonlardan biri Turkiyaning mashhur shoiri va yozuvchisi, 40 ga yaqin kitobning avtori, bir qancha mukofotlar sohibi, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a’zosi *(27-noyabr 2025)* Arslon Bayirdir.

Arslon Bayir 1958-yilda Antalya viloyatining Alaniya tumani, Bayir qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich maktabni o‘z qishlog‘ida, o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni Alaniya shahrida, ta’lim institutini esa Denizli shahrida tamomlagan. 1999-yilda Anadolu universiteti turk tili bo‘limi bakalavriat dasturini tugatgan.*[2]

Bayir qishlog‘idagi ilk maktabda qo‘liga olgan qalam uni hech qachon tark etmadi. O‘sha qalam uni Denizliga, Anqaraga, nihoyat, butun dunyoning adabiy maydonlariga olib chiqdi. Uning ijodi milliy chegaralardan oshib, turkiy dunyoning umumiy madaniy boyligiga aylanishi hech ham tasodif emas.

“Filiz” she’riy to‘plami bilan qo‘lga kiritgan birinchi xalqaro mukofot — Qibris (Kipr) she’riyat mukofoti, uning jahon adabiyotiga qadam qo‘yishining dastlabki belgisi edi.

Arslon Bayirning O‘zbekiston bilan aloqasi naqadar chuqur ekanini, uning asarlarining o‘zbek tilida nashr etilishidan, O‘zbekistonda o‘tkazilgan ko‘plab tadbirlarda faol ishtirok etishidan va nihoyat, O‘zbekiston tomonidan berilgan “Amir Temur” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanishidan bilsa bo‘ladi.

Uning “Yag‘mur ostida (Yomg‘ir ostida)”, “Umur kechar – vaqt kechar (Umr o‘tar — vaqt o‘tar)”, “Otaturk”, “Sessiz sohil (Sassiz sohil)” kabi asarlari o‘zbek tiliga o‘girilgandir. Bu faqat tarjima emas, balki ikki qarindosh madaniyat o‘rtasida yo‘l qurgan qardoshlik rishtasidir.

Uning asarlari 50 dan ortiq tilga tarjima qilingan. She’rlari serb tilida aytilganda boshqa ohang, rus tilida o‘qilganda boshqa ma’no, xitoy tilida ifodalanganda boshqa tus oladi. Bu xilma-xillik uning ijodining asosiy kuchlaridan biridir. Bayir o‘z she’rlarini faqat turk xalqi emas, balki butun insoniyat o‘qishini istaydi.

Qo‘lga kiritgan ko‘plab xalqaro mukofotlar (Rossiyaning “Oltin qalam”i, Qirg‘izistonning “Oltin kaliti”, Qozog‘istonning “Yassaviy” mukofoti, Livan, Xitoy, Italiya mukofotlari) uning jahon miqyosidagi tan olinishining guvohidir. Ammo u uchun mukofot maqsad emas, yo‘lda berilgan rahnamo chirog‘idir. Har bir mukofot yangi mas’uliyat, yangi bosqichdir.

Arslon Bayir san’atni juda yaxshi ko‘radi, ko‘p rasmlar chizadi, rasmlarida ona vatan, tabiat, tog‘lar, bitmas-tuganmas bog‘lar tasvirlangan. Adibning 38 marta o‘tkazgan foto va rasmlar ko‘rgazmalari uning badiiy ifodasining ikkinchi qanotidir. U so‘z bilan aytilmasni rang va chiziq bilan ifodalaydi. Ayniqsa, uch ko‘rinishli Otaturk portretlari bo‘yicha ishlari an’anaviy tasvir san’atiga yangicha yondashuvdir.

Adib Arslon Bayir “Baygench” nashriyotining asoschisi va bosh muharriridir. U ayni vaqtda “Gücel sanat” jurnalining ham bosh muharriridir.Uning asos solgan “Baygench” nashriyoti nafaqat Turkiya, balki O‘zbekiston, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Bolgariya, Serbiya va boshqa ko‘plab mamlakatlar adiblarining asarlarini nashr etadi. Bu nashriyot faqat kitob chop etmaydi, balki xalqlar o‘rtasida madaniy diplomatiya vazifasini o‘taydi.

Arslon Bayir ilmiy tadqiqot ishlarini ham yo‘lga qo‘ygan. Juda ko‘p yosh olimlar, tadqiqotchilarning ishlarini chop etishda ko‘maklashgan. Arslon Bayirning 130 ga yaqin xalqaro konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi uning g‘oyalarini dunyoga yetkazish, boshqa madaniyatlar bilan almashish uchun doimiy harakatda ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondan har yili kamida 5 nafar adibni Alaniyadagi simpoziumlarga taklif qilishi esa, uning turkiy dunyo adabiy aloqalarini rivojlantirishdagi shaxsiy hissasidir. Bugungi kungacha adib 87 ta o‘zbek adiblarining asarlarini Turkiyada chop ettirdi.

Bular orasida Nurali Qobul, Farida Afruz, Nargiza Asad kabi adiblar, olimlar va tarjimonlar bor.

Arslon Bayir nafaqat adib, balki rassom, bosh muharrir, madaniyat xodimidir. Uning qalami va kamera obyekti orqali butun dunyo Turkiyani, Turkiya esa butun dunyoni ko‘radi. Uning hayoti va ijodi shuni isbotlaydiki, haqiqiy adib uchun ona yurti faqat Turkiya emas, balki butun dunyodir, ona tili esa barcha insoniyat tilidir. Bayir qishlog‘ida boshlangan kichik bir olov, bugun butun turkiy olamni yoritayotgan nur manbaiga aylangan.

Arslon Bayir she’rlari o‘zining jozibadorligi bilan ajralib turadi. A. Bayir o‘z she’rlarida tabiatni, uning go‘zalligini, undagi hodisalarni juda chiroyli tarzda ifodalaydi. Shoirning she’rlaridan misollar keltiramiz.

Maqolamizda keltirilgan butun she’rlar shoirning mashhur tarjimon Boboxon Muhammad Sharif tomonidan o‘zbekchalashtirilgan “Ko‘klam mujdasi” [*3] kitobidan olindi.Shoir o‘zining “Bahor keldi” she’rida shunday yozadi:

“Bahor keldi” deysan
Kelsa kelaversin.
Bahor ketmaskan bizning boshlardan

U bahor kelganini mujdalab, uning ketmasligini tilaydi. Abadiy qolishini istaydi. Inson umri ham xuddi bahordek:

Sen borsan qalbimda ochilur gullar
Gullar qo‘ynida yashirin
Bahor bo‘yi ufurar. **(«Bahor keldi 3-b»)**

Bahorda gullar ochilganidek, bahorda inson qalbi ham gullaydi. Qalb yangi nafas bilan ura boshlaydi. Bahorda bulbullar sayragani kabi qalbda ham qo‘shiq yangraydi, qalbda ishq paydo bo‘ladi, ishq olovlanadi.

Odamzot doimo bahorni intiqib kutadi, tabiatning yangilanishini sog‘inib yashaydi. Chunki bahor kelishi bilan ushalmagan orzular ushaladi, ishlar yurishib ketadi, bahor insonga zavq-u shavq bag‘ishlaydi.

Ko‘klam mujdasi
Yaproqlar so‘lgin bog‘larda
Shoxlar kumush ranglarda
Bahorni sog‘ingan **(Ko‘klam mujdasi 19-b)**

Shoir Arslan Bayirga ko‘ra bahor nafaqat go‘zallik, yaxshilik va yashovchanlik faslidir. Bahor totlilik, quvnoqlik, xush kayfiyat, yaxshi dam, hordiq va tinim faslidir.

Yalang‘och sohilda bahorning
O‘tirdik totli bog‘ida qirning **(Sel 18-b)**
Shoirni o‘z yurtining go‘zal va yam-yashil bog‘lari kabi, viqorli, oppoq qorli tog‘lari ham hayratga soladi. U she’rlarida tog‘larni o‘zgacha bir mehr bilan ta’riflaydi.

Qorli tog‘lar boshida
Yo‘l bermas
Uchirimli so‘qmoqlar **(Tog‘lar 25-b)**
Shoirga ko‘ra go‘yoki baland, g‘ururli, viqorli tog‘lar past, uzun va tor so‘qmoqlarga yo‘l bermayotgandek.

Tumanli tog‘lardan esgan
Sovuq shamol urilar yuzga **(Oqshomdan tonggacha 23-b)**
Tog‘lardan esayotgan shamol insonga huzur-halovat, yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi. Yuzlarini tiniqlashtiradi, uyqudan uyg‘otadi, insonni tetiklashtiradi.
Shoir she’rlarida kuz fasli ham o‘zgacha bir tarovat bilan tasvirlanadi. Kuz insonga o‘zining go‘zalligi, nafisligi bilan charchoqlarini unuttiradi, unga kuch-quvvat beradi, dardlaridan forig‘ qiladi.

Kech kuzning bir kuni
Unutarman butun dardlarni
Orqaga otib
Yurarman qo‘llarim kissada **(Yomg‘ir ostida bo‘kaman 5-b)**
Tabiat hodisalari shoirning diqqatini tortadi, uni o‘ylantiradi, xayollarga toldiradi. Yog‘ayotgan yomg‘ir, esayotgan shamol unga huzun beradi. Ishonchlarini, quvonchlarini olib ketadi.

Tashqarida yomg‘ir yog‘moqda
Soat 22ga urdi zaang
Havo sovuq sovqotaman
Annotasiya. *Atoqli o‘zbek adibi G‘afur G‘ulom qalamiga mansub asarlar, asosan, so‘nggi yillarda turk tiliga tarjima qilina boshladi. Shundan bo‘lsa kerak, adib asarlarining tarjimalari haqida tahliliy maqolalar hanuz nashr etilgani ma’lum emas. Shu bois ushbu maqola adib asarlari tarjimalarini ilmiy tadqiq etish maqsadida boshlangan yirik, keng qamrovli tarjimashunoslik tadqiqotining debochasi sifatida baholanishi mumkin. Maqolada badiiy so‘z ustasining o‘zbek xalqi orasida ma’lum va mashhur “Yodgor” qissasining qardosh turk tiliga tarjimasi bilan bog‘liq muammolar bugungi kunda qisman eskirib tarixiy leksikaga aylangan sovetizmlar tarjimasi misolida ko‘rib chiqiladi. Ushbu leksik birliklar turkcha tarjimalari bilan birga qiyosiy tahlil etilib, asliyatga xos xususiyatlarning tarjimon tomonidan qay saviyada qayta yarata olingani, tarjimon erishgan yutuqlar va uning ijodiy mehnat jarayonida yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari imkon doirasida ko‘rsatib beriladi. Qiyosiy tahlil asosida ayrim munozarali masalalarga yechimlar izlanadi. Kerakli o‘rinlarda amaliy takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, tarjimani amalga oshirishning qulay jihatlari bilan bir qatorda o‘ziga yarasha murakkabliklari borligi, o‘zbek va turk tillari bir til guruhiga mansub bo‘lishiga qaramay ayrım leksik birliklarning kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etishi asarlarni o‘girishda ijodkordan o‘ta ehtiyotkor bo‘lishni talab qilishi zarurligi ta’kidlanadi.*

Tayanch so‘zlar: *qardosh tillar, qissa, badiiy so‘z, sovetizm, badiiy tarjima, eskirgan so‘zlar, tarixiy leksika.*

Аннотация*. Произведения выдающегося узбекского писателя Гафура Гуляма начали переводиться на турецкий язык только в последние годы. Видимо поэтому аналитические статьи о художественном уровне и качестве этих переводов до сих пор не публиковались. В связи с этим данная статья может рассматриваться как вступление, начальный этап крупного и широкомасштабного переводоведческого исследования, посвящённого переводам произведений писателя на турецкий язык. В статье на примере перевода на родственный турецкий язык известной и популярной среди узбекского народа повести «Ядгар» рассматриваются проблемы, связанные с передачей советизмов – лексических единиц, которые в наши дни частично устарели и перешли в разряд исторической лексики. Данные лексические единицы подвергаются сравнительному анализу с их турецкими эквивалентами, показывается, на каком уровне переводчику удалось воссоздать особенности оригинала, какие достижения были достигнуты, а также указываются недостатки и упущения, допущенные в процессе творческой работы в пределах возможного. На основе сравнительного анализа предлагаются решения некоторых спорных вопросов. По необходимости будут выдвинуты практические рекомендации. Кроме того, подчёркивается, что наряду с благоприятными аспектами перевода существуют и свои специфические сложности; несмотря на принадлежность узбекского и турецкого языков к одной языковой группе, многие единицы различаются по происхождению, что требует от переводчика чрезвычайной осторожности и особого внимания при переводе произведений.*

Ключевые слова*: родственные языки, повесть, художественное слово, советизм, устаревшие слова, историзмы, художественный перевод,.*

Annotation*. The works of the distinguished Uzbek writer Gafur Gulam have only begun to be translated into Turkish in recent years. Perhaps this is why analytical articles on the artistic quality and artistic merit of these translations have not yet been published. In this regard, this article can be considered*

as an introduction, the initial stage of a large-scale translation study devoted to the translation of the writer's works into Turkish. Using the example of the translation of the well-known and popular among the Uzbek people story "Yadgar" into fraternal Turkish, this article examines the problems associated with the transfer of Sovietisms – lexical units that are now partially outdated and have become part of the historical vocabulary. These lexical units are subjected to a comparative analysis with their Turkish equivalents, demonstrating the level to which the translator managed to recreate the features of the original, what achievements were achieved, and also pointing out the shortcomings and omissions made during the creative process within the limits of possibility. Based on a comparative analysis, solutions to some contentious issues are proposed. Practical recommendations will be put forward where necessary. Moreover, it is emphasized that along with the favorable aspects of translation, there are also specific difficulties; despite the fact that the Uzbek and Turkish languages belong to the same language group, many units differ in origin, which requires the translator to be extremely careful and attentive when transmitting works.

***Keywords**: story, artistic language, Sovietism, obsolete words, historicisms, literary translation, related languages.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti durdonalarining turk tiliga bevosita tarjima qilinishi ishlari dunyo xalqlari bilan san’at, madaniyat va adabiyot sohalarida bo’lgani kabi tarjima sohasida ham yangi bosqichga ko‘tarila boshlangan davr – mustaqilligimizning ilk yillarida boshlangan bo‘lsa-da, atoqli o‘zbek adibi, badiiy so‘z ustasi G‘afur G‘ulom qalamiga mansub asarlarni tarjima qilish ishlari asosan adib tavalludining 120 yilligini nishonlash arafasida, ya’ni 2020 yillardan keyin boshlandi. Shu o‘rinda 2025 yilga qadar adibning 20 ga yaqin hikoyalari va 10 dan ortiq she’ri turk tiliga tarjima qilinib nashr qilinganligini alohida ta’kidlash joiz[1]. Albatta, 2000 yillarda nashr etilgan ayrim hikoyalarning turkcha tarjimalari bundan mustasno. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida o‘zbek-turk adabiy aloqalari tubdan yangi davrga qadam qo‘ydi. 1991-2025 yillar orasida ikki qardosh xalq jo‘g‘rofiy jihatdan dunyoning turli burchaklarida joylashgan bo‘lsa-da, tili, tarixi va madaniyati bir-biriga juda yaqin bo‘lgani bois badiiy adabiyot sharofati bilan yanada yaqinlashdi, ular o‘rtasidagi do‘stlik va qardoshlik rishtalari mustahkamlandi.

Qisqa davr ichida shakllanib ulgurgan o‘zbek-turk tarjima adabiyoti o‘z-o‘zidan tarjimashunoslik fani, xususan tarjima tanqidi oldiga mas’uliyatli vazifalar qo‘ymoqda. Bugunga qadar e’tibordan chetda qolib kelayotgan turk tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan turk tiliga o‘girilgan badiiy asarlarni tarjima tanqidi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish, ularning badiiy saviyasi, sifatini baholash va tarjimon mahorati masalalari kun tartibiga qo‘yila boshlandi. Shu jihatdan qaraganda, ushbu maqola tarjima nazariyasi va tanqidi yo‘nalishida amaliy tarjimada yuzaga kelgan muammolarga muayyan darajada yechim topishga xizmat qiladi.

Badiiy asarlarni tarjima qilish, nashr etilganlarini tekshirish chog‘ida yuzaga kelgan muammolarni o‘rganish hanuz dolzarbligicha qolayotgani sir emas. Badiiy asar matnlarida til nafaqat ma’lumotni yetkazish vositasi, balki uni badiiy qayta yaratish, asarning estetik qimmatini namoyon qiluvchi vosita ham hisoblanadi. Chunki, har qanday badiiy asar begona madaniyat haqidagi ma’lumotlar manbaidir. Badiiy tarjima vositasida dunyo xalqlarining ma’naviy boyliklari, insonlarning ko‘p asrlik orzu-armonlari, g‘oya va qarashlari mujassam asarlar o‘zga til sohibi bo‘lgan xalqlarga yetkaziladi.

[1] “Asuman Dolu Yıldızla. Gafur Gulam (Doğumunun 120. Yılı hatırasına)”. TÜRKSOY Uluslararası Türk Kültür Teşkilatı. Editör – Dr. Veli Savaş Yelok. Ankara, 2023. – 297 s.

Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom qalamiga mansub “Yodgor” qissasining turk tiliga qilingan tarjimasi tahlilga tortilib, unda adib asarlarining turkcha tarjimalarida uchraydigan muammoli o‘rinlar ko‘rib chiqildi va amaliyotda yuzaga kelgan muammolarga qisman yechim izlanadi.

Maqsad va vazifalar. Yaqin tillardan tarjimaning bir talay qulayliklarga ega ekanligi sir emas. Shunga qaramay buning o‘ziga yarasha mashaqqatlari ham bor. Agar bu o‘zbek tilidan turk tiliga tarjima misolida olib qaraladigan bo‘lsa, ayrim leksik birliklarning kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etishi ikki qardosh til orasida o‘girish ishlarini qiyinlashtirishi bor gap. Ushbu maqola oldiga qo‘yilgan maqsad sobiq sho‘ro davrida yaratilgan badiiy asarlardagi sovet mafkurasiga xos so‘z va realiyalarning tarjimalarda berilishi masalasini G‘afur G‘ulom qalamiga mansub “Yodgor” qissasining turk tiliga qilingan tarjimasi asosida ko‘rib chiqish, tarjima jarayonida ijodkorning bunday birliklarga qanday yondashgani va ayrim o‘rinlarda uning e’tiboridan chetda qolgan ba’zi xususlarni ta’kidlash va kerakli taklif va tavsiyalar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqola oldiga badiiy tarjimada sovetizmlarga mos qanday muqobillar tanlangani, qaysi usullardan foydalanilganini ko‘rsatish vazifalari ham qo‘yilgan.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy va tahliliy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Erishilgan natijalar: So‘z san’atining betakror namunasi bo‘lgan G‘afur G‘ulom nasri salkam bir asrdan buyon nafaqat o‘zbek adabiyot ahli, balki jahon adabiyoti ixlosmandlarini ham o‘ziga jalb etib keladi. G‘afur G‘ulom buyuk so‘z ustasi, uning uslubi nafaqat xalqchilligi, balki o‘ziga xos obrazliligi, badiiy mukammalligi va rang-barangligi bilan ham alohida ajralib turadi.

“Shum bola”, “Yodgor”, “Tirilgan murda”, “Netay” qissalari o‘zbek qissachiligi tilining shakllanishida muhim rol o‘ynagan mashhur asarlardir.

“Yodgor” qissasi oradan salkam to‘qson yil o‘tib ilk bor turk tiliga tarjima qilindi (**Ayşe Yalçın, Kastamonu universiteti, Turkiya).**

Qissa quyidagicha boshlanadi: *“Yozning qiziq kunlari. Egnimda yelvagaygina, ko‘ksi ochiq, yoqasiga pilta otgan surp yaktak. Boshimda chust do‘ppi, belimda shohi qiyiq, oyog‘imda nimposhna xrom etik. Uzun, tor bog‘ ko‘chalarning birida ketmoqdaman”*[1]. Turkcha tarjimasi: *“Yazın sıcak günleri. Omzumda göğsü açık, yakası kolalı bez bir yaktak. Başımda Çüst döppi, belimde ipek kuşak, ayağımda yarı topuklu krom çizme. Uzun, dar bağ sokaklarının birinde gidiyorum”*[2].

Avvalo, adib qo‘llagan o‘ziga xos uslubiy bo‘yoqli so‘z va birikmalarga e’tibor qaratilsa, bulardan biri, “juda issiq”, “jazirama” ma’nosidagi “qiziq” so‘zi bo‘lsa, yana biri “yelvagaygina”[3] so‘zi yoki “pilta tikilgan, pilta otilgan” ma’nosidagi “pilta otgan” birikmalari ko‘zga tashlanadi[4]. Ammo, afsus tarjimada bunday nozik nyuanslarga tarjimon ko‘p ham e’tibor qaratmaydi.

Bunga amin bo‘lish uchun turkcha tarjimani tahlil qilib ko‘ramiz. Tarjima juda ravon, lekin bugun o‘zbeklar ham unutay degan “*yelvagaygina*” so‘zini tarjimon ham tushirib qoldirgan. Bundan tashqari, “*yoqasiga pilta otgan*” birikmasini ham “*yakası kolalı*” (yoqasi kraxmallangan) shaklida zamonaviylashtirib bergan. O‘zbekcha matndagi bir necha milliy xos so‘zdan faqat bitta “yaktak” so‘ziga havolada ***“Yaktak: Özbek milli kıyafetlerinden bir gömlek”*** deya izoh berilgan.

[1] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.3.

[2] Gafur Gulam. Yadigar (Türkçeye aktaran: **Ayşe Yalçın**). **Kastamonu Üniver-si, Türkiye**, 2023. – S.3.

[3] Yengli kiyimlarni rostmana kiymay, o‘ramay, yelkaga yoki boshga tashlagan holda (O‘TIL, 2).

[4] Bunga o‘xshash sifatdosh shakllaridan biri Toshkent shevasida keng qo‘llaniladigan “tandirda yopilgan non” ma’nosidagi “yopgan non” birikmasidir.

Ammo, nimagadir "*chust do'ppi*" shundayligicha "*çüst döppi*" deb berilgan. Holbuki ushbu milliy bosh kiyimi turk kitobxoniga tanish emas. Unga albatta izoh berish kerak edi. Yuqoridagilarni hisobga olib, o'zbekcha jumlani quyidagicha turkchalashtirish naqsadga muvofiq: *"Yazın sıcak günleri. Üstümde omzu geniş, göğsü açık, yakasına kalın örgü atılmış bir bez yektek. Başımda Çüst döppi, belimde ipek kuşak, ayağımda yarı topuklu krom çizme. Uzun, dar bağ sokaklarının birinde gidiyorum"* deb o'girgan ma'qul.

* * *

Qissadagi sovetizmlar tarjimasi. Har tilning leksikasida xos so'z (realiya)lar alohida o'rinni egallaydi. Agar buni o'zbek adabiy tili leksik tarkibining XX asr 30–90-yillaridagi ahvoli bilan bog'laydigan bo'lsak, bu davrda so'z boyligimizda muhim o'rin egallagan realiyalarning bir qismini sovetizmlar tashkil etganligi ma'lum bo'ladi. Chunki xalqimiz tarixining salkam yetmish yilini sobiq sovet tuzumi hukmronlik qilgan davr tashkil etadi. Bu davrda yuzaga kelgan va bevosita sho'ro mafkurasi bilan bog'liq yuzlab so'z va iboralar mamlakatimizning yaqin tarixidagi ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti, xalqimizning mentaliteti va dunyoni idrok etishdagi o'ziga xosliklarini aks ettiradi.

So'nggi vaqtlarda sovetizmlar tadqiqi sho'ro davrini ilmiy o'rganishga qiziqish o'sishi munosabati bilan, shuningdek OAV va badiiy adabiyotda ularning ko'p ishlatilishi tufayli yanada keng tarqaldi.

Tilshunoslikda sovetizmlarni bir necha turga ajratib tadqiq etiladi, bunday leksik birliklarning tasniflash mezonlari ham allaqachon ishlab chiqilgan, rus tilshunosligida ushbu mavzuda bir qator ilmiy ishlar himoya qilingan, yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ishlar davom etmoqda. Darhaqiqat, sho'ro davrida ko'p so'z va iboralar rasmiy tashviqot yo'li bilan yaratilib xalqimiz ongiga singdirilgan bo'lsa, ayrimlari tabiiy ravishda, kishilarning hayot ehtiyojlari tufayli o'zlashib qolgan. Ko'pchilik sovetizmlarda mafkuraviy tamg'a aniq ravshan ifodalanib turadi.

Sho'roga xos so'z (realiya)lar, sovet davri kishilarining hayoti, maishiy turmushi, jamiyat, iqtisodiyot va siyosatni o'zida aks ettirgan leksik birliklardir. Ular nafaqat sovet davrida paydo bo'lgan tushunchalar, balki azaldan qo'llanilib kelgan va sovet davrida yangi ma'no kasb eta boshlagan, shuningdek, siyosiylashgan, mafkuralashgan leksemalardir. Bularga tilshunos N.M.Shanskiy "Oktyabrda tug'ilgan so'zlar" ("слова, рожденные октябрем") deb bejizga balandparvoz nom bermagan. "Sovetizmlar" deganda dastavval, 2017 yil oktabr to'ntarishidan keyin rus tiliga va rus tili orqali sobiq sho'ro respublikalari xalqlari tillariga ham kirib mustahkam o'rnashib olgan sovet davriga xos so'z (realiya) lar tushuniladi"[1].

Lug'atlarda "Sovetizmlar – sovet davrida yuzaga kelgan va ushbu davrni o'zida aks ettirgan tushunchalarnı ifodalovchı so'z va birikmalardir" deya ta'rif berilgan. Tilshunoslikda "sovetizm" termini haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq ushbu leksik birliklarning tarjimada berilishi bugungi kunga kelib tarjimashunoslikning ham masalasiga aylanib ulgurdi, deyish mumkin. Gap shundaki, sovetizmlar badiiy asarlarimizni xorijiy tillarga, xususan, sotsializmni o'z boshidan kechirmagan, azaldan kapitalistik tuzum sharoitida yashab kelayotgan xalqlarning tillariga tarjima qilish jarayonida ayrim qiyinchiliklar tug'dirayotgani sir emas. Shunga qaramay, bunday leksik birliklarni tarjima qilishning ham muayyan qonuniyatlari, prinsip va qoidalari ishlab chiqilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

[1] Тишулина М.И. Пространственно-временной аспект функционирования советизмов в литературе писателей-эмигрантов // Современные исследования социальных проблем. 2012. №11(19).

Har bir yangi tarixiy bosqichda til davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, hokimiyatning tuzilishi, mamlakatni boshqarish shakliga bog‘liq bo‘ladi. O‘tgan asrda sobiq ittifoqning yetmish yillik hukmronligi, buning oqibatida yuzaga kelgan, sotsializm va kommunizm g‘oyalari, unga xos tushunchalar, muassasa nomlarini bildiruvchi leksik qatlam, ya’ni sovetizmlar *(kanselyariya, kartochka, otpuska, komandir, chest, kolxoz, ZAGS, aktivistka, grajdan, zvonok, adres, perevod, posilka, beretka* vb.) yuzaga keldi va ular barcha sobiq sho‘ro respublikalari tillarida muqobilsiz leksika sifatida mavjud bo‘lib keldi. Albatta, ushbu leksik qatlamni boshqa muqobilsiz leksika tarkibidan alohida ajratib olib ko‘rib chiqish zarur.

O‘zbek tilidan turk tiliga tarjimada sovetizmlarning qanday berilganligi masalasi ko‘rib chiqilayotgan ushbu maqolada tilshunoslik tasniflariga kirib bormasdan sof amaliyotga tayanildi. Unda sovetizmlarni tarjima qilishning yo‘llari G‘afur G‘ulom qalamiga mansub, o‘zbek qissachiligining namunasi – “Yodgor” asarining turkcha tarjimasi (Yadigar) misolida ko‘rib chiqildi.

Avvalo shuni e’tirof etish kerakki, ushbu qissa sovet mafkurasi eng qizg‘in pallaga kirgan, barcha ittifoqdosh respublikalarning xalqlari SSSRni Ona Vatan deya e’tirof etgan bir davrda yozilgan va bu narsa nafaqat asar g‘oyasiga, balki uning leksikasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmagan. Mana qissadan olingan bir misol: “***Kanselyariya****ga kirib kartochkalarni oldim.* ***Otpuska****ga ketuvchilar uchun maxsus chaqirilgan kechada o‘rtoqlar bilan, muallimlar bilan, bizni tarbiya qilgan* ***komandir****lar bilan issiq-issiq quchoqlashdik, o‘pishdik, xayrlashdik. Men, ayniqsa, muallimim bo‘lish bilan birgalikda eng yaqin birodarim bo‘lgan* ***komandir****imga songgi* ***chest****imni berdim…”*[1]

Yuqoridagi parcha turk tiliga quyidagicha o‘girilgan: *“Komünist Gençlik Örgütü hücresinden girip kartlarımı aldım. İzne gidecekler için özellikle çağırılan gecede arkadaşlarımla, öğretmenlerimle, bizi eğiten komutanlarımla sıkı sıkı kucaklaştık, öpüştük, helalleştik. Ben özellikle öğretmenim olmakla birlikte en yakın arkadaşım olan komutanıma son tekmilimi verdim”* [2].

Keltirilgan parchada qo‘llanilgan *kanselyariya, kartochka, otpuska, komandir, chest* so‘zlari sof sovetizmlardir.

Kanselyariya. Tarjimon, nimagadir ushbu so‘zni turkchaga “*Komünist Gençlik Örgütü hücresi*” (so‘zma-so‘z: kommunist yoshlar tashkiloti hujrasi, ya’ni Komsomol tashkiloti) deb ag‘daradiki, bu tanlovning kontekst bilan ham hech qanday aloqasi yo‘q. Bundan tashqarı, tarjimon lug‘atlarga qaraganda ham u yerda ushbu so‘zning “kançılarya”, “yazıhane”, “kalem odası”, “özel kalem”, “genel evrak” kabi muqobillarini topa olar edi.

Kartochka so‘ziga ham tarjimon yuzaki yondashgan. Chunki, bu yerda so‘zning turkcha muqobili “kart” emas, “evrak” yoki “belge” hisoblanadi.

Parchadagi eng bahsli sodda gap “*komandirimga songgi chestimni berdim*” bo‘lib, u “*komutanıma son tekmilimi verdim*” shaklida noto‘g‘ri berilgan (teskari tarjimasi: “komandirimga oxirgi xulosa, bildirishnoma (raport)ni berdim”). Gap shundaki, asliyatdagi sof ruscha “chest” (**честь**) so‘zinin asl ma’nosi “harbiylar orasida qo‘lni chekkaga (bosh kiyim bo‘lganda) qo‘yib hurmat bajo keltirib, salom berish” hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, o‘zbekcha parchani turk tilida quyidagi mazmunda qayta ifodalash maqsadga muvofiq: “*Yazıhaneye girip gerekli evrakları aldım ve izne gidecekler için dizenlenen törende arkadaşlarımla, öğretmenlerimle, bizi*

[1] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.33.

[2] Gafur Gulam. Yadigar (Türkçeye aktaran: **Ayşe Yalçın**). **Kastamonu Üniv-si, Türkiye**, 2023. – S.22.

eğiten komutanlarımla sıkı sıkı kucaklaştık ve helalleşarak vedalaştık. Ben, özellikle öğretmenim olmakla birlikte en yakın arkadaşım da sayılan komutanıma son saygı ve veda selamımı verdim".

Salkam yuz yil davomida o‘zbek tiliga singib, hatto bugun ham katta avlod aholimizning og‘zaki nutqida saqlanib qolayotgan ЗАГС abbreviaturasi (**ЗАГС** – Запись актов гражданского состояния) ning ma’nosi “vatandoshlik (fuqarolik) holatini qayd etish” hisoblanadi. Ushbu abbreviatura “Yodgor” qissasida o‘n to‘rt marotaba ishlatilgan. M.: “– *Shu lapashangligingiz bo‘lsa, hali meni **ZAGS**da ham sharmandamni chiqaradigan ko‘rinasiz... **ZAGS**ga birga boramiz”* [1]. Tarjimasi: *“– Bu acemlikle daha beni **nikâh dairesi**nde rezil edeceksiniz gibi geliyor... **Nikâh dairesi**ne birlikte gideceğiz.* Hozirgi davrda ushbu davlat muassasasi o‘zbek tilida “Nikoh idorasi”, rasmiy tilda FHDYo (fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish va ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ) deyiladi. ЗАГС (ZAGS) abbreviaturasi turkcha matnda bir xilda “***nikâh dairesi”*** (Nikoh idorasi) shaklida berilgan va bu maqsadga muvofiq ishonchli tarjima ekanligini ta’kidlash joiz.

Sovetizmlarni bir tildan ikkinchisiga o‘girish masalasi tarjimon uchun juda muhimdir, zero tarjima tilida bunday leksemalarga mos keladigan doimiy muqobillar topilishi oson emas. Shu bois ularni tarjima qilishda muayyan qiyinchilikka duch kelinishi tabiiy. Bundan tashqari, asarda uchraydigan sovetizmning predmet ma’nosi bilan bir qatorda birlikning semantik strukturasiga tegishli boshqa komponentlari ham berilishi lozim.

XX asrda yaratilgan o‘zbek nasriy asarlarida eng ko‘p uchraydigan sovetizmlardan biri “kolxoz” so‘zi bo‘lib, ushbu so‘z “Yodgor” qissasida uchramaydi. Biroq, qissaning turkcha tarjimasi matniga nimagadir ushbu realiya tasodifan kirib qolgan: *Çoğu hayatım çevreden gelen **kolhoz**cular, hem şehirde yaşayan halka yardım edişten ibaret [Yo, 56].* Turk tarjimoni asliyat matnidagi *“Ko‘p umrim tevarak-atrofdan keladigan aholiga yordam berishdan iborat”*[2] jumlasini turkchada shunday bergan.

Ma’lumki, “kolxoz” so‘zi “**кол**лективное **хоз**яйство”[3] (“jamoa xo‘jaligi”) birikmasining qisqartmasi bo‘lib, undan ***kolxozchi*** (kolxoz ishchisi, dehqon), ***kolxozlashtirish, kollektivlashtirish*** so‘zlari ham yasalgan[4] va ushbu leksema o‘ziga xos rasmiy stilistik bo‘yoqqa ega.

Adib asarlarida uchraydigan sovetizmlarning bir qismini murakkab tarkibli sovetizm (yasama so‘z)lar tashkil etadi: Masalan, *Bu ham o‘qib, tuppa-tuzuk **aktivistka** bo‘ldi*[5]. Turkcha tarjimasi: *Bu da okuyup iyi*[6] *bir **aktivist** oldu*[7].

Asliyat jumlasidagi ***aktivistka*** (aktiv-ist-ka) so‘ziga e’tibor berilsa, O‘TILda aynan bu so‘zga ta’rif berilmagan. Ta’rif faqat “aktif” so‘ziga berilgan, xolos: AKTIV I *[lot.* activus – faol, harakatchan]. FAOL (*arabcha)* – harakat qiluvchi; ta’sirchan. *1 sft.* Biror g‘oyaviy harakat yoki

---

[1] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.7.

[2] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.56.

[3] Kolhoz – kolektif tarım.

[4] O'TIL: *kolxoz. r.* «коллективное хозяйство» birikmasining qisqartmasi. *Esk. map.* Sho‘ro davrida: dehqonlarning asosiy ishlab chiqarish qurollarini umumlashtirishga va qishloq, xo‘jalik ishlab chiqarishini birgalashib (jamoaviy) boshqarishga asoslangan ixtiyoriy uyushmasi; kollektiv xo‘jalik, jamoa xo‘jaligi. *Kolxoz yerlari. Kolxoz fermasi.*

O'TIL: **Sovxoz**. *r. Советское хозяйство* – «sovet xo‘jaligi» (davlat xo‘jaligi) birikmasining qisqartmasi. *Tap. esk.* Sobiq SSSR da qishloq xo‘jaligida tashkil etilgan yirik davlat xo‘jaligi. *Sovxoz direktori. Sovxozda ishlamoq.*

[5] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.58.

[6] O‘zbekcha “*tuppa-tuzuk*” turkchada soda qilib “iyi” (yaxshi) deb berilgan.

[7] Gafur Gulam. Yadigar (Türkçeye aktaran: **Ayşe Yalçın**). **Kastamonu Üniv-si, Türkiye**, 2023. – S.34.

ishga g‘ayrat bilan, astoydil kirishadigan, ishchan. 2. *ot* Biror jamoaning ijtimoiy hayotida, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan shaxs, jamoatchi. FAOLA \ *a.* – faol ayol] Ijtimoiy-tashkiliy ishlarda va mehnatda berilib ishlaydigan (qatnashadigan) ayol. *Norbuvi deb ataluvchi bu xotin – qishloqning faolasi, ko‘p yillardan beri jamoat ishlarida ishlaydi.* H.Shams, Dushman (O‘TIL). Albatta, zamonaning zayli bilan “aktivistka” so‘zi bundan salkam yuz oldin rus tilidan o‘zlashtirib olingan va xalq orasida hozirgacha keng qo‘llanib kelinmoqda.

Uning tarjimasiga kelinsa, turk tarjimoni uni bir realiya sifatida (*aktivist*) qoldirgan. Chunki, O‘TILda ushbu so‘zning aynan *aktivistka* shakli bo‘lmagani kabi turk tilining izohli lug‘ati (TS)da ham bu so‘z yo‘q. Ikkala til lug‘atlarida ham so‘zning boshlang‘ich “AKTIV” (t. AKTIF) shakli barcha ma’nolari bilan izohlanib, lotin tilidan o‘zlashtirilgani ham ko‘rsatilgan holda berilgan.

Yana bir misol: *Men **SAKU**ga kirib o‘qidim, masalaga boshqacha qaraydigan bo‘ldim*[1]. Turkcha tarjimasi: *Ben **SAKU**’da okudum, partiye üye oldum, meseleye başka açıdan bakar oldum*[2]. Ushbu jumlada kelgan SAKU abbrevaturasi “**С**реднe**а**зиатское **к**урсантское **у**чилище” – “O‘rta Osiyo kursantlar bilim yurti” bo‘lishi mumkin. Ammo buning nima ekanligi ustida bosh qotirishni ham istamagan turk tarjimoni abbreviaturani aynan berib qo‘ya qolgan. Lekin nimagadir kontekstga hech qanday aloqasi bo‘lmagan “*partiye üye oldum*” (partiyaga a’zo bo‘ldim) sodda gapini o‘zidan qo‘shib yuborgan.

“Yodgor” qissasidagi sovetizmlar qo‘llanilgan ayrim jumlalar, tarjimalari va taklif etiladigan variantlar:

“Yodgor”	“Yadigar”	Izoh, taklif yoki tavsiya
***Doktor** meni **kavaleriya** ham **pexota**ga yaraydi, deb yozdi. Harbiy **komissariat** meni **pexota** qatoriga Ashxobodga yuboradigan bo‘ldi (17-b).*	***Doktor** beni **süvari**de hem de **piyade**de işe yarar diye yazdı. **Askeri Komiserlik** beni **piyade** olarak Aşkabat’a göndermeye karar verdi (S.10).*	So‘zma-so‘z tarjima o‘zini to‘la oqlagan, sovetizmlarga mos, ishonchli muqobillar topilgan.
*Oh, onaginang o‘rgilsin, bolam, sen endi **sallot**ga ketayotibsan, Xudoyo Xudovando, yomon ko‘zdan saqlasin… (18-b).*	*Ah, annen kurban olsun çocuğum, sen şimdi **asker**e gidiyorsun Allah’a emanetsin, yarabbi seni kötü gözden korusun (S.10).*	Tarjimaga ijodiy yondashilgan, jumla turk tilida ishonchli berilgan. O‘zbek tilining shevalarida qo‘llaniladigan “**sallot**” (ruscha – **soldat**) so‘zi turkchaga “asker” deb to‘g‘ri ag‘darilgan.
*Qo‘zg‘alishga **zvonok** allaqachon bo‘lgan (26-b).*	*Trenin kalkışı için **siren** çoktan çalınmıştı (S.10).*	Tarjima ishonchli, so‘zlar kontekstdan kelib chiqilgan holda to‘g‘ri tanlangan.
*Hech kutmaganda, iyun oxirida akamdan yuz so‘m pul **perevod** kelib qoldi.*	*Hiç beklemediğim haziran sonlarında ağabeyimden yüz som **havale** geldi.*	Asliyat parchasida ketme-ket kelgan “perevod” so‘zi turkchada ikki turli shaklda

[1] G‘afur G‘ulom. Yodgor: qissalar / G‘afur G‘ulom. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025 (128 b). – B.58.

[2] Gafur Gulam. Yadigar (Türkçeye aktaran: **Ayşe Yalçın**). **Kastamonu Üniv-si, Türkiye**, 2023. – S.34.

Perevod *bilan kelgan xatida, akam go‘yo mendan uzr so‘ragan bo‘libdi (33-b)*	***Para****yla birlikte gelen mektupta, ağabeyim güya benden özür diliyormuş. (S.15)*	mohirona tanlab qo‘yilgan: 1.**Havale**; 2. **Pul**.
Diviziya*da o‘rgangan ashulalarni dimog‘ bilan o‘zim eshitarlik qilib kuylab qo‘yaman (27-b).*	***Bölük****te öğrendiğim türküleri kendi işitebileceğim kadar söylüyorum. (S.15)*	Asliyatdagi “diviziya” harbiy termini sof turkiy “bölük” harbiy termini vositasida mos muqobil bilan berilgan.
Men bu yerda chegara soqchi ***otryad****larining doktori bo‘lib tayinlangan edim (55-b).*	*Ben burada sınır muhafiz* ***birliği grup****ların doktoru olarak atandım… (S.34).*	Ben oraya sınır muhafız birlikleri doktoru görevine atanmıştım…” shaklida ag‘dargan ma’qul.
Ayniqsa, ***grajdan****lar o‘rtasida nomim yaxshilikka yoyilgan... **Grajdan**lar o‘rtasida bo‘lganidek, mahalliy tashkilotlar o‘rtasida ham durustgina obro‘yim bor (56-b).*	*Özellikle* ***halk*** *arasında namım iyi yayılmış. Benim onların yerli dillerini bilmem onların dertlerden bir tanesine dermandı.* ***Halk*** *arasında olduğu gibi, mahalli teşkilatlar arasında da epeyce itibarım var (S.32).*	“Özellikle **vatandaş**lar arasında benim ismim iyi sözlerle anılır… **Vatandaş**lar arasında olduğu gibi yerli kuruluşlar arasında da yeteri kadar itibarım vardır”.
Izoh: Ruschadan tilimizga o‘zlashib, o‘rnashib olgan “**grajdan**” so‘zi asliyatda ketma-ket ikki marta qo‘llanilgan. Turkcha tarjimada esa ushbu so‘z ikkala o‘rinda ham “**halk**” tarzida berilgan. Bundan tashqari, tarjimon o‘zidan “Benim onların yerli dillerini bilmem onların dertlerden bir tanesine dermandı” degan butun boshli bir jumla “qo‘shgan”. Agar ushbu to‘qima tarjima teskari o‘girilsa, quyidagi keraksiz bir gap yuzaga chiqadi: “Mening ularning mahalliy tillerini bilishim ularnıng dardlaridan bittasiga darmon edi”.		
U bilan o‘tgan to‘rt kunlik umr juda quvnoq o‘tdi. Bir-birimiz bilan juda eski birodarlarday suhbatlashdik. U menga ***adres*** *berdi. Men uning* ***adres****iga xat yozib, o‘zimning* ***adres****imni ma’lum qiladigan bo‘ldim. Moskvada u bilan ajraldik (28-b).*	*Onunla geçen dört günlük hayat çok neşeli geçti. Birbirimizle çok eski arkadaşlar gibi sohbetleştik. O bana* ***adres****ini verdi. Ben onun* ***adres****ine mektup yazıp, kendi* ***adres****imi bildireceğimi söyledim. Moskova’da onunla ayrıldık (S.15).*	So‘zma-so‘z tarjima o‘zini to‘la oqlagan, “adres” so‘zi sovet davrida to‘liq muomalada bo‘lgan. Hozirda ona tilimizda “manzil” so‘ziga o‘z o‘rnini “bo‘shatib bergan” ushbu baynalmilal termin turk tilida “adres” shaklida to‘liq muomaladadir.

*U jonajon Vatanning, mamlakatning obodonligini va hurmatini saqlashga **post**da turgan **ryadovoy** askarday doim tayyor (23-b).*	*O sosyalist vatanın ülkelerin memurluğunu ve bütünlüğünü korumak için **nöbet** tutan bir asker, **er** gibi her zaman hazır (S.13).*	Turk tarjimoni asliyatga erkin yondashgan. Buni "vatan" so'zidan oldin "sotsialistik" sifatini, "mamalakat" so'ziga ko'plik qo'shimchasi "qo'shib yozaganida ko'rishimiz mumkin. Shuni hisobga olib jumlani quyidagicha berish maqsadga muvofiq: "O candan sevdiği vatanının, ülkesinin memurluğunu ve bütünlüğünü korumak için **nöbet** tutan bir asker gibi her zaman hazır".

Umuman olganda, sovetizmlarni tarjimada berish masalasi muqobilsiz leksikani tarjimada qayta ifodalash singari muhim mavzu hisoblanadi, zero bunday leksemalarga mos keladigan doimiy muqobillar topilishi ham qiyin. Shu bois bunday birliklarni tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelinishi tabiiy. Bundan tashqari, asarlarda uchraydigan sovetizmning predmet ma'nosi bilan bir qatorda birlikning semantik strukturasiga tegishli boshqa komponentlarning yonma-yon berilishi ham lozim. Sovetizmlarni o'girishda tarjimonga asar muallifi uslubining individualligi, bunday til vositalari yordamida yaratilgan obrazlilikni yetkazib berishga ko'mak beruvchi hamda badiiy taassurotni shakllantiruvchi boshqa bir qator badiiy xususiyatlarni qayta ifodalashga ko'mak beruvchi turli tarjima transformatsiyalari qo'llanilishi lozimligini unutmaslik kerak.

Xulosa. Ushbu maqolada amalga oshirilgan tahlil hamda yuqoridagi jadvalda keltirilgan misol jumlalar va ularning ichida kelgan sovetizmlar tahlili asosida tarjimani amalga oshirish jarayonida turk ijodkorining atoqli o'zbek adibi qalamiga mansub mashhur asarga mumkin qadar jiddiy yondashgani va ko'p o'rinlarda o'z bilimi va mahoratini ishga solganini sezish qiyin emas. Shu bilan bir qatorda, bunday yuksak badiiy asarlarni tarjima qilishda xorijlik ijodkorlarning mahalliy til egalari, mutaxassislar bilan bahamjihat, bamaslahat ish olib borishlari tarjimalarning yuqori badiiy saviyada bo'lishini ta'm'nlashi shubhasizdir. Shu bilan birga, bugunga kelib, buyuk adiblarimiz qalamiga mansub asarlar xorijiy tillarga tarjima qilinib, O'zbekistonda va undan tashqarida dunyo yuzini ko'ra boshlagani va adiblarimizning durdona asarlarining tarjimalari ustida chuqur tadqiqotlar olib borish, ularni sinchiklab tadqiq etib, xolis baho berish zarur ekanligini alohida ta'kidlash joiz.

FUNCTIONAL FEATURES OF GRAPHEMES IN KARAIM TEXTS WITH HEBREW GRAPHICS

KHAYAL ASGARLI
Azerbaijan National Academy of Science

Abstract. *Karaim Turkish, which belongs to the Kipchak group of Turkic languages, is included in the list of "endangered Turkic languages". Currently, due to the small number of speakers of this language, as well as their settlement in different parts of the world, it is quite difficult to study the modern Karaim language from a linguistic point of view. The word Karaim, which was originally the name of a sect, was later given to the bearers of this religion, and since it consisted mostly of Turks, those who believed in this religion were also called Karaim Turks.*

The main source for the linguistic study of the Karaim language is not oral speech, but written texts. Historically, the Karaims wrote their texts in three different alphabets - Hebrew, Cyrillic and Latin. Among these alphabets, the Hebrew alphabet is the one that is least compatible with the Turkic phonetic system, lacking sufficient graphic signs to indicate vowels and some consonants. For this reason, the study of Karaim texts written in this alphabet is both difficult and very necessary. Due to the lack of graphic signs to indicate some sounds in this alphabet, especially vowels, the Karaims made certain changes to this alphabet and adapted it to the Turkic phonetic system. For this reason, certain difficulties arise during the reading, transcription and transliteration of texts written in this alphabet. Only texts belonging to the Crimean dialect were recorded in Hebrew script.

The article studies the functional properties of graphemes used in Karaim texts. The object of the study is the texts belonging to the Crimean dialect of the Karaim language and written in Hebrew script. In this case, the collection of folklore samples of the Karaim Turks living in Crimea, collected by Radlov and first published in 1888 and later in 1896, was used as a source.

Keywords and expressions: *Hebrew script, Karaite Turks, Karaim language, Crimean dialect, phoneme, grapheme, vowel, consonant.*

Аннотация. *Qipchoq turk tili guruhiga kiruvchi karaim turk tili "yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turk tillari" ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi vaqtda ushbu tilda so'zlashuvchilar sonining kamligi, shuningdek, ularning dunyoning turli burchaklarida tarqalishi tufayli zamonaviy karait tilini lingvistik nuqtai nazardan o'rganish jiddiy qiyinchiliklarni tug'diradi. Dastlab bir mazhab nomi bo'lgan karaim so'zi keyinchalik bu dinning tashuvchilariga berilgan va u asosan turklardan iborat bo'lganligi sababli, bu dinga e'tiqod qilganlar ham karaim turklari deb atala boshlangan.*

Karaim tilini lingvistik o'rganishning asosiy manbai og'zaki nutq emas, balki yozma matnlardir. Tarixan, karaitlar o'z matnlarini yozish uchun uch xil alifbodan foydalanganlar: ibroniy, kirill va lotin. Bu alifbolar orasida ibroniy alifbosi turkiy fonetik tizimga eng kam mos keladi, chunki unda unli va ba'zi undoshlarni ifodalash uchun yetarli miqdordagi grafik belgilar yo'q. Shu sababli, ushbu alifboda yozilgan karaim matnlarini o'rganish ham qiyin, ham juda zarur. Bu alifboda ma'lum tovushlarni, ayniqsa unlilarni bildiruvchi grafik belgilar yo'qligi sababli, karaitlar unga ma'lum o'zgartirishlar kiritib, uni turkiy fonetik tizimga moslashtirdilar. Bu esa ushbu alifboda yozilgan matnlarni o'qish, transkripsiya qilish va transliteratsiya qilishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Faqat Qrim lahjasiga tegishli matnlar ibroniy yozuvida yozilgan.

Maqolada karaim matnlarida qo'llanilgan grafemalarning funktsional xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ob'ekti ibroniy yozuvida yozilgan karaim tilining Qrim lahjasidagi matnlardir. Bu holda, manba sifatida Radlov tomonidan to'plangan va dastlab 1888 yilda, keyin esa 1896 yilda nashr etilgan Qrimda yashovchi karaim turklarining folklor namunalari to'plami ishlatilgan.

Таянч сўз ва ибoралар: *Ibroniy yozuvi, Karaim turklari, Karaim tili, Qrim lahjasi, fonema, grafema, unli, undosh.*

Аннотация. *Караимский турецкий язык, относящийся к кыпчакской группе тюркских языков, включён в список «исчезающих тюркских языков». В настоящее время, ввиду малочисленности носителей этого языка, а также их расселения в разных частях света, изучение современного караимского языка с лингвистической точки зрения представляет значительные трудности. Слово «караим», которое изначально было названием секты, впоследствии было дано носителям этой религии, и поскольку она состояла в основном из турок, то и тех, кто исповедовал эту религию, стали называть также турками-караимами.*

Основным источником лингвистического изучения караимского языка является не устная речь, а письменные тексты. Исторически караимы использовали для записи своих текстов три различных алфавита: еврейский, кириллический и латинский. Среди этих алфавитов еврейский наименее совместим с тюркской фонетической системой, поскольку в нём отсутствует достаточное количество графических знаков для обозначения гласных и некоторых согласных. По этой причине изучение караимских текстов, написанных этим алфавитом, одновременно и сложно, и крайне необходимо. В связи с отсутствием в этом алфавите графических знаков для обозначения некоторых звуков, особенно гласных, караимы внесли в него определённые изменения, адаптировав его к тюркской фонетической системе. В связи с этим возникают определённые трудности при чтении, транскрипции и транслитерации текстов, написанных этим алфавитом. Только тексты, относящиеся к крымскому диалекту, были записаны еврейским письмом.

В статье исследуются функциональные свойства графем, используемых в караимских текстах. Объектом исследования являются тексты крымского диалекта караимского языка, написанные еврейской графикой. В данном случае в качестве источника использован сборник фольклорных образцов караимских турок, проживающих в Крыму, собранный Радловым и впервые опубликованный в 1888 году, а затем в 1896 году.

Опорные слова и выражения: *Еврейская письменность, Караимские Турки, Караимский язык, Крымский диалект, фонема, графема, гласный, согласный.*

İntroduction. Although the main subject of the study is the functional indicators of graphemes used in manuscripts belonging to the Karaim Turks living in Crimea, it is appropriate to talk about the different phonetic features that manifest themselves in all three dialects of the Karaim language in order to form a general idea of the general phonetic structure of this language. It is difficult to give accurate information about the number of speakers of the Karaim language, which has three dialects (Crimean, Trakai, Halych). Of these, the Crimean dialect is considered a dead dialect because there are no speakers. According to the information provided by A. Öztürk in 2015, the number of speakers of the Trakai dialect is 30, and the number of speakers of the Halych dialect is only 2.[1] The main obstacle to research on the Karaim language is the small number of speakers. The Crimean dialect of Karaim is more similar to Crimean Tatar than the other two dialects, and for this reason, many researchers consider it to belong to the same group as Crimean Tatar in the classification of Turkic languages.[2]

Only in the case of the use of the phoneme |y| at the beginning of a word, different aspects emerge in all three dialects of the Karaim language.The consonant y, which is found at the beginning of some words in Turkic languages is dropped in Karaim as well as in Azerbaijani (уряк (heart), игит (brave), илан (snake) il (year), etc.).[3] In other Kipchak group Turkic languages, this point manifests

[1] *Abdulkadir Öztürk, Karay yazı dili. Littera Turca Journal of Turkish Language and Literature Volume:1, Issue: 1, Summer 2015, p.62.* https://doi.org/10.20322/lt.13023

[2] Shinji Ido, Tulay Chulha, Vowel Letters And Signs Used In A Manuscript Held In The National Karay Library, 2017, p. 43

[3] Baskakova N.A., Zayonchkovskoqo A., S.M. Shapshala, Karaimsko-russko-pol'skiy slovar. –Moskva, 1974, 687 p.

itself differently. For example, while the sound |y| is preserved in Tatar and Bashkir, it is interesting that it is dropped in Karaim.

Let's look at the use of the phoneme *y* at the beginning of a word in these languages based on examples: jol (Kazakh), col (Karakalpak), yol (Nogai), yol (Halych) *way*; jüz (Kazakh), cüz (Karakalpak), yüz (Nogai), yüz (Halych) *face*. In all three dialects of the Karaim language, the position of the phoneme |y| at the beginning of a word is manifested in three ways:

a) Cases where the phoneme |y| is preserved at the beginning of a word: yürek (Crimea d.), yürak (Trakai d.), yirek (Halych d.) *heart* ; yip (Crimea d, Halych d.) *cord*.

b) |y| at the beginning of the word cases where the phoneme falls: öksek (Crimea d.) *high*; ezik *ring* (Halych d.); ik (Halych d.) *load*; iz (Halych d.) *hundred* (100).

c) In the Crimean and Trakai dialects, the phoneme |y| is very rarely replaced by the phoneme |c| at the beginning of a word. In these dialects, variants of the same word with both |y| and |c| phonemes are found. In the Halych dialect, the phoneme |y| used in this position is sometimes preserved, and in some cases it is dropped. For example: yigit (Crimean d.), cigit/igit (Trakai d.), igit (Hal. d.) *brave*.

Serious phonetic differences are also evident between the dialects of the Karaim language:

1. The labialized vowels *ö, ü* present in the Trakai dialect are not found in the Halych dialect, and the vowels *e (ə)* and *i* are used instead. For example, kördüm (Trak.)/ kerdim (Gal.) *saw*, üç (Trak.)/ iç (Hal.) *three*, öldü (Trak.)/ eldi (Hal.) *died*, kül (Trak.)/ kil (Hal.) *to smile*, etc.

2. The suffix *–yə (yä)* used in the Trakai dialect corresponds to the suffix *-e* in the Galician dialect. For example, özümyä (Trak.)/ özüme (Hal.) *to myself*, mendyän (Trak.)/ menden (Hal.) *from me*, etc.

3. The sounds |ş|, |ç| used in the Crimean and Trakai dialect correspond to |s|, |ts|, |dz| in the Halych dialect. For example, kişi~kisi *person*, başla~basla *start*; balçıx~baltsıx *mud*, çeçek~tsetsek *flower*, etc.[1]

4. The velar *ķ (q)*, historically present in the Karaim language, was replaced by *k* in all positions in the Halych dialect, and by *x* in the Trakai dialect: barmak~barmax *finger*, aksak~aksax *lame*, etc.

5. The historically existing *ŋ (silent nun)* has also lost its function in the Karaim language, and in the Halych dialect it has been replaced by the usual |n| sound, and in the Trakai dialect it has been replaced by |y| sound: sana~saya *to you*, ayttınız~ayıttıyız *you said*, bardın~bardıy *you left*, etc.

Also, the sounds |q| and |x|, which are not found in some Turkic languages, are present in Karaim. At the same time, although the consonants ı and ğ at the beginning of words are not found in many Turkic languages, they are observed in Karaim: ğıçırtı (creak), ğadar (destiny), ğanimet (loot), ğam (grief), ıncı (pearl), ınan (believe), ıştah (ıştah), etc. Both variants of the d-t sound substitution found at the beginning of words in Turkic languages are used in Karaim: *toz/doz, taş/daş, tök/dök, tüz/düz, tüş/düş, türlü/dürlü, tut/dut, töş/döş, töşek/döşek, ton/don, torba/dorba, tolu/dolu, temir/demir,* etc. The same phenomenon applies to the g-k sound substitution.: *göter/köter, göz/köz, göster/köster, göm/köm, gör/kör, gül/kül, güs/küs, gümüş/kümüş, güz/küz, gümüş/kümüş, güz/küz, güneş/küneş*, etc.

[1] Tülay Çulha, Karaycanın Karşılaştırmalı grameri: Fonetik-morfoloji (Kırım ağzı esasında), Ankara: Türk Dil Kurumu, 2019, s.72.

Purpose and objectives: The purpose of the study is to study the functional properties of graphemes used in texts written in Hebrew script. The main goal of this work is to eliminate and solve problems that arise during transcription in order to examine the texts recorded with this graphic from a linguistic perspective. In this regard, it was considered appropriate to carry out the following tasks:

- Identify graphic symbols that indicate vowels depending on their position in texts written with this graphic;
- To explore the articulation plan of vowels formed by the combination of two symbols;
- Learn the distinguishing features of graphemes that represent both vowels and consonants;
-To determine the spelling form of phonemes that do not exist in Hebrew script in manuscripts belonging to the Crimean dialect;
- To investigate the use of graphic signs denoting some consonants in the Karaim language, in contrast to the language to which they belong.

Methods. The article uses a descriptive method to present graphic indicators of vowel and consonant phonemes based on examples. Also, using a comparative method, similar and different features of the same grapheme in Hebrew and Karaite languages are shown. In addition, the article reflects the slightly different spelling forms of graphemes that exist to represent some phonemes that are not in Hebrew but are found in Karaite.

Results and reviews: Crimean-Karaim alphabet. The Hebrew alphabet originates from the Aramaic alphabet, one of the ancient Semitic alphabets. The Hebrew alphabet, written from right to left, consists of 22 consonants. To indicate vowels, certain signs - nikkuds - are placed above and below the consonant letters. That is, nikkuds placed above and below letters such as alef-א, vav-ו, yod-י, ayn-ע can indicate vowel sounds. The spelling of the five consonants used at the end of a word - כ/ך, נ/ן, פ/ף, מ/ם, צ/ץ - is different. This alphabet was also used as a basis in the Karaite texts with Hebrew letters, with certain modifications. The table below gives the Karaite equivalents of the Hebrew letters used by the Crimean Karaites, taking into account the manuscripts:

Letter	Transcription
א	a, e, ø[1]
ב	b
בַ	v
ג	q, ñ
ג	g
ג̆	ğ
ג̃	ñ
ג׳	c
ד	d
ה	h, ø[2]
ו	u, o, ü, ö, v
וו	v
ז	z

[1] *The letter א in some cases does not represent any sound.*

[2] *The letter ה in some cases does not represent any sound.*

ח	ḥ (x)
ט	t
י	ı, i, e, y
יי	y
כ,ך	k
כּ	x
ל	l
מ,ם	m
נ,ן	n
ס	s
ע	ø[1]
פ,ף	p
פּ	f
צ,ץ	ç
ק	q
ר	r
ש	ş, s

The Karaims used this alphabet both in writing their religious texts and their own folklore texts. If, when approaching religious texts from a linguistic standpoint, a large number of features characteristic of foreign languages appear, then in folklore texts, the peculiarities of the Karaim language, namely Kipchak, as well as Oghuz elements, predominate. These differences that appear in both types of texts manifest themselves at the phonetic, lexical, and grammatical (morphology, syntax) levels. From this point of view, it is more expedient to study folklore texts in this direction in order to reveal the features characteristic of the Karaim language, as well as to reveal and solve the difficulties that arise during the transliteration and transcription of texts.

The examples in the article were selected from the source "Proben de Volkslitteratur der türkischen Stämme" (Samples of folk literature from the Turkic tribes), which is included in the VII volume of the language materials collected by V. Radlov during the years 1860-1870.[2] 518 pages of this volume are composed of texts written in Hebrew and 408 pages are written in Cyrillic script. The part written in Hebrew script is listed under the title *Yanı Qırımdağı Qaraimler arasında qullanılan masallar, hikayetler, zarpu meseller, tapmacalar, tekerlemeler, ve türkülerdir* "Tales, stories, riddles, riddles, rhymes, and folk songs used among the Karaims of the Crimea". This volume was transcribed

[1] *The letter ע in many cases does not represent any sound.*

[2] Radloff, Wilhelm. Proben der Volkslitteratur der Nördlichen Türkischen Stämme, Theil VII, St.Petersburg, 1896.

into Latin script in 2010 by Tulay Chulha, a researcher of the Karaim language.[1] Selected examples are given in both Hebrew and Latin scripts.

Vowels. In the Crimean dialect of the Karaite language, these vowels are used: a, e, o, ö, u, ü, ı, i. In Hebrew script, there is no special graphic sign to denote only vowel sounds. In these texts, some graphemes that are indicators of consonant sounds, in addition to performing their main functions, can also denote some vowel sounds. In Hebrew script, graphemes such as vav (**ו**) and yod (**'**) can denote both consonant and vowel sounds depending on their position. The graphemes yod (**יי**) and vav (**וו**) denote consonant sounds when used in pairs in the middle and at the end of a word. The graphemes aleph (**א**) and ayn (**ע**) act only as indicators of vowel sounds. Sometimes, however, no graphic sign is used at all to denote vowel sounds, and in this case, the vowel letter must be guessed according to the context of the text.

We can see in the examples, including the aleph (**א**), the graphic signs that indicate both short and long vowels, and the different features that emerge within the text.

At the beginning of a word, the aleph (**א**) is used alone as a written indicator of the sound |a|:

אגלאטמא מוולאם קולוני דושמנלרים גולמאסין.

Ağlatma Mevlam qulunı düşmanlarım gülmesin (213 türkü)

The aleph ayn (**עא**) is used with the long |a| sound at the beginning of a word:

גצמז אולדים **עא**יי אפנדים שו קפוגיג אוגיגדן : אולדור בני קוטולאיים שו עלימיג דילינדן.

Geçmez oldım **a**y efendim şu qapunıŋ öŋinden; Öldür beni qurtulayım şu alemiŋ dilinden. (79.Türkü)

In very rare cases, it is recorded that ayn (**ע**) grapheme is used alone to represent the sound |a| at the beginning of a word:

איל **ע**לימי זים אידרכן אמן אמן ציזאמי בולדום.

El **a**lemi zım ederken aman aman cezamı buldum (166 türkü)

על איסטונא יישיל גיימיש אמן אמן קרא בגלאסין.

Al üstüne yeşil giymiş aman aman qara bağlasın (166 türkü)

In the middle of a word, the aleph (**א**) is used singly as an expression for the vowel |a|:

ק**א**ביל אולסא ויריר אידים סנא אומרים יאריסין יאריסין.

Q**a**bil olsa verir edim sana ömrim yarısın yarısın (209 türkü)

In some cases, no sign is used to indicate the vowel *a* in the middle of a word:

יאשא סולטן מהמוד יאשא; הוכומיג גיצר דגא דשא.

Yaşa sult**a**n M**a**hmud yaşa, hökümiŋ geçer d**a**ğa, d**a**şa (93 türkü)

As mentioned, a special system of punctuation called nekudot is used to indicate vowel sounds in Hebrew. We also see this method used in some cases in Karaite texts written in Hebrew script. Sometimes, in Karaite religious texts with Hebrew script, a nekudot called a patakh is placed under the aleph sign to represent the sound |a| at the beginning of a word (**א**ַ).

At the beginning of a word, the aleph yod (**אי**) together with the graphic symbol also acts as an indicator of the phoneme |e|:

אילבידא דיר דלי גוניל **אי**לבידא היי.

Elveda der deli gönil **e**lveda hey (163 türkü)

In some words, the graphemes ayn (**ע**) and yod (**עי**) are used together to represent the sound |e| at the beginning of the word:

[1] Radloff, Wilhelm. Kuzey Türk Boylarının Halk Edebiyyatından Örnekler, Haz: Tülay Çulha, TDAD 57, İstanbul, 2010: Kitap Matbaası. 916 p.

בש יאסטיק דא **ע**ילא גוזלר יוקודא היי היי.

Baş yastıqda **e**la gözler yuquda hey hey (163 türkü)

In rare cases, the grapheme yod (**י**) in the middle of a word acts as an indicator of the vowel *e* in the singular:

דדילר כי פירהט אילן שיריני

אונלר דא סבמיש לר בירי ביריני.

Dediler ki F**e**rhat ilen Şirini

Onlar da sevmişler biri birini (68 kerem)

In these texts, the aleph (**א**) sign is sometimes used to indicate the sound |e| in the middle of a word, but in most cases no sign is placed:

טזיל**א**נדי מגארימיז ארטמאדא דרדים בנים.

Tazel**e**ndi mecarımız artmada derdim benim (118 türkü)

Here, only the first |e| sound in the word 'tazelendi*'* is represented by the graphic symbol yod (**י**), and the second |e| sound is represented by the grapheme aleph (**א**). In other words, no symbol is used to represent the |e| sound.

At the end of a word, the graphemes yod (**י**) and alef (**א**) are sometimes used alone to indicate the sound |e|.

- The cases where yod (**י**) is used at the end of a word:

ני קצרסין בנדן בן אדם יימם.

N**e** qaçarsın benden ben adam yemem. (43 türkü)

- The cases where the aleph (**א**) is used at the end of a word:

אקיללי אולן אדם נפס**א** אוייארמי.

Aqıllı olan adam nefs**e** uyar mı (42 qoşma)

The graphemes aleph (**א**) and yod (**י**) are also used together to indicate the vowel *i* at the beginning of a word:

איסטאר **אי**סג בני אולדור אפנדים.

İster **i**seŋ beni öldür efendim (92 gevheri)

At the end of a word and in the middle of a word, the grapheme yod (**י**) appears alone in the position of the vowel *i*:

ביטדועא אידמם דילבר אללהא סלדים סני.

Betdua edmem d**i**lber Allaha saldım sen**i** (108 divane)

It is noted that the vowel *ı* in the middle and at the end of a word is expressed with the grapheme yod (**י**):

ציקטים בקטים יילדי**ז** פוייראז איסאייור אמן אמן.

Çı**q**t**ı**m baqt**ı**m yıld**ı**z poyraz eseyir aman aman (51 türkü)

The graphemes aleph (**א**) and vav (**ו**) are used together to indicate the vowel *u* at the beginning of a word:

אוסטאסינא כיזמט אידן יול ביליר אירכן ביליר.

Ustasına xizmet eden yol bilir erqan bilir (102 Aşıq Ömer)

In the middle and at the end of a word, vav (**ו**) is used alone to represent the vowel *u*:

שונדא ביר אה**ו** בקישלים טנימי טנדן סוכר.

Şu**n**da bir ah**u** baqışlım tenimi tenden söker (99 türkü)

In very rare cases, the graphemes vav (**ו**) and ayn (**ע**) are used together to represent the vowel *u* in the middle of a word:

כוכטא מלכלר דו**ע**אסי יירדא אינסאן דליסי.

Kökte melekler d**u**ası, yerde insan delisi (94 divane)

The vowel *ü* at the beginning of a word is expressed by using the graphemes alef (**א**) and vav (**ו**) together, as in the vowel *u*:

הנוז גלמיש און **אוף** און דורט יאשינא.

Henüz gelmiş on **ü**ç on dört yaşına (66 türkü)

In the middle of a word, vav (**ו**) is used alone to indicate the vowel ü:

יוזונא מאייל אולנלי אולמושים דיבאנאסי.

Y**üzü**ne mayil olanlı olmuşım divanesi (94 divane)

In the texts, the graphemes alef (**א**) and vav (**ו**) together act as indicators of the vowel *o* at the beginning of a word:

אול יאר ביזא נזלאנא ואך גולים אמן.

Ol yar bize nazlana vah gülim aman (95 türkü)

In the middle of a word, vav (**ו**) is used alone to indicate that vowel:

דולאנא דולאנא יאברים רקיב אלדי יולומי.

D**o**lana d**o**lana yavrım rakib aldı y**o**lumı (40 türkü)

The graphemes aleph (**א**) and vav (**ו**) also act as the demonstrative of the vowel *ö* at the beginning of a word:

אוטמא ככליכ **או**טמא יאוורים אמן אמן בו דרט בנא ייריישיר.

Ötme keklik **ö**tme yavrım aman aman bu dert bana yerişir (131 türkü)

The vowel *ö* in the middle of a word is expressed with the help of the grapheme vav (**ו**):

כובן דושכטא יאטאלמם אולמוש גיג׳א יאריסי.

K**ö**ben d**ö**şekte yatalmam olmuş gece yarısı (105 divane)

Consonants. In these texts, some graphemes represent two or more sounds. This is because some sounds in Turkic languages do not have a corresponding Hebrew script. For example, sounds such as |c|, |ç|, |ŋ|, |g|, |ğ| are not used in Hebrew, so there are no graphemes representing them. Therefore, the existing graphemes are used with slight modifications to represent these 5 sounds in the texts.

The Hebrew script uses the grapheme beyt (**ב**) to represent the consonant b, which represents the same sound. This grapheme also appears as the expression for the consonant v (**בּ**) when written with a line over it. In Hebrew, these sounds are distinguished by being dotted and undotted (**בּ,ב**). This form of writing is found in Karaite texts with Hebrew script.

בילביליג פ־רייאדא גלמיש אמן אמן דללרינא קונרים.

Bilbiliŋ feryada gelmiş aman aman dallarına qonarım (132 türkü)

אילב̇ידא דיר דלי גוניל אילב̇ידא היי.

El**v**eda der deli gönil el**v**eda hey (163 türkü)

In these texts, the sound |v| is often expressed using the grapheme vav (**ו**) , which is present in Hebrew script.

וארמי אשיק בנגילאיין אפנדים אמן.

Varmı aşıq bencileyin efendim aman (81 türkü)

In these texts, we witness the use of the double vav (**וו**) to indicate the consonant *v* in some words.

בן בוגון מגנון אולמישים: סינאם **זוו**דאייא סלמישים.

Ben bu gün mecnun olmışım, sinem ze**v**daya salmışım (53 dağıstanlı)

The gimel (**ג**), which represents the sound |q| in Hebrew script, is observed in Karaite texts as an expression of many sounds. In these texts, the gimel also appears as an indicator of the deaf sounds

nun/ ŋ (ג̇), ğ (ג̆), c (ג׳), g (ג) with the help of various signs:

- The gimel (ג) symbol is in place of the silent nun //ŋ:

ואר סבדיגים אציק אולסון יוללריג אפˆנדים יוללריג.

Var sevdigim açıq olsun yollarıŋ efendim yollarıŋ (67 türkü)

- The gimel (ג) sign is in place of the consonant *c*:

בילביל לר אוטושיפ גול אינג׳ינמאסין.

Bilbiller ötüşip gül in**c**inmesin (135 qoşma)

- The gimel (ג) symbol is used in place of the consonant *g*:

גל סניג אילן הכיפאיי יוז סוראלים אכימיז

Gel seniŋ ilen haki-payi yüz sürelim ekimiz (196 türkü)

-The gimel (ג) sign is in place of the consonant *ğ*:

גנא יישיללנדי דגלר, יוזים גולר קלבים אגלאר.

Gene yeşillendi da**ğ**lar, yüzim güler qalbim a**ğ**lar. (244 türkü)

Interestingly, the symbol gimel (ג), which corresponds to the sound |q| in Hebrew, does not represent this sound in Karaite texts. In the texts, the sound |q| is represented by the grapheme kof (ק), which corresponds to the sound |k| in Hebrew:

דילבר יאנקיגדא הקקים ואר בנים.

Dilber yana**q**ıŋda ha**qq**ım var benim. (230 gevheri)

In these texts, the kaf (כ) sign used to represent the sound |k| also acts as an indicator of the sound |x|. In this case, a small line is placed above this grapheme:

- The kaf (כ) symbol stands for the sound |k|:

בנא אוגוט וירמאייג אגאלר אוגוט כאר אידמז.

Bana ögüt vermeyiŋ ağalar ögüt **k**ar edmez. (263 türkü)

- The sign kaf (כ̄) is in place of the sound |x|:

היי כ̄ובלר שימדי ציקר אוקוני יאייא אטר

Hey **x**ublar şimdi çıqar oqunı yaya atar. (76 türkü)

The grapheme kaf (כ) is written in a different form at the end of a word in Hebrew (ך). However, in these texts, the grapheme kaf (כ), which acts as a marker for the sounds |k| and |x| used at the end of a word, is recorded as it is at the beginning and in the middle of a word. The variant of the grapheme kaf (כ) used at the end of a word is recorded in place of the sound |h|:

אראדים בולמאדים מיסליג גיהאן איצין דא ואך.

Aradım bulamadım misliŋ cihan içinde va**h** (82 türkü)

The consonant *h* used at the beginning and end of a word is indicated by the grapheme he (ה):

הק סנא אומורלר וירסין; סבדיגיגים בויינוני אגסין.

Haq sana ömürler versin; sevdigim boynunı egsin (96 türkü)

In texts, the Hebrew script uses the symbol tsadi (צ) to represent the consonant *ç* :

בן אללהטן צוק איסטארים גצינאמם אז אילא.

Ben Allahtan **ç**oq isterim ge**ç**inemem az ile (136 türkü).

Like some graphic symbols in Hebrew script, tsadi is written differently at the end of a word (ץ). Karaite texts also use another variant of the tsadi symbol (ץ) to indicate the consonant צ at the end of a word:

בילמאלי אימיש דויימלי אימיש קוץ ייגיט מיידאן דא סילהלי דורמאלי אמיש.

Bilmeli emiş duymalı emiş qo**ç** yigit meydanda silahlı durmalı emiş (198 türkü)

In the texts, the grapheme dalet (ד) is recorded as an indicator of the consonant *d*:

דג בשין דא יאגן קרלר אמן אמן.

Dağ başın**d**a yağan qarlar aman aman (81 türkü)

In the texts, the grapheme lamed (**ל**) takes the place of the consonant *l*:

או**ל** בנים אפנדים הם אכי גוזום.

O**l** benim efendim hem eki gözüm (206 türkü)

The written representation of the sound |m| in the text is the grapheme mem (**מ**). This grapheme is used in a different form at the end of words in Karaite texts, as in Hebrew (**ם**).

בן בוגון יארי**מי** גורדו**ם** גן טזילאגדי

אצילדי **מ**ור **מ**לוושא גול טזילאנדי.

Ben bugin yari**m**i gördü**m** can tazelendi

Açıldı **m**or **m**elevşe gül tazelendi (138 türkü).

In Hebrew script, the grapheme that represents the consonant *n*, like the consonant *m*, is written differently at the end of a word. This is also true for Karaite texts with Hebrew script. In these texts, the grapheme that represents the consonant *n* is nun (**נ**).

כוכט**ן** אוצר בולוכ בולוכ טור**נ**אלר

קו**נן** דללרי**נ**א קורב**ן** אולדוגים.

Kökte**n** uçar bölük bölük tur**n**alar

Qo**na**n dalları**n**a qurba**n** olduğum. (150 Xurşud begi)

In the texts, it is noted that the consonant *s* is most often written using the grapheme samex (**ס**):

סבה אול**ס**א בילביל **ס**וולאר אמן אמן.

Sabah ol**s**a bilbil **s**evler aman aman (161 türkü)

In addition, it is also observed that in very rare cases in texts the consonant *s* is expressed by the grapheme sin (**ש**):

מאייל אולדום מג׳לי**ש**יגדא בן ביר קשי קראייא.

Mayil oldum meclis**i**nde ben bir qaşı qaraya (162 türkü)

The reason for this is explained by the palatalization of the consonant *s* used at the end of the word as a result of the influence of the syllable that begins with the vowel *i* after it.[1] Although this idea has been confirmed in the example given above, the fact that the same word (at the assembly - מג׳לישיגדא ; מגלִיש דא) is written with the sin (**ש**) grapheme in a different position gives reason to look at the issue from a different perspective:

הר מגלי**ש** דא עא יוסמאמ גורסם סני.

Her meclis**d**e a a yosmam görsem seni. (130 türkü)

The word "meclis" used in the examples is derived from the Arabic word "**مجلس**", which means "gathering place" (shura).[2] If we look at the form in which the word is written in the root language, we see that in Arabic, the consonant *s* is not represented by the grapheme sad (**ص**), but by the grapheme sin (**س**).

The same grapheme (**ש**) is also used to represent the |s| (sh) sound. In Hebrew script, when this grapheme represents the sound |**ש**|, a dot is placed on the right side of the grapheme, and when it represents the sound |s|, a dot is placed on the left side of the grapheme. In this manuscript, unlike in Hebrew, dots are not used to separate the graphemes *shin* and *sin*.

היפ יי**ש**יל לר גייאן אשנאם אמן אמן סנא עללר יארא**ש**יר.

[1] Michael Nemeth, (2014). A Historical Phonology Of Western Karaim, Alveolars And Front Labials In The South-Western Dialect, Studia Linguistica Universitatis Jagellonicae Cracoviensis 131. Kraków: pp.247–267. doi:10.4467/20834624SL.14.014.2322

[2] https://www.nisanyansozluk.com/kelime/meclis

Hep yeşiller giyen aşnam aman aman sana allar yaraşır. (132 türkü)

One of the symbols in Hebrew script that represents different phonemes with a dot is the grapheme pe (פּ). This graphic symbol is used to represent the consonant *p* with a dot, and *f* without a dot. A similar writing style is also valid for Karaite texts written in Hebrew script. In these texts, the distinguishing mark separating the consonant *f* from the consonant *p* is a small line.

פּנג׳יראסי אוכסכ יירא בקילמז .

Penceresi öksek yere baqılmaz baqılmaz (139 türkü)

פֿלֶכ בני סיבדיגים דן איירדי ג׳נים.

Felek beni sevdigimden ayırdı canım (139 türkü)

The grapheme yod (י), which is used to indicate vowel sounds in texts, also represents the consonant *y*. It is used singly (י) at the beginning of a word, and double (יי) in the middle and at the end of a word.

The consonant *y* at the beginning of a word:

יאראדנים סן ויר בנים קיסמאטים.

Yaradanım sen ver benim qısmetim (84 qoşma)

The consonant *y* in the middle and at the end of a word:

סיירי אייֶלא אויינון אול אפֿטאביג.

Se**y**ri e**y**le o**y**ınun ol afitabıŋ. (74 türkü)

קלדירמא גוז יאשים סילסילאסינא היי היי.

Qaldırma göz yaşım silsilesine he**y** he**y** (84 qoşma)

In texts, the consonant t is written using the grapheme tet (ט), which is one of the indicators of the sound |t| in Hebrew script.

ציק אוטור טכטיג דא סולופאט אייֶלא.

Çıq o**t**ur **t**ax**t**ıŋda sulufa**t** eyle (55 qoşma)

In the Hebrew script, the written representation of the sound |z| is the graphic symbol called zayn (ז). In Karaite texts written with this script, the same grapheme is used to represent this sound:

זלים לר אלין דן יאנר יורגים.

Zalimler elinden yanar yüregim (84 qoşma)

Conclusion: Although the Crimean dialect of the Karaim language is considered a dead dialect due to the lack of native speakers, studying this dialect from a linguistic perspective is an extremely important issue for Turkological research. In research conducted in this direction, the fact that texts are written in Hebrew script, unlike other Turkic languages, creates a number of difficulties.

Due to the lack of vowel symbols in the Hebrew script, as well as its incompatibility with the Turkish phonetic system, the Karaites used this alphabet to create an alphabet that was compatible with the phonetic structure of the language. In particular, to represent vowels, some graphemes were differentiated at the beginning, middle, and end of words, and two graphemes were combined to represent a single phoneme. Minor modifications were made to the existing graphemes to represent consonants that are not found in Hebrew but are found in Karaite.

Thanks to these texts, it is possible to conduct research in such areas as identifying the unique features of the Karaim language, studying it in comparison with modern Turkic languages, as well as examining its similarities and differences with ancient Turkic elements, as well as the influence of Hebrew on the Karaim language, transcription and transliteration issues, adapting the alphabet to the Turkic phonetic system, etc.

SA'DIY "GULISTON"IDA FE'L TAKRORINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

BIBINUR MEDESHEVA
Tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya. *Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Sa'diy Sheroziy "Guliston" asarida nafaqat axloqiy-falsafiy qarashlarini, balki yuksak badiiy-uslubiy mahoratini ham namoyon etgan. "Guliston" asari nasr hamda nazm uyg'unligida yozilgan bo'lib, unda til vositalaridan maqsadli foydalanilgan. Badiiy matnda eng ko'p qo'llaniladigan stilistik vositalardan biri fe'l takrori hisoblanadi. Maqolada Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarida qo'llanilgan fe'llar takrori va ularning uslubiy xususiyatlari, fe'llar takror kelishining funksional vazifalari, badiiy-estetik ahamiyati, ta'sirchanlikni oshirishda qay darajada xizmat qilishi ochib beriladi. Shuningdek, takror stilistik vositasining lingvistik tabiati, vazifalari hamda turlari yoritiladi.*

Fe'l takrori bir xil yoki ma'nodosh fe'llarning bir gap doirasida qayta qo'llanilishi bo'lib, nutqning ta'sirchanligini oshirish, harakatning davomiyligi, ahamiyati yoki muhimligini ta'kidlashga xizmat qiladi. "Guliston" asarida fe'l takrori quyidagi vazifalarni bajaradi: ma'lum bir fe'lni ta'kidlash, urg'u berish, emotsional holatni kuchaytirish, nasihat, berilmoqchi bo'lgan fikr va xulosani mustahkamlash, ta'kidlash orqali badiiy asarning ta'sirchanligini oshirish. Tahlillar takrorning stilistik vosita sifatida muallifning so'z tanlash va qo'llash mahoratini ko'rsatish bilan birga "Guliston" asarining boqiylik sirining kashf qilinmagan qirralarini ham ochishga imkon beradi.

Asarda fe'l takrorida sodda fe'llar takrori, qo'shma fe'llar takrori, qo'shma fe'l ko'makchi qismi (fe'l qismi) takrori, prefiksli fe'lning prefiks qismi takrori, shuningdek, tovush takrori uchrashi aniqlanib, asardan olingan misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *"Guliston" asari, fe'l, takror, fe'l takrori, ekspressiv vosita, stilistik vosita, takrorlanuvchi birlik.*

Аннотация. *Выдающийся представитель классической восточной литературы Саади Ширози в произведении «Гулистон» продемонстрировал не только свои этико-философские взгляды, но и высокое художественно-стилистическое мастерство. Произведение «Гулистон» написано в гармонии прозы и поэзии, в нём прослеживается целесообразное использование языковых средств. Одним из наиболее часто применяемых стилистических средств в художественном тексте является глагольный повтор. В статье раскрываются особенности повтора глаголов, использованных в произведении Саади Ширози «Гулистон», их стилистические характеристики, функциональные задачи, художественно-эстетическая значимость и роль в усилении экспрессивности текста. Кроме того, освещаются лингвистическая природа, функции и виды повтора как стилистического средства. Глагольный повтор представляет собой повторное использование идентичных или синонимичных глаголов в рамках одного предложения и служит для повышения экспрессивности речи, акцентирования внимания на длительности, значимости или важности действия. В произведении «Гулистан» глагольный повтор выполняет следующие функции: логическое выделение определенного глагола, акцентирование, усиление эмоционального состояния, передача наставления, подкрепление излагаемой мысли и вывода, а также повышение художественной выразительности произведения посредством эмфазы. По нашему мнению, повтор как стилистическое средство не только позволяет по-новому проанализировать мастерство автора в выборе и употреблении лексики, в частности со стилистической точки зрения, но и способствует раскрытию еще не изученных граней секрета бессмертия произведения «Гулистан». В работе на основе примеров из текста проанализированы такие виды повторов, как повтор простых глаголов, сложных глаголов, вспомогательного компонента (глагольной части) сложных*

глаголов, префиксальной части префиксальных глаголов, а также случаи звукового повтора.

Ключевые слова: *произведение «Гулистон», глагол, повтор, глагольный повтор, экспрессивное средство, стилистическое средство, повторяющаяся единица.*

Annotation. *Saadi Shirozi, a prominent representative of classical Oriental literature, manifested not only his ethical and philosophical perspectives but also his profound artistic and stylistic proficiency in the work 'Guliston'. Composed in a synthesis of prose and poetry, 'Guliston' is characterized by the purposeful utilization of linguistic devices. One of the most frequently employed stylistic devices in literary discourse is verbal repetition. This article elucidates the repetition of verbs in Saadi Shirozi's 'Guliston', their stylistic attributes, the functional roles of verb repetition, its artistic-aesthetic significance, and the extent to which it enhances expressiveness. Furthermore, the linguistic nature, functions, and types of repetition as a stylistic device are examined.*

Verb repetition refers to the iterative use of identical or synonymous verbs within the scope of a single sentence, serving to enhance the expressiveness of speech and emphasize the continuity, significance, or importance of an action. In 'Guliston', verb repetition performs the following functions: emphasizing a specific verb, providing stress, intensifying emotional states, imparting moral counsel, reinforcing the intended idea and conclusion, and increasing the artistic impact of the work through emphasis. As a stylistic device, repetition, in our view, facilitates a re-examination of the author's skill in word selection and usage from a stylistic perspective, while simultaneously contributing to the revelation of hitherto unexplored dimensions of the enduring legacy of 'Guliston'.

The study identifies the occurrence of simple verb repetition, compound verb repetition, repetition of the auxiliary component (verb part) of compound verbs, and repetition of the prefix in prefixed verbs, as well as phonetic repetition; these instances are analyzed using illustrative examples drawn from the work.

Keywords: *'Guliston', verb, repetition, verb repetition, expressive device, stylistic device, repetitive unit.*

Kirish. Ma'lumki, stilistik vositalar tushunchasi va uning turlarini o'rganish ko'p yillar mobaynida dolzarb masalalardan biri sifatida qaralgan. Til tabiiy va o'zgaruvchan hodisa bo'lganligi tufayli yildan yilga stilistikaga yangicha qarashlar, turli mulohazalar paydo bo'lmoqda. Tilning leksik sistemasi murakkab jarayonlardan sanaladi. Badiiy asarning ifodaliligi, odatda, kitobxonning diqqatini tortuvchi va qiziqishini uyg'otuvchi stilistik vositalardan foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Badiiy matnlarda uchrovchi katta chastotali va ahamiyatli til hodisalaridan biri takrordir. Badiiy asarlarning stilistik vositasi sifatida takror, bizningcha, yetakchi matn kategoriyalaridan bo'lishi kerak. Chunki takror badiiy matnning struktur-g'oyaviy tuzilishida ishtirok etadi. Takrorlar qo'llanilishida yuzaga keladigan qo'shimcha stilistik ma'nolar kitobxon (adresat)ga badiiy-emotsional ta'sir etishda zaruriy elementlardan hisoblanadi. Nutqda har qanday birlik ta'sirchan bo'lishi mumkinligi, lekin bu muloqot vaziyati, kontekst yoki urg'uga bog'liq bo'lishi ma'lum. A.P.Skovorodnikov takrorlarni matnda joylashuviga ko'ra o'rgangan. U leksik takrorni stilistik hodisa sifatida qarab, uning asosiy vazifalarini sanab o'tadi: matn birliklarining takrori bu birliklarning ahamiyatini oshiradi, bosh g'oyani ajratib ko'rsatadi, gapning sintaktik kengayishiga imkoniyat yaratish va harakatning intensifikatsiyasi uchun xizmat qiladi[1].

Maqsad va vazifalar. Badiiy asar tilini, yozuvchi individual uslubini tadqiq etishda stilistik vositalar muhim ahamiyatga ega. Takror stilistik vositasi so'z ustasi quroli sifatidagi ahamiyatiga birinchi bo'lib ko'hna Yunoniston notiqlari ahamiyat qaratishgan. Sa'diy Sheroziyning "Guliston"

[1] Сковородников А.П. Позиционно-лексический повтор как стилистическое явление // Филологические науки, 1984. – № 5. – С. 71-76.

asari borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilganiga qaramay, asardagi fe'llarning stilistik xususiyatlari, xususan, fe'l takrori alohida tadqiq etilmagan mavzulardan hisoblanadi. Ushbu maqolada oldiga qo'yilgan maqsad fe'llardagi takrorni "Guliston" asaridan olingan misollar yordamida tahlil qilish orqali asarning qimmatini belgilashda fe'llardagi takrorning ahamiyatini yoritish va bu orqali yozuvchining tafakkuri, dunyoqarashi, shuningdek, individual uslubini ochiqlashdan iborat. Takrorlar ijodkor badiiy niyatini amalga oshirishda maqsadga muvofiq holda har bir so'zni takrorlash vositasi ekanligini hisobga olgan holda, fe'llardagi takrorni tahlil qilish bilan yozuvchining maqsadi, berilmoqchi bo'lgan fikr, g'oyani ham aniqlash vazifalari qo'yilgan.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy, tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Erishilgan natijalar: Shayx Sa'diyning "Guliston" asari tilida takrorning deyarli barcha turlari uchraydi. Asarda takror usuli fe'l so'z turkumini ham o'z ichiga oladi: bunda ba'zida fe'llar o'zining o'zgarmas shakli bilan turlicha ma'nolarni anglatadi va fe'l turlarini aniqlashda shakl ahamiyat kasb etmay, balki asl (original) ma'noda yuzaga chiqadi, ularning har qaysisi fe'l turlaridan biri sifatida qaraladi, bunday holda fe'lning bir yoki bir necha o'xshash fe'llar ma'nolari metaforik ko'chimda bo'ladi, ba'zi hollarda esa bir fe'lning turli tuslanishida (fe'llarning turli ma'noviy shakllarida) bo'ladi. Boshqa tomondan qaralganda, fe'l takrori va takrorlanayotgan har bir fe'lning ma'nosi kitobxon fikrini asl maqsaddan chalg'itmaydi hamda bir fe'lning turli ma'nolarini qayta qo'llashga zamin yaratadi. Asarda fe'l takrorida sodda fe'llar takrori, qo'shma fe'llar takrori, qo'shma fe'l ko'makchi qismi (fe'l qismi) takrori, prefiksli fe'lning prefiks qismi takrori, shuningdek, tovush takrori ham uchradi.

"Guliston" asari ta'limiy-didaktik asarlar sirasiga kiradi. Ta'limiy asarning asosini shakl va mazmun tugalligidan tashqari ma'noning o'quvchi yoki kitobxonga yetkaza olish tashkil qiladi. Shu sababli muallif ongidagi mavjud axloqiy xabar yoki mafkuraviy g'oyani ifodalashga harakat qiladi. Muallifning ong va tafakkuri badiiy asarning shakli, tanlab olingan so'zlar, vositalar orqali namoyon bo'ladi. Fe'llarning buyruq shakli ham buyruq, ham xabar maylidagi gaplarda pand-nasihatni ifodalab, bu ta'limiy asarlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ta'limiy bayon uslubi esa takrorni talab etib, nutq holati va vaziyatga mos ravishda bo'ladi. Takror bir xillikka emas, balki ma'noning ta'kidlanishi, ajratib ko'rsatilishiga sabab bo'ladi.

* * *

Takror hodisasiga tilshunoslar turli nuqtayi nazardan qarab tahlil va tadqiq qilganlar. Jumladan, rus tilshunosligida Y.I.Ivanchikova[1], L.V.Lisochenko[2], A.V.Kiselyov[3] tilning grammatik vositasi, A.N.Kojina[4], T.G.Xazagerov, L.S.Shirina kabi olimlar stilistik va mazmuniy ahamiyatga ega vosita[5], I.V.Arnold qayta kodlashning stilistik vositasi sifatida[6] qaraganlar. Takror va uning turlari

[1] Иванчкова Е.И. Лексический повтор как экспрессивный приёмсинтактического распросьранения // Мысли о современном русском языке. – М.: Изд-во Просвещение, 1969. – С. 27-128.

[2] Лисоченко Л.В. Связанные конструкции с лексическими повторами в русском языке: дисс. …канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 1971. – 201 с.

[3] Киселёв А.Е. Лексическая повторение как грамматическое средство русского языка: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 1954. – 22 с.

[4] Кожина А.Н. Лексический повтор в стихотворных текстах А.Блока // Образное слово А.Блока. – М., 1980. – С. 56-88

[5] Хазагеров Т.Г., Ширина Л.С. Общая риторика: курс лекции. Словарь риторических приёмов. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. – 312 с.

[6] Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – М.: Просвещение, 1990. – 384 с.

tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar stilistika doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, unda takrorga rus va xorij tilshunoslarining qarashlari batafsil yoritilgan[1]. Xorij stilistikasida takrorga asar konseptini ifodalash usuli sifatida qaraladi. S.Ulman[2], U.Hendriks[3] takrorni matnning g‘oyaviy bog‘langanligi nuqtayi nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, D.Kristall, D.Deyvi[4] esa takrorni muallif individual uslubini ko‘rsatuvchi, obrazli ma’noga ega ritorik figura sifatida ta’riflaydi. Badiiy matnning kompozitsion qurilmasi uning semantik strukturasi bilan mutanosib keladi. Takrorlanayotgan, matn qurilishida ishtirok etayotgan birliklar u yoki bu o‘ziga xoslikni namoyon qilib matnning g‘oyaviy qurilishni tashkil qiladi. V.A.Malsev takrorga o‘z qarashini bildirib, uning har qanday til sathida parallelizmni hosil qilish imkoniyatni qayd etadi[5]. Olimning fikriga ko‘ra, parallelizm matn segmentlarini o‘zaro muvofiqlashtiradi, bunda simmetrik tuzilmalarni shakllantiradi, mazkur segmentlarning kompozitsion strukturasini tartibga solib, ularning g‘oyaviy jihatdan bir xilligini qayta yaratishga xizmat qiladi; takror matn chiziqliligini yengishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u kitobxonni ilgari qayta kodlashtirilgan matn segmentiga qaytib ayni vaqtdagi qayta kodlashtirilayotgan segment bilan solishtirishga majbur qiladi.

Sh.Veng takror hodisasini o‘rganar ekan, takrorning kundalik tilning barcha sohalarida mavjudligini ta’kidlab, adabiy diskursda tovush takrori bilan takrorning boshqa turlari o‘rtasida mazmuniy munosabat bo‘lishini qayd etadi[6]. P.Fredrix takrorni diskursda o‘rgangan olim bo‘lib, she’riy nutqda tovush va so‘z takrorini nutqning kompleks shakllari uzviyligida tadqiq qilgan[7]. Z.I.Xovanskaya takrorni “stilistik usul” sifatida qarab, ma’lum matn ichida turli sintaktik pozitsiyalarda qayta kelishini asoslab bergan[8].

I.R.Galperin fikriga ko‘ra, leksik takror stilistik vosita sifatida “tilda mavjud ta’sirli holatni ifodalovchi vositalarning tiplashtirilgan umumlashmasi bo‘lib, ma’lumki, nutqda ekspressiv holat darajasi va xususiyatidan kelib chiqqan holda turli xil vositalar bilan ifodalanadi”[9].

Takrorning badiiy asar matnida g‘oyaviy butunlik yaratish usuli I.V.Arnold va I.Y.Chernuxinaning ishlarida yoritilgan. So‘zning tez-tez takrorlanuvchi ma’nolari, mualliflarning ta’kidlashiga ko‘ra, so‘zlarning semantik bog‘liqligini yuzaga keltirib, matn qismlari integratsiyasini ham ta’minlaydi[10].

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tahlilida takrorning uslubiy xususiyatlari A.Shofqorov tomonidan tadqiq etilgan[11]. Stilistik usullar orasida takror badiiy matn tili tahlili borasida alohida

---

[1] Казаева Л.И. Виды и функции повторов в текстах поэтического и художественного жанров // Вестник Югорского Государственного университета, 2006. – С. 50-53.

[2] Ullmann S. Language and style // Language and Style. – Oxford: Basil Blackwell, 1966. – 270 p.

[3] Hendricks W. The notion of style // Language and Style. – Oxford: Basil Blackwell, 1980. – P. 35-54.

[4] Crystal D, Davy D. Investigating English style. – New York: Longman, 1969. – 136 p.

[5] Мальцев Г.И. Параллелизм, его связи с повтором ироль в организации художественного текста// Романское и германское языкознание. – Минск, 1976. – Вып. 6. – С. 128-140.

[6] Wang. Sh. Corpus-based approaches and discourse analysis in relation to reduplication and repetition // journal of Pragmatics. – 2005. – № 37.

[7] Friedrich, Paul. The language parallax: Linguistic relativisim and poetic inderterminacy. Austin, TX: University of Texas Press, 1986. – P. 154.

[8] Хованская З.И. Стилистика современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1984. – 396 с.

[9] Гальперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. – М: Изд-во литературы на иностранных языках, 1958. – 462 с.

[10] Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – М.: Просвещение, 1990. – 384 с.

[11] Шофқоров А. Миртемир шеъриятида такрорнинг маънавий-услубий хусусиятлари: филол. фан номз. дисс. – Тошкент, 2012. – 144 б.

tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tadqiq qilinmagan bo‘lsa-da, ba’zi ilmiy ishlar ichida stilistika va lingvopoetika nuqtayi nazaridan diqqatga sazovor ishlar qilingan. Asqad Muxtorning “Chinor” romani misolida badiiy asar tili tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotning uchinchi bobi “Asar tilida takrorning badiiy-uslubiy xususiyatlari” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida takrorning badiiy matndagi o‘rni o‘rganilgan. Bu ishda so‘z takroriga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, takrorga adabiy asar tilini obrazli, ta’sirchan, originalligini ta’minlovchi vosita sifatida qaralgan[1]. Sh.Asqarova tomonidan “Alpomish” dostoni inglizcha tarjimasining lingvistik xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy ishda takrorga stilistik vosita sifatida qaralib, dostonning inglizcha tarjimasida takrorning funksional turlari hamda ularning amaliy ahamiyati ochib berilgan[2].

I.Yormatov takror ifoda usulini badiiy takror deb nomlab, to‘rt guruhga bo‘ladi: 1) fonik shakl (fonemalarning misra ichida misralararo takroriga asoslanuvchi stilistik usullar yig‘indisi, masalan, alliteratsiya, monorim, assonans); 2) morfologik shakl (muayyan so‘zni ikki yoki undan ortiq qo‘llash natijasida paydo bo‘luvchi usullar – morfologik anafora, morfologik epifora, dislokatsion epifora, anadiplosis, epanalepsis, simploka kabi); 3) sintaktik shakl (tizma matnda so‘z birikmasi va jumlalarning takrorlanib kelishiga asoslanuvchi usullar – pleonazm, tavtologiya va boshqalar); 4) logik tekstual (qahramonlar va voqealar tasvirida bir fikrning turli shaklda takror ifoda etilishiga asoslangan stilistik usullar – retardatsiya, kontaminatsiya, polisindeton singari)[3].

G.Jumanazarova takrorning badiiy asardagi ahamiyatini qayd etib, shunday yozadi: “Matn yoki uning parchasi bir butun holda saqlanishi, uning tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazilishida takrorlar muhim aloqa vazifasini bajaradigan yopiq tizimdir. Mazkur tizimning ishlash mexanizmi ham g‘oyat o‘ziga xosdir. Avvalo, matn shakllantirilishida ishlaydigan bu tizim ijro jarayonini (tushunilishini) ham qulaylashtiradi va bu uning keyingi vazifasi hisoblanadi” [4].

Ko‘rinadiki, badiiy asar tilida takror stilistik vosita sifatida asar qurilishi va yaxlitligi, so‘zlarning ma’no jihatidan bog‘lanishini ta’minlovchi, asarning hissiy ta’sirchanligini oshiruvchi unsurlardan biri sanaladi. Badiiy asarlarni takror stilistik vositasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Badiiy matnda takror uning mazmuniy va musiqiy butunligini ta’minlovchi vosita bo‘lib, alohida badiiy-estetik vazifa bajarishga xizmat qiladi.

Sa’diy Sheroziy “Guliston” asari tilining uslubiy xususiyatlaridan biri takror bo‘lib, muallif o‘zi tasvirlayotgan holat, voqea davomida kitobxonning diqqatini tortish, badiiyatini oshirish uchun tovush, qo‘shimcha, so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni takrorlaydi. Bu esa badiiy matnning ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi, ular vositasida kitobxon yozuvchining badiiy maqsadini oson anglaydi. Tilshunoslar takrorning quyidagi turlarini qayd etib o‘tishgan: 1) til sathlariga ko‘ra: tovushlar takrori, so‘z takrori, gaplar takrori; 2) takrorlarning qo‘llanilish o‘rniga ko‘ra: gorizontal, vertikal; 3) takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga ko‘ra: ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe’l takrori; 4) sintaktik tabiatiga ko‘ra: so‘z birikmasi takrori, gap takrori; 5) joylashuv o‘rni va oradagi masofaga ko‘ra: kontakt – yaqin o‘rinli takror, distant – uzoq

[1] Norova Sh.B. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati (“Chinor” romani misolida): Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 60 b.

[2] Asqarova Sh. “Alpomish” dostoni inglizcha tarjimasining lingvistik xususiyatlari: Filol. fan.d-ri (DSc) … diss. – Toshkent, 2025. – 254 b.

[3] Ёрматов И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси бадиияти: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 260 б.

[4] Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 209 б.

o‘rinli takror[1]. Boshqa manbada esa takrorning turlari quyidagicha tasniflanadi: 1) takrorlanuvchi til birliklarining xususiyatiga ko‘ra: tovush takrori, morfema takrori, so‘z takrori, frazeologizmlar takrori, turg‘un iboralar takrori, morfologik shakllar takrori, leksik bloklar takrori, sintaktik konstruksiyalar takrori; 2) matn ichida joylashuv o‘rniga nisbatan: kontakt, distant; 3) kompozitsion vazifalariga ko‘ra matn ichida anaforik takror, halqa takrori, epiforik takror, satr takrori, band (nazmga oid) takrori; 4) matn ichida ma’lum birliklarning takrorlanishiga ko‘ra: ikki, uch va undan ko‘p marta qaytariluvchi takrorlar; 5) takrorlanuvchi birliklarning sifatiga ko‘ra: to‘liq takror, qisman takrorlar[2]. Z.P.Kulikovaning yozishicha, takrorlar tilning barcha darajalarida yuzaga chiqib, quyidagicha tasniflanadi: fonetik takror, so‘z qurilishi takrori, leksik, semantik, sintaktik hamda leksik-sintaktik takrorlar[3].

“Guliston” asarida uchrovchi takror turlaridan biri qo‘shma fe’llarning fe’l qismi takroridir. Bunda kontekst ichida qo‘shma fe’lning ko‘makchi qismi bo‘lgan bir turdagi fe’l takror keladi va fe’llarning bir jinsli shakllarini hosil qiladi. Sa’diy mazkur usul bilan takrorni kuchaytiradi va bir ma’noli so‘zlardan yangi ma’no yasash imkoniyatini oshiradi:

ملك را اين ترك ادب ناپسند **آمد**...مقامي متسيع كردند...زور آوران گرد **آمدند**. پسر چون پيل مست **در آمد**

Podshohga uning odobni tark qilishi yoqmadi… bir katta maydonni tayin etdilar…odamlar yig‘ildilar…yigit mast fil kabi kirib keldi… .

Bilim va tajriba hamisha ustun kelishi, ilm o‘rgatgan ustozni unutmaslik haqidagi hikoyatdan olingan bu misolda qo‘shma fe’llarning ko‘makchi qismi takror qo‘llangan. Fe’llarning takrori bu o‘rinda mavjud holat va personajlarning ruhiy holatlarini ajratib ko‘rsatib ifodalash uchun qo‘llanilmoqda. Birinchi gapda qo‘shma fe’lning ot qismiga **آمدن** ko‘makchi fe’li qo‘shilib “yoqmadi”, “ma’qul kelmadi”, ikkinchi gapda “yig‘ilmoq”, “to‘planmoq” ma’nosida, uchinchi gapda esa mustaqil – prefiksli fe’l sifatida “kirib kelmoq” ma’nosida kelmoqda, ya’ni ناپسند آمد – *yoqmadi,* گرد آمدند – *yig‘ilishdi,* در آمد – *kirib keldi*.

“Guliston” asarida qo‘shma fe’lning fe’l qismi boshqa qo‘shma fe’l bilan emas, balki prefiksli fe’lning asosiy qismi yoki sifat bilan moslik hosil qilib takror kelishi holatlari ham kuzatiladi (yuqoridagi gapda ham uchradi). Qo‘shma fe’lning fe’l qismi bilan prefiksli fe’lning asosiy qismi takrorini ko‘ramiz:

سواري از در درآ**مد** و بشارت داد كه فلان قلعه را به دولت خداوند گشاديم و دشمنان اسير **آمدند**...

Otliq eshikdan kirib, “soyayi davlatingizda falon qal’ani zabt etdik, dushmanlaringiz asir olindi” degan xushxabar keltirdi.

Gapda آمدن [âmadan] – *kelmoq* prefiksli fe’l va qo‘shma fe’lning ko‘makchi fe’l qismida kelmoqda: yetakchi fe’l vazifasida aniq o‘tgan zamon, uchinchi shaxs birlik, ko‘makchi fe’l sifatida esa aniq o‘tgan zamon, uchinchi shaxs ko‘plik bilan ifodalangan. درآمدن [darâmadan] – *kirmoq* fe’li o‘rniga وارد شدن [wâred šodan] – *kirmoq* fe’li qo‘llansa ham bo‘lar edi. Ammo yozuvchi o‘z uslubiga mos ravishda takrorni kuchaytirish orqali vaziyatga urg‘u berishni va tasvir aniqligini ta’minlashni maqsad qilgan. Bu gapda ham yuqoridagi misol kabi chiroyli badiiy

[1] Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка (стилистика декодирования). – М.: Просвещение, 1990. – 384 с.

[2] Asqarova Sh. “Alpomish” dostoni inglizcha tarjimasining lingvistik xususiyatlari: Filol. fan.d-ri (DSc) … diss. – Toshkent, 2025. – B. 67.

[3] Куликова З.П. Повтор как средство экспрессивности и гармонизации поэтических текстов М. Цветаевой и Р.М. Рильке. Дисс. … канд.фил.наук. Ростов-на-Дону, 2007. – 191 с.

takrorni ta’minlash va gapning boshida kelgan درآمدن [darâmadan] fe’li bilan mutanosiblik hosil qilish uchun شدن [šodan] fe’li o‘rnida آمدن [âmadan] fe’lidan foydalanilgan.

Bir kontekstda bir fe’lni (ko‘makchi fe’l) takror qo‘llash ham Sa’diyning so‘z tanlash mahoratidan dalolat beradi. Bu fe’llarning o‘rnida boshqa fe’llardan foydalanilishi ham mumkin edi, ammo aynan bir fe’lni takrorlash orqali shaxslarning emotsional holatini aniq tasvirlash, ushbu vaziyatda insonlarning hayrat va qiziqish bilan yig‘ilganlarini ifodalash uchun ko‘makchi fe’l qismida ayni bir fe’ldan takror foydalanilgan. Shunga ko‘ra, fe’llar gapning ohang va musiqiyligini oshirish, vaziyatni ta’kidlab ko‘rsatish va muallifning o‘ziga xos uslubida bayon qilish uchun takror qo‘llangan. Fe’llar aniq o‘tgan zamon, ijro mayli, uchinchi shaxs birlik va ko‘plik shakllarida kelgan. Quyidagi misolda ham bu holat ko‘rinadi:

نه لقمه اي كه مصور شدي به كام **آيد** يا مرغي كه به دام **آيد.**

Tasavvur qilgan bilan na luqma og‘izga keladi (tushadi) va na qush tuzoqqa keladi (tushadi).

Shakli yoki ko‘rinishi chiroyli ko‘ringani bilan yoki xayolda yoqimli bo‘lgani bilan aslida mantiqsiz, kuchsiz yoki erkinligi o‘zida bo‘lmagan narsa haqiqiy qadr-qiymatga ega emasligi g‘oyasini berayotgan bu misolda آمدن [âmadan] – *kelmoq* fe’li qo‘shma fe’lning ko‘makchi qismida takror kelmoqda. Avvalgi keltirilgan misolda آمدن [âmadan] – *kelmoq* fe’li aniq o‘tgan zamonda ifodalangan bo‘lsa, bu gapda hozirgi-kelasi zamon (aorist shaklida), uchinchi shaxs birlikda berilgan. کام آمدن [kâm âmadan] – *orzu-niyati amalga oshmoq* va دام آمدن [dâm âmadan] – *ushlamoq, tutmoq* ma’nolarini anglatib kelmoqda.

بامدادان كه خاطر باز **آمد**ن بر راي نشستن غالب **آمد** ...

Saharlarda qaytmoq istagi qolmoq istagi ustidan g‘olib kelganda...

Gapda آمدن [âmadan] – *kelmoq* fe’li qo‘shma fe’lning tarkibiy qismi sifatida ikki o‘rinda kelmoqda: birinchi holatda yetakchi fe’l (agar prefiksli fe’l deb qaralsa), ikkinchisida yordamchi fe’l vazifasida kelmoqda. غالب آمدن [ğâleb âmadan] qo‘shma fe’lida آمدن [âmadan] yordamchi fe’l sifatida شدن [šodan] o‘rnida foydalanilgan, lekin bu ma’no o‘zgarishiga olib kelmagan. Bu bilan fe’llarda takrorni kuchaytirish orqali shakliy va mazmuniy go‘zallikka erishilgan. باز آمدن [bâz âmadan] – *qaytmoq* fe’li bilan نشستن [nešastan] – *o‘tirmoq* fe’li ماندن [mândan] – *qolmoq* ma’nosida kelib o‘zaro antonimlikni ham hosil qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ma’noning aniqroq chiqishiga xizmat qilgan.

انديشه كردن كه چه **گويم** به از پشيماني خوردن كه چرا **گفتم**.

Avval o‘ylab keyin gapirish, nima uchun gapirdim deb pushaymon bo‘lishdan yaxshiroqdir.

Bu gapda گفتن [goftan] fe’lining گويم [gôyam] hozirgi-kelasi zamon shart-istak mayli, birinchi shaxs birlik va گفتم [goftam] aniq o‘tgan zamon, birinchi shaxs birlikdagi shakllari bir gapda kelgan bo‘lib, umumiy – *aytmoq* ma’nosini anglatadi. Bu gapdagi takrorning uch vazifasini qayd etish mumkin: birinchi vazifasi – gapning ohangdorligini, o‘qishliligini ta’minlash bo‘lib, buni Sa’diyning bayon uslubining asosiy xususiyatlaridan deyish mumkin; ikkinchi vazifasi esa ma’no qarshiligini kuchaytirish bo‘lib, “gapdan oldin o‘ylash” va “gapdan keyin pushaymon bo‘lish” o‘rtasidagi ma’no qarshiligi orqali Sa’diy bergan axloqiy-ta’limiy g‘oya, xulosa ta’siri oshishiga xizmat qilmoqda; uchinchidan esa, ta’kidlash orqali g‘oya va ma’noning oson tushunlishini ta’minlashdir. Umuman aytganda, ohangdorlikni ta’minlash, ma’no qarshiligini kuchaytirish, axloqiy mazmunni kuchaytirish, gapning tushunarli va ta’sirchanligini oshirishdan iboratdir. Bu gapda, shuningdek, ohangdosh fe’llarni ham ko‘rishimiz mumkin: انديشه كردن [andêša kardan] – *o‘ylamoq* qo‘shma fe’lining fe’l qismi bilan پشيماني خوردن [pašimâni xordan] – *pushaymon bo‘lmoq, afsuslanmoq* qo‘shma fe’lining fe’l qismi ohangdoshlikka ega. Bu holat quyidagi misolda ham ko‘rinadi:

یکی را از ملوك عجم **حکایت کنند** که دست تطاول به مال رعیت **دراز کرده بوده** و جور و اذیت **آغاز کرده**.

Ajam podshohlaridan biri haqida hikoya qiladilarki, xalq moliga ko‘p jafo qilib, jabr va aziyat yetkazishni boshlabdi.

Bu gapda qo‘shma fe’llarning ko‘makchi fe’l qismi کردن [kardan] – *qilmoq, bajarmoq* ma’nosidagi fe’ldan yasalgan ikki xil zamon shakllaridan foydalanilgan. کردن [kardan] – *qilmoq, bajarmoq* fe’li hozirgi zamon uchinchi shaxs ko‘plik shaklida, uzoq o‘tgan zamon uchinchi shaxs birlik shaklida takror qo‘llanilgan. دراز کردن [darâz kardan] – *cho‘zmoq* ma’nosini anglatadi, bu yerda تجاوز کردن [tajâwoz kardan] – *tajovuz qilmoq* fe’li o‘rnida ishlatilmoqda. Bu misolda Sa’diy uslubiga xos jihatlar qo‘shma fe’llardan (آغاز کردن، دراز کردن، حکایت کردن), davomiylikni ifodalash uchun murakkab zamonlardan, rivoyat ohangini anglatuvchi so‘zlardan foydalanish kabilarda ko‘rinadi. Shu bilan birga ohangdosh fe’llardan foydalanish (qo‘shma fe’lning ot qismi), fe’llarni tushirib qoldirish hodisalari (دراز کرده بوده [darâz karda buda], آغاز کرده [âğâz karda]) mavjud, دراز کردن [darâz kardan] – *cho‘zmoq* ma’nosidagi fe’l bilan آغاز کردن [âğâz kardan] – *boshlamoq* fe’li o‘zaro ohangdoshlikni tashkil qiladi.

روزي تا به شب **رفته بوديم** و شبان گه به پاي حصاري خفته [که]دزد بيتوفيق ابريق رفيق برداشت که به طهارت **مي روم** و خود به غارت **ميرفت**.

*Bir kuni kechasi **ketayotgan edik**, tunda devor tagida uxlayotganda, betavfiq o‘g‘ri do‘stimning obdastasini olib tahoratga ketibdi deb o‘ylasak, g‘oratga ketibdi.*

Yuqoridagi gapda o‘g‘rining qochishi va yo‘l yurishi ma’nosi رفتن [raftan] – *bormoq, ketmoq* fe’lining turli shakllari takrori bilan juda ta’sirchan ifodalangan. رفته بوديم [rafta budêm], می روم [mêrawam] va میرفت [mêraft] fe’llari رفتن [raftan] – *ketmoq* fe’lining turli zamon shakllari hisoblanadi. خفته [xofta] arxaik fe’l shakllaridan bo‘lib, qadimiy shakl uslubiga ko‘ra ko‘makchi fe’lsiz ifodalangan, agar bu shaklni خوابيده بوديم [xâbida budêm] shakliga teng ekanligini hisobga olsak, بوديم [budêm] fe’li ham takror hisoblanadi. Sa’diyning so‘z tanlash va so‘z qo‘llash mahorati shu darajada yuksakki, so‘zdagi ma’nolar yordamida axloqiy tushunchani tushuntirish uchun qarama-qarshi so‘zlarni qo‘llab ta’sirli ifoda chiqara olgan. Ya’ni به تهارت رفتن [ba tahârat raftan] hamda به غارت رفتن [ba ğârat raftan] fe’l birikmalari orqali yuksaklik va tubanlikka urg‘u berib kitobxonga yetkazmoqda. Bunda fe’llarning ham o‘z vazifasi bo‘lib, “biz” uchun – میرویم [mêrawêm] – yaxshi amalni ifodalash uchun ishlatilgan (طهارت) bo‘lsa, “u” uchun – میرفت [mêraft] – yomon amalni ifodalash uchun (غارت) ishlatilmoqda. Fe’llarda ma’no jihatidan bir xil ma’no, shakl jihatidan zidlik munosabati ifodalanmoqda. Bu gapda takror ohang jihatidan moslik, kichik yumor qo‘shish, fe’llar shakllarini zidlik munosabatida ifodalash kabi vazifalarni bajarmoqda.

گفت: تو را خوابي **ديده ام**، خير باد! گفت: چه **ديده اي**؟ گفت: چنان **ديدمي** که...

*Dedi: Seni tushimda **ko‘ribman**, yaxshilikka bo‘lsin! Dedi: Nimani **ko‘rding**? Dedi: Shunday **ko‘rdimki**...*

Misolda دیدن [didan] – *ko‘rmoq* fe’li دیده ام [dida-am], دیده ای [dida-i] va دیدمي [didam-ê] shaklida turli o‘tgan zamon va shaxs-sonda kelgan. دیده ام [dida-am] o‘tgan zamon natijali fe’li Sa’diyning bayon uslubiga xos bo‘lib, ish-harakatni ta’kid bilan ifodalash uchun qo‘llanilmoqda va birinchi gapning xabar ma’nosida bo‘lishini ta’minlagan. دیده ای [dida-i] fe’li suhbat ohangini kuchaytirish uchun, دیدمي [didam-ê] fe’li nafislik va musiqiylikni ta’minlash, ish-harakatning (tush ko‘rish) suhbatdan oldin bo‘lganini ifodalash hamda rivoyatga o‘xshash ohang berish uchun qo‘llanilmoqda. Bu o‘rinda takrorning vazifasi ohangdorlikni, musiqiylikni hosil qilish, fe’l shakllari orqali uslubiy nafislikka erishish vazifalarini bajarmoqda. Shuningdek, گفت [goft] aniq o‘tgan zamon fe’li, uchinchi shaxsda ham takror qo‘llanilmoqda. Bu fe’l shakli birinchi gapda *dedi*, ikkinchi gapda *so‘radi*, uchinchi gapda esa *javob berdi* ma’nolarini ifodalamoqda. Bu

o‘rinda takrorning vazifasi suhbatga ta’kid ohangini qo‘shish orqali gapning musiqiyligini ta’minlashdir. ديدمي [didam-ê] fe’l shakli klassik fors tiliga xos bo‘lib, ميديدم [mêdidam] fe’l shaklining qadimiy ko‘rinishidir, o‘tgan zamon davom fe’li *-mê* ning o‘rniga *yâ-ye estemrâri* orqali o‘tgan zamonni va harakat-holatning davom etayotganini bildiradi, gapga rivoyat, hikoya qilish ohangini beradi. Bu fe’l shakli arxaik xususiyatga ega bo‘lib, klassik nazmga ham xosdir. Demak, asarda asosan rivoyat, hikoyatlarni o‘tgan zamonda aytish uchun ishlatilgan. Bu kabi ی [-ê] qo‘shimchasi bilan berilgan birinchi shaxs birlikdagi fe’llar “Guliston” asarida katta miqdorda uchraydi.

“Guliston” asarda fe’llarni tahlil qilish davomida tovush takroriga ham duch kelinadi. Bu esa yozuvchining so‘z tanlash va uni qo‘llash mahoratidan bo‘lib, tahlilga yanada chuqurroq yondashish kerakligini anglatadi.

Badiiy asar tilining ohangdorligini va ta’sirchanligini ta’minlashda alliteratsiyaning o‘rni beqiyos. She’rning nutqda misralar, undagi so‘zlar hamda bo‘g‘inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanilishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she’riyatida keng qo‘llanilib kelingan[1]. Alliteratsiya grekcha so‘z bo‘lib, nutqda tovushlarning mos kelishidir. U takrorning bir ko‘rinishi bo‘lib, badiiy nutqni yanada ohangli, ifodali bayon etish uchun qo‘llaniladi. Bu ko‘pincha nazmiy va nasriy asarlarda uchrab, o‘zaro qofiyalash, ohangdosh, bir xil so‘zlarning yoki bir xildagi tovush va qo‘shimchalarning takrori asosida vujudga keladi[2]. Alliteratsiya fonostilistik hodisa sifatida O.Axmanova tomonidan aniqroq izohlangan. Unga ko‘ra, bir xil yoki talaffuziga ko‘ra bir-biriga yaqin tovushlar so‘z boshida yoki bo‘g‘in boshida takrorlanib kelishi va ohangdorlikni hosil qilishi izohlanadi[3].

Boshla ko‘makchi fe’li o‘zbek tilida ravishdoshning *-a, -ay* affikslari bilan yasalgan turiga birikadi va harakatning boshlanishi ma’nosini bildiradi[4]. Forsi-ye dariyda ham shunday fe’llar mavjud bo‘lib, ular ish-harakatga kirishishni, ish-harakatning boshlanishini ifodalab keladi va ko‘proq klassik fors tilidagi adabiyotlarda uchraydi. Lekin vaqt o‘tishi bilan bunday fe’llar o‘zining “boshlash”ni anglatuvchi ma’nosini yo‘qotib borgan. Y.A.Rubinchik bu kabi tuzilmalar haqida o‘z qarashini ifodalab, ularni qo‘shma fe’l sifatida baholab bo‘lmasligini aytib o‘tadi[5]. Olimning fikrlariga qo‘shilgan holda aytish mumkinki, fors tili izohli lug‘atlarida mazkur tuzilmadagi ikkinchi komponent o‘zining leksik ma’nosini tamoman yo‘qotib, yetakchi fe’ldan anglashilgan ish-harakatning boshlanishi, kirishilishi ma’nosini ifodalaydi [علی اکبر دهخدا, ۱۳۷۷]. Forsi-ye dariyda ham “boshlash, boshlanish, kirishish” ma’nosini ifodalovchi fe’llar ko‘makchi fe’l qismida keladi va ular quyidagilardan iborat:

آغازیدن، آغاز کردن، اندر ایستادن، ایستادن، اندرگرفتن، گرفتن، توانستن، خواستن، دانستن و یارستن.

Bu fe’llarning barchasi umumiy *boshlamoq, kirishmoq* ma’nosini angalatdi.

“Guliston” asaridagi fe’llarning ko‘p qismi “boshlashni ifodalovchi fe’llar”dan iboratdir. Bu turdagi fe’llar biron ish-harakatning boshlanishini bildiradi, yozuvchi bunday fe’llardan foydalanib fe’l holatiga (ishni boshlash) ishora qilish bilan birga takror turlaridan birini (tovush yoki so‘z takrori) ham birga ifodalaydi. Quyida bunday holat گرفتن [gereftan] ko‘makchi fe’li misolida tahlil qilinadi.

---

[1] Asadov T. *Matn tilshunosligi*. – Buxoro, 2023. – B. 67.
[2] Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 48.
[3] Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: СЭ, 1969. – С. 40
[4] Ҳожиев А. Ўзбек тилида кўмакчи феъллар. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 32.
[4] Hu Zhenhua (2009).The Issues Concerning the Dungan Ethnic Group's Learning and Use of Languages and Writings. Beijing: Minzu University of China Press.

[5] Zhou Qingsheng (2018).On the Linguistic Inheritance of Dungan People. Minority languages Of China, 2, 22-35.

HIND-ORIY VA ERONIY TILLARNING DASTLABKI LINGVOKONTAKTI HAMDA ETIMOLOGIYASI MUAMMOLARI: FAKT, STREOTIP VA DISINFORMATSIYA

SHOHJAHON SA'DULLAYEV

Tayanch doktorant, TDSHU
ORCID: 0009-0001-5767-401X

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot qadimgi hind-oriy (sanskrit, prakrit, pali) va qadimgi eroniy (avesto, baqtriy, so'g'd, qadimgi fors) tillari o'rtasidagi lingvokontakt va etimologik munosabatlarni ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Muammoning dolzarbligi ushbu tillardagi*

mushtarak leksik va grammatik birliklarning ko‘pincha bir tomonlama — “sanskritdan o‘zlashgan” degan stereotip asosida talqin qilinishi bilan izohlanadi. Tadqiqotning maqsadi — mazkur tillar o‘rtasidagi mushtarak va o‘zlashma qatlamlarni tizimli ravishda aniqlash, ularning tarixiy, madaniy va diniy kontekst bilan bog‘liqligini yoritish hamda stereotip va disinformatsiya holatlarini ilmiy baholashdir. Shu doirada mushtarak leksik va grammatik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, o‘zlashmalar jarayonini tarixiy bosqichlar asosida rekonstruksiya qilish vazifalari amalga oshirildi. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va etimologik tahlil metodlari qo‘llanildi. Matnlar fonologik moslik, semantik evolyutsiya, morfologik adaptatsiya hamda tarixiy sharoit asosida o‘rganildi. Lingvistik interferensiyani aniqlashda siyosiy, savdo-iqtisodiy va diniy omillar hisobga olindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, sanskrit va eroniy tillardagi ko‘plab mushtarak birliklar umumoriy proto-leksik merosga taalluqli bo‘lib, ularni avtomatik ravishda o‘zlashma sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli emas. Faol lingvokontakt asosan ellinistik va Kushon davrlarida, ayniqsa buddaviylikning Markaziy Osiyoga tarqalishi bilan kuchaygan. O‘zlashmalar ikki tomonlama xarakterga ega bo‘lib, hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘zaro ta’sirda bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tillar o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, mushtaraklikni lingvokontaktdan farqlash hamda har bir leksik birlikni tarixiy-kontekstual asosda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘z va birikmalar: *hind-oriy tillari, eroniy tillar, lingvokontakt, etimologiya, umumoriy meros, leksik o‘zlashma, lingvistik interferensiya, buddaviylik, sharqiy eroniy tillar, qiyosiy-tarixiy tahlil.*

Abstract. *This study examines the linguistic contact and etymological relations between the ancient Indo-Aryan languages (Sanskrit, Prakrit, Pali) and the ancient Iranian languages (Avestan, Bactrian, Sogdian, Old Persian) on a scholarly basis. The relevance of the topic lies in the widespread tendency to interpret shared lexical and grammatical units in these languages as borrowings from Sanskrit, often relying on stereotypical assumptions. The aim of the research is to systematically identify common inherited elements and borrowed layers between these languages, to explain their historical, cultural, and religious contexts, and to critically evaluate cases of stereotype and disinformation. Within this framework, comparative analysis of shared lexical and grammatical units was conducted, and the historical stages of borrowing processes were reconstructed. The study applies comparative-historical and etymological methods. Textual materials were analyzed with regard to phonological correspondences, semantic evolution, morphological adaptation, and historical background. Political, socio-economic, and religious factors were taken into account in identifying linguistic interference. The results demonstrate that many shared elements in Sanskrit and Iranian languages belong to the common Proto-Indo-Iranian lexical heritage and cannot automatically be classified as borrowings. Active linguistic contact intensified mainly during the Hellenistic and Kushan periods, particularly with the spread of Buddhism to Central Asia. Borrowings were bidirectional, reflecting mutual interaction between Indo-Aryan and Eastern Iranian languages.*

In conclusion, the relations between these languages represent a complex and multi-layered process. The findings highlight the necessity of distinguishing inherited commonality from linguistic contact and of analyzing each lexical unit within its historical and contextual framework.

Keywords: *Indo-Aryan languages, Iranian languages, linguistic contact, etymology, Proto-Indo-Iranian heritage, lexical borrowing, linguistic interference, Buddhism, Eastern Iranian languages, comparative-historical analysis.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено анализу языковых контактов и этимологических связей между древнеиндийскими (санскрит, пракрит, пали) и древнеиранскими (авестийский, бактрийский, согдийский, древнеперсидский) языками. Актуальность темы обусловлена распространённой тенденцией трактовать общие лексические и грамматические единицы этих языков как заимствования из санскрита, что нередко основывается на стереотипных представлениях. Цель исследования — системно выявить общий наследственный и заимствованный лексический слой, раскрыть его исторический, культурный и религиозный контекст, а также критически оценить случаи стереотипизации и дезинформации. В рамках работы проведён сравнительный анализ общих лексических и грамматических единиц и реконструированы исторические этапы заимствований. В исследовании применены сравнительно-исторический и этимологический методы. Текстовые материалы анализировались с учётом фонологических соответствий, семантической эволюции, морфологической адаптации и исторического контекста. При выявлении языковой интерференции учитывались политические, социально-экономические и религиозные факторы. Результаты показали, что значительная часть общих элементов санскрита и иранских языков относится к общему праиндо-иранскому лексическому наследию и не может автоматически рассматриваться как заимствование. Активные языковые контакты усилились в эллинистический и кушанский периоды, особенно в связи с распространением буддизма в Центральной Азии. Заимствования носили двусторонний характер, отражая взаимное влияние индоарийских и восточноиранских языков.*

Таким образом, отношения между указанными языками представляют собой сложный и многоуровневый процесс. Полученные результаты подчёркивают необходимость разграничения наследственного сходства и языкового контакта, а также анализа каждой лексической единицы в её историческом и контекстуальном измерении.

Ключевые слова: *индоарийские языки, иранские языки, языковой контакт, этимология, праиндо-иранское наследие, лексическое заимствование, языковая интерференция, буддизм, восточноиранские языки, сравнительно-исторический анализ.*

KIRISH

Qadimgi hind-oriy va eroniy tillar o‘rtasidagi lingvistik kontakt va etimologik munosabatlar tilshunoslikda doimiy ilmiy e’tibor uyg‘otib kelgan muhim masalalardan biridir. Ushbu mavzu ko‘pincha stereotiplar va noto‘g‘ri farazlar bilan ham bog‘lanadi. Masalan, fonologik yoki semantik jihatdan sanskrit, shuningdek prakrit va pāli kabi o‘rta hind-oriy tillarining leksik birliklari qadimgi eroniy tillarga o‘xshash bo‘lsa, ular odatda “sanskritdan o‘zlashgan” deb talqin qilinadi. Biroq tarixiy va lingvistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu stereotip har doim asosli emas, chunki qadimgi hind-oriy va eroniy xalqlar umumiy tiliy ajdodga ega bo‘lib, o‘z tillarida ko‘plab mushtarak leksik birliklarni tabiiy ravishda saqlab qolgan. Shu sababli, qaysi til boshqasiga leksik jihatdan faol ta’sir ko‘rsatganini aniqlash murakkab va ko‘p bosqichli ilmiy masala hisoblanadi.

Mazkur maqola markazida ko‘hna hind-oriy tillar — sanskrit, prakrit va pāli — hamda qadimgi eroniy tillar — avesto, baqtriy, so‘g‘d va qadimgi fors — o‘rtasidagi lingvistik kontakt jarayoni, ularning etimologik aloqalari va stereotip hamda disinformatsiya holatlari qanday shakllangani masalasi yotadi. Tadqiqot jarayonining markaziy yo‘nalishini belgilovchi ushbu masala maqola davomida ilmiy asos bilan tahlil qilinadi va unga javob topishga intilish ko‘zda tutiladi.

Maqolaning asosiy maqsadi — sanskrit, prakrit va pāli tillari hamda qadimgi eroniy tillar

o‘rtasidagi mushtarak leksik va grammatik birliklarni tizimli tahlil qilish, ularning o‘zaro lingvistik ta’sirini aniqlash hamda tarixiy, madaniy va diniy kontekst doirasida izohlashdir. Shu maqsadga erishish uchun bir qator vazifalar belgilangan. Ular orasida qadimgi hind-oriy va eroniy tillardagi mushtarak leksik va grammatik birliklarni qiyosiy tahlil qilish, hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi o‘zlashish jarayonlarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy omillar bilan izohlash, stereotip va disinformatsiya holatlarini aniqlash va ularni ilmiy asos bilan rad etish imkoniyatlarini ko‘rsatish, shuningdek Markaziy Osiyo va Hindiston hududlaridagi lingvistik kontakt jarayonlarini rekonstruksiya qilish kiradi.

USULLAR

Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik va etimologik tahlil metodlari birgalikda qo‘llanildi. Sanskrit, prakrit, pāli va qadimgi eroniy tillar — avesto, baqtriy, so‘g‘d va qadimgi fors — matnlari, jumladan diniy, epik va maishiy manbalar tahlil qilindi. Lingvistik interferensiya va o‘zlashishlarni aniqlashda so‘zlarning shakli, ma’nosi va tarixiy kontekst hisobga olindi. Shu bilan birga, maqola stereotip va disinformatsiya holatlarini aniqlashga ham qaratilgan bo‘lib, sanskrit va o‘rta hind-oriy tillari hamda qadimgi eroniy tillar o‘rtasidagi etimologik aloqalarni ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi.

NATIJA VA MULOHAZALAR

Biror tildagi leksika tasodifan sanskrit tilidagi leksikaga fonologik va mazmuniy yaqinlikka ega bo‘lsa, ko‘pincha, “sanskrit tilidan o‘zlashgan”, deb qaraladi. Bunga ko‘rsatiladigan asosiy sabab – sanskrit tilining dunyo ilm-fanida, madaniyatida hamda falsafasida yuksak maqomda turishi, qisqa qilib aytganda, uning baland nufuzga egaligidir. Ammo ilm-fan maxsus analizlar, aniq qoidalar, belgilangan ishonchli metodlar asosida ish ko‘radi. Shuning uchun ham ilm-fan bu kabi stereotiplarni rad qiladi.

Yirik tilshunoslarning nazariyalariga ko‘ra, Yevropada sanskrit va Avesto tillarini o‘rganish tilshunoslik deb ataluvchi fan rivojiga turtki bergan. Bu fan turli zamon va makonlarda yuz beradigan til ildizlari, o‘xshashliklari hamda o‘zgarishlarini aniqlashga yordam beradi. [Lotfi: 272]

XVIII asr oxirlarida yevropaliklar sanskrit tilini tadqiq eta boshlaganlarida, ular Paninining mashhur grammatikaga oid asari asosida yo‘l tutganlar. Aynan shu asarga murojaat qilingandan so‘ng, tilshunos Uilyam Jons 1786-yilda Kalkuttada sanskrit, yunon va lotin tillari ayni damda mavjud bo‘lmagan umumiy bir manba va ildizdan kelib chiqqanini e’lon qildi. [Lotfi: 274]

Qadimgi eroniy tillar bilan sanskrit tili o‘rtasida umumiy o‘xshashliklarga kelsak, ularning adadi anchagina. Masalan, grammatik jihatdan har ikkala tilda ham ot so‘z turkumiga oid bo‘lgan so‘zlarda uchta grammatik jins mavjud bo‘lgan: erkaklik jinsi, ayollik jinsi va neytral jins; har ikkala tilda ham otlarning uch xil son shakli bo‘lgan: birlik, ikkilik va ko‘plik; ba’zi olmoshlar jins nuqtai nazaridan farq qilsa ham, kishilik olmoshlari jinsda o‘zgarmagan va ular jinsni ifoda etmagan; sifatlar otlarga bog‘langanda ularning jinsi va soniga qarab o‘zgargan va hokazo. Leksik jihatdan ham umumiy va mushtarak so‘zlar yetarli darajada ko‘p bo‘lgan. [Sa’dullayev 2022: 96]

Biz ushbu ikki qadimgi tilning o‘xshash tomonlarini tahlil qilar ekanmiz, bir tushuncha hamon mavhumligicha qolmoqda: qaysi bir til boshqasiga leksik jihatdan ko‘proq ta’sir o‘tkazgan? Bu savolga aniq javob berishimizga yana bir fakt to‘sqinlik qiladiki, qadimgi eroniy va sanskrit tillarida gaplashgan elatlarning ajdodlari qarindosh bo‘lganligi, ya’ni qadimiy oriy elatiga birdek mansubligi, ushbu tillarda umumiy yoki o‘xshash so‘zlarning tabiiy jihatdan ko‘plab uchrashi mumkinligi ehtimolini ham oshiradi. [Sa’dullayev 2022: 96]

Shunga qaramay faktlarga tayangan holda bu ikki mamlakat aholisining milodiy asr boshlariga qadar qaysi sohalarda muvaffaqiyatlarga erishganligini hisobga olib, tillardagi ta’sirlanishni ham

taxminiy tiklay olamiz. Masalan, qadimgi Eron va Markaziy Osiyo aholisiga qaraganda, qadimgi Hindiston xalqlari tibbiyot sohasida ko‘proq taraqqiy etganini hisobga olsak, eroniy va sanskrit tillaridagi o‘xshash yoki umumiy tibbiyot atamalarining ko‘prog‘i aynan sanskritcha so‘z ekanligini aytish mumkin. [Sa’dullayev 2022: 96]

Qadimgi hind-eroniylar o‘z tarixiy an’analarini nafaqat o‘z tillarida, balki epik yoki diniy ko‘rinishdagi matnlarida ham saqlab qolgan. [Skjærvø: 188] Ushbu matnlar hind-eroniylarning moddiy madaniyatini matnlar asosida qayta tiklash uchun noyob imkoniyat beradi. [Kuz’mina: 304]

Sanskrit tiliga oid tadqiqotlar boshqa ko‘plab qadimgi tillarga qaraganda ancha yaxshi o‘rganilgan, chunki uzoq vaqt davomida sanskritcha manbalar yo‘q bo‘lib ketmadi, aksincha ko‘paydi. Holbuki, eroniy tillarning hozirda mavjud eng qadimgi yozma manbasi - Avestoning aksariyat “oltin sahifalari” Iskandar Zulqarnayn tomonidan Persepolda yoqib yuborilgan va yo‘q qilingan. [Lotfi: 273]

Sanskrit va eroniy tillarga oid stereotiplarning eng mashhurlaridan biri – bu Veda va Avesto tilini bir tilning ikki dialekti sifatida ko‘rilishidir. Ba’zi tadqiqotchilar vedik sanskrit va avesto tilini umumiy protohind-eron tilining ikki dialekti sifatida ko‘radilar. Ammo shuni takidlash joizki, garchi Veda va Avesto tillarini yaratuvchilari qardosh elatlar hisoblansa-da, bu ikki til farqli hududda, farqli sharoitda, farqli zamonda va alohida arealda yuzaga chiqdi. Barcha veda davrlari taxminan miloddan avvalgi 1500-500-yillarga to‘g‘ri keladi. [Witzel: 4] Sharqshunos olimlar avesto tili va mifologiyasini taqqoslar ekan “Avesto”ning eng qadimgi qismi – *gat*larni ilk vedik manba – Rigveda bilan bir lisoniy sathga qo‘yadi. Qadimgi avesto va yosh avesto tillari orasidagi keskin farq o‘rtada ancha vaqt mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi, yo‘qsa bu ikkalasi bir vaqtda bir makonda so‘zlashilgan bo‘lib chiqar edi [Hintze: 38]. Shuning uchun zamonaviy olimlar tomonidan Avesto yoshi uchun taxminan m.a. 1000-500-yillar belgilagan. [Bryant: 130]

Avesto va vedalar to yozuv paydo bo‘lgunga qadar og‘zaki an’analar asosida bir necha asrlar davomida saqlanib kelgan. Ba’zi tadqiqotchilar esa har ikkala manba yaratilgandayoq hujjatlashtirilgan, deb bilishadi. Masalan, Lotfi “Veda va Avesto deyarli bir davrda — Eron oriylari Hindiston oriylaridan endigina ajralgan paytda yozilgan” degan farazni ilgari suradi. [Lotfi: 272] Ammo ko‘rib o‘tganimizdek, manbalarning og‘zaki yuzaga kelgan davri va hujjatlashtirilgan (yozilgan) davrida jiddiy farq bor. Faqat mil.avv. I mingyillik o‘rtalaridagina har ikkala manbani hujjatlashtirish (yozish) imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, xoh Avesto bo‘lsin, xoh vedalar bo‘lsin, ular hujjatlashtirilgan davrda ulardagi tillar o‘zining faol so‘zlashuvchilariga ega emas edi va diniy peshvolar doirasi bilangina cheklanar edi.

Shu kabi faktlarni inobatga olgan olima – Kuz’mina ehtiyotkorlik bilan shunday deydi:

“Vedik sanskrit haqiqatan ham qadimgi eroniy tillar, xususan, avesto tili bilan shunchalik chambarchas bog‘liqki, ikkalasi ham ko‘pincha ikkita alohida tildan ko‘ra ikkita dialektga o‘xshaydi” (“aniq” ikki alohida dialekt emas, balki ikki farqli dialektga “o‘xshaydi”). [Kuz’mina: 304]

Mushtarak ildizli leksikaning etimologiyasi xususida ham ba’zan disinformatsiya holati uchraydi. Bu, ehtimol, tadqiqotchining masalaga yengil yondashuvidan kelib chiqqan. Misol tariqasida quyidagi iqtibosga e’tibor bering:

“Fors tilidagi “ruz” so‘zi kurd tilida “rôž”, Kirmonshoh tilida[1] “ruž”, balochi tilida “rôč”, Naeen tilida[1] esa “roja” deb talaffuz qilinadi. Bu so‘z fransuz tilida “jor” shaklida keladi, bu

[1] Qadimgi fors tili nazarda tutilyapti shekilli.

“roz”ning teskari shaklidir, italiyan tilida esa “jorno” deb ataladi. Dariy fors tilida[2] bu so‘z “rôz” yoki “rôž” deb aytiladi, qadimgi pahlaviy tilida esa “rôč” deb talaffuz qilingan. Bularning barchasi avestocha ildiz so‘z – “roâča” yoki “raôčang”dan kelib chiqqan bo‘lib, bu “yorug‘lik” degan ma’noni anglatadi”. [Lotfi: 275] Iqtibosdan ko‘rinib turibdiki, olima avesto tilining nafaqat eroniy tillariga ta’sir ko‘rsatganini, balki G‘arbiy Yevropa tillari bilan ham lingvokontaktda bo‘lganini ilgari suradi. Avesto tilining diniy ko‘lam bilan cheklanishi hisobga olinsa, ilmiy jihatdan bu – imkonsizdir. Iqtibosda ko‘rsatilgan tillardagi so‘z ildizidagi o‘xshashlik antropologik tahlil bilan bog‘liq, ya’ni til sohiblarining qadimgi davrlarda bir xalq bo‘lib yashab, keyinchalik Yevrosiyo bo‘ylab tarqalib ketgani, o‘z tillaridagi so‘zlarni biroz o‘zgarishlarga uchragan holda saqlab kelgani masalaning mohiyatini ochib beradi.

Sanskrit va qadimgi eroniy tillarda (avesto, qadimgi fors, midiya va skif tillari) minglab mushtarak so‘zlar mavjud. E’tiborli jihati shuki, bu tillar o‘zlari yashagan davrda jiddiy lingvokontaktda bo‘lmagan. Umumiy hind-eron birligining parchalanishi va keyingi davrlarda alohida lingvoarealning shakllanishi kelib chiqishi umumiy, shaklan mushtarak, ammo ma’nosi farqlanuvchi leksikani shakllantirdi.

O‘zaro solishtirilganda sanskrit va qadimgi eroniy tillarida ma’nosi kengaygan va toraygan mushtarak so‘zlar soni bir necha yuzni tashkil etadi. Ularning aksariyati ot, shuningdek, fe’l so‘z turkumlariga oidligi aniqlandi. Ushbu mushtarak so‘zlardagi ma’noviy xususiyatlarni o‘rganish ushbu tillarning davomchisi bo‘lmish zamonaviy hind-oriy va eroniy tillari leksikasining qay ravishda bu holatga kelib qolganini va ularning lug‘atidagi so‘zlarning ma’noviy imkoniyatlarini tushunishga ham imkon beradi. [Sa’dullayev 2024: 955]

O‘zaro leksik o‘zlashuvni hisobga olgan holda eroniy va hind-oriy tillari orasidagi faol lingvokontakt ellin davridan boshlangan deyish mumkin. Mazkur jarayon ayniqsa, o‘rta hind davridan (miloddan avvalgi III–II asrlar) boshlab yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki shu davrda hind falsafasi, dini va madaniy qadriyatlari qadimgi dunyoning turli mintaqalariga, xususan, Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Xitoygacha faol ravishda tarqala boshlagan edi.

Miloddan avvalgi III asrdan boshlab esa Shimoliy va Markaziy Hindistonda ilgari adabiy me’yor sifatida hukm surgan klassik sanskrit tilining mavqei pasaya borib, uning o‘rnini pāli va prakrit tillari hamda ularning turli lahjaviy variantlari egallay boshlaydi. Natijada leksik o‘zlashuvlar ko‘lami yanada kengayib, hind-oriy tillarining o‘zaro dialektologik aloqalari hamda regional tarmoqlanishi kuchayadi.

Mazkur davrda Markaziy Osiyo hududida boxtariy (baqtriy), so‘g‘diy, xorazmiy, sak (asosan, xo‘taniy varianti) hamda toxariy tillari mavjud bo‘lgan. Ushbu tillar g‘arbiy eroniy tillar guruhi, ya’ni o‘rta fors (pahlaviy, parfiyoniy) tillaridan dialektal-struktural xususiyatlari jihatidan sezilarli farq qilgan. Shu bois tilshunoslikda bu tillar majmuasiga “sharqiy eroniy tillar” degan shartli termin berilgan. [Shimin: 8]

O‘rta hind-oriy tillari (pāli, prakrit va ularning lahjalari) va o‘z zamonasida mavjud bo‘lgan sharqiy eroniy tillar o‘zaro geografik yaqinlik hamda madaniy-iqtisodiy munosabatlar tufayli muntazam lisoniy aloqada bo‘lgan. Bu aloqalarning faol ekanini o‘zaro leksik o‘zlashmalarning salmog‘i yaqqol namoyon etadi.

---

[1] Muallif (A.Lotfi) qaysi tilni nazarda tutayotgani noma’lum. Ko‘rsatilgan so‘zning shakliga qaraganda Niya prakrit nazarda tutilayotir.

[2] Dariy – bu fors tilimi, yoki boshqa alohida eroniy til? Fors tilining bir ko‘rinishi bo‘lsa, nega til o‘rniga lahja deyilmagan? (Iqtibos izoh talab qiladi)

Biroq Markaziy Osiyoning sharqiy eroniy tillari o‘rta hind-oriy tillaridan qaysi leksik birliklarni o‘zlashtirganini aniqlash etimologik tahlil uchun murakkab masalalardan biridir. Chunki har ikkala til tarmog‘idagi so‘zlarning katta qismi umumoriy ildizdan kelib chiqqan proto-leksik birliklar bo‘lib, ularning o‘zlashma yoki lingvistik merosiy xarakterini aniqlashda an’anaviy qiyosiy-lingvistik metodlar (formant va semantik o‘xshashlikka asoslangan) yetarli natija bermaydi.

Markaziy Osiyodagi sharqiy eroniy tillarga o‘rta hind-oriy leksikasining o‘zlashuvi bir necha tarixiy bosqichda kechgan murakkab lingvokontakt jarayonidir. Bu jarayon siyosiy, savdo-iqtisodiy va ayniqsa diniy-madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Dastlabki faol bosqich ellinistik davrga to‘g‘ri keladi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan keyin Markaziy Osiyoda shakllangan siyosiy tuzilmalar — Mauriya, Yunon-Baqtriya va keyinchalik Kushon imperiyasi — Hindiston bilan aloqalarni kuchaytirdi. Ashoka davrida prakrit tilining rasmiy maqom kasb etishi (Ashoka farmonlari) o‘rta hind-oriy unsurlarining keng tarqalishiga zamin yaratdi. Aynan shu davrda baqtriy tilida hind-oriy qatlamning eng qadimgi izlari kuzatiladi.

Eng sermahsul bosqich buddaviylikning Markaziy Osiyoga tarqalishi bilan bog‘liq. Milodiy asr boshlarida kushonlar tomonidan Shimoliy Hindiston hududlari fath etilgach, eng avvalo, buddaviylik dini O‘rta Osiyoga kirib keldi. Shuning uchun ham ushbu davrda so‘g‘d va boshqa sharqiy eroniy tillarda sanskrit tiliga xos buddaviylik dini atamalari paydo bo‘ldi. [Sadullayev 2021: 908] Buddaviylik orqali diniy-falsafiy terminlar faol o‘zlashgan. Masalan, sanskritcha *vihāra* so‘zi baqtriy tilida *vahar*, so‘g‘d tilida *farxār* shaklida; *nirvāṇa* so‘zi so‘g‘d tilida *nirβān*; *upāsaka* esa so‘g‘d tilida *upāse* ko‘rinishida o‘zlashgan. Bu davr hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi eng faol lingvistik interfeys hisoblanadi.

Savdo va rasmiy-idora sohasida ham o‘zlashmalar aniq ko‘rinadi. Masalan, prakritcha *draṃga* so‘zi baqtriy tilida *dranga* (“idora”), *raja-kula* birikmasi baqtriy tilida *rajogolo* (“podsholik sudi”) shaklida o‘zlashgan. Xo‘jalikka oid prakritcha *harga* so‘zi baqtriy tilida *harg* (“ijara”) bo‘lgan. Savdo terminlaridan sanskrit/prakritcha *pana* so‘zi so‘g‘d tilida *pan* (“pul”), *sārtha* so‘zi so‘g‘d tilida *sārt* (“karvon”) shaklida uchraydi.

Ijtimoiy va kasbiy atamalarda ham hind-oriy qatlam seziladi. Buddaviy sanskritcha *ācārya* so‘zi baqtriy tilida *ācariya*, so‘g‘d tilida *ācārē* (“ustoz”) shaklida; prakritcha *dutā* baqtriy tilida *dut* (“elchi”) ko‘rinishida o‘zlashgan. Sanskritcha/palicha *śramaṇa* so‘zi so‘g‘d tilida *šaman* (“rohib”), kech sanskritcha *vadhu* esa so‘g‘d tilida *wauδ*, xorazmiy tilida *wud* (“xotin”) shaklida uchraydi. Prakritcha *moṣati* fe’lidan hosil bo‘lgan shakl qadimgi xo‘taniy tilida *muśśa* (“o‘g‘ri”) ko‘rinishida qayd etilgan.

Falsafiy tushunchalarda sanskritcha *ākāśa* so‘zi so‘g‘d tilida *ākāč* (“koinot”), *parāloka* esa so‘g‘d tilida *paraδok* (“keyingi dunyo”) shaklida o‘zlashgan. Predmet nomlaridan sanskritcha *śaṅkha* so‘zi so‘g‘d tilida *šunk* (“chig‘anoq”), keyinchalik parfiyoniy tiliga *sund* shaklida o‘tgan; *ratṇa* so‘zi so‘g‘d tilida *ratn* (“gavhar”); *ghantikā* so‘zi so‘g‘d va xo‘taniy tillarida *kantik* (“qo‘ng‘iroq”) bo‘lgan.

Boshqa sohalarda ham o‘zlashmalar kuzatiladi: pali/prakritcha *pattana* so‘zi so‘g‘d tilida *pattan* (“shaharcha”); sanskritcha *loka* buddaviy so‘g‘d tilida *δoka* (“dunyo”); *samudra* so‘zi so‘g‘d tilida *smutr* (“okean”); prakritcha *arisam* so‘zi so‘g‘d tilida *arsanx* (“gemorroy”); pali/gandhariycha *yojana* esa so‘g‘d tilida *yučan* (taxm. 12 km masofa o‘lchovi) shaklida o‘zlashgan.

Keyingi davrda Markaziy Osiyoda turkiy siyosiy tuzilmalar kuchayishi va islom sivilizatsiyasi

kirib kelishi bilan arabcha-forscha qatlam ustunlik qila boshladi. Natijada hind-oriy o‘zlashmalar jarayoni sustlashdi va ko‘plab sharqiy eroniy tillar iste’moldan chiqdi.

O‘rta hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasidagi lingvistik interferensiya, ayniqsa Ellinistik va Kushon davrlarida, siyosiy, savdo va buddaviylik omillari ta’sirida shakllanib, Markaziy Osiyo til va madaniyat tarixida chuqur iz qoldirgan. Bugungi kunda o‘lik tillar sirasiga kiruvchi so‘g‘d va sanskrit tillarining lingvokontaktining bu qadar faolligi ushbu til sohiblari bo‘lgan xalqlarning ham doimiy ravishda bir-biri bilan muloqotda bo‘lganidan dalolat beradi. [Sadullayev 2021: 912] Qaysidir o‘rinda sanskrit tiliga xos so‘zlarning so‘g‘d va boshqa tillarga faol kirib kelishi kuzatilsa, boshqa o‘rinda baqtriy va so‘g‘diy so‘zlarning sanskrit, prakrit va pali tiltillariga o‘zlashib qolgani ko‘zga tashlanadi. [Sadullayev 2024: 908].

Sharqiy eroniy tillardan hind-oriy (asosan, o‘rta hind-oriy) tillariga o‘zlashgan o‘zlashgan so‘zlar Nikolas Sims-Williams, Tremblay, Hitch, Shoubben kabi olimlar o‘rgangan.

Xususan, Shoubben Niya prakrit misolida sharqiy eroniy tillardan (asosan baqtriy tilidan) o‘zlashgan 131 so‘zni aniqlagan va tahlilga tortgan. [Schoubben: 25]

E’tiborli jihati, tadqiqotchi prakrit tiliga o‘zlashgan shu 131 so‘zning 24 tasining e’timologiyasini ra’d qilgan, shuningdek, 10 ta atoqli otlarni ham tadqiq etgan va o‘zlashma ekanligini rad qilgan. 56 ta so‘zning baqtriy tilidan o‘zlashganini, 24 so‘zning boshqa eroniy tillardan baqtriy tili orqali o‘zlashganini ishonchli farazlar bilan ilgari suradi.

Tadqiqotchiga ko‘ra, “avimdama” (jazo, jarima), “kṣuna” (sana, hukmronlik davri), “guśura” (shahzoda), “laṣi” (sovg‘a), “ṣada” (xursand, mamnun), “amtagi” (mahalliy) kabi so‘zlar baqtriy tilidan prakrit tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan.

“ajhate” (erkin, zodagon), “spaṣa” (kuzatish, qo‘riqlash), “tavastaga” (gilam) kabi so‘zlar parfiyoniy yoki so‘g‘d; “namata” (kigiz, yupqa jun mato), parivanae (yuk, yuklash), “raji” (jun kiyim) kabilar so‘g‘d yoki xotaniy tilidan (Xotan sakchasi) o‘zlashgan bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Mazkur tadqiqot qadimgi hind-oriy tillari (sanskrit, prakrit, pali) va qadimgi eroniy tillar (avesto, baqtriy, so‘g‘d, qadimgi fors) o‘rtasidagi lingvokontakt va etimologiya masalalarini tizimli ravishda o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko‘plab leksik va grammatik birliklar shaklan mushtarak bo‘lishiga qaramay, ularning o‘zaro ta’siri va ildizi faqat tarixiy, madaniy va diniy kontekstni hisobga olgan holda aniqlanishi mumkin. Sanskrit va o‘rta hind-oriy tillari bilan eroniy tillar o‘rtasidagi mushtarak leksik birliklar ko‘pincha stereotip asosida “sanskritdan o‘zlashgan” deb qabul qilinsa-da, faktlar shuni ko‘rsatadiki, bu birliklarning bir qismi umumoriy proto-leksik ildizlardan kelib chiqqan bo‘lib, tabiiy ravishda o‘z tillarida saqlagan.

Shuningdek, tadqiqot buddaviylik dini, savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalar kabi tarixiy omillar orqali hind-oriy va sharqiy eroniy tillar o‘rtasida lingvokontaktning faol yuzaga kelganini aniqladi. Sanskrit, prakrit va pali tillaridagi diniy-falsafiy, ijtimoiy va xo‘jalik sohasidagi terminlar so‘g‘d, baqtriy va boshqa sharqiy eroniy tillarga faol kirib kelgan. Shu bilan birga, lingvistik interferensiya ikki tomonda ham kechgan: o‘zlashtirilgan baqtriy va so‘g‘diy so‘zlar sanskrit va prakrit birliklariga ham ta’sir qilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, stereotip va disinformatsiya ko‘pincha ilmiy tahlilning yetarli asosga ega emasligi, shuningdek, til tarixini siyosiy yoki madaniy nufuz orqali noto‘g‘ri talqin qilish natijasida yuzaga keladi. Mazkur maqolada stereotiplar va noto‘g‘ri farazlar ilmiy tahlil yordamida rad etildi, til birliklarining haqiqiy kelib chiqishi va o‘zaro ta’siri tarixiy va lingvistik faktlar bilan asoslandi.

Umumiy qilib aytganda, qadimgi hind-oriy va eroniy tillar o‘rtasidagi lingvokontakt murakkab,

ko‘p bosqichli va ikki tomonlama jarayon bo‘lib, u til birliklarining shaklan mushtarak bo‘lsa-da, ma’nosda farqlanishini, shuningdek, ularning tarixi, diniy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari nafaqat bu tillarning o‘zaro aloqasini, balki zamonaviy hind-oriy va eroniy tillar leksikasining shakllanishini ham tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bryant E. The Quest for the Origins of Vedic Culture. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – 388 p.
2. Burrow T. Iranian words in the Kharosthi documents from Chinese Turkestan // Bulletin of the School of Oriental and African Studies. – 1934. – Vol. 7, No. 3. – P. 509.
3. Gharib B. Sogdian Dictionary (Sogdian–Persian–English). — Tehran: Farhangan Publications, 1995.
4. Hintze A. Zarathusrta’s Time and Homeland//The Wiley Blackwell Companion to Zoroastrianism – Stausberg: John Wiley&Sons, 2015. – P.31-38.
5. Johnny Cheung. Etymological Dictionary of the Iranian Verb (= Leiden Indo-European Etymological Dictionary Series 2). — Leiden and Boston: Brill, 2007. — xxii + 600 pp. — ISBN 978-9004154964.
6. Kuz’mina E.E. The Origin of the Indo-Iranians. – Lieden: Brill, 2007. – 782 p.
7. Lotfi F. A. Comparative study of common words of Sanskrit and Persian language // *Journal of Foreign Language Research*. – P. 272–283. – ISSN 2588-4123 (Print). – ISSN 2588-7521 (Online).
8. Lubotsky A. The Indo-Iranian Substratum // Early Contacts between Uralic and Indo-European: Linguistic and Archaeological Considerations / eds. C. Carpelan, A. Parpola, P. Koskikallio. — Helsinki: Suomalais-Ugrilainen Seura, 2001. — P. 301–317.
9. Nicholas Sims-Williams. Bactrian Documents from Northern Afghanistan I: Legal and Economic Documents, revised edition; Bactrian Documents from Northern Afghanistan III: Plates // Indo-Iranian Journal. – 2015. – Vol. 58, No. 1.
10. Sa’dullayev S. AVESTO: YAKKAXUDOLIKDAN KO‘PXUDOLIK SARI // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2025. – T. 5. – № 1. – C. 225–234.
11. Sa’dullayev S. QADIMGI FORS VA SANSKRIT TILLARIDAGI MUSHTARAK SO‘ZLARNING FONOLOGIK VA LEKSIK-SEMANTIK JIHATLARI // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – T. 2. – № Special Issue 25. – C. 95–99.
12. Sa’dullayev S. SANSKRIT VA QADIMGI FORS TILLARIGA XOS MUSHTARAK SO‘ZLARDAGI SEMANTIK KO‘CHISH HODISASIGA XOS XUSUSIYATLAR: MA’NO KENGAYISHI VA TORAYISHI // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2024. – T. 4. – № 5. – C. 949–956.
13. Sa’dullayev S. URDU TILINING VUJUDGA KELISHI HAQIDAGI NAZARIYALAR // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – T. 2. – № Special Issue 4-2. – C. 269–275.
14. Schoubben, N. 2024. Traces of language contact in Niya Prakrit. Bactrian and other foreign elements. PhD dissertation, Leiden University
15. Shimin G. On the Fusion of Nationalities in the Tarim Basin and the Formation of the Modern Uighur Nationality // Central Asian Survey. — 1984. — Vol. 3, No. 4. — P. 1–

14.
16. Shohjahon S., Abdurahmanova M. H. QADIMGI SOGD VA SANSKRIT TILLARINING LEKSIK JIHATDAN YAQINLIK XUSUSIYATLARI // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2021. – T. 1. – № 5. – C. 907–912.
17. Skjærvø P.O. Iranian epic and the Manichean "Book of giants". Irano-manichaica III //Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hungaricae. – Budapest, 1995. – №1/2(48) – P. 187-223.
18. Thomas F. W. Notes on the Edicts of Asoka //The Journal of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. – 1915.
19. Turner R. L. A Comparative Dictionary of the Indo-Aryan Languages. — London: Oxford University Press, 1973.
20. Witzel, M. Early Loan Words in Western Central Asia: Substrates, Migration and Trade // Sino-Platonic Papers. — 2003. — Vol. 129.

REFERENSIYA TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI: TARIXIY-NAZARIY TAHLIL

FARIZAXON MUXAMEDZYANOVA
Tayanch doktoranti, TDSHU

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada Yevropa, Rossiya va O'zbekiston olimlarining referensiya tushunchasiga oid nazariyalari keng qamrovda tahlil qilinib, uning genezisi antik davrdan, ya'ni falsafada belgi va so'zning o'zaro bog'liqlik jihatlari Aristotel va Platon kabi mashhur olimlarning qarashlarida uchrab turadi. Ushbu nazariya zamonaviy lingvistikaning tadqiqot obyektiga aylanishidan avval falsafa va mantiqda chuqur o'rganila boshlagan bo'lib, G'arb faylasuflari, jumladan Gottlob Frege, Bertrand Russell, Charles Sanders Peirce va Ferdinand de Saussure ishlarida ham kuzatilgan. Shuningdek, rus olimlari I. V. Timoshenko va N. D. Arytyunova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham referensiyaning lingvistik va semiotik jihatlarini ochib beradi. Keltirib o'tilgan olimlarning qarashlari farqlangan, ba'zi hollarda esa bir-birini to'ldirgan bo'lib, ularning turli nazariyalari maqolada keng yoritilgan. Ulardan deskriptiv va kausal yondashuvlar asosiy nazariya sifatida olinib, ularning uyg'unligi, referensiyaning gapda antensedentlarning joylashuvidan kelib chiqib anaforik va kataforik turlari batafsil yoritiladi. Shuningdek, referent va denotat atamalarining farqli va o'xshash jihatlari, ularning referensiyadagi o'rni ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida referensiya til, tafakkur va ijtimoiy konvensiyalar bog'lovchi murakkab semantik hodisa ekanligi aniqlanadi va referensiya jarayoni semiosiologik hodisa sifatida ilmiy jihatdan o'rganiladi. Shu bilan birga, referensiya jarayoni assotsiativ, metaforik qarashlar, qadriyatlar va geografik determinizm tufayli antensedentning obyektga ulanishi turli xalqlarda turli timsollarni tasavvur qilishga sabab bo'lishi gipotezasi ham ilgari surildi.*

Kalit so'zlar*: referensiya, referent, deskriptiv nazariya, kasual nazariya, kognitiv yondashuv, semantik tizim, denotat, antensedent, semiosiologiya*

Аннотация. *В данной научной статье проводится всесторонний анализ теорий понятия референции, разработанных европейскими, российскими и узбекскими учёными. Генезис этого понятия восходит к античному периоду: в философии взаимосвязь знака и слова рассматривалась в трудах таких мыслителей, как Аристотель и Платон. До того как данная теория стала объектом исследования современной лингвистики, она глубоко изучалась в философии и логике, что*

находит отражение в работах западных философов, включая Готлоб Фреге, Бертран Рассел, Чарльз Сандерс Пирс и Фердинанд де Соссюр.

Кроме того, исследования российских учёных И. В. Тимошенко и Н. Д. Арутюнова также раскрывают лингвистические и семиотические аспекты референции. Представленные взгляды учёных различаются, а в некоторых случаях дополняют друг друга; их разнообразные теоретические подходы подробно освещаются в статье.

В качестве основных рассматриваются дескриптивный и каузальный подходы, анализируется их взаимосвязь, а также подробно описываются анафорические и катафорические типы референции, обусловленные расположением антецедентов в предложении. Также проводится анализ сходств и различий между понятиями «референт» и «денотат», а также их роли в процессе референции.

В результате исследования установлено, что референция представляет собой сложное семантическое явление, связывающее язык, мышление и социальные конвенции, и рассматривается как семиосиологический процесс. Наряду с этим выдвигается гипотеза о том, что в силу ассоциативных и метафорических представлений, ценностей и географического детерминизма связь антецедента с объектом может вызывать формирование различных образов у представителей разных культур.

Ключевые слова: *референция, референт, дескриптивная теория, каузальная теория, когнитивный подход, семантическая система, денотат, антецедент, семиосиология.*

Abstract. *This scholarly article provides a comprehensive analysis of the theories concerning the concept of reference proposed by scholars from Europe, Russia, and Uzbekistan, tracing its genesis back to antiquity, where the interrelation between signs and words was discussed in philosophy by renowned thinkers such as Aristotle and Plato. Before becoming an object of study in modern linguistics, this concept was extensively examined in philosophy and logic, and it is also observed in the works of Western philosophers, including Gottlob Frege, Bertrand Russell, Charles Sanders Peirce, and Ferdinand de Saussure. Additionally, research conducted by Russian scholars I. V. Timoshenko and N. D. Arutunova has revealed the linguistic and semiotic aspects of reference. The perspectives of the cited scholars differ, and in some cases complement each other, with their various theories elaborated in detail in the article. Among these, descriptive and causal approaches are considered primary theoretical frameworks, and their interrelation is examined, while the anaphoric and cataphoric types of reference, determined by the positioning of antecedents within a sentence, are thoroughly discussed. Furthermore, the differences and similarities between the terms referent and denotatum, as well as their role in the process of reference, are analyzed. The study concludes that reference constitutes a complex semantic phenomenon linking language, cognition, and social conventions, and that the process of reference is a semiotic-social phenomenon studied scientifically. Moreover, it is proposed that due to associative, metaphorical perspectives, cultural values, and geographic determinism, the linkage of antecedents to their objects can result in diverse symbolic representations across different cultures.*

Keywords*: reference, referent, descriptive theory, causal theory, cognitive approach, semantic system, denotatum, antecedent, semiosiology.*

Kirish Zamonaviy tilshunoslikda referensiya tushunchasi til, tafakkur va reallik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yorituvchi muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. So‘nggi yillarda lingvistika, kognitiv fanlar, mantiq va falsafa sohalarining o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida referensiya muammosi yanada dolzarb tus olmoqda. Chunki til birliklarining ma’nosi nafaqat ularning ichki semantik tuzilishi bilan, balki ularning real yoki tasavvur olamidagi obyektlar, hodisalar va tushunchalar bilan qanday bog‘lanishi orqali ham belgilanadi.

Referensiya masalasi dastlab mantiqiy va falsafiy yondashuvlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, unda so‘z va uning referenti o‘rtasidagi munosabat asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaralgan. Keyinchalik bu tushuncha lingvistik tadqiqotlarda ham keng qo‘llanila boshladi va matn ichidagi bog‘lanishlar, xususan, anafora va katafora kabi hodisalar orqali o‘z ifodasini topdi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda referensiya faqat semantik hodisa sifatida emas, balki kognitiv, pragmatik

va diskursiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida talqin qilinmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, referensiya til birliklarining to‘g‘ri anglanishi va kommunikativ jarayonning samarali kechishini ta’minlaydi.

Shuningdek, referensiya turli tillarda turlicha ifodalanadi va bu jarayonga madaniy, ijtimoiy hamda kontekstual omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli referensiyani o‘rganish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy, xususan, tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Maqsad va vazifalar. Ushbu tadqiqotning maqsadi referensiya tushunchasining turli nazariy yondashuvlarini tahlil qilish, uning lingvistik va kognitiv xususiyatlarini aniqlash hamda matn va tarjima jarayonidagi o‘rnini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- referensiya tushunchasining falsafiy, mantiqiy va lingvistik talqinlarini o‘rganish;
- referensiyaning asosiy turlari va kategoriyalarini aniqlash;
- matn ichidagi referensial bog‘lanish vositalarini tahlil qilish;
- referensiyaning tarjima jarayonidagi rolini yoritish.

Maqsad va vazifalar. Ushbu tadqiqotning maqsadi referensiya tushunchasining nazariy asoslarini turli ilmiy yondashuvlar doirasida tahlil qilish, uning lingvistik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda matn va tarjima jarayonidagi funksional rolini asoslashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Referensiya tushunchasining falsafiy, mantiqiy va lingvistik talqinlarini o‘rganish;
2. Referensiyaning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini tahlil qilish;
3. Matn tarkibida referensial bog‘lanish vositalarini aniqlash va ularning funksiyasini ochib berish;
4. Referensiyaning kontekst va diskurs bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish;
5. Turli tillarda referensiyaning ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish;
6. Referensial xatolar va ularning matn mazmuniga ta’sirini aniqlash.

Metodlar. Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy va tahliliy-qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Erishilgan natijalar: Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar va natijalarga erishildi:

1. Referensiya tushunchasining falsafiy, mantiqiy va lingvistik yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilinib, uning ko‘p qirrali va kompleks hodisa ekanligi asoslab berildi;
2. Referensiyaning asosiy kategoriyalari, xususan, endoforik va ekzoforik referensiya hamda ularning tarkibiy ko‘rinishlari — anafora va kataforaning mohiyati aniqlandi;
3. Referensiyaning semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlari ochib berilib, uning ma’no anglash jarayonidagi muhim o‘rni belgilandi;
4. Matn tarkibida referensial bog‘lanish vositalari va ularning matn yaxlitligini ta’minlashdagi roli tahlil qilindi;
5. Referensiyaning kontekst va diskurs bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilib, referentni to‘g‘ri aniqlashda kontekstual omillarning ahamiyati ko‘rsatildi;
6. Turli tillarda referensiyaning ifodalanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, ularning tipologik va madaniy farqlari aniqlashtirildi;

Referensiya tushunchasi falsafa va falsafiy mantiqda chuqur o’rganilgan. Referensiya XX asrning ikkinchi yarmida faylasuf olimlar Gotloba Frege [1], Bertran Rassel [1] qarashlari bilan

[1] Frege G. Über Sinn und Bedeutung // Zeitschrift für Philosophie und philosophische Kritik. – Leipzig.: Errst Reinhardt Verlag, 1892. – B. 25–50.

boshlangan hodisa sanalsada, ungacha so‘zni belgi sifatida ko‘rish va uni obyekyga ulash masalalari qadimgi yunon antik davri faylasuflari Platon[2] va Aristotel[3] kabi olimlar ushbu masalaga o‘z nuqtai nazarlaridan yondashishgan. Ularning fikricha so‘z- o‘z obyektni aks ettiruvchi belgidir,

XVIII-XIX asr zamonaviy lingvistikada Ferdinand de Sossyur uchun aloqa ikki tomonlama hisoblanadi va u o‘zining signified va signifier (ifodalovchu va ifodalanuvchi) modelini ilgasri suradi[4]. Ushbu qarashga qo’shilmaydigan olimlardan biri Charls Pirs bo‘lib, u o‘zining ishlarida representant tushunchasini ilgari surish orqali uch tomonlama qarash nazariyasini beradi, va nafaqat obyekt bor ekanligini, balki uni qayta ishlovchi interpretant ham mavjud ekanligini takidlaydi. Pirs belgisi uchlik modelining bir qismi. Pirs uchun ramziylik- bu belgi- obyekt kabi ikki tomonlama bog‘lanish emas, aksincha mazkur ikki obyekt uchun interpretantni talab qiluvchi uchlikdir. Olim belgilarni uch turga ajratgan: ikonalar, indekslar va simvollar. Ikonalar o‘zlari anglatgan narsaga o‘xshashlik asosida bog‘lanadi (masalan, fotosuratlar). Indekslar esa referent bilan bevosita yoki sabab-oqibat aloqasi orqali ishora qiladi (masalan, tutun — olovning belgisi). Simvollar esa anglatiluvchi narsa bilan shartli (ixtiyoriy) bog‘lanishga ega bo‘ladi (masalan, tildagi so‘zlar)[5]. Ushbu fikrga qo’shimcha qilib olim “hech narsa o‘z mohiyatiga ko‘ra ramz, ikona yoki ko‘rsatkich emas. Bir xil belgi vositasi turli kontekstlarda turli belgi vositalarini o‘z ichiga olishi mumkin”ligini takidlaydi[6]

Umberto Eko Ferdinand de Sossyur fikrini qo‘llagan holda, Pirsning g‘oyasiga qarshi chiqadi va so‘zning ma’nosini anglatishi uchun unga anglatuvchi (interpretant) kerak degan tushunchani referensial adashish deb hisoblagan. Belgiga mos keladigan real obyekt hech qanday semiotik maqsadga aloqador emas. Uning qo‘shimcha qilishicha, "belgi referenti - bu... mavhum mohiyat, qolaversa, u faqat madaniy konvensiya hisoblanadi." Referent - bu madaniy dunyo, ya’ni belgi va referent o‘rtasidagi munosabat tabiiy emas, u madaniy va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi, referensiya jarayoni madaniy kontekstga bog‘liq.[7].

Nemis olimi G. Frege referensiya atamasiga oid ma’lumotlarda: «Referensiya — bu ifoda orqali belgilangan predmet, ma’no esa — shu predmetni qanday tarzda tasavvur qilish usulidir»[8]deb keltiradi. Uning fikricha, har bir ifoda ma’noga ega bo‘lib, bu so‘z qanday yo‘l bilan obyektga ishora qilishini belgilaydi; referentsiya esa — bu so‘z orqali ko‘rsatilayotgan real obyektning o‘zidir. Olim semantic referensiya tushunchasini ilgari surgan va har bir so‘z ozining xususiy referentiga ega deb bilar edi[9].

---

[1] Russell B. On Denoting // Mind. –Oksford.: Oxford University Press, 1905. B. 479–493.

[2] Платон. Кратил // Собрание сочинений в четырёх томах / Общая редакция А. Ф. Лосева, В. Ф. Асмуса, А. А. Тахо-Годи. Автор вступительной статьи и статей в примечаниях А. Ф. Лосев. — М.: Мысль, 1990. — Т. 1. — С. 613—681. — (Философское наследие). — ISBN 5-244-00451-4.

[3] Аристотель. Поэтика // Аристотель. Этика. Политика. Риторика. Поэтика. Минск: Литература, 1998. С. 1064 – 1112.

[4] Чилингарян К.П. Проблематика теории референции знаков в современной лингвистике / Litera. 2024. № 6. DOI: 10.25136/2409-8698.2024.6.71111 EDN: HCKBAY URL: https:/nbpublish.com/library_read_article.php?id=71111

[5] Чарльз Пирс – “Что такое знак?” https://www.lib.tsu.ru/mminfo/000063105/phil/07/image/07-088.pdf)

[6] Чарльз Пирс – “Что такое знак?” https://www.lib.tsu.ru/mminfo/000063105/phil/07/image/07-088.pdf)

[7] Umberto Eco – A Theory of Semiotics https://www.amazon.com/Theory-Semiotics Advances/dp/0253202175

[8] Frege G. Über Sinn und Bedeutung // Zeitschrift für Philosophie und philosophische Kritik. – Leipzig.: Errst Reinhardt Verlag, 1892. – B. 25–50.

[9] Чилингарян К.П. Проблематика теории референции знаков в современной лингвистике / Litera. 2024. № 6. DOI: 10.25136/2409-8698.2024.6.71111 EDN: HCKBAY URL: https:/nbpublish.com/library_read_article.php?id=71111

Yana bir olim, B. Rasselning fikricha: ism va deskriptsiyalar obyektga mantiqiy tavsif orqali ishora qiladi ya'ni, ismlar, aslida, qisqartirilgan deskriptsiyalar bo‘lib, ularni obyektni tasvirlovchi mantiqiy formula sifatida ochish mumkin. «Ismning ma'nosi — bu subyekt o‘z ongida obyekt bilan bog‘laydigan tavsif orqali shakllanadigan ifodadir» deb takidlagan.[1] Misol: "Fransiya qiroli" ifodasi "hozirda yagona Fransiya qiroli bo‘lgan odam" degan tavsifni bildiradi. Agar bunday odam mavjud bo‘lmasa, bu ifoda referensiyaga ega emas.

S. Kripke, va Mill olimlar G. Frege va B. Rasselning deskriptivizm nazariyasini rad etgan holda, ismlar obyektni tasvif orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bildiradi, deb ta'kidlaydi. U "qat'iy dizignatorlar" (rigid designators) tushunchasini ilgari surgan — bu shunday ifodalar bo‘lib, ular barcha mumkin bo‘lgan olamlarda bir xil obyektni bildiradi. «Ism obyektni belgilar majmuasi orqali emas, balki uning ishlatilishining tarixiy-kausal zanjiri orqali bildiradi». Misol: "Aristotel" ismi "nomlash marosimi"da (birinchi marta ism berilgan paytda) aynan o‘sha odamga nisbatan ishlatilgan va bu aloqa til tarixi davomida saqlanib qolgan[2].

K. Donnellan S. Kripkening modeli asosiga pragmatik komponentni qo‘shgan holda, semantik referensiya va so‘zlovchi (nutq egasi) referensiyasini bir-biridan ajratadi. Uning fikricha, so‘zlovchi ba'zan obyekt bilan semantik jihatdan bevosita bog‘liq bo‘lmagan ifodani ishlatsa ham, u nutq kontekstida aynan o‘sha obyektni ko‘rsatishi mumkin. «So‘zlovchining referensiyasi til qoidalari bilan emas, balki uning intensiyasi (maqsadli niyati) bilan belgilanadi.» Misol: agar kimdir "shampan bokali tutgan odam — millioner" desa, u shampan ichmayotgan, lekin aniq bir kishini (masalan, suv ichayotgan odamni) nazarda tutishi mumkin[3].

H. Putnam esa, S. Kripke va K. Donnellan g‘oyalarini birlashtirib, referentsiya nutq hamjamiyati ichidagi ijtimoiy konvensiyalar orqali saqlanadi, degan fikrni ilgari surgan. Uning ta'kidlashicha, so‘zning ma'nosi faqat so‘zlovchining ongidagi tasavvur bilan belgilanmaydi; balki tashqi omillar — dunyo, jamiyat va so‘zning tarixiy ishlatilish jarayoni — ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. «So‘zlar bizning o‘ylayotgan narsamizni "bilmaydi"; ma'no inson ongida emas.» Misol: "suv" so‘zi H_2O moddasini bildiradi — bu ma'no gapiruvchi kim bo‘lishidan yoki u kimyo formulani bilish-bilmasligidan qat'i nazar o‘zgarmaydi[4].

Syorl esa deskriptiv yondashuvni qo‘llovchi olimlardan bo‘lib, u o‘z vazifasini referensiyaning deskriptiv nazariyasini yangi ilmiy talablar va ehtiyojlarga moslashtirishda ko‘radi, unga yanada yaxlit va asoslangan ko‘rinish berish hamda avvalgi tadqiqotchilar ta'riflaridagi noaniqliklar va bo‘shliqlarni bartaraf etishga intiladi.

U javob berishga harakat qiladigan savollar quyidagilardan iborat:
—atoqli otlar ma'noga egami?
— atoqli otlar dunyodagi obyektlarga qanday qilib referensiya qiladi?
— gapiruvchi atoqli otlarni talaffuz qilish orqali tegishli obyektlarga qanday qilib murojaat qila oladi[5]?

"Deskriptiv va kausal nazariyalar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiradi" deb hisoblaydi E Speshilova. Uning fikricha, ism tavsifiy (deskriptiv) hamda tarixiy-kausal xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ikki omil referensiya shakllanishida birgalikda ishlaydi. «Ismning

[1] Russell B. On Denoting // Mind. –Oksford.: Oxford University Press, 1905. B. 479–493.
[2] Kripke S. Naming and Necessity. — Kembrij Masachusets.: Harvard University Press, 1980. — B. 172.
[3] Donnellan K. Reference and Definite Descriptions // The Philosophical Review. –Durham 1966. – B. 281–304.
[4] Putnam H. Meaning and Reference // The Journal of Philosophy. –N.Y., 1973. – B. 699–711.
[5] Searle J.R. Proper Names and Descriptions. In: The Encyclopedia of Philosophy, ed. by P. Edwards, vol. 6. New York: Macmillan, 1967, pp. 487–492.

referentsiyasi deskriptiv va kausal omillar uyg‘unligining natijasida shakllanadi: tavsif (deskripṫsiya) kognitiv asos yaratadi, kausal zanjir esa bu bog‘lanishni tilda mustahkamlaydi»[1].

S. Makarova referensiyani diskursdagi obyektni individuallashtirishning kognitiv jarayoni sifatida talqin qiladi. U referentni aniqlashda kontekst, inferensiya (mantiqiy xulosa chiqarish) va o‘quvchining fon bilimlari muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. «Referensiya bu rasmiy til belgilanishi emas, balki til shaklini ongdagi obraz (timsol) bilan bog‘lovchi kognitiv akt sifatida namoyon bo‘ladi»[2]. Bu holatda isnonlarning hayotiy tajribalari, dunyo qarashi, ijtimoiy holati, geografik determenizm, asotsiatsiyalar va dini ham muhim ahamiyatga ega deb hulosa qilishimiz mumkin.

Keyimgi olim I.V. Timoshenko bo’lib, u referensiyani barcha tillarga xos universal hodisa ekanini isbotlaydi, biroq uni ifodalash usullari har bir tilda turlicha bo‘lishini ta’kidlayd. «Tilning grammatik tuzilishidan qat’i nazar, referensiya semantik invariant sifatida ismning obyektga munosabatini ifodalaydi». Ya’ni: referensiyani semantik invariyant (umumiy, o‘zgarmas ma’no birlik) sifatida ajratadi; bu kategoriya artikllar, olmoshlar va so‘z tartibi orqali namoyon bo‘ladi. Inglizcha: The man is reading a book. Bu yerda “the man” — aniq referensiya (ma’lum odam), “a book” — noaniq referensiya (biror kitob). Ruscha: Мужчина читает книгу. Bu yerda aniq/noaniqlik kontekstdan kelib chiqadi, chunki artikl yo‘q[3]. O‘zbekcha: Erkak kitob o‘qiyapti. Xuddi shunday, referensiya grammatik emas, kontekst orqali ifodalanadi. Ingliz tilida referensiya artikllar bilan aniq belgilanadi, o‘zbek va rus tillarida esa kontekst va so‘z tartibi orqali anglashiladi. Shu bois Timoshenko referentsiyani til strukturasi ustida turuvchi universal semantik kategoriya deb ta’riflaydi.

J.P. Smit, Conventionalized Speaker’s Reference (CSR) — ya’ni “konventsiyaga asoslangan so‘zlovchi referensiyasi” nazariyasini taklif etadi. Bu nazariyaga ko‘ra, referensiya — bu ismdan foydalanishning ijtimoiy kelishuvi (konventsiyasi) natijasidir. «Agar nutq hamjamiyatida ismni aynan o‘sha obyektga ishora qilish uchun ishlatish odati (konvensiyasi) mavjud bo‘lsa, u semantik jihatdan obyektga referensiya qiladi». Shu tariqa, Smit, H. Putnam yo‘lini davom ettiradi. Misol uchun: Inglizcha: Paris is the capital of France. Bu yerda “Paris” so‘zi ijtimoiy konventsiya asosida barcha nutq sohiblari uchun bitta obyekt — Fransiya poytaxtini bildiradi[4]. Keltirilgan nazariyadan, referensiyasi insonning shaxsiy tushunchasi emas, balki nutq hamjamiyatidagi ijtimoiy kelishuvlari oqibatida paydo bo‘luvchi obyekt va so‘z o‘rtasidagi ma’no aloqasi deb tushunilishi ham mumkin.

N.D.Arutyunova referensiyaga quyidagicha ta’rif beradi: "Referensiya - bu aktuallashgan, nutqqa kiritilgan ism yoki ismli ibora (ismli guruh) ning voqelik obyektlariga bo‘lgan munosabatidir[5]. Yana olim, ta’kidlaganidek, referensiya nazariyasi doirasida mavhum tizim emas, balki tilning voqelikka “qaytishi” kuzatiladi, ya’ni so‘zlovchining kommunikativ yo‘nalishi, uning

[1] Speshilova E. Проблема референции имён собственных: дескриптивный и каузальный подходы // Novosibirsk davlat universiteti axborotnomasi. Lingvistika va madaniyatlararo kommunikatsiya seriyasi. – Novosibirsk, 2022. –B. 45–56.

[2] Makarova S.A. Непрямая анафорическая референция в англоязычном журналистском дискурсе // Moskva davlat lingvistika universiteti axborotnomasi. Lingvistika seriyasi. —M., 2023. —B. 112–121.

[3] Timoshenko I.V. Изучение референции именных выражений в английском и французском языках при помощи постпереводческого анализа // Sankt-Peterburg davlat universiteti axborotnomasi. Til va adabiyot seriyasi. —Sankt-Peterburg, 2025. —B. 67–79.

[4] Smit J. P. *An unjustly neglected theory of semantic reference* // *Synthese*. – 2024. – Vol. 202. – P. 1421–1443.

[5] Арутюнова, Н. Д. Лингвистические проблемы референции / Н. Д. Арутюнова // Новое в зарубежной лингвистике. Москва : Прогресс, 1982. – Вып. 13 : Логика и лингвистика (проблемы референции). – B. 5–40

niyatlari, suhbatdoshlarning bilimlar zaxirasi, bayonning kommunikativ tashkil etilishi, kontekstga munosabat va shu kabilarga e'tibor qaratiladi[1]. Boshqacha aytganda, referensiya diskursiv va pragmatik hodisa sifatida qaraladi. Referensiya atamasi asosida inglizcha refer (obyektga taluqli bo'lmoq, nazarda tutmoq ma'nolarida keluvchi fe'l yotadi. Ushbu atama til birliklarni g'ayrilisoniy obyektlarga o'zaro bog'liqligini falsafa mantig'ida fikr va reallikni til yordamida bog'lash (denotat, referent va signifikat)larni o'rganishda rivoj topgan[2].

Referensiya tushunchasini ko'rib chiqilayotgan vaqt, uning o'zagidan paydo bo'lgan referent tushunchasini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Referensiya zamonaviy tilshunoslikda til belgisining tildan tashqaridagi real borliqdagi obyektlar va vaziyatlar bilan munosabati jarayoni sifatida aniqlanadi.[3] Referensiya hodisasi ham denotativ semantika doirasida talqin qilinadi va an'anaga binoan nomlovchi lisoniy birliklarning borliqdagi obyektga munosabati va u bilan bog'liq tushunchalar sifatida tavsiflanib kelinmoqda. Aslida, lisoniy nomni voqelik bilan bog'lashda so'zlovchining (yoki lisondan foydalanuvchi shaxsning) maqsadi, lisoniy faoliyat niyati muhim o'rin egallaydi[4]. Referent esa referensiya jarayonida til belgisi yo'naltirilgan obyekt, voqelikdagi hodisani ifodalaydi. Referent termini tilshunoslikda denotat tushunchasiga ma'nodosh sifatida ham qo'llanadi. Ba'zi tilshunoslar bu ikki tushunchaning farqli jihatlari borligini qayd etadilar. Referent, yana bir ta'rifga ko'ra, inson ongida atrofdagi voqelik obyektlari va hodisalarini aks ettiruvchi nutqni yo'naltiruvchi mental qurilmadir.[5] Ko'plab olimlarda denot va referent tuhsunchalarida turli fikrlar mavjud bo'lib, bu ikki atamani sinonim sifatida ko'ruvchi qarashlar ham mavjud, lekin biz ularni chegaralarini ko'rib chiqishga qaror qildik. Ko'plab mualliflar bu farqlarni tushuntirib, atamalarning o'zini va ular asosida yasalgan so'zlarni aniq ajratishga harakat qiladilar. Denota-ma'no bildirish bilan bog'liq, referent esa-ishora qilish, murojaat etish deb bilish lozim. Paducheva "denotat" va "referent" tushunchalari orasida ikki farqni keltiradi: xronologik farq — *denotat* atamasi dastlab pragmatik jihatlar hisobga olinmagan davrda ishlatilgan, *referent* esa pragmatik nazariyalar rivojlangan keyingi davrlarda keng qo'llanila boshlagan; qo'llanish doirasi — *referent* tushunchasi kengroq bo'lib, u nafaqat predmetlarga, balki predikativ til birliklariga ham tatbiq etiladi[6]. Ushbu chegaralash bizga refernesiyasining boshqa qirralariga ham e'tibor qaratish kerak ekanligi signalidi berdi va referensiyaning gapdagi anaforik va kataforik joylashuvini ham chuqur o'rganishimizga sabab bo'lmoqda, chunki gapning mazmuni, uning o'z obyektiga to'g'ri bog'lanaolish jarayonida ushbu aspektlar muhim ahamiyatga ega.

Gapning voqelikdagi qandaydir hodisa yoki narsalarni bildiradigan har qanday komponentiga nisbatan, xuddi gapning o'ziga nisbatan bo'lgani kabi, referensiya haqida so'z yuritish mumkin[7].

---

[1] Арутюнова, Н. Д. Лингвистические проблемы референции / Н. Д. Арутюнова // Новое в зарубежной лингвистике. Москва : Прогресс, 1982. – Вып. 13 : Логика и лингвистика (проблемы референции). – В. 10–11

[2] Арутюнова, Н. Д.Лингвистические проблемы референции / Н. Д. Арутюнова // Новое в зарубежной лингвистике. Москва : Прогресс, 1982. – Вып. 13 : Логика и лингвистика (проблемы референции). – В. 5–40

[3] Abdurasulova D. Q. Matn kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar // *Modern Science*. – 2023. – Vol. 2, Issue 11. – C. 225–230. – URL: https://modernscience.uz/ (04.03.2026)

[4] Safarov Sh. *Pragmalingvistika*. — Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi**,** 2008. — B. 118**.**

[5] Abdurasulova D. Q. Matn kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar // *Modern Science*. – 2023. – Vol. 2, Issue 11. – C. 225–230. – URL: https://modernscience.uz/ (04.03.2026)

[6] Падучева Е. В. *Высказывание и его соотнесенность с действительностью: (Референциальные аспекты семантики местоимений)* / Е. В. Падучева; отв. ред. В. А. Успенский. — Москва: Наука**,** 1985. — С. 12.

[7] Ким И. Е**.** *Теория референции: учебное пособие: [для студентов бакалавриата по направлению 45.03.03 "Фундаментальная и прикладная лингвистика"]* / И. Е. Ким. — Новосибирск**:** Изд-полиграф. центр НГУ, 2019. — Электронный ресурс. — URL: https://e-lib.nsu.ru/ (07.02.2026).

Ya'ni gapning o'zi ham bir butun referensiyaga ega bo'lishi mumkinligi bilan birga, uning Ichida alohida komponentlar (shaxs, predemetlar) ham o'z obyektiga ishora qilaoladi. Bu tushuncha bizning yuqorida keltirgan anafora va katafora tushunchalari bu mavzuning o'zagini o'rganishda qanchalar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlashga xizmat qiladi. Referensiya til birliklarini voqelik hodisasi orqali tavsiflaydi, aksincha emas. Munosabatning bunday yo'nalishi — ya'ni ifodalovchidan ifodalanmishga — belgiga semasiologik yondashuv bilan bog'liq bo'lib, onomasiologik yondashuvdan farq qiladi; unda esa boshlang'ich nuqta ifodalanmish hisoblanadi[1]

Referensiya hodisasi matn mazmuni uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, voqelik bayonining uzluksizligini va davomiyligini ta'minlab, uning qismlari o'rtasidagi anaforik va kataforik munosabatlarni hamda retrospektiv va prospektiv bog'liqliklarni namoyon qiladi. Matn mavzusiga oid axborot bayoni jarayonida oldinroq ma'lum qilingan yoki xabar qilinishi kutilayotgan axborot, ma'lumotlarga murojaat qilishga majbur bo'linadi. Bunday turdagi axborotlar vositasida predmet va hodisalarni o'xshatish, ma'lumotlarni aniqlashtirish, odingi yoki kutilayotgan ma'lumotlarga murojaat, aytilgan fikrni rivojlantirish, asoslash kabi maqsadlar amalga oshiriladi. Matn referensiyasi axborotni umumlashtirish va qayta to'plash, retrospektiv tahlil etish imkonini yaratib, yangi ma'lumotlarni oldindan tahlil qilish, anglash sharoitini hosil qiladi [2] S Boymirzayeva keltirgan tushunchada anaforik va kataforik referensiya jarayonlari tilga olingan bo'lib, bu atamalar referensiya turlashda juda qo'l kelishi mumkin, chunki referensiya deganda biz koreferensiya hodisasi (bir obyektga bir kontekstda qayta qayta ishora qilish) orqali umumiy pragmatik holatni aniqlashimiz mumkin. Gapning birinchi qismida antensedent berilib, keying qismlarida anafora (antensedentni belgilovchi olmosh) berilsa- bu anaforik referensiya deb atalishi mumkin, agar antensedent gapning keying qismlartida berilsa, avval katafora (olmosh) keltirilsa- bu kataforik referensiya debhisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi[3]. Misol uchun: Петя не пришел, потому что он был занят[4]. (Petya kelmadi, chunki u band edi) misolida anaforik referensiya yaqqol namoyon bo'lgan, ya'ni Petya- bu yerda antensedent va u gapning birinchi qismida kelmoqda.

Hoolyday & Hasan[5] ishlarida koheziya matnnning umimy mazmunini saqlash uchun juda muhimekanlgi aytib o'tilgan va referensiyaning to'g'ri anglanishi aynan shu masalaning yechimi ekanligi olimlar tomonidan takidlab o'tilgan. Bunga tashqari ularning "Cohesion in English" monografiyasi keyinchalik referensiyani tushunishda, uni tasniflash, turlarga ajratishda asosiy nazariya bo'lib qo'llanib kelinmoqda. Xususan: olmoshlar, ularning gapda qaysi o'rinda kelishidan kelib chiqib, anaforik va akataforik turlari. Kategoriyalarga ajtatilganda esa:

---

[1] Арутюнова, Н. Д. Лингвистические проблемы референции / Н. Д. Арутюнова // Новое в зарубежной лингвистике. М. : Прогресс, 1982. – Вып. 13 : Логика и лингвистика (проблемы референции). – С. 5–40

[1] Ким И. Е**.** *Теория референции: учебное пособие: [для студентов бакалавриата по направлению 45.03.03 "Фундаментальная и прикладная лингвистика"]* / И. Е. Ким. — Новосибирск**:** Изд-полиграф. центр НГУ, 2019. — Электронный ресурс**.** — URL: https://e-lib.nsu.ru/ (15.02.2026).

[2]Boymirzaeva S. *O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. fanlari doktori… diss. avtoreferati* / S. Boymirzaeva. — Toshkent: O'zR FA TAI**,** 2010. — B. 18**.**

[3] Алексеева М. Н., Клюева Е. В. К вопросу о роли анафоры и катафоры в исследовании дейксиса // Научные исследования и разработки. Современная коммуникативистика. 2020. №. 5. С. 24-27. DOI: https://doi.org/10.12737/2587-9103-2020-24-27 (дата обращения: 17.02.2026).

[4] Ким И. Е. *Теория референции: учебное пособие: [для студентов бакалавриата по направлению 45.03.03 "Фундаментальная и прикладная лингвистика"]* / И. Е. Ким. — Новосибирск**:** Изд-полиграф. центр НГУ, 2019. — Электронный ресурс**.** — URL: https://e-lib.nsu.ru/ (28.01.2026).

[5] Halliday M. A. K., Hasan R. *Cohesion in English.* London: Longman, 1976.

- Endoforik referensiya- (endophoric reference) matn ichidagi antensedentlarning referensiyasi (mis: *Anna came in. She sat down.* she = Anna.) U o‘tirdi. U= Anna;
- Ekzoforik referensiya- (exophoric reference) matndan tashqari bo‘lgan referensiya (Put it there) Uni bu anavi yerga qo‘y Aniq nimani qayerga eknligi tushunish uchu vaziyatni tushunish, kontewkstni anglash talab qilinadi;

Olimlar narayisiga tayangan holda ko’plab sharq olimlari turli matnlarni tahlilga tortib kelmoqdalar. Ulardan: Messaadi, A., & Bouanani[1], A; Hamid R. T[2]; Rasha Hussein Alwan[3] va boshqalar muqaddas, diniy, germenevtik matnlarni tahlil qilishda keng foydalamishgan.

Xulosa. Yuqorida ko‘rib chiqilgan olimlarning referensiya tushunchasiga oid qarashlarini falsafiy, mantiqiy va lingvistik yo‘nalishlar kesimida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, referensiya masalasi ko‘p qirrali va kompleks hodisa sifatida talqin qilinadi. Barcha yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, referensiya, avvalo, til birliklarining real yoki tasavvur olamidagi obyektlar, hodisalar va tushunchalar bilan bog‘lanishini ta’minlovchi mexanizm bo‘lib, uning markazida ma’no anglash va kognitiv idrok jarayoni turadi.

Tadrijiy rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda, dastlab referensiya ko‘proq deskriptiv (tavsifiy) yondashuv asosida tushuntirilgan bo‘lib, bunda so‘z ma’nosi uning tavsifi va tarixiy shakllanishi bilan bog‘langan. Keyinchalik S. Kripke tomonidan ilgari surilgan kauzal (causal) nazariya referent bilan bog‘lanish to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lishi mumkinligini, ya’ni u doimo tavsifiy yoki tarixiy omillarga bog‘liq emasligini asoslab berdi. H. Putnam esa referensiyani yanada kengroq talqin qilib, ma’no nafaqat subyektiv ong mahsuli, balki **t**ashqi (ekstralingvistik) omillar bilan ham belgilanadi, degan g‘oyani ilgari surdi.

Mazkur yondashuvlar keyingi tadqiqotlarda integrativ xarakter kasb etib, masalan, Speshilova tomonidan referensiya bir vaqtning o‘zida ham deskriptiv, ham kauzal xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Makarova esa referensiyani aniqlashda kontekstning hal qiluvchi rolini alohida ko‘rsatib, til birliklarining referentini anglash uchun umumiy semantik maydon va nutqiy vaziyatni hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Shuningdek, Timoshenko referensiyani universallik xususiyatiga ega hodisa sifatida ko‘rib, uni turli tillarning tipologik, strukturaviy va sintaktik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish lozimligini ta’kidlaydi. J.P. Smitning CSR nazariyasiga ko‘ra esa referensiya til va jamiyat o‘rtasidagi konventsional (ijtimoiy kelishuvga asoslangan) munosabatlar mahsuli sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda referensiya faqat semantik hodisa sifatida emas, balki pragmatik, diskursiv va kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq tizim sifatida qaralmoqda. Xususan, referensiallikni to‘g‘ri talqin qilishda nutq konteksti, kommunikativ maqsad, madaniy va ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Turli tillarda referensiyaning ifodalanishi ham aynan shu omillar bilan belgilanadi, bu esa uni kontrastiv va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishni dolzarb qiladi.

---

[1] Messaadi A., Bouanani A. Referential structure and its role in the cohesion of the Qur’anic text: A text-linguistic study of selected verses from Surah Al-Imran // *Journal of Functional Language*. – 2025. – Vol. 12, №1. – P. 473–487.

[2] Hamid R. T. Referral and its effect on the cohesion of the text in the hadiths of seeking knowledge in Sahih al-Bukhari // *Adab Al-Rafidayn*. Mosul: University of Mosul, 2025. T. 55, №103. B. 157–172.

[3] Alwan R. H. Reference in the Glorious Qur’an with reference to English // *Journal of Tikrit University for Humanities*. 2020. T. 27, №8. B. 67–82. DOI: 10.25130/jtuh.27.8.2020.24.

Bundan tashqari, referensiyaning gap doirasidagi amalga oshishi, ya'ni uning umumiy gap mazmuniga tegishliligi yoki alohida shaxs va predmetga bog‘lanishi, shuningdek, antecedentning (oldingi birlikning) matndagi joylashuvi kabi masalalar ham zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda muhim muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, anafora va katafora kabi hodisalar orqali referensial bog‘lanishlarning tashkil topishi matnning yaxlitligi va tushunarliligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, referensiya til, tafakkur va reallik o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqani ifodalovchi fundamental tushuncha bo‘lib, uning o‘rganilishi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki kognitiv lingvistika, pragmatika va tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ARAB MAQOL-MATALLARIDA FE'LLAR LINGVOMADANIY OMIL SIFATIDA

ABROR DINIQULOV
TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Har qanday tilni o‘rganish o‘z o‘rnida o‘sha xalq madaniyatini o‘rganishni talab qiladi. Maqol-matallar esa ayni shu madaniyatni namoyon qiluvchi ko‘zgu sanaladi. Unda xalqnig uzoq tarixga borib taqaladigan o‘zligi, o‘y-xayollari jamul jam bo‘ladi. Bu maqola arab madaniyatining odatlarini, turmush tarzini fe'llar qanchalik aks ettirishini o‘rganib chiqadi. Holat va emotsional fe'llar qay shaklda namoyon bo‘lishi ham tadqiq qilib o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *Maqol, matal, lingvomadaniyat, fe'l, leksik-metaforik, istiora.*

Abstract: *Learning any language inherently requires the study of the culture of the people who speak it. Proverbs and sayings serve as a mirror that reflects this very culture. They embody the identity, worldview, and collective memory of a nation rooted in its long history. This article explores the extent to which verbs reflect the customs and lifestyle of Arab culture. It also examines how verbs that express states and emotions are represented and manifested in such expressions.*

Keywords: *Proverb, saying, linguoculture, verb, lexical-metaphorical, metaphor (isti'ārah).*

Аннотация: *Изучение любого языка неизбежно требует освоения культуры соответствующего народа. Пословицы и поговорки являются зеркалом этой культуры. В них воплощаются самобытность народа, его мышление и историческая память, уходящая в глубь веков.*

Данная статья исследует, насколько глаголы отражают обычаи и образ жизни арабской культуры. Также изучено, каким образом проявляются глаголы, обозначающие состояние и эмоции.

Ключевые слова: *пословица, поговорка, лингвокультурология, глагол, лексико-метафорический, иносказание.*

INTRODUCTION/ВВЕДЕНИЕ/KIRISH

Maqollar o‘z o‘rnida xalq madaniyatini aks ettirishi hech kimga sir emas. Tilshunoslik va madaniyatni chambarchas o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniyat tushunchasi ostida hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko‘plab olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan va bormoqda. Shu o‘rinda maqollarning semantikasini va lingvomadaniyatni aks ettirish xususiyati

borasida ham yetarlicha izlanishlar qilinmoqda. Masalan. Mieder Wolfgang; Krikmann Arvo (2009); Aleksandr Nistratov (2015); Abdu ar-Rahman Husan Vois (2022); Ibrohim Dasuqiy (2008); Sulaymonova Maftuna (2021); Nazarova Sohiba (2025) shular jumlasidan. Ayniqsa maqollardagi fe'llar asosida ham lingvomadaniy qadriyatlar aks etishi oydinlashib bormoqda. Bu narsa arab madaniyatini o'rganishda, ularning o'y-xayollari, turmush tarzini, qadriyatlarini yanada mukammal tushunishda maqollarga chuqurroq tahlil bilan yondashishni talab qilmoqda.

METHODS/МЕТОДИ/TADQIQOTNING USULLARI

Ushbu maqolada arab madaniyatini aks эttiradigan maqollar leksik-metaforik va lingvomadaniy metod asosida ko'rib chiqildi. Maqollardagi fe'llarning lingvomadaniy yuklamasi alohida ochib berildi. Bu esa maqol ma`nosini yanada batafsil yoritishga zamin yaratdi.

RESULTS/РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR

Arab maqollarida fe'l yozilmagan holda ham maqol semantikasida ishtirok etishi mavjud. Bunga misol tariqasida

صبر جميل و الله المستعان

Tarjimasi: chiroyli sabr va Alloh yordam so'raluvchi (Zotdir)

Izoh: Bu yerda strukturaviy jihatdan hech qanday fe'l namoyon bo'lmagan. Ammo ushbu maqol semantikasi o'zida اصبر صبرا جميلا، و نستعين الله (chiroyli sabr ila sabr qil, biz Allohdangina yordam so'raymiz) ma'nosini jamlagan. Ko'rish mumkinki, maqol o'zida (اصبر، نستعين) singari buyruq va hozirgi-kelasi zamon fe'llarinining ma'nosini o'zida ifodagan. Bu maqol bilan arab madaniyatida sabr yuksak tushuncha ekani, sabr qilishga, shoshilmaslikka undash mavjud. Bundan tashqari arablarning diniy hayoti ham aks etgan. Alloh yagona Zot ekani, Undangina yordam so'rash kerakligi, Ugina har narsaga qodir ekani namoyon bo'lgan.

صبري على الحبيب و لا فقده

Tarjima: sabrim habibga, uni yo'qotishga emas

Izoh: inson ba`zi ayb yoki asabiylik holatlariga chidashi kerak. Chunki ular o'zidan keyin undan ham yomonroq oqibatlarni qoldirib ketishi mumkin. Bu yerda ham maqol strukturasi o'zida fe'lni qamrab olmagan bo'lsa ham aslida أصبر على الحبيب و لا اصبر فقده jumlasi semantik jihatdan aks etmoqda. Semantik oppozitsiya orqali axloqiy pozitsiya (yaxshilikka chidash, undan yomoniga emas) ifodalangan. Bu kabi maqollar arab qadriyat ierarxiyasini aks ettiradi.

يد الله مع الجماعة

Tarjima: Alloh jamoaviylikni yoqtiradi.

Bu maqolda ham semantik jihatdan يتعاون الناس، الله ينصرهم shaklida (يتعاون، ينصر) fe'llarini jamlagan. Maqolda esa arab xalqida birdamlik, jamoaviylik muhim fazilat, maqtalgan xislat ekani oydinlashadi. Bu narsa o'zbek xalqi madaniyatida borligini "Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer" shaklida ham uchratish mumkin.

Arab maqol-matallarida fe'llar orqali ham o'z arab madaniyatini gavdalantirish, o'quvchida tasavvur uyg'otish unsurlari ham namoyon bo'ladi. Masalan:

من جد وجد

Tarjima: Kim jidd-u jahd qilsa, topadi.

Bu maqol ham arab qadriyat ierarxiyasida tirishqoqlik, mehnatsevarlik xislatlari dangasalik, ishyoqmaslik singari xislatlarga qarama-qarshi qo'yilib ularning afzal ekani uqtirilmoqda.

كما تدين تدان

Tarjima: Nima eksang, shuni o'rasan.

Bu maqolda ham arab jamiyatida adolat, tenglik oliyjanob fazilat ekani, har kim teng bo'lishi, qilgan ishiga munosib jazo yoki mukofot olishi kerakligi bayon qilingan.

Fe'llar shuningdek jamoaviy yoki individual madaniyatni ham ifoda etadi. Ulardagi ba`zi fe'llar jamoaviy holatlarni nazarda tutsa, ba`zilari har bir shaxsga oid holatni anglatadi. Masalan:

يد واحدة لا تصفق

Tarjima: bitta qo'l chapak chalolmas

Izoh: Bu maqolda jamoaviylik muhim hislat ekani, hamisha xalq bilan birga yurish kerakligi aytilsa,

كل إنسان أدرى بعلته

Tarjima: har bir inson kasalini biladi

Izoh: har bir inson o'zidan o'tayotgna narsani yaxshi anglaydi, uning tashqi ko'rinishi, ko'zida alomati zohir bo'lmasa ham. Bu yerda أدرى fe'li har kim o'zini yaxshiroq anglashiga dalolat qiladi.

الكلب ما يتبخ إلا عند باب أهله

Tarjima: it ham o'z egasi eshigida huradi

Izoh: bu yerda ham har bir kishi o'z uyida jasur bo'lib qolishiga ishora. يتبخ fe'li

Bundan tashqari arab maqollarida fe'llar metaforik usulda ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Bu usul bilan ham arablar madaniyati unsurlari o'z aksini topadi.

أكل عليه الدهر و شرب

Tarjima: Zamon uni yedi va ichdi.

Bu yerda zamonga huddi odam sifati berilyapti. Aslida zamon yemasligi yoki ichmasligi hammaga ayon. Bu qadim arab maqolida yillar qarida unutilib ketgan narsa, iz-nishonasi yo'q bo'lib ketgan narsaga nisbatan ishlatiladi.

أكل التمر خص و العيش قص

Tarjima: xurmo yeyish xos, non esa umumiy

Ya'ni xurmo kichkina narsa bo'lgani uchun qaysi tomonidan ko'rsang shu tomonidan yeyaverasan. Ammo nonni esa o'z oldingdan boshlab yeyishing kerak. Bu bilan arablarning ovqatlanish odati namoyon bo'lmoqda. Har bir narsaning boshqa narsalardan farqli bo'lgan odobi bo'ladi.

وقّظ نايم و لا توقّظ متنيوم

Tarjima: uxlayotganni uyg'ot, uxlaganga o'xshab yotgan odamni emas

Izoh: Bu yerda kognitiv metafora ishlatilgan. Chunki uxlayotgan, uxlaganga solib yotgan so'zlari orqali inson biror narsani chindan xohlayotgani yoki aslida xohlashni istamayotgani taqqoslanyapti. Uxlayotgan inson kimdir uyg'otishiga ehtiyoj sezadi, ammo o'zini uxlaganga solib yotgan odam o'zi turishni xohlamayotgani uchun uni uyg'otishdan manfaat yo'q. Huddi shu kabi pand-nasihatni ham oladiganga qil, hammaga emas deyilgan. Maqoldagi semantik rollarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Ishtirokchi	Rol	Ta'rifi
uyg'otuvchi	Agent	harakatni bajaruvchi shaxs
نايم uxlayotgan	Experiencer	harakat ta`sirini boshdan kechiruvchi, ammo passiv
متنيم (o'zini uxlaganga solib yotgan)	experiencer | trickster	harakatni bila turib o'ziga qabul qilmayotgan subyekt, o'zini befarq tutuvchi

Shundan kelib chiqib maqolda 1ta fe'l 2 ,(وقّظ)ta aktant (1. Uyg'otuvchi; 2. Uyg'otiluvchi (uxlayogan va o'zini uxlaganga solib yotgan) mavjud.

فر من المطر و وقف تحت المزرام

Tarjima: yomg‘irdan qochib tarnov tagida turdi.

Arablarda odatda yomg‘ir rahmat, barakat, hayot timsoli. Masalan إذا نزل الغيث عم (agar yomg‘ir yog‘sa hammani (qamrab oladi). Bu yerda kelgan yaxshilik hammaga birdek yetishi aks etgan. Yoki المطر في وقته رحمة (o‘z vaqtidagi yomg‘ir rahmatdir). Ammo bu maqolda u kutulmagan noqulaylik ma’nosida. Demak yomg‘irdan qochish bu bir qiyinchilik, muammodan qochishga o‘xshatilib metafora qilingan. Tarnovdan esa oddiy yomg‘irdan ko‘ra ko‘proq suv tushishi ayon. U yana ham kattaroq noqulaylik, muammo timsolidir.

لا بغيت تِغِمّه فناداه باسم أمّه

Tarjima: agar uni xafa qilmoqchi bo‘lsang, onasining ismi bilan chaqir.

Izoh: Arab madaniyatiga ko‘ra insonni onasining nomi bilan chaqirish tahqirlash, kichkina sanash, mensimaslikni anglatadi. Shuning uchun otasining nomi bilan chaqirishadi.

التمر ما يودّع عند البدو

Tarjima: xurmoni badaviyga omonatga qo‘yma.

Izoh: xurmo badaniylarning eng sevimli yeguliklaridan bo‘lgani uchun uni yeb qo‘yishi mumkin. Inson qattiq xohishi sababida omonatga xiyonat qilgan holat uchun bu maqol o‘rinli.

تعلم السحر و لا تعمل به

Tarjima: sehrni o‘rgan, ammo ishlatma.

Izoh: inson har qanday ilmni ham o‘rganib qo‘yish kerak.kamida shunday ilm bilan qilingan yomonlikka qarshi tura olishi uchun ham. Bu maqolda arab madaniyatida ilm olish, o‘qish qadrlanishi o‘z aksini topgan.

Ba’zan fe’llar leksik metaforik yoki istiora usulida ham arab maqol-matallarida qo‘llaniladi. Bu narsa odatda quyidagi sabablar bilan yuzaga keladi:

1. Mansab, yosh jihatidan kattalardan qo‘rqib ularning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri zikr qilmaslik uchun;

2. Biror hayotda sodir bo‘lgan voqea bo‘lgani uchun;

3. O‘quvchining esida yaxshiroq qolishi uchun.

Birinchi sababga oid misollar:

من أمن من العقوبة أساء الأدب

Tarjima: Kim jazodan omonda bo‘lsa odobsizlik qiladi.

Izoh: Bu maqol odatda kattaroq shaxslar jazoga tutilmasligi uchun bilgan ishini qilishi mumkin degan ma’noda ham ishlatish mumkin. Chunki uni jazolaydigan topilmaydi. أساء الأدب (odobni yomonlashtiradi) esa yomon ishlarni, jabr-zulmni bemalol qilishi degan ma’noda me`taforadir.

اليد الواحدة لا تصفّق

Tarjima: Bitta qo‘l chapak chalolmas.

Izoh: Chapak chalish uchun ikkita qo‘l kerakligi aniq. Shuning uchun davlat, yoki ish gullab yashnashi uchun ham rahbar, ham ishchilar birdek manfaatdor bo‘lishi kerakligi, shundagina oldinga siljish bo‘lishi aniq.

Ikkinchi sababga oid misollar:

جنت على نفسها براقش

Tarjima: Baroqish o‘zini o‘zi halok qildi.

Izoh: Baroqish degan bir qabilada it bo‘ladi. Dushmanlar u qabilaning ortidan tushganda va qabila yashiringanda baroqish vovullab joylarini dushmanga bildirib qo‘yadi. Natijada hammasini o‘ldirishadi. Aslida جنى fe’li jinoyat qilmoq degan ma’noda bo‘lsa ham bu yerda metaforik usuldadir.

Uchinchi sababga oid misollar:

سد أثم الكلب بعظم

Tarjima: It og‘zini suyak bilan berkit

Izoh: Bu maqol izohida aytilishicha it deb haqiqiy it ham nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin, yoki axmoq qavm ham. Maqol senga nisbatan jahli chiqqan yomon niyatli insonni arzimas narsa bilan o‘zingdan chalg‘itib qo‘yish uchun ishlatiladi. Ko‘rinib turibdiki سد so‘zi bu yerda to‘g‘onni yopish, yo‘lni yopish degan asl ma’noda emas, balkim بعظم bilan birga chalg‘itib qo‘yish ma’nosini anglatmoqda. Qavmni itga o‘xshatish orqali esa maqol haqida o‘quvchida yaxshiroq tasavvur paydo qilish va eslab qolish murod qilingandir.

السفينة تنقل كلاها و ماها

Tajima: Kema o‘z ovqati va suvini olib yuradi.

Izoh: Kemada o‘zining zaxira ovqati va suvi hamisha bo‘ladi. Bu maqol bilan esa boshqalarga ehtiyoji tushmaydigan boylik haqida aytilgan.

إذا صفت النية فاللقمة تكفي ميّه

Tarjima: agar niyat sof bo‘lsa luqma hammaga yetadi.

Izoh: Sof niyatli degan ibora ishlatiladi, aslida sof so‘zi sof oltin degan joyda o‘z ma’nosida bo‘ladi. Niyatga nisbatan sof bo‘lish bu metaforik ko‘chish hisoblanib yaxshi niyatli, ijobiy gumonli bo‘lishni anglatgan.

إذا فسد الراعي فسدت الرعية

Tarjima: agar cho‘pon aynisa, poda ayniydi.

Izoh: agar yo‘lboshchi yomon axloqli bo‘lsa xalq ham uning ortidan yomon axloq sohibi bo‘ladi. Yoki aksi bo‘lishi ham mumkin. فسد fe’li axloqi yomon degan ma’noni ifoda etmoqda.

من رافق المصلين صلى و من رافق المغنين غنى

Tarjima: kim namozxonlarga hamroh bo‘lsa namoz o‘qiydi, kim qo‘shiqchilarga hamroh bo‘lsa qo‘shiq aytadi.

Izoh: inson atrofidagi odamlar qanday ekanliklari bilan hamisha qiziqishi kerak. Arab madaniyatida ham yaxshi do‘st, solih do‘st hamisha qadrlanishi shu maqolda ham ko‘rinmoqda. Qadimdan arablar do‘st tanlashga jiddiy e`tibor qaratishgani shundandir.

Emotsional fe’llar ham maqol-matallarda ishlatilishi jihatidan katta qatlamni tashkil qiladi. Emotsional fe’llar arab tilida odam passiv shaklda boshdan kechadigan holat emas, balkim uning faol ishtiroki bilan yuzaga keladigan ichki kechinmadir. Fe’llar faqat his-tuyg‘ularni ichki holat sifatida emas, balki:

Vujudga kelayotgan holat sifatida;

Munosabat sifatida;

Ta`sir vositasi sifatida;

Tashqi ifoda sifatida kabi ko‘rinishlarda ham ifoda eta oladi.

1. Vujudga kelayotgan holat.

من خلى عشاه أصبح يراه

Tarjima: kim kechki ovqatini olib qo‘ysa uni ko‘radi.

Izoh: inson bugungi narsasidan saqlab qo‘ysa, tejasa ertangi kunida unga asqotishi mumkin. Bu yerda vujudga kelayogan holat أصبح يراه yordamchi fe’li yordamida ifodalanmoqda.

2. Munosabat sifatida

من حبك لشي أبغضك على فقده

Tarjimas: kim seni biror narsa uchun sevsa, u narsa yo‘qolganda seni yomon ko‘radi.

حب fe’li kimningdir munosabatini aks ettiryapti. أبغض fe’li ham munosabat ifodasidir.

من خاف سلم

Tarjima: kim qo‘rqsa salomat bo‘ladi.

Izoh: biror narsadan qo‘rqqan odam hamisha uning ehtiyotini qilib yuradi. خاف fe’li munosabat ifodasi.

نفرح لكم بالخير و لو ما نذوقه

Tarjima: biz yemasak ham siz uchun yaxshilik kelganidan xursandmiz.

3. Ta`sir vositasi sifatida.

من ضحك لك ابكاك

Tarjima: kim seni kuldirsa seni yig‘latadi.

Izoh: seni yaxshi kuningda kuldirib ko‘nglingni olib yurgan odam, yomon kuningda seni tashlab ketib seni yig‘latishi ham mumkin. ضحك fe’li va أبكى fe’li ta`sir vositasidir.

4. Tashqi ifoda sifatida.

تحكي لي أبكي لك

Tarjima: menga aytib ber, senga yig‘lab beraman.

Izoh: biror kishi o‘zining holatidan shikoyat qilib oh-vohlasa, meniki senikidan ham kattaroq, menikining oldida seniki arzimas muammo degani. Yig‘lamoq fe’li bu yerda alam, og‘riqning tashqi ifodasi sifatida ishlatilmoqda.

اضحك على الرجال بجِب لحاهم

Tarjima: odamlarga soqollarini o‘pgan holda kulib qara.

Izoh: Zeroki inson hammaga xushmuomalalik bilan, samimiylik bilan munosabatda bo‘lish kerak. Arablarda soqol qardlangani uchun soqoliga nisbatan ham muhabbating bo‘lsin. Arablar tarixda soqoli bilan qasam ichgani ham ayni shundandir. Maqolda kulmoq fe’li esa samimiylik, muloyimlikning tashqi ifodasi sifatida yuzaga chiqmoqda.

Arab maqol-matallarida fe’llar arab lingvomadaniyati elementlarini o‘zida har tomondan aks ettirishi ularning diniy tushunchalari misolida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Islom diniga e`tiqod qilishgani, payg‘ambar va sahobalarning ko‘pchiligi shu yurtda yashagani ularning turmush tarziga ham, xalq og‘zaki ijodiga ham sezilarli ta`sir qilgan. Juda ko‘plab maqollar aynan diniy qarash ustiga qurilgani shundan. Masalan:

إذا عزمت فتوكل على الله

Tarjima: agar azm qilsang, Allohga tavakkal qil.

Izoh: islom dini ta`limoti bo‘yicha banda har bir ishda robbisiga suyanishi, ungagina ish oqibatini topshirishi kerak. Shuning uchun عزم fe’li توكّل fe’li bilan uzviy bog‘liqlik asosida arab madaniyatini aks ettirgan.

اذكروا الله يا مطير إلا كباركم

Tarjima: ey Matir (qabilasi) kattalaringizdan boshqangiz jim bo‘ling.

Izoh: Matir degan katta arab qabilasida bir ixtilof paydo bo‘lganda bir kishi shu gapni aytgan. Arablar madaniyatida jahli chiqqanda Allohni zikr qilish yoki payg‘ambarimizga salovat aytish odati hozirgacha saqlanib qolgan. Chunki Allohni zikr qilganda ular jim bo‘lishadi. Natijada ixtilof to‘lqini pasayadi. Ammo bu gapni aytuvchi kishi istisno qilishi qabila kattalariga buyruq berolmasligi va ular o‘zlari ixtilofga yechim topishi kerakligidandir. Shuning uchun bu yerda اذكروا الله so‘z birikmasi aslida Allohni zikr qiling degan ma’noni ifodalasa ham, aslida jim bo‘ling degani. Bu bilan ularda Alloh zikriga doimiy targ‘ibot kuchli ekani, g‘azablangan inson Allohni zikr qilsa zikr ila g‘azabdan qolishi bayon qilingan.

ارحموا من في الأرض يرحمكم من في السما

Tarjima: sizlar yerdagiga rahm qilinglar, osmondagi sizlarga rahm qiladi.

Izoh: Osmondagining rahm qilishi bu Allohning rahm qilishiga dalolat qilib turibdi. Bu ham arablarning diniy tasavvuri bilan uzviy bog‘liqdir.

أنفق ما في الجيب و يأتيك ما في الغيب

Tarjima: cho‘ntakdagi narsani ehson qil, g‘aybdagi narsa senga keladi.

Izoh: inson qancha ko‘p ehson qilsa uni Alloh o‘zi o‘ylamagan tomondan boy qilib qo‘yadi. Shuning uchun infoq qilishga targ‘ibot azaldan arab madaniyatining ajralmas qismi.

Arablarning ko‘plab maqollari aynan Qur`oni karim oyatlari, hadisi nabaviylardan olingani ham diniy tushunchalar bilan bog‘liq. Masalan:

إذا غُلِبت الروم

Tarjima: agar rim g‘alaba qilsa.

Izoh: Bu maqol Qur`oni karimdagi Rum surasidagi ayni shu mazmundagi oyatdan olingan. Ammo bu maqoldan odamlar eng yomon ehtimollar va har qanday ishda olinadigan eng kam foydani tushunadilar va shuni nazarda tutadilar.

ما حمّل الله نفسا فوق طاقتها

Tarjima: Alloh bandaga toqatidan ortiq narsani yuklamas.

Izoh: Yuklamas bu yerda majbur qilmas, buyurmas degani. Bu maqol ham Qu`roni Karimdagi Baqara surasining oxirgi oyatidagi (لا يكلف الله نفسا إلّا وسعها لها) ma’nodan shakllangan.

لو لا المربي ما عرفت ربي

Tarjima: agarki tarbiyachi bo‘lmaganida Robbimni bilmasdim.

Izoh: Bu maqol Nabiyimiz (sollollohu alayhi vasallam)ning quyidagi hadisiga asoslangan: كل مولود يولد على الفطرة. فأباواه يهودانه أو ينصرانه أو يمجسانه. Ya’ni inson tug‘ilganida sof fitrat bilan tug‘iladi. Ammo ota-onasi uni kelajakda xristian, yahudiy yoki majusiy bo‘lib yetishishiga sababchi bo‘ladi.

Arab maqol-matallari nafaqat Qur`on, hadisdan balkim arab shoirlarining muallaqotlari, she`rlaridan ham hosil bo‘lgan. Bu narsa arab madaniyatida she`rxonlik qanchalik ulug‘ martabada bo‘lganining misolidir. She`rlarning ba`zi baytlari vaqtlar o‘tishi bilan xalq orasida takrorlanish sababidan maqol-matal darajasiga ko‘tarilgan. Masalan:

أدِّب ولدك و لو زعلت أمه

Tarjima: bolaningni tarbiya qil hattoki onasi g‘azablansa ham.

Izoh: ba`zi ishlarda qattiqqol bo‘lish ham kerakligi, bu narsa boshqalarning g‘azabiga sabab bo‘lgan taqdirda ham degan ma’noni ifodalaydi. U kelajakda yaxshi-yomon orasini ajrata olishi uchun zarurdir. Bu maqol ash-Sharif Barokatning quyidagi baytidan olingan:

أدب ولدك ان كان تبغيه يشفيك
لو زعلت أمه لا تخليه يرهاك

Bolang senga davo bo‘lishini xohlasang uni tarbiyala
Seni yo‘g‘alashiga qo‘yma hatto onasi g‘azablansa ham.

إذا سبَّح القيطون همَّ بسرقة

Tarjima: agar mushuk tasbeh aytsa o‘g‘rilikni niyat qilibdi.

Izoh: odatda mushuk tasbeh aytmaydi. Shuning uchun biror kishi juda taqvo, zuhd qilsa uning yashirin nimadir ishidan ehtiyot bo‘l degani. Bu maqol qadimgi arab she`ridan olingan.

إذا سبّح القيطون هم بسرقة
فلا تأمن القيطون حسن يسبح

Agar mushuk tasbeh aytsa o‘g‘rilikni niyat qildi
Mushuk tasbeh aytishiga qo‘yma.

Bu yerda yana shu narsa ham arab madaniyatining bir namunasi sifatida bilinadiki, ba`zi

maqol-matallarda amallarni ifodalash hayvonlar vositasida ularni jonlantirish orqali tashxis san`atidan unumli foydalanilgan.

Shuningdek zamonaviy arab shoirlari ham o‘z she`rlaridan maqollardan unumli foydalanib irsoli masal she`riy san`atini rivojlantirmoqda. Masalan:

ما تقطع السلة بدون نصابها

Tarjima: qilich dastagisiz kesmaydi.

Izoh: سلة deganda bu سلة السيف (qilichning temir qismi) nazarda tutilgan. Bu ham arab madaniyatidagi kam so‘z bilan ko‘p ma’no chiqarishga harakat natijasidir. Ya’ni gapni muxtasar qilish namunasi. نصاب esa مقبص (dasta, sop). Qilich agar ushlanadigan sopi bo‘lmasa u o‘zidan o‘zi kesmaydi. Shuning uchun bu maqol bir ish boshqa ishga bog‘liq bo‘lganda aytiladi. Bu shoir Abu Majidning quyidagi baytida uchraydi.

ما تنطح القوه بغير قوه

و لا تقطع السله بدون نصابها

Kuch kuchsiz bilan suzishmas

Qilich dastasiz kesmas.

قد ظل من كانت العميان تهديه

Tarjima ko‘rlar unga yo‘l ko‘rsatgan yo‘ldan adashgan (qolib ketdi).

Izoh: bu maqol aslida Bashar ibn Barodning quyidagi baytining bir misrasi hisoblanadi.

أعمى يقود بصيرا لا أبالكم

قد ظل من كانت العميان تهديه

Ko‘r odam ko‘zi ochiqni boshqarar, men sizlarga e`tibor bermayman.

Ko‘rlar unga yo‘l ko‘rsatgan yo‘ldan adashgan.

Yana bir e`tiborga arzirli jihat arab maqollari mazmun jihatidan boshqa xalq maqollariga o‘xshash bo‘lsa ham mentalitetdan kelib chiqib lingvomadaniy jihatdan farq qiladi. Masalan:

ما يجتمع رأسين في الطاقية

Tarjima: ikki bosh bir do‘ppiga sig‘mas.

Izoh: Bu maqol o‘zbek xalq maqoli sanalmish “Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamas” maqoli bilan ayni bir mazmundadir. Arablarda bosh kiyim ijtimoiy tartib belgisi sanalgani uchun bir do‘ppiga ikki bosh sig‘masligi (aslida ikki kishi bir manfaat ostida birlashish qiyin ekani) ta`kidlangan.

CONCLUSION /ZAKLYUCHENIYA/ XULOSA

Ko‘rilgan maqol-matallardan arab madaniyatida e`tiqod, sabr, or-nomus singari xislatlar qadimdan qadrlanib kelingani namoyon bo‘ldi.

Fe’llarning lingvomadaniy yuklamasi maqol ma’nosini tushunishda faol ishtirok etishi namoyon bo‘ldi.

Maqollarda metafora ishlatilishi 3 xil holat bilan sodir bo‘lishi ochiqlandi.

REFERENCES/СПИСОК ИСТОЧНИКОВ/FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Maqola:

Nistratov, A. (2015). *Analysis of the Semantic Structure of Proverbs and Sayings: Theoretical and Experimental Studies*. **Issues of Psycholinguistics**, 2017, No. 1 (31), pp. 212–221. ISSN 2077-5911.

Sulaymonova, M. (2021). *The verb as a part of speech and its lexical-semantic classification.*

Oriental Art and Culture: Scientific-Methodical Journal, FarDU, **issue 6/2021**, p: 187–191.
Nazarova, S. (2025). *The national uniqueness of proverbs and sayings*. *Modern Education and Development*, **28**(6), 314–319. Tashkent University of Applied Sciences.
Uralova, T. Sh. (2022). Expression of verbs of emotional relation in English lingvoculturology. *International Journal of Pedagogics*, **2**(4), 8–10. Nurafshon.
Kitob:
Krikman A. (2009) *Proverb semantics. Studies in structure, Logic and Metaphor*. Proverbium. America.
Wais, Abdulrahman Hasan. (2022). *The Conditional Style in Arabic Proverbs: A Syntactic and Semantic Study.* Master's Thesis, Syria. 274 pages.
Al-Dusuqi, Ibrahim. (2008). *The Semantic Field of the Verb and the Meaning of the Preposition Associated with It.* Dar Al-Ghareeb, Cairo. 310 pages.
Al-Juhayyimān, ʿAbd al-Karīm. (1983). *Al-amthāl al-shaʿbiyya fī qalb Jazīrat al-ʿArab* (Vol. 6, 3rd ed.). Riyadh: Dār Ashbāl al-ʿArab. (Original work published 1403 AH) – p. 315.

TILSHUNOSLIKDA GENDER KATEGORIYASINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

LOLA SHOKIROVA
Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikda gender kategoriyasining lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi.Jinsga bog‘liq til xatti-harakatlarining kommunikativ kontekstdagi ifodalanishi, so‘ztanlovi, nutq uslubi va madaniy omillar bilan o‘zaro munosabati o‘rganilgan. Maqolada til va gender o‘rtasidagi loqalar, erkak va ayol nutqidagi farqlar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar*: gender, lingvopragmatika, kommunikativ strategiya, nutq xatti-harakati, ijtimoiy jins.*

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности гендерной категории в языкознании. Изучается выражение языкового поведения, связанного с полом, в коммуникативном контексте, а также его взаимодействие с выбором слов, речевым стилем и культурными факторами. В статье рассматриваются связи между языком и гендером, различия в речи мужчин и женщин.*

Ключевые слова: *гендер, лингвопрагматика, коммуникативная стратегия, речевой акт, социальный пол.*

Annotation. *This article analyzes the linguopragmatic features of the gender category in linguistics. It examines the expression of gender-related language behavior in a communicative context, as well as its relationship with word choice, speech style, and cultural factors. The article explores the connections between language and gender, and the differences in male and female speech.*

Keywords: *gender, linguopragmatics, communicative strategy, speech behavior, social gender.*

KIRISH. Tilshunoslik fanida inson omili markaziy o‘rin tutadi va bu omilni tadqiq etishda jins (gender) kategoriyasi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. So‘nggi o‘n yilliklarda

gender lingvistikasiga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi bejiz emas, chunki til orqali ifodalanadigan nutqiy xatti-harakatlar, kommunikativ strategiyalar va til birliklarining tanlanishi ko‘p jihatdan shaxsning jinsiy mansubligi bilan bog‘liqdir. Erkak va ayol nutqi o‘rtasidagi farqlar faqat biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy rol, madaniy an’analar, stereotiplar hamda jamiyat tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar bilan chambarchas aloqadordir.

Gender lingvistikasi doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq jarayonida erkaklar va ayollar turli kommunikativ maqsadlarni ko‘zlaydi hamda ushbu maqsadlarga erishishda o‘ziga xos til vositalaridan foydalanadi. Ayniqsa, muomala jarayonida nutqning ohangi, baholash vositalari, muloyimlik strategiyalari, emotsional-ekspressiv birliklarning qo‘llanishi jinsiy tafovutlarni yaqqol namoyon etadi. Shu bois til va jins o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda lingvopragmatik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvopragmatik yondashuv til birliklarining faqat grammatik yoki semantik jihatlarini emas, balki ularning real kommunikativ vaziyatdagi funksiyasini, suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy mavqe va jins omilining nutqqa ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali erkak va ayol nutqida qo‘llaniladigan strategiya va taktikalar, murojaat shakllari, bahs va kelishuv jarayonidagi nutqiy xulq-atvor farqlari aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi gender kategoriyasining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo‘lib, unda erkak va ayol nutqiga xos pragmatik farqlar har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda gender masalasini chuqurroq anglashga, shuningdek, nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy tilshunoslik sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA. Gender lingvistikasi XX asrning ikkinchi yarmida sotsiolingvistikaning alohida yo‘nalishi sifatida shakllangan bo‘lsa-da, til va jins o‘rtasidagi munosabatlar masalasi ilmiy tafakkurda ancha avval paydo bo‘lgan. Til tizimida biologik jins kategoriyasining mavjudligi ilk bor antik davr faylasuflari — Platon va Aristotel tomonidan muhokama qilingan. Ularning qarashlariga ko‘ra, grammatik jinsning mavjudligi tabiatda erkak va ayol jinslarining mavjudligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, til real borliqning aksidir (12, 23).

Antik davr tadqiqotchilari gender kategoriyasining nolingvistik motivatsiyasini izohlash jarayonida o‘zlarining ijtimoiy va madaniy tajribalariga tayanishgan. Natijada, grammatik jins birliklariga muayyan konnotativ baholar yuklangan: erkak jinsiga mansub otlar kuch, faollik va energiya bilan, ayol jinsiga mansub birliklar esa zaiflik va bo‘ysunuvchanlik bilan tavsiflangan. Ushbu baholovchi yondashuvlar keyingi davr lingvistik qarashlarida ham ma’lum darajada saqlanib qolgan.

“Ayollar tili” tushunchasining alohida nutq uslubi sifatida mavjudligi haqidagi g‘oyalar dastlab antropologik va etnologik tadqiqotlar doirasida shakllangan. XVII asrda Karib dengizi hududlariga sayohat qilgan tadqiqotchilar tomonidan e’lon qilingan hisobotlarda ayollar tomonidan qo‘llaniladigan maxsus til shakllari haqida ma’lumotlar uchraydi. Ulrike Gresselning “Sprachverhalten und Geschlecht” (1991) asarida keltirilishicha, ayollar va erkaklar nutqidagi farqlarni ilmiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar 1664-yildan boshlangan.

Raymond Breton tomonidan 1665-yilda Parijda nashr etilgan “Dictionnaire Caraïbe-français” lug‘atida Karib dengizi mahalliy aholisi nutqida qo‘llaniladigan leksik birliklar ayollar va erkaklar tomonidan ishlatiladigan so‘zlar tarzida farqlab berilgan. Mazkur holat ikki alohida til mavjudligini emas, balki bir til doirasida jinsga ko‘ra farqlanuvchi nutqiy xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatadi (1, 5).

Ayollar nutqini ilmiy jihatdan tahlil qilgan dastlabki olimlar qatoriga avstriyalik faylasuf va til

tanqidchisi Fridrix Mautner hamda daniyalik tilshunos Yens Otto Yaspersen kiradi. F. Mautner o‘z tadqiqotlarida gender tafovutlarini antik teatr an’analari bilan bog‘laydi. Ma’lumki, antik teatrda ayol rollari erkak aktyorlar tomonidan ijro etilgan bo‘lib, bu jarayonda shartli ravishda “erkaklar tili” va “ayollar tili” modellari shakllangan.

Mautner turli ijtimoiy guruhlarga mansub erkak va ayollarning nutqiy xulq-atvorini o‘rganar ekan, tildagi gender farqlanishini biologik emas, balki ijtimoiy omillar bilan izohlaydi. Uning fikricha, erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar ta’lim darajasi, ijtimoiy maqom va hayotiy tajriba bilan belgilanadi. Olim ishchilar sinfi vakillari orasida jinslararo lisoniy farqlar deyarli kuzatilmasligini ta’kidlaydi. Shuningdek, u ayollar nutqini aniqlik, erkaklar nutqini esa noaniqlik va qo‘pollikka moyillik bilan tavsiflaydi.

Mautner nemis tili materiallari asosida tildagi farqlar biologik jins emas, balki gender — ya’ni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq degan xulosaga keladi. Biroq uning qarashlari keng ilmiy doirada yetarlicha e’tirof etilmagan.

Gender masalasini tilshunoslik bilan uzviy bog‘lab tadqiq qilgan yana bir olim Y. O. Yaspersen hisoblanadi. Uning “Language: Its Nature, Development and Origin” (1925) asarida ayollar va erkaklar nutqi o‘rtasidagi farqlar alohida bobda yoritilgan. Olim fonetik darajada farqlarni aniqlay olmagan bo‘lsa-da, leksik tanlovdagi jinslararo tafovutlarni empirik tajribalar orqali asoslagan. Tajribalar natijasida erkaklar tabiat va hayvonot olamiga oid so‘zlarni, ayollar esa kiyim-kechak va mato turlariga oid leksik birliklarni ko‘proq tanlaganlari aniqlangan (7, 228).

Yaspersen ayollar nutqini ko‘pincha bo‘rttirishga moyil, sintaktik jihatdan esa tugallanmagan tuzilmalar bilan xarakterlaydi va buni fikrlash jarayonining nomukammalligi bilan izohlaydi (7, 234). Ham Mautner, ham Yaspersen ayollar tilini erkaklar tilining quyi darajadagi varianti sifatida talqin qilganlar. Ular gender lingvistikasida farq gipotezasi vakillari sifatida e’tirof etiladi.

Amerikalik tilshunos va antropolog Edvard Sepir “Male and Female Speech in Yana” (1929) asarida erkak va ayol nutqidagi farqlarni tahlil qilib, barcha tillar estetik va struktur jihatdan teng murakkablikka ega ekanini ta’kidlaydi (11).

1960-yillarda Uilyam Labov jins masalasini sotsiolingvistik yondashuv asosida tizimli ravishda o‘rganib, ayollar nutqi erkaklar nutqiga nisbatan standart til me’yorlariga yaqinroq ekanini asoslab berdi. Keyinchalik Meri Ritchi Key va uning shogirdi Robin Lakkof ayollar tili masalasini rivojlantirib, gender lingvistikasining mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar (16, 49).

Robin Lakkofning “Language and Women’s Place” (1975) asari ingliz tilining androsentrik xususiyatlarini ochib berib, gender va til munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Gender tilshunosligi AQSHdan tashqari Yevropa mamlakatlarida, xususan Germaniyada ham jadal rivojlandi. Germaniyada til va jins masalalarini ilmiy asosda tadqiq etish 1970-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi va bu jarayon, avvalo, ayollar tili hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga qaratilgan edi.

Germaniyada ayollar tiliga doir dastlabki ilmiy qarashlar 1974-yilda germaniyalik tilshunos Ingrid Güntherodt tomonidan Trier universitetida tashkil etilgan seminar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu seminar ayollarning lingvistik xatti-harakatlari, ya’ni muloqot jarayonidagi nutqiy uslubi, kommunikativ strategiyalari va til vositalaridan foydalanish xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan edi. Güntherodt mazkur seminar doirasida ayollar tiliga oid bir qator ma’ruzalar o‘qib, bu masalani mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ilgari surdi.

Olima o‘z ilmiy qarashlarini shakllantirishda amerikalik tadqiqotchilar — Merilin Key va Robin Lakoffning ayollar tili haqidagi nazariyalaridan sezilarli darajada ilhomlangan. Xususan,

Lakoff tomonidan ilgari surilgan ayollar nutqining ehtiyotkorlik, bilvositalik va xushmuomalalik bilan tavsiflanishi haqidagi g‘oyalar Güntherodt tadqiqotlarida Germaniya jamiyati kontekstida qayta talqin qilindi. Natijada, ayollar tilining o‘ziga xos xususiyatlari nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham bog‘liqligi asoslab berildi.

Bassiouney, R. (2019). Diglossia and variation in Arabic. In K. Versteegh & M. Woidich (Eds.), The Cambridge Handbook of Arabic Linguistics (pp. 463–480). Cambridge University Press.

Bybee, J. L. (2006). Frequency of Use and the Organization of Language. Oxford: Oxford University Press.

Bybee, J. L. (2010). Language, Usage and Cognition. Cambridge: Cambridge University Press.

Ferguson, C. A. (1959). Diglossia. Word, 15(2), 325–340.

Gordon, E. (2016). Colloquial Arabic of Egypt: The Complete Course for Beginners (2nd ed.). London: Routledge.

Haeri, N. (2003). Sacred Language, Ordinary People: Dilemmas of Culture and Politics in Egypt. New York: Palgrave Macmillan.

Holes, C. (2004). Modern Arabic: Structures, Functions, and Varieties (2nd ed.). Washington, DC: Georgetown University Press.

Khubrani, A. (2020). Contact-induced changes in the verbal system of Modern Standard Arabic in the Gulf. Arabic Linguistics Review, 11(1), 57–89.

Labov, W. (1994). Principles of Linguistic Change: Internal Factors (Vol. 1). Oxford: Blackwell.

Mejdell, G. (2006). Mixed styles in spoken Arabic in Egypt. In E. Ditters & H. Motzki (Eds.), Approaches to Arabic Linguistics (pp. 169–192). Leiden: Brill.

Mejdell, G. (2012). Code-switching and style-shifting in Arabic. In P. Auer (Ed.), The Handbook of Language Contact (pp. 607–624). Oxford: Wiley-Blackwell.

Miller, C. (2016). MSA and Spoken Arabic: A Functional Approach. Edinburgh: Edinburgh University Press.

Owens, J. (2015). The Oxford Handbook of Arabic Linguistics. Oxford: Oxford University Press.

Ryding, K. C. (2005). A Reference Grammar of Modern Standard Arabic. Cambridge: Cambridge University Press.

Spolsky, B. (2012). Language Policy (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.

Sperber, D., & Wilson, D. (1986). Relevance: Communication and Cognition. Oxford: Blackwell.

Suleiman, Y. (2003). The Arabic Language and National Identity: A Study in Ideology. Edinburgh: Edinburgh University Press.

Suleiman, Y. (2018). Language and Identity in the Middle East and North Africa. Cambridge: Cambridge University Press.

Traugott, E. C., & Dasher, R. B. (2002). Regularity in Semantic Change. Cambridge: Cambridge University Press.

Traugott, E. C., & Trousdale, G. (2013). Construction Grammar and Language Change. Cambridge: Cambridge University Press.

Versteegh, K. (2014). Arabic Linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press.

Weinreich, U., Labov, W., & Herzog, M. I. (1968). Empirical foundations for a theory of language change. In W. P. Lehmann & Y. Malkiel (Eds.), Directions for Historical Linguistics (pp. 95–188). Austin: University of Texas Press.

Winford, D. (2003). An Introduction to Contact Linguistics. Cambridge: Cambridge University Press.

Winford, D. (2018). Contact-induced semantic change. In C. Maier & S. Mauck (Eds.), The Oxford Handbook of Semantic Change (pp. 463–486). Oxford: Oxford University Press.

"ALFIYYA" ASARIDA كان VA UNGA O'XSHASH FE'LLAR MORFOLOGIK XUSUSIYATLARINING OCHIB BERILISHI

AVAZBEK D. OCHILOV
Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi, Davlat jahon tillari universiteti

OTABEK N. MAMADALIYEV
Tillar -1 kafedrasi stajyor o'qiruvchisi, Orientlal universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alfiyada bayon qilingan كان va unga o'xshash fe'llarning morfologik, semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ularning ot kesimli gapdagi ega va kesimga ta'siri, bosh va tushum kelishiklarini shakllantirishdagi roli hamda arab tilidagi "navosix" tizimidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, mashhur olimlar, jumladan Sibawayh va Al-Mubarradning qarashlari bilan solishtiriladi. Ushbu tadqiqot "كان va uning opa-singillari" fe'llarining arab tili grammatikasidagi muhimligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *arab tili grammatikasi, nahv ilmi, Alfiyya, Ibn Malik, كان va uning opa-singillari (كان وأخواتها), navosix (النواسخ), yordamchi fe'llar (الأفعال الناقصة), morfologik va sintaktik xususiyatlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются морфологические, семантические и синтаксические особенности глаголов كان и ему подобных, изложенных в «Альфии». В исследовании рассматривается их влияние на подлежащее и именную часть сказуемого в именном предложении, их роль в формировании именительного и винительного падежей, а также их место в системе «навасих» арабского языка. Кроме того, приводится сопоставление с взглядами известных ученых, в частности Sibawayh и Al-Mubarrad. Данное исследование показывает важность глаголов «كان и его сестры» в грамматике арабского языка.*

Ключевые слова: *грамматика арабского языка, наука нахв, Alfiyya, Ibn Malik, كان и его сестры (كان وأخواتها), навасих (النواسخ), вспомогательные глаголы (الأفعال الناقصة), морфологические и синтаксические особенности.*

Abstract: *This article analyzes the morphological, semantic, and syntactic characteristics of kāna and its related verbs described in the Alfiyya. The study examines their influence on the subject and predicate in nominal sentences, their role in forming the nominative and accusative cases, and their place within the "nawāsiḫ" system of Arabic grammar. It also compares the views of prominent scholars, including Sibawayh and Al-Mubarrad. This research highlights the significance of the verbs known as "kāna and its sisters" in Arabic grammar.*

Keywords: *Arabic grammar, naḥw studies, Alfiyya, Ibn Malik, kāna and its sisters (كان وأخواتها), nawāsiḫ (النواسخ), auxiliary verbs (الأفعال الناقصة), morphological and syntactic features.*

Kirish. Arab tili dunyodagi eng qadimiy va mukammal grammatik tizimlardan biriga ega bo'lib, uning sintaktik va morfologik tuzilishi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ayniqsa, arab tilining nahv ilmi doirasida gap tuzilishi, so'zlarning o'zaro bog'lanishi va grammatik kategoriyalarning shakllanishi muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Arab tilshunosligi tarixida bu ilmni tizimli ravishda bayon qilgan ko'plab asarlar mavjud bo'lib, ular

orasida Alfiyya alohida o‘rin egallaydi. Ushbu asar muallifi Ibn Molik arab tili grammatikasining asosiy qoidalarini nazm shaklida bayon qilib, nahv ilmining muhim masalalarini ixcham va tizimli tarzda yoritib bergan.

Arab tili grammatikasida muhim o‘rin tutuvchi mavzulardan biri كان va unga o‘xshash fe’llar masalasidir. Bu fe’llar nahv ilmida كان وأخواتها – “kana va uning opa-singillari” nomi bilan mashhur bo‘lib, ot kesimli gaplarning sintaktik tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ular gapdagi ega va kesimning kelishiklarini o‘zgartirib, gap tuzilishida muhim grammatik vazifani bajaradi. Shu sababli mazkur fe’llar arab tili grammatikasida “navosix” deb ataluvchi grammatik birliklar tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mazkur masala qadimgi arab tilshunoslari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Jumladan, Sibavayh, Mubarrad va boshqa mashhur nahv olimlari bu fe’llarning grammatik tabiati, ularning gap tarkibidagi vazifasi hamda morfologik xususiyatlari haqida turli qarashlarni ilgari surganlar. Keyingi davr tilshunoslari ham mazkur masalani izchil davom ettirib, uning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur tahlil qilganlar.

Ushbu maqolaning maqsadi Alfiyya asarida bayon qilingan كان va unga o‘xshash fe’llarning morfologik, semantik hamda sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning ot kesimli gap tarkibidagi vazifasini aniqlash hamda arab tili grammatikasidagi o‘rnini ilmiy manbalar asosida yoritishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. N. Krylova “Alfiyya” asarining arab grammatikasi rivojida tutgan o‘rni haqida, V. Porxomovskiy ibn Molik va arab grammatik maktablari munosabati va “Alfiyya”dagi qadimgi nazariyalar va ularning zamonaviy talqini borasida, O. Vasileyevna ibn Molik “Alfiyya” asarining arab sintaksisining shakllanishidagi o‘rni haqida, A. Kibrik esa “Alfiyya” va undan kelib chiqqan qoidalarni zamonaviy sintaksis bilan taqqoslash borasida o‘z maqolalari va magistrlik dissertatsiyalarida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tgan. Shuningdek, qozog‘istonlik olim N.Sh. Yusupov “Ibn Molikning “Alfiyya” qasidasini she’riy tarjima qilish muammolari” nomli maqolasida asarni rus tiliga tarjima qilishda duch kelinadigan muammolar haqida yuz yuritgan (N. Kryilova. Arab grammatikasi nazariyasi va uning rivoji. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti, - 1997.; V. Porxomovskiy. Arab grammatik an’anasining rivojlanishi. Moskva Davlat Universiteti, - 2000.; O. Vasileyevna // Arab grammatikasida klassik qoidalarning shakllanishi va ularning zamonaviy o’rganilishi // Arabist jurnali. - 2015-54 s; A. Kibrik. Arab tilida gaplarning tuzilishi. Moskva Davlat Universiteti, - 2008. N.Sh. Yusupov // Ibn Molikning “Alfiyya” qasidasini she’riy tarjima qilish muammolari // Al-Farobiy nomli Qozog’iston Milliy Universiteti, “Sharqshunoslik series” ilmiy jurnali, - 2010-110-114 s.).

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarning ba’zilarida “Alfiyya”da berilgan كان (kana) va unga o‘xshash fe’llar qoidalari boshqa kitoblarga qiyoslanib, unga nisbatan tor doirada qisqa izoh berib o‘tib ketilgan yoki ularga tarixiy aspekt jihatidan yondashilgan bo‘lsada, aynan shu mavzuni atroflicha yoritgan ilmiy ishni ko‘rmaymiz.

Natijalar. Ibn Molik “Alfiyya” asarida arab tili nahviga oid barcha zarur qoidalarni jamlagani va yoritgani haqida yuqorida aytib o‘tdik. Jumladan, كان va unga o‘xshash fe’llar mavzusiga ham alohida to‘xtalgan.

كان va unga o‘xshash fe’llar arab tili grammatikasining muhim mavzularidan biri bo‘lib, arab tilidagi asl nomining o‘rganilishi va izohlanishi mavzu yanada teranroq tadqiq etilishini ta’minlaydi. Ushbu atama arab tili grammatikasida كان و أخواتها – “Kana va uning opa-singillari” deb nomlanadi (Al-Samarai, 2014, p. 210).

Ma’lumki, arab tilida so‘zlar kelishikni anglatuvchi affikslarisiz yoziladi. Shunday ekan, muayyan bir so‘z qaysi kelishikda ekani har doim ham ochiq-oydin bilinmaydi. Mazkur atama uch xil sintaktik vazifada sintaktik tahlil qilina olishiga ko‘ra, uch xil kelishikda o‘qilishi mumkin:

Agar هذه كان و أخواتُها – “Bu kana va uning opa-singillaridir” deb, gapning avvalida هذه - “bu” so‘zi bor, deb nazarda tutilsa, mazkur ibora ega va kesim tarzida ifodalanib, bosh kelishikda sanaladi.

Agar اذكر كان و أخاواتها – “Kana va uning opa-singillarini zikr qil” shaklida o‘qilib, gapning avvalida اذكر – “Zikr qil” so‘zi bor, deb nazarda tutilsa, mazkur ibora to‘ldiruvchi tarzida tushum kelishigida hisoblanadi.

Shuningdek, هذا باب كان و أخواتها – “Bu “kana va uning opa-singillari” bobidir” deb, gap avvalida هذا باب - “Bu … bobidir” so‘zi borligi nazarda tutilsa, ibora qaratqich kelishida bo‘ladi.

Arab tili grammatikasidagi ushbu bo‘lim nima uchun كان fe’li bilan nomlangani borasida ham quyidagicha izohlar mavjud: كان – “bo‘ldi” fe’li bob tarkibiga kiruvchi barcha fe’llarning ma’nosini o‘zida qamrab olishi bilan ajralib turadi. Undan boshqasi esa muayyan vaqtlarga yoki ma’nolargagina xoslangandir. Ya’ni, كان fe’li كينونة – “Mavjudlik” ma’nosini anglatishi e’tiborga olinsa, boshqa fe’llarning zamon va makoni qanday bo‘lishidan qat’iy nazar “Mavjudlik” ma’nosi ularni qamrab oladi (Al-Azhari, 1971, p. 256). Masalan:

أصبح زيدٌ مريضا

“Zayd tong vaqtida kasal bo‘ldi”.

أمسى زيدٌ صحيحا

“Zayd tunda sog‘lom bo‘ldi” (Al-Buqai, 2003, p. 211).

Boshqa fe’llar ham mana shu ikkisi kabi muayyan vaqtni yoki paytni ifodalaydi. Barchasida ham mavjudlik ma’nosi bor.

M. Abdulhamid esa shunday izohlaydi: “Shu bilan birga, كان fe’li حدث – “hadasa – paydo bo‘ldi” ma’nosida qo‘llana oladi. “Paydo bo‘ldi” ma’nosi esa o‘n uch fe’lning barchasiga umumiy hisoblana oladi. كان dan boshqa fe’llarda esa bunday xususiyat kuzatilmaydi. Boshqalari qaysidir vaqtga yoki paytga xoslangani sabab umumni ifodalovchi ma’noga dalolat qilmaydi” (Abd al-Hamid, 1955, p. 324).

Ibn Molik ushbu fe’llarga oid 14 bayt (143-156) bitgan. U fe’llarning morfologik xususiyatlarini yoritishdan boshlab, shunday deydi:

ترفعُ كانَ المبتدا اسما و الخبرْ تنْصبُهُ ككانَ سيِّدا عُمرْ
ككانَ ظلَّ باتَ أضْحَى أصبحا أمسى و صار ليسَ

Ya’ni: “كان (fe’li) ot kesimli gap egasini bosh kelishigiga, (ot kesimli gapning) kesimini tushum kelishigiga o‘tkazadi. Ikkisini o‘ziga tegishli qiladi. Misol: Umar sayyid edi. كان, ظل, بات, أضحى, أمسى, صار, ليس (fe’llarining barchasi) ana shunday (sintaktik ta’sirga ega)”.

كان fe’li ajvaf (o‘rtasi bo‘sh) fe’llar sirasiga kirib, unda fonetik jihtadan bir qancha hodisalar ro‘y beradi. Zamonaviy o‘zbek tadqiqotchilarimiz bu masalani o‘rganishgan (Kazakbayev).

كان – “kaana” va unga o‘xshash fe’llarning morfologik xususiyatlarini yoritishdan avval, gapdagi grammatik bo‘laklarning sintaktik tuzilishiga ta’sir o‘tkazuvchi grammatik birliklar haqida so‘z yuritish maqsadga muvofiqdir. Arab tilida ushbu grammatik birliklar “Navosix” – “Bekor qiluvchilar” deb atalib, muayyan gap bo‘lagining – gap egasi yoki kesimining yoki ikkisininig ham kelishigini o‘zgartiruvchi so‘zlar nazarda tutiladi.

Bu borada Murodiy shunday deydi: “Arab tilida gapning egasi gap avvalida kelgani sabab bosh kelishikda hisoblanib, bosh kelishikni anglatuvchi affikslarni qabul qiladi. Mana shunday

holatda كان va unga o‘xshash fe’llar gapning avvaliga tushib qolsa, ega gap boshida kelmayotgani sabab bosh kelishikka sabab bo‘lgan omilini yo‘qotadi.

“Navosix” grammatik birliklar ikki turga bo‘linadi:

1. Fe’l navosixlari. Ushbu tur uch qismdan iborat:
   a. كان va unga o‘xshash fe’llar
   b. كاد va unga o‘xshash fe’llar
   c. ظن va unga o‘xshash fe’llar
2. Predlog navosixlari. Ushbu tur ham uch qismga bo‘linadi:
   a. إنّ va unga o‘xshash predloglar
   b. Jinsning butublay mavjud emasligini ifodalovchi لا predlogi
   c. ليس fe’lining grammatik va sintaktik xususiyatlarini ifodalovchi ما va unga o‘xshash predloglar” (Al-Muradi, 2001, p. 492).

Ushbu desertatsiyada كان va unga o‘xshash fe’llarning morfologik-semantik va sintaktik-struktur xususiyatlarini tadqiq etiladi.

كان va unga o‘xshash fe’llar arab tilida “كان و أخواتها” – “Kaana va uning opa-singillari” deyilishi yuqorida o‘tdi. Nima uchun “opa-singillari” deb nom olgani masalasi grammatik nuqtayi nazarga borib taqaladi. Ya’ni, o‘n uch fe’lning barchasi gapning struktur tuzilishiga bir xil ta’sir etadi.

Ibn Molik كان va unga o‘xshash fe’llarning sintaktik ta’siriga bergan izohi yuqorida o‘tdi. Unga ko‘ra كان va unga o‘xshash fe’llar ot kesimli gapning egasini bosh kelishikda, kesimnini esa tushum kelishigiga o‘tkazib, har ikkisini o‘ziga tegishli qiladi. Mubarrad va Sibavayhi kabi mashhur olimlar ham bu fikrni tasdiqlaydilari (Al-Suyuti, 1992, p. 72).

Bu borada olimlarning boshqa qarashi ham mavjud: ot kesimli gapning egasi majozan fe’l kesimli gapning egasi deb e’tiborga olinadi, ot kesim esa majozan to‘ldiruvchiga aylanadi (Abd al-Raouf, p. 257):

زيدٌ قائمٌ - كان زيدٌ قائما

“Zayd tik turibdi” – “Zayd tik turgan edi”.

العلمُ نورٌ - كان العلمُ نورا

Kufalik olimlar ot kesimli gapning egasi shundoq ham bosh kelishikda hisoblanadi, كان fe’li kelgani sabab u bosh kelishikka o‘tmaydi, deb aytishadi (Al-Azhari, 1971, p. 249). Lekin ushbu qarash boshqa olimlarning, jumladan, Farroning fikriga ko‘ra to‘g‘ri emas. Yuqorida ta’kidlanaganidek gapning egasi gapning avvalida kelganiga ko‘ra bosh kelishikda hisoblanadi. كان fe’li esa gapda egadan oldin keltiriladi, shunga ko‘ra ega gapning avvalida kelgani sabab bosh kelishikka o‘tishi bekor bo‘ladi. Ushbu grammatik jarayonda كان fe’li ot kesimli gapning egasini hamda kesimni o‘ziga tegishli qilib oladi. Bu qarshni basralik olimlar ilgari surishgan (Al-Suyuti, 1992, p. 73). Masalan:

المسجدُ مفتوحٌ - كان المسجدُ مفتوحا

“Masjid ochiqdir” – “Masjid ochiq edi”.

Ta’kidlash joizki, bu grammatik o‘zgarishning sodir bo‘lishini Kufa va Basra olimlari har xil sharhlashgan. Kufalik olimlar: “كان fe’li مفتوح ot kesimni tushum kelishigiga o‘tkazdi. Lekin المسجد so‘zi shundoq ham bosh kelishikda turgan edi, كان fe’li bu so‘zga ta’sir qilmadi” deyishadi.

Arab tilini o‘zbek tiliga moslab o‘rgangan zamonaviy olimlardan biri M. Yusupov mazkur grammatik tahlilni quyidagi talqin etadi:

“Ot yoki sifat bilan birga kelib, o‘tgan yoki kelasi zamonda turgan qo‘shma fe’lning yordamchi fe’li vazifasini bajaradi. Bunda bu fe’l bilan kelgan ot yoki sifat noaniq holatda ega

bilan jinsda va sonda moslashgan holda tushum kelishigida keladi…" (Yusupov & Ibrohimov, 1997, p. 77).

Shuningdek, quyidagi izohlarni qo‘shimcha qiladi:

"..."bo‘lmoq" ma’nosida yetakchi fe’l (mustaqil fe’l) vazifasini bajarishdan tashqari ot kesimli gaplarda ega bilan kesim o‘rtasida bog‘lama vazifasini bajaradi: Mas.,

أحمدُ تيلميذ - Ahmad o‘quvchidir., كان أحمدُ تلميذا – Ahmad o‘quvchi edi" (Yusupov & Ibrohimov, 1997, p. 346).

"Alfiyya" asarining o‘zida Ibn Molik odatiga ko‘ra misol keltirgan:

كان سيدا عمر

"Umar boshliq edi". Shu o‘rinda e’tibor berish lozimki, سيدا so‘zi عمر so‘zidan keyin kelishi kerak edi, aslida. Lekin qofiya qoidalariga ko‘ra oldinga o‘tdi. Demak, كان fe’lining kesimi egasidan oldinga o‘tishi mumkin.

Asarning keyingi baytlarida كان fe’lining sheriklari haqida so‘z boradi. كان va unga o‘xshash fe’llar baytda zikr etilganidek o‘n uchtadir:

1. كان – "bo‘ldi"
2. ظلّ – "kunduzi bo‘ldi"
3. بات – "tunadi"
4. أضحى – "choshgoh vaqtida bo‘ldi"
5. أصبح – "aylandi"
6. أمسى – "kech bo‘ldi"
7. صار – "aylandi"
8. ليس – "emas"
9. ما زال – "davom etdi"
10. ما برح – "davom etdi"
11. ما فتئ – "davom etdi"
12. ما انفكّ – "davom etdi"
13. ما دام – "modomiki", "davomida".

Mazkur fe’llarni ibn Hojib Asqaloniy "الأفعال الناقصة" – "Noqis – yordamchi fe’llar" deb nomlab, shunday deydi: "Yordamchi fe’llar – ot kesimli gap egasini (yordamchi fe’lning harakat nomi bilan) vasflovchi fe’llar bo‘lib, ular quyidagilardir: كان, أصبح, أمسى, أضحى, ظل, بات, آض, عاد, غدا, راح, ما زال, ما فتئ, ما انفك, ما برح, ما دام, ليس. Bu fe’llar ot kesimli gapda ishtirok etib, kesim bilan qo‘shma ma’no hosil qiladi. Gap egasini bosh kelishikka, kesimini tushum kelishigiga o‘tkazadi" (Al-Maliki, 2009, p. 218).

Ushbu fe’llardan biri va ot kesimli gap egasining yolg‘iz o‘zi orqali jumla tuzilsa, respiyent nazdida ma’no tugallanmay qoladi. Shu sabab ular yordamchi fe’l deb nomlanadi. Ma’lumki, mustaqil fe’llar ishtirokida tuzilgan gapda bunday holat yuz bermaydi.

Masalan, صار – "aylandi" fe’lini faqatgina gap egasi bilan keltirilsa, bir narsaning holati boshqa holatga o‘tganini bildiradi, lekin aynan qanday holatga o‘tgani majhulligicha qoladi. Yoki أصبح – "tong vaqtida bo‘ldi" fe’li gap egasi bilangina qo‘llansa, gapdagi hodisa tong payti sodir etilgani ayon bo‘ladiyu, aynan nima bo‘lgani haqida tushuncha izohlanmaydi. ليس – "emas", ما زال – "davom etdi" va boshqa sheriklarini misolida ham aynan shunday hodisani kuzatish mumkin (Abbas Hasan, p. 545).

كان va unga o‘xshash fe’llar yordamchi fe’l deb atalishini boshqa olimlarning izohiga ko‘ra, ular gap mazmunida faqat zamonni ifoda etib, hodisani ifodalay olmaydi. Shu omil sabab ular mustaqil fe’l bo‘la olmaydi. Masalan:

كان زيدٌ قائما

“Zayd tik turgan edi” (Jamaluddin Muhammad, 2000, p. 54).

Misoldan ko‘rish mumkinki, كان fe’li gapdagi ma’no qachon ro‘y berganini, ya’ni o‘tgan zamonda bo‘lganini bayon qilmoqda, lekin to‘liq ma’no – hodisa kesim ishtiroki bilangina oshkor bo‘lmoqda.

Yana ba’zi olimlarnig fikriga ko‘ra, كان va unga o‘xshash fe’llar harakat nomi ma’nosini ifoda etmay, faqat zamonni bildiradi. Aksariyat olimlar bu qarashni rad etib, bir qancha dalillar keltirishgan (Misri, 1996, p. 1024).

Ibn Hojib Asqaloniy so‘zida yordamchi fe’llar to‘rtta fe’lni qo‘shimcha qildi: آض, عاد, غدا, راح – “aylandi”. Shuningdek, boshqa ilmiy manbaalarda ularning soni yana ortganini ko‘rishimiz mumkin: ارتد ,حال ,رجع ,آل – Ushbu to‘rt fe’l “qaytdi”, استحال تحول – “aylandi”, قعد – “o‘tirdi” ma’nosida ishlatiladi.

Lekin Ibn Molik راح ,غدا fe’llarini mustaqil ma’noda ekanini ta’kidlagan. Shu bilan birga, agar صار ma’nosida bo‘lsa, yordamchi fe’l vazifasida kelishi mumkinligini aytgan (Al-Shanfari, 1998, p. 190).

Agar ikki ushbu fe’l “qaytish” va “jo‘nash” ma’nosida, boshqa fe’llar ham yuqorida ko‘rsatilgan ma’noda qo‘llansa, ular mustaqil fe’llar hisoblanadi. Gapda ulardan keyin kelgan tushum kelishigidagi so‘z esa o‘rin-payt holi deb sintaktik tahlil qilinadi (Misri, 1996, p. 1034).

Ibrohim Shotibiy كان ga o‘xshash fe’llar o‘ttiz ikkitaga yetishini aytgan (Al-Shatibi, 2008, p. 147).

Xulosa. Arab tili grammatikasida كان va unga o‘xshash fe’llar muhim sintaktik hodisalardan biri hisoblanadi. Ushbu fe’llar ot kesimli gap tarkibida ishtirok etib, gapning grammatik tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ular gap egasini bosh kelishikda saqlab qolib, kesimni esa tushum kelishigiga o‘tkazishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan ular arab tilidagi “navosix” deb ataluvchi grammatik birliklar tizimining muhim qismi hisoblanadi.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, كان va uning opa-singillari arab tilida morfologik, semantik va sintaktik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning aksariyati gapda yordamchi fe’l vazifasini bajarib, asosiy ma’no kesim orqali ifodalanadi, fe’l esa asosan zamon yoki holatni bildiradi. Shu sababli ular arab tilshunosligida “noqis fe’llar” sifatida ham talqin qilinadi.

Shuningdek, mazkur fe’llarning grammatik tabiati borasida turli tilshunos olimlarning qarashlari mavjudligi kuzatildi. Jumladan, Sibawayh, Al-Mubarrad hamda boshqa nahv olimlari bu fe’llarning gapdagi vazifasi va sintaktik ta’siri haqida muhim ilmiy fikrlar bildirganlar. Ularning qarashlari arab tilining sintaktik tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Alfiyya asarida Ibn Malik tomonidan كان va unga o‘xshash fe’llar haqida berilgan izohlar arab tili grammatikasining nazariy asoslarini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu fe’llarning morfologik-semantik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganish arab tilining nahv tizimini yanada chuqurroq anglashga hamda arab tilini ilmiy asosda o‘qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

References

1. Al-Shatibi, I. (2008). The Healing Objectives. *Al-Maqasid al-Shafiya.* – Mecca: Ma'had al-Buhuth al-Ilmiyya. – 233 p. (in Arabic)

2. Misri, Y.B. (1996). Commentary of al-Radhi. *Sharh ar-Radi.* – Cairo: al-Idara al-Amma li-l-Thaqafa wa al-Nashr bi-l-Jami‘a. – 1114 p. (in Arabic)

3. Muhammad, J.D. (2000). Commentary of Ibn Nazim. *Sharh Ibn Nazim.* – Beirut: Dar al-Kutub al-

Ilmiyya. – 260 p. (in Arabic)
4. Hasan, A. (n.d.). Comprehensive Arabic Grammar. *Al-Nahw al-Wafi.* – Cairo: Dar al-Ma‘arif. – 560 p. (in Arabic)
5. Al-Maliki, J.D. (2009). The Radiant Benefits. *Al-Fawa’id al-Diya’iyya.* – Beirut: Dar Ihya’ al-Turath al-Arabi. – 380 p. (in Arabic)
6. Yusupov, M., Ibrohimov, N. (1997). Arabic Grammar. Volume I. *Arab tili grammatikasi.* – Tashkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – 453 p. (in Uzbek)
7. Al-Suyuti, J.D. (1992). Al-Hum‘a. *Al-Hum‘a.* – Beirut: Mu’assasat al-Risala. – 480 p. (in Arabic)
8. Al-Azhari, K. (1971). Clarification. *Al-Tasrih.* – Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. – 310 p. (in Arabic)
9. Sa‘d, T.A.R. (n.d.). Al-Sabban’s Gloss on al-Ashmuni. *Hashiyat al-Sabban ‘ala al-Ashmuni.* – Cairo: Maktabat al-Tawfiqiyya. – 278 p. (in Arabic)
10. Al-Muradi, H. (2001). Explanation of Objectives and Methods. *Tawzih al-Maqasid wa al-Masalik.* – Cairo: Dar al-Fikr al-Arabi. – 492 p. (in Arabic)
11. Kazakbayev, A. (n.d.). The Importance of Muhammad al-Mu‘zi’s Work “Tasrif al-Af‘al” in the Development of Morphology. *Muhammad al-Mu‘ziyning “Tasrif-ul-af‘al” asarining sarf ilmi rivojidagi ahamiyati.* – (publication data unknown). (in Uzbek)
12. Al-Samarrai, F. (2014). Arabic Grammar: Rules and Meanings. *Al-Nahw al-‘Arabi Ahkam wa Ma‘ani.* – Beirut: Dar Ibn Kathir. – 320 p. (in Arabic)

O‘RTA ASRLARDA BUXORODA OLIY TA’LIM TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXIDAN

KOMILJON RAHIMOV
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor, TDSHU

Muqaddima

Islomgacha bo‘lgan davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lgan Buxoro o‘lkamizga islom dini kirib kelganidan keyin nafaqat o‘zining ushbu o‘rni va rolini saqlab qoldi, balki islom olamining yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan biriga aylanishga ham erishdi. Dunyoga ko‘plab mashhur diniy va dunyoviy ilmlar olimlari, shoirlar va yozuvchilarni taqdim etgan bu shahar islom davrining boshlaridayoq *qubbat ul-islom* – islom gumbazi nomi bilan mashhur bo‘ldi. O‘lkamizning islom davri taraqqiyotida Buxoroda vujudga kelib, keyinchalik boshqa shaharlarimizga ham yoyilgan ta’lim tizimi alohida o‘rin tutdi.

VIII–XI asrlarda Buxoroda ta’lim tizimi shakllanishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, avval boshlab *masjidlar* huzuridagi boshlangan umumiy-aralash ta’lim keyinchalik boshlang‘ich ta’limga mo‘ljallangan *maktablar* hamda o‘rta va oliy ta’limga mo‘ljallangan *madrasalar*ga ko‘chib o‘tdi. Ushbu markazlashgan ta’lim muassasalaridan tashqari kitob do‘konlari, kutubxonalar, karvonsaroylar, rabotlar, xonaqohlar, shifoxonalar kabi boshqa madaniy makonlar ham nafaqat ilm o‘rganuvchilar va olimlarning yig‘iladigan joylari, balki ta’lim markazlari vazifasini ham bajarardi.

Bu davrdagi Buxoro ta’lim tizimini shartli ravishda masjidlar va maktablarda hamda xususiy

o‘qituvchilar huzurida amalga oshirilgan *boshlang‘ich ta’lim*, masjidlar, madrasalar va boshqa madaniy makonlar hamda ilmiy yig‘inlar doirasidagi *o‘rta va oliy ta’lim*, shuningdek, alohida ustozlar huzuridagi ta’lim va ilm talabidagi xorij safarlari doirasidagi *oliy maxsus ta’lim* deb ataluvchi tizimlarga bo‘lishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘rta va oliy ta’lim

O‘rta asrlar xristian Yevropasida ta’lim deb birinchi navbatda diniy ilmlar ta’limi anglashilgani sababli ilk tizimli ta’lim ham aynan cherkovlar huzurida boshlangan, ilk oliy ta’lim muassasalari ham dastlab faqatgina diniy ta’lim berishga mo‘ljallangan. Samarqand davlat universiteti rektori, Oliy Majlis Senati a’zosi, texnika fanlari doktori, professor Rustam Xolmurodov “Xalq so‘zi” gazetasi muxbiri bilan suhbatda bu to‘g‘rida shunday deydi: «Aslida, G‘arbdagi ko‘hna deb hisoblangan dastlabki universitetlar tarixiga nazar tashlasak, ularning aksariyati ham avval talabalarga diniy ta’lim berish maqsadida tashkil etilgani ayon bo‘ladi. Yevropaning bugungi kunda ham mashhur bo‘lgan **Bolonya** (Italiya, XIII asrda asos solingan), **Oksford** (Buyuk Britaniya, XIII asrning ikkinchi yarmida asos solingan), **Kembrij** (Buyuk Britaniya, 1209-yili asos solingan), **Sorbonna** (Fransiya, Parijda 1257-yili tashkil etilgan, asoschisi – ruhoniy Sorbon), **Salerna** (Italiya, IX asrda Yevropadagi birinchi tibbiyot ta’lim muassasasi sifatida ochilgan, XI–XIII asrlarda juda mashhur bo‘lgan), **Uppsala** (Shvetsiya, 1477-yili arxiyepiskop Yakob Ulfson tomonidan tashkil etilgan), **Heydelberg** (Germaniya, 1386-yil 18-oktyabrda “Muqaddas ruh” cherkovida ochilish marosimi o‘tkazilgan) universitetlarining barchasi dastlab diniy ta’lim muassasasi bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan ularda dunyoviy fanlar o‘qitilishi kengaya borgan»[1].

Musulmon sharqida ham shunga o‘xshash holat kuzatilgan. Islom davrining boshlarida Buxoroda madrasalar nafaqat boshlang‘ich ta’lim oladigan markazlar vazifasini bajargan, balki ularda o‘rta va oliy ta’lim jarayonlari ham amalga oshirilgan. Bunda turli diniy va dunyoviy ilmlarni egallagan kishilar madrasaning alohida ajratilgan joylarida talabalarga dars berganlar.

Madrasa ta’limi

IX–X asrlardan boshlab ayrim mudarrislar ibodat joyi bo‘lmish masjidda turli suhbatlar va bahs-munozaralarni nojoiz bilib, ta’limni buning uchun mo‘ljallangan maxsus joy – madrasaga ko‘chirishdi. Shu davrdan boshlab o‘ta kamsonli bo‘lgan madrasalarning soni keskin osha boshladi. Bu davrda Somoniylar davlatida qaror topgan qarashlar erkinligi va diniy bag‘rikenglik muhiti ilm o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqning kuchayishiga, bu esa o‘z navbatida Buxoroda katta kutubxona va ilk madrasalarga asos solinishiga olib keldi. Umuman islom dunyosida madrasa tashkilotlashgan ta’lim muassasasi sifatida ilk bor Somoniylar davlati hududida vujudga keldi.

Ko‘pchilik tarixchilar islom dunyosidagi ilk tizimli madrasa Saljuqiylar davlati (1037–1194) vaziri Nizom ul-mulk (1018–1092) tashabbusi bilan 1066-yili Bag‘dod shahrida bino etilgan, deb bilishsa-da, manbalar Bag‘doddagi ushbu ilk madrasa tashkil etilishidan ancha oldin ham Buxoroda tizimli madrasalar faoliyat ko‘rsatganini hikoya qiladilar.

Jumladan, eronlik sharqshunos-manbashunos olima Farahnoz Kuhan **Abu Hafs Kabir madrasasi**ni Buxoroda tashkil etilgan ilk madrasa deb biladi. O‘zbek sharqshunos olimi Abdusattor Jumanazarning ham ta’kidlashicha, Abu Hafs Kabir madrasasi Buxorodagi eng

[1] https://xs.uz/uzkr/post/tamaddun-daryosi-hamon-oqmoqda-ravon-ozbekistonda-ilm-fanning-yangi-renessans-davri-boshlanmoqda

qadimiy oliy o‘quv yurtlaridan bo‘lib, 800–810-yillar atrofida asos solingan. Mashhur muhaddis Imom Buxoriy (810–870) ushbu madrasada ta’lim olgan buyuk shaxslar jumlasiga kiradi. Bundan kelib chiqadiki, **Abu Hafs Kabir madrasasi** haqiqatdan ham nafaqat Buxoroda yoki Movarounnahrda, balki butun islom dunyosida vujudga kelgan ilk tizimli oliy madrasa – universitet hisoblanadi. O‘sha davrda Abu Hafs Kabir va uning shogirdlari huzurida ta’lim olish uchun Movarounnahrdan boshqa o‘lkalardan ham ko‘plab ilm toliblari kela boshlagan. Uning darslari har kuni bomdod namozidan keyin tashkillashtirilgan. Uning madrasasi hanafiylik ilmiy an’analarining o‘rnatilishida katta rol o‘ynagan.

Buxoro shahrida Somoniylar sulolasi hukmdori Ismoil Somoniy (849–907) tomonidan, katta ehtimol bilan IX asr oxirlari – X asr boshlarida tashkil etilgan, keyinchalik uning nomi bilan atalgan **Ismoil Somoniy madrasasi** ham nafaqat Buxoro yoki Markaziy Osiyoda, balki butun islom dunyosida tashkil etilgan ilk madrasalar jumlasiga kiradi. Bundan tashqari tarixchi Abu-l-Abbos Qalqashandiy (1355–1418) o‘zining «Subh ul-a’sho» («Ko‘zi xira ko‘radiganlar tongi») asarida Somoniylar davlati asoschisi Ismoil Somoniy davrida madrasalarning soni islom sharqidagi barcha madrasalar sonidan ko‘p bo‘lganligini eslatadi. Bu ma’lumot hech bo‘lmaganda X asr boshlarida Buxoroda nafaqat madrasalar bo‘lganligini, balki butun boshli madrasalar tizimi vujudga kelganligini ko‘rsatadi.

Narshaxiyning yozishicha, X asr boshlaridan Buxoroda **Forjak madrasasi**, X asr o‘rtalaridan esa **Xon hammomi yaqinidagi madrasa** faoliyat ko‘rsatgan. Bulardan tashqari Sam’oniy Buxoro shahridagi “Darb al-hadid” (“Temir darvoza”) mahallasida joylashgan X asr boshlarida yoki o‘rtalarida tashkil topgan **Imom Abu Bakr ibn Fazl madrasasi** to‘g‘risida ma’lumot beradi. Abdusattor Jumanazar Sadr Ziyoning “Tarixi osori atiqa va binohoyi qadimi Buxoroyi sharif” (“Buxoroyi sharifning osori atiqalari va qadimiy binolari tarixi”) asariga tayangan holda bu davrda Buxoroda **Kalobod va G‘aribiya madrasalari** ham faoliyat ko‘rsatganini eslatadi.

Bularning barchasi Buxoroda – IX asr boshlaridayoq “islom gumbaziga” aylanib bo‘lgan sharif shaharda IX asr o‘rtalari – X asr boshlarida nafaqat ilk madrasalar tashkil topganligi, balki butun boshli madrasalar tizimi vujudga kelganini ko‘rsatadi.

Movarounnahr X asr oxirlari – XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati (840–1212) tarkibiga kirganidan keyin ham Buxoroda boshqa inshootlar qatorida madrasalar qurilishi davom etdi. Fan, ta’lim va madaniyatga bo‘lgan e’tibor, ayniqsa Qoraxoniylar davlati ikkiga – sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘linib, Movarounnahr hududida poytaxti Samarqand shahri bo‘lgan G‘arbiy Qoraxoniylar davlati (1040–1212) vujudga kelganidan keyin davom etdi. Ushbu davlat hukmdorlari o‘qimishli kishilar bo‘lib, mamlakat osoyishtaligi va shaharlarning obodonchiligiga ahamiyat berib kelganlar, jumladan Buxoro, Samarqand, O‘zgand va boshqa shaharlarda bog‘-rog‘lar, hashamatli imoratlar, masjid va madrasalar qurdirganlar. Ushbu davlatning ilk xoqoni **Ibrohim ibn Nasr Tamg‘achxon** (vaf. 1068) Buxoro shahrida shifoxona va madrasa qurdirgan. G‘arbiy Qoraxoniylar davlatining undan keyingi xoqoni Nasr ibn Ibrohim Tamg‘achxon (vaf. 1080) ham Buxoro shahrida bir qancha saroy, masjid va madrasalar qurdirgan. Mazkur sulola hukmdorlaridan yana biri, Qodirxon Jabroil ibn To‘g‘rul Buxoroda **Kular Takin madrasa**sini bino etgan.

Bu davrdagi Buxoro madrasalarida islom ilmlari – Qur’on, tafsir, hadis, fiqh, kalom, rijol (hadis roviylari haqidagi ilm), ansob (nasablar ilmi), adabiyot va arab tilidan tashqari tarix, falsafa, tibbiyot, matematika va boshqa fanlardan ham dars berilgan. Madrasalar ulamolar va din peshvolari tomonidan boshqarilar, madrasa mudarrislarining ish haqi va talabalarga yordam puli mazkur madrasalarga vaqf qilingan mulklardan tushgan daromadlar, shuningdek, davlat va alohida

shaxslar tomonidan qilinadigan homiylik yordamlari hisobidan ta'minlanardi.

Madrasalarda amalga oshirilgan o'rta va oliy ta'limdagi ustuvor usul shundan iborat ediki, o'z talabalariga dars berishni istagan olim yoki mudarris madrasaning bir qismini o'z darsi uchun tanlab olar, talabalar davra bo'lib uning atrofida o'tirib olishar, uning darsini tinglab, yozib olishardi. Bu davralar o'sha mudarris nomi bilan atalardi. Har bir davra alohida fan yoki sohaga bag'ishlangan bo'lardi. Masalan bir davrada fiqh, ikkinchi davrada Qur'on ilmlari, boshqa bir davrada esa adabiyot o'qitilardi.

O'tmishda madrasalar o'qituvchilari *mudarris* (dars beruvchi) deb atalgan, o'zaro muloqotda esa ularga asosan *shayx* (xoja, rahbar) deb murojaat qilishgan. Shunday bo'lsada, talabalar va hukmron tabaqalar vakillari tomonidan ularga nisbatan *muallim* (ilm beruvchi), *muaddib* (odob o'rgatuvchi), *ustod* (ustoz), *mu'id* (takrorlovchi, yordamchi), *naqib ul-muallimin* (muallimlar sardori) va *imom* kabi turli faxriy unvonlar va iboralar ham qo'llanilgan. Madrasalar tuzilishi *mudarris, noyib* (o'rinbosar) va *mu'id* (takrorlovchi, yordamchi)dan iborat bo'lib, har bir mudarrisning ikki nafar takrorlovchisi bo'lgan – ular o'qituvchining darslarini baland ovozda qaytarishardi.

Buxoro madrasalarida asosiy ta'lim usullari quyidagilardan iborat bo'lgan:

Tinglash orqali o'rganish. Bu usul *samo'* (tinglash) deb atalgan bo'lib, u mudarris aytgan darsni eshitib o'rganishdan iborat bo'lgan. Bunday dars mudarrisning *arz* (bayon qilish) deb ataluvchi rasmiy ma'ruzasidan iborat bo'lib, u tugagach talabalarga savollar berish imkoniyati berilgan.

Yozib olish orqali o'rganish. Buni *imlo* (yozish) va *istimlo* (yozdirish) deb atashgan. Ko'pchilik olimlar bu usulni bilim uzatishning eng samarali va ishonchli usuli deb bilishgan. Hatto *samo'* orqali o'qitadiganlar ham *imlo* darslari o'tishgan. Bunda mudarrisga *mustamliy* (yozdiruvchi) deb nom olgan talaba yordam bergan.

Buxoro madrasalarida bularga qo'shimcha ravishda mudarris bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi ilmiy *bahs-munozara* usuli ham qo'llanilgan.

Bu davrda Buxoro masjidlari va madrasalari talaba va mudarrislarga dars beradigan olimlar bilan to'la bo'lgan. Madrasalar ilmiy dargoh bo'lishi bilan birga, boshqa yurtlardan keladigan talabalar uchun yashash maskani ham edi. Islom olamining turli o'lkalaridan kelgan olimlar va talabalar kelib joylashgan va makon tutgan madrasalardan biri **Abu Hafs Kabir madrasasi** bo'lgan. Buxoroliklarga dars berish uchun islom olamining Madina va Bag'dod kabi yirik ilmiy markazlaridan ham olimlar kelishgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, bu davrda Buxoroda ilm o'rganuvchilar va ilm o'rgatuvchilarning soni judayam ko'payib ketgan bo'lib, shahar madrasalari mudarrislar va talabalarga to'la bo'lgan. Buxoro madrasalarida faqatgina diniy ilmlar emas, balki dunyoviy fanlar ham o'qitilgan. Masalan, manbalarda keltirilishicha, Qozi Abdurazzoq al-Buxoriy o'z mahallasi madrasasida tibbiyot va matematikadan dars bergan.

O'rta va oliy ta'lim olishning boshqa shakllari va usullari

O'rta asrlar islom sharqining ko'pgina o'lkalarida bo'lgani kabi ibodat maskani sifatidagi masjidlar hamda aynan ta'limga ixtisoslashgan maktablar va madrasalardan tashqari ko'plab madaniy va ijtimoiy muassasalar ham u yoki bu darajada ta'lim markazlari vazifasini bajarganlar. O'zlarining birlamchi vazifalaridan tashqari o'zaro bilim almashish hamda tadqiqot va ta'lim markazlari vazifasini ham bajargan muassasalarning birinchi qatorida, albatta, kutubxonalar va

kitob do‘konlari turgan. U davrning kitobdorlari – kutubxonalar egalari yoki kutubxonalar boshqaruvchilari, shuningdek varroqlari – kitob do‘konlariga ega kitobfurushlari bilimli odamlar bo‘lib, ularning kutubxonalari va kitob do‘konlari shoirlar, faylasuflar, tabiblar, munajjimlar va boshqa sohalar bilimdonlari to‘planadigan joy bo‘lib, suhbatlashish, bahslashish va kitob sotib olish uchun u yerga kelishardi. Kutubxonalar va kitob do‘konlaridan tashqari karvonsaroylar va rabotlar, haziralar, xonaqohlar, suffalar (shiftli ayvonlar), guzarlar, va shifoxonalar kabi boshqa madaniy va ijtimoiy muassasalar ham u yoki bu darajada tadqiqot va ta’lim markazlari vazifasini bajarganlar.

Islom davrining boshlaridagi Buxoroda o‘rta va oliy ta’lim olishning yana bir samarali usullaridan biri turli sohalar olimlari ishtirokida o‘tkaziladigan ilmiy yig‘inlar bo‘lgan. Bunday majlislar hukmron tabaqalar vakillari – amirlar yoki vazirlar huzurida o‘tkazilgan. Jumladan Somoniylar davlati asoschisi Ismoil Somoniy ilm-fan rivojiga katta e’tibor bilan qaraydigan, olimlar va ilm oluvchilarni hurmat qiladigan hukmdor bo‘lib, ilm o‘rgatuvchilar va ilm o‘rganuvchilar ishtirokidagi ilmiy yig‘inlarni tez-tez o‘tkazib turgan. Ushbu davlatning boshqa bir hukmdori Nuh ibn Nasr Somoniy (vaf. 954) ham o‘zini olimlarga yaqin tutib, ular ishtirokidagi ilmiy yig‘inlar va bahs-munozaralarda shaxsan ishtirok etib turgan. Shuningdek, Somoniylar davlatining vazirlari, lashkarboshilari va voliylari (viloyatlar hokimlari) ham turli sohalar olimlari va mutaxassislari ishtirokida turli masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan ilmiy yig‘inlar o‘tkazib turganlar. Bundan tashqari Buxoroda olimlarning o‘zlari tomonidan tashkillashtiriladigan ilmiy yig‘inlar ham o‘tkazib turilgan.

Buxoroda islom davri boshlaridan tizimli jamoaviy ta’lim bilan birgalikda xususiy ta’lim – alohida ustozlar huzuridagi ta’lim ham muhim, ba’zida esa asosiy o‘rin tutib kelgan. Alohida ustozlar huzuridagi ta’lim, aslini olganda, o‘sha davrlardagi ta’lim tizimining *boshlang‘ich ta’lim*dan keyin keladigan ikkinchi bosqichi – *o‘rta va oliy ta’lim*ning bir qismi bo‘lishdan ko‘ra ko‘proq ta’lim tizimining uchinchi – *oliy maxsus ta’lim* bosqichining bir qismi bo‘lganligi haqiqatga yaqinroqdir. Chunki u yoki bu sohada ilm o‘rganishni maqsad qilgan talaba ko‘pchilik hollarda tegishli markazlar, jumladan masjid yoki madrasada guruh bo‘lib o‘tiladigan darslar shaklidagi ta’lim bosqichini bosib o‘tganidan keyin, tanlab olingan u yoki bu fan bo‘yicha bilim olishni davom ettirishni maqsad qilgan taqdirda shu fan sohasining olimlaridan birining huzurida o‘z tahsilini yakka (xususiy) tartibda davom ettirgan. Jumladan buyuk muhaddis Imom Buxoriy madrasa ta’limini tugatganidan keyin Buxoroda Abdulloh Ju’fiy Musnadiy va Muhammad ibn Salom Poykandiy nomli hadis sohasining olimlari huzurida ta’lim olgan. Tibbiyot va falsafa sohalarining buyuk olimi Ibn Sino dastlab mantiq, geometriya, astronomiya, falsafa va tibbiyot fanlari asoslarini o‘z zamonasining qomusiy olimlaridan bo‘lgan Tabariy Notiliy (X a.) huzurida, tibbiyotning maxsus yo‘nalishlarini esa Qumriy Buxoriy (vaf. 999) huzurida o‘rgangan.

O‘lkamizga islom dini kirib kelgan davrlardan boshlab Buxoroda shakllangan ta’lim tizimida oliy maxsus ta’limning yana bir muhim usuli – ilm o‘rganish maqsadidagi xorij safarlari ham alohida o‘rin tutgan. Nafaqat Buxoro shahri, balki butun Movarounnahr o‘lkasidan yetishib chiqqan buyuk olimlarning aksariyati tegishli ta’lim muassasalarida, shuningdek, alohida ustozlar huzurida tahsil olishdan tashqari o‘z bilimlarini takomillashtirish maqsadida albatta boshqa shaharlar va mamlakatlarga ham safarlar qilganlar.

Movarounnahrning yirik ilm-fan va madaniyat markazlaridan bo‘lgan Buxorodan yetishib chiqqan buyuk olimlarning ham aksariyati ilm talabidagi xorij safarlarida bo‘lishgan. Jumladan Abu Hafs Kabir Buxoriy Bag‘dodga borib, Imom Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (748–804) qo‘lida ta’lim olib qaytadi va hanafiylik mazhabining Movarounnahr maktabiga asos soladi.

Buxoroni olamga mashhur qilgan allomalardan yana biri buyuk muhaddis Imom Buxoriy esa bir necha yil davomida Hijoz, Iroq va Eronning turli shaharlarida turli muhaddislardan ta'lim oladi.

Buxorodan yetishib chiqqan olamga mashhur allomalardan yana biri Abu Ali ibn Sinoning Buxorodan boshqa shaharlar va o'lkalarga chiqib ketishi, albatta, birgina ilm o'rganish maqsadida emas, balki siyosiy va ijtimoiy sabablar tufayli ham yuz bergan bo'lsa-da, uning turli ilm sohalarining zabardast olimi bo'lib yetishishida ana shu xorij safarlarining o'rni va rolini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Jumladan, uning Xuroson va Eronning Niso, Abivard, Tus, Samangon, Gurgon, Ray, Qazvin, Hamadon va Isfahon shaharlariga safarlari ko'proq ilmiy maqsadlarda bo'lgan.

Xulosa

VIII–XI asrlarda Buxoro shahrida shakllangan, keyinchalik o'lkamizning boshqa shaharlari va diyorlariga ham yoyilgan mukamal va samarali oliy ta'lim tizimi IX–XII asrlarda yuz bergan O'rta Osiyo Birinchi Uyg'onish davridagi mislsiz ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun asos, XIV–XV asrlarda yuz bergan O'rta Osiyo Ikkinchi Uyg'onish davri uchun esa namuna va turtki bo'lgani ma'lum. Ushbu oliy ta'lim tizimi tarixiga nafaqat o'tmish merosimiz sifatida, balki Yangi O'zbekiston davrida poydevori qo'yilayotgan Uchinchi Uyg'onish – Uchinchi Renessans uchun tarixiy asos va samarali namuna sifatida ham qarash, shu jihatdan uni keng va chuqur o'rganish hamda targ'ib etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aytish joizki, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik nafaqat bilim almashinuvi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini jahon standartlariga moslashtirish orqali raqobatbardoshligi hamda jozibadorligini oshirishning muhim vositasidir.

Shu nuqtayi nazardan mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislar ishtirokida Buxoro oliy ta'lim tizimi tarixiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazish, ushbu anjuman yakunida Yangi O'zbekiston fan, ta'lim va madaniyatini yuksaltirish, Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish bo'yicha takliflar va tavsiyalar tayyorlashni taklif etamiz.

В КЛАССИЧЕСКОЙ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ «АРБАИН»

МАЛОХАТ ПУЛАТОВА

Доцент, доктор философии по филологическим наукам, PhD, ТГУВ

ORCID: 0009-0000-8171-0271

Аннотация

В восточной классической литературе традиция сорока хадисов (Хадис – слова пророка Мухаммеда) - «Арбаин» занимает особое место.

В рукописном фонде института Востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана хранятся десятки копий рукописей и изданий «Арбаин», написанных на арабском и персидском языках.

«Арбаин» – слово арабского происхождения, обозначает сорок[1]. Есть хадис Пророка Мухаммеда, в котором говорится: «Кто будет знать наизусть сорок моих хадисов, будет следовать им и обучать других, тот в судный день будет под моей защитой[2]». Поэтому стремились выучить наизусть сорок хадисов и донести их до народа. В каждую эпоху существовал свой «Арбаин», в котором пропагандировались определенная тема и цель. При толковании и комментировании хадисов важную роль играли предания, рассказы и повести. Некоторые арбаины подтверждались аятами Корана, а в других для правильного понимания сорока хадисов приводилось несколько рассказов и преданий. А некоторые арбаины после каждого хадиса содержали его поэтическое толкование, что является своеобразной особенностью традиции арбаин.

***Опорные слова и выражения**:*

Аяты Корана, хадисы, арбаъин, "Арбаъин"–"Чихил хадис", арабский, персидский, турецкий языки, традиция, Абдурахман Жами, Алишер Наваи, Мухаммад Физули.

Abstract

It was tradition to write "Arbain" - "Chihil Hadis" worksin Eastern classical literature which means collectingforty hadiths in one place, explaining their meaning to simple people, writing comments on them. The observations show that every time has its "Arbain", which put forward a clear theme and purpose.According to Hadith Prophet Muhammad (peace be upon him), "Whoever memorize forty hadiths, follows and teaches them, he will be under my intercession on the Day of Resurrection". According to this hadith people tried to memorize forty hadiths and deliver them to the people. The lexical meaning of "Arbain" is forty. In addition, to be in chilla for forty days means the prayers' purifying and praying in the nook for forty days, forty days from birth and after the death. These forty days are called asa period of"cleansing".

Medieval thinkers chose forty hadiths which were about Islamic rules and place together. They attempted to explain the meaning and significance of these forty hadiths to people in easier way. For this they used the prose and poetry effectively.

In this article we aimed to give some information about handwritten copies of "Arbain" works which are being saved in the central fund of Oriental manuscripts center named after Abu RayhanBeruni under the Tashkent State Institute of Oriental studies of the Republic of Uzbekistan.

Keywords and expressions:

The verses of the Qur'an, Hadith, Arbain, "Arbain"–"Chihil Hadith", Arabic, Persian, Turkish languages, tradition, Jami, Navai, Fusuli.

Одна из древних традиций, существующих в восточной классической литературе, написание поэтических или прозаических комментариев к конкретным сорока хадисам. Эта традиция продолжается долгое время. До сих пор наш народ с любовью читает комментарии к сорока хадисам – поэтические произведения "Арбаъин", написанные такими поэтами, как Джамий, Навоий, Фузулий, Пуроний, Мухаййир, Махмудхон Махдум, Анвар Хожиахмад, Шукур Курбон[3].

Возникает вопрос: "Почему писались комментарии именно к **сорока хадисам**?". Прежде всего остановимся на смысловом значении слова "Арбаъун": "Арбаъун –

[1] Алишер Наваи. «Арбаин хадис». Составители и комментарии Кабил Ахмад, Оллоберди Махмуд. –Т.: 1991. – С.4.

[2] Алишер Наваи. Арбаъин. –Т.:Мерос, 1991.

[3] ARAYANA Vol. XXIV, 1-2, Jan-Feb. Kabul. P. 1996., Атами Мирзаев. "40 ҳадис".- Баку: "Озан", 1997., Рустамов А. Алишер Навоий "Арбаъин". –Т.: Мерос, 1991., Шукур Қурбон. Арбаъин. Алишер Навоий назм ила баён этган ҳадислар. "Меҳтат". Т., 1991., Маҳмудхон Махдум. Нажот бўстони ёки фарзандга насиҳат. Т., 2006.

арабское слов, в переводе означает “сорок”. Арбаъун – один из видов сборника хадисов. В такого вида сборниках хадисов приводятся 40 хадисов с одним или несколькими хадисами в одной или в различных главах. Мухаддисы собирали эти хадисы в соответсвии с хадисом-заиф “Кто будет обучать мою паству сорока хадисам, относящимся к религиозным делам, то в Судный день Аллах оживит их в ряду факихов и улемов”. Темы этих сборников были посвящены тавхиду, качествам Аллаха, молитвам, наставлениям, благим делам во имя Аллаха. Среди этих сборников наиборлее знаменит сборник “Арбаъун”, принадлежащий перу Имама Нававий[1].

Наряду с этим, слово “Арбаъун” обозначает 40 дней отшельничества, то есть поклонение и молитвы суфиев в отшельничестве в течение 40 дней, а также мероприятие на сороковой день после смерти человека[2].

Когда возникает вопрос “Почему речь идёт о 40 хадисах?”, то ответ на этот вопрос следует искать в аятах и хадисах Куръана. В Куръане относительно цифры 40 приведено 4 аята[3]: “Бакара” – 51-аят, “Моида” – 26-аят, “Аъроф” – 142-аят, “Ахкоф” – 15-аят.

В 51 аяте суры “Бакара” (Б.Р.Р.) говорится: “И вот Мы договорились с Мусой на сорок ночей, а потом вы взяли себе (для поклонения) тельца после него (после ухода Мусы), будучи несправедливыми.” В 26 аяте суры “Моида” говорится: “Сказал Он (Аллах Всевышний) (своему Пророку Мусе): “Поистине, она (священная земля) (будет) запрещена им на сорок лет, (и все это время) они будут растерянно скитаться по земле (по Синайской пустыне) (не находя выхода и пристанища). Не печалься же (о, Муса) о непокорных людях)[4]. В 142 аяте суры “Аъроф” говорится: “И определили мы Мусе (срок до встречи у горы Тур) (в) тридцать ночей (месяца зуль-каъда) (чтоб он постился в них) и завершили их (ещё прибавив) (первые) десять (ночей) (месяца зуль-хиджа). И (в итоге) составил (этот) срок Господа твоего сорок ночей. И сказал Муса своему брату Харуну (перед тем, как уйти на тайную беседу со своим Господом): “Оставайся вместо меня в моём народе и устрой порядок и не следуй по пути сеющих беспорядок”[5]. И, наконец в 15 аяте суры “Ахқоф”: “Мы заповедали человеку делать добро его родителям. Матери тяжело носить его и рожать его, а беременность и кормление до отнятия его от груди продолжаютсятридцать месяцев. Когда же он достигает зрелого возраста и достигате сорока лет, то говорит: “Господи! Внуши мне благодарность за милость, которой ты облагодетельствовал меня и моих родителей, и помоги мне совершать праведные

[1]Ҳадисшунослик. Атама ва иборалар. Дониёр Муродов. Тошкент, 2009.12 б.

[2] Муҳаммад Ғиёсуддин. “Ғиёс ул-луғат”. 1-жилд. “Нашриёти адиб”, 1997 й.

[3]Қуръони Карим маъноларининг таржима ва тафсифи. Таржима ва тафсиф муаллифи Абдулазиз Мансур. Тошкент, 2004.

[4](шарҳ: Мусо (а.с.) узр айтиб, қавмнинг тақдирини Аллоҳнинг ўзига ҳавола қилгач, У уларга жазо сифатида қирқ йилгача мазкур муқаддас ерга кира олмай, турли томонларда саргардонликда юришларини ирода этди.)

[5](шарҳ: Мусо (а.с.) ўз қавмига агар Аллоҳ бизни Фиравндан халос этса сизларга Унинг ҳузуридан Китоб келтираман, Унинг оятларидан буйруқ ва тақиқларини билиб оласиз, деб ваъда қилган эдилар. Шу китобни сўраганларида Аллоҳ таоло ўттиз кун рўза тутишга буюради. Бу зул-қаъда ойи эди. Рўзаларини очиш вақтида оғизлари ҳидланиб қолганини билиб, мисвок билан тозалайдилар. Шунда Аллоҳ: Рўзадорнинг оғзидан келадиган нохуш ҳид Менинг наздимда мушку анбардан ҳамхушбўйлигини билмаганмидинг?”,-деб, яна ўн кун рўза тутишга буюради. Бошқа ривоятларда ўттиз кунлик рўзаларидан сўнг гаплашиш учун яна ўн кун қўшган ва илоҳий битикларни берган (Мд.Хз.).

деяния, которыми ты доволен. Сделай для меня моих потомков праведными. Я раскаиваюсь перед Тобой. Воситину, я – один из мусульман”[1].

В этих аятах используются такие словосочетания, ка “40 ночей”, “40 лет”, “возраст 40 лет”. Становится ясно, что число 40 имеет своё, особое значение. Обратимся к хадисам, в которых также использовано слово “сорок”: в книге Нававий “Рамуз ул-аходис” приводятся следующие хадисы, в которых использована цифра 40 (332-страница 1-хадис; 355-страница 7-хадис; 384-страница 5-хадис; 492-страница 9-хадис):

1. Передаётся от Хазрата Анаса (р.а.): “Паства моя из пяти слоёв: 40 – те, кто искренне поклоняется и верит; 120– те, кто справляется друг о друге и навещает друг друга; 160 – те, кто отворачивается друг от друга и забывает искренность. После этого они останутся в харжул-харж (временах, когда вера и доверие будут редкими качествами человека)” (риваят Ибн Можжа).

2. Передаётся от Хазрата Ибн Маъсуад (р.а.)а: “Всевышний Аллах сорок дней и ночей готовил глину для сотворения Адама. Потом взял глину и поделил на две части. Направо – хороших, налево – плохих. Потом взял обе части и снова перемешал. по этой причине от хороших рождаются плохие, от плохих – хорошие”. (риваят Дайламий).

3. Передаётся от Хазрата Анаса (р.а.): “Пророки не останутся в своих могилах больше сорока дней. До самого звука сура они будут читать намаз в Хузури Илохий/во владениях Всевышнего” (риваят Байхакий, Хакима, Дайламий).

4. Передаётся от Хазрата Абу Барзака (р.а.): “Бедные мусульмане войдут в рай на 40 лет раньше богатых мусульман. И тогда богатые скажут: “Ах, если бы мы в бренном мире были бы бедными”. Богатые неверующие войдут в ад на 40 лет раньше бедных неверующих, богатые неверующие тоже скажут: “Ах, если бы мы в бренном мире были бы бедными”. (риваят Дайламий).

Если задуматься над смыслом вышеприведённых аятов и хадисов, то можно вспомнить следующее: Аллах приказал Моисею **40 ночей молиться в одиночестве** на горе Тур, Абу Бакр (р.а.) в 40 лет принял ислам и сделал дуа в честь своих родителей и множество других. Все это указывает на придание особого смысла цифре 40.

Считается, что одним из основателей традиции создания “Арбаъин” в восточной литературе является Абу Закариё Яхё ибн Шарофиддин Имом Нававий (ум. в 676 г.). Произведение “Арбаъин”, принадлежащее его перу довольно знаменито. Причину написания этого произведения сам Нававий объясняет следующим образом: “В хадисе, рассказываемом и передаваемом различным образом от Али ибн Абу Толиба, Абдуллоха ибн Маъсуда, Муоза ибн Жабала, Абу Дардо, Абдуллоха ибн Умара, Абдуллоха ибн Аббоса, Анаса ибн Молика, Абу Хурайры, Абу Саида ал-Худрийлар говорится, что Пророк наш (с.а.в.): “Тот, кто обучит другого/паству мою сорока хадисам, связанным с религией, в судный день будет приравнен к улема и факихам”. В другом конец таков: “Аллах сделает учёным-факихом”, ещё в другом: “ТОму человеку будет приказано войти в рай через те двери, через которые он пожелает войти”.

Как указывает Нававий в своём произведении, “из первых исламских улема сборник 40 хадисов собралил Абдулла ибн Муборак (ум. в 797 г.). Затем Мухаммад ибн Аслам

[1] (шарҳ. Ушбу ва кейинги оят Абу Бакр (рз.) отаси Абу Қаҳофа, онаси Уммулҳайр ва фарзандлари хусусида нозил бўлган. У 38 ёшида иймон келтириб, 40 ёшида ота-онасини дуо қилган. Саҳобалар ичида оила аъзолари билан ҳаммаси иймон келтирган хонадон фақат Абу Бакр (рз.)нинг хонадони ҳисобланади. Мд.).

Тусий (ум. в 856 г.), затем Хасан ибн Суфиён Насоий (ум. в 915 г.), затем Сулламий-Мухаммад ал-Хусайн бин Мухаммад бин Мусо (ум. в 942 г.), а также Абу Бакр Ажурий (ум. 970 г.), Дорахутий (ум. 995 г.), Хоким (ум. 1014 г.), Абу Бакр Мухаммад ибн Иброхим Исфахоний (ум. 1082 г.), Абу Абдурахмон Сулайм (ум. 1021 г.), Ахмад бин Мухаммад бин Ахмад Тусий (ум. 1126 г.). Абдуллох ибн Мухаммад Ансорий, Абу Бакр Байхакий (ум. 1065 г.), Садриддин Кунавий, Мухаммад бин Исхоқ бин Мухаммад бин Юсуф бин Али (ум. 1273 или 1275 г.) и другие составили комментарии к 40 хадисам"[1].

Даже в произведениях суфизма говорится следующее: "Сунна Пророка – это жизненный путь нашего Пророка, его мудрые слова и изречения, поведение, дела. Весь исламский мир строго следует всем словам, делам, указаниям Пророка, а также благонравным делам и прекрасному поведению халифов и сахоба. Если благодеяния Пророка для всех являются программой жизни, то его слова и идеи – единственным правильным путем следования Аллаху. Необходимо отметить, что подавляющее большинство своих идей суфисты заимствуют из Куръана и хадисов. Действительно в Куръане много аятов, очерняющих любовь к вещам, бренному миру, подчинение греховным мыслям и их совершение. В нескольких местах Аллах предупреждает свою паству о том, чтобы они не обманулись этим бренным миром, потому что человек, полюбивший бренный мир начинает забывать Аллаха. Также много хадисов, в которых говорится о вредности подчинения "нафс"у[2].

Итак, в соответствии с широко распространенной традицией на Востоке литературный жанр 40 хадисов или "арбаъин" сформировался на основе сакральной цифры 40, значение цифры 40 нашло своё отражение также и в исламских традициях, то есть в Куръане и хадисах.

В рукописном фонде института Востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана хранятся десятки копий рукописи и изданий «Арбаин», написанных на арабском и персидском языках, а также копии книг. В восточной классической литературе традиция сорока хадисов (Хадис – слова пророка Мухаммеда) - «Арбаин» занимает особое место. «Арбаин» – слово арабского происхождения, обозначает сорок (Кобил Ахмад, Оллоберди Махмуд 1991:4). Есть хадис Пророка Мухаммеда, в котором говорится: «Кто будет знать наизусть сорок моих хадисов, будет следовать им и обучать других, тот в судный день будет под моей защитой». Поэтому стремились выучить наизусть сорок хадисов и донести их до народа. В каждую эпоху существовал свой «Арбаин», в котором пропагандировались определенная тема и цель. При толковании и комментировании хадисов важную роль играли предания, рассказы и повести. Некоторые арбаины подтверждались аятами Корана, а в других для правильного понимания сорока хадисов приводилось несколько рассказов и преданий. А некоторые арбаины после каждого хадиса содержали его поэтическое толкование, что является своеобразной особенностью традиции арбаин.

В литературе народов Востока к традиции «Арбаин» в XV веке обратились Абдарахман Джами (1414-1492), Алишер Навои (1441-1501), в XVI веке Мухаммад Физули (1494-1556).

[1] Қирқ ҳадис. Имом Муҳиддин Закариё ибн Шараф Нававий. – Т., Мовараунnаҳр., 200???
[2]Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тошкент, 1996. С. 93-94.

Джами выбрал сорок нравственных хадисов различного содержания и к каждому из них дал поэтическое толкование в жанре «китъа» на персидском языке. Хадисы, избранные Джами, были по содержанию одинаковыми с аятами Корана, были краткими и ясными, что создавало удобство для понимания их читателями. Абдурахман Джами в предисловии к «Чихил хадис», написанном прозаическим языком, кратко и ясно сообщает следующее: «Хадисы, рассказываемые на собраниях самыми красноречивыми ораторами, посвящены восхвалению знаний. Эти хадисы были озвучены другом создателя, и луч света освободил грешных от тьмы неведения».

В ведении Джами не сообщает о том, из какого источника взяты хадисы. В ведении «Арбаин» Наваи мы встречаем такие строки:

Когда мы читаем Муслим и Бухари,

Все сорок слов не вызывают сомнений.

В прозе сорок слов пророка, то есть избранные автором сорок хадисов, считаются самыми верными. Также в произведении отмечается, что хадисы произведения взяты из книг двух великих мухаддисов, то есть Мухаммада ибн Исмаила ал-Бухари «Ас-сахих» и Муслима бин Хажжажа «Ал-жомиу-с-сахих».

Дата написания «Хадиси Арбаин» Джами в рукописных источниках указывается как 886/1481 год. Навои в введении к своему арбаину ясно указывает дату написания:

После хиджрат как говорят в народе

Было восемьдесят шесть и ещё восемьсот. (1481-1482г.р.х)

Хотя дата написания «Арбаин»а Физули неизвестна, считается, что он написал это произведение в конце своей жизни.

Кроме этого во введениях можно встретить следующее:

Во введении Джами: «Приведенные ниже сорок хадисов для облегчения понимания и запоминания переведены на персидский язык». Эта запись показывает причину написания поэтического комментария на персидском языке содержания хадисов, написанных на арабском языке.

Во введении Навои:

Владеющие языком фарси осознали это,

тюрки же оставались в стороне от этого дела.

Я хотел, чтобы этот народ тоже

Не оставался не воспользовавшимся таким благом

То есть в своём предисловии Навои отмечает, что «Когда Джами создал «Арбаин», это принесло пользу говорящим на персидском языке. Я же возжелал, чтобы тюркоговорящие тоже познали это».

Из чего следует, что Навои создал прозаическое толкование «Арбаин» на тюркском языке для того, чтобы с этим произведением ознакомились и тюркские народы.

В своём введении Физули пишет следующее:

«Эти сорок хадисов священны, может, они изумруд, переведённый но фарси наставником нашим Джами… . Для общего блага делается тюркский перевод».

Как видно из вышеприведённых введений, причина обращения всех трёх великих поэтов к этой теме — уважение к Сунне нашего пророка и осознание важности духовно-нравственное воздействия этих хадисов на воспитание людей, потребность в этом народа.

Все три «Арбаина» состоят из введения, подлинного текста, то есть хадиса на

арабском языке, его поэтического толкования и заключения. Однако введение Джами и Физули написаны прозой, а введение к «Арбаин» Алишера Навои написано в соответствии с традициями классической мусульманской литературы, начинается восхвалением Аллаха и излагается поэтическим языком в 46 строках. Джами, Физули и Навои заключения своих произведений пишут прозой. Хадисы в «Арбаин» не изменются, в рукописях вначале приводится оригинальный хадис на арабском языке, затем его поэтический комментарий в форме «китъа».

Через столетия изучение произведений Навои и их популяризация стало велением времени. После достижения независимости в нашей стране ещё более возрос интерес к поэту, особенно к религиозному произведению «Арбаин» (Навоий 2000:16 том, Навоий 1991). Наряду с этим произведение Навои «Арбаин» было переведено впервые на русский язык учёным-навоиведом академиком АН РУз Азизом Каюмовым в сотрудничестве с Айдыном Наджафовым и представлено вниманию широких кругов русскоязычных читателей (Наджафов 2002:№32). Данная небольшая работа впервые знакомит русскоязычного читателя с сорока замечательными назиданиями Алишера Навои под заглавием «Арбаин» или «Чихил хадис» (Сорок слов). Содержание этих четверостиший служит формированию человека высокого нравственного совершенства (Каюмов 2002).

В нашей статье мы использовали переводы «Арбаъин» Навои и Джами на русский язык, сделанные Азизом Каюмовым.

Хадис: “Рай находится у ног матерей”.

Джами:

Голову сложи к матерям, (ибо) венец славы
Создан из пыли пути матерей.
Стань прахом у ног матери, ибо райский сад
Находится там, куда ступают ноги матерей

(то есть венец славы» там, где ступала нога матери, поэтому ты будь землёй, потому что рай под ногами матерей).

Навои в отличие от Джами этот хадис толкует с великолепным вкусом, в красивой интонации, поэтически:

У ног матерей находятся
Райские сады и цветники.
Если хочешь достичь райских садов
Будь прахом у ног матери.

Навои расширяет это понятие, объясняя, что райские сады находятся у ног матерей, призывает человека быт прахом у ног матери.

Физули пишет:
Всегда уважайте матерей,
Достигнете божеской лагосклонности,
Желания под ногами матерей,
Будете просить, попадёте в рай.

Толкование Физули близко толкованию Навои, однако изъясняется оно более

простым слогом. Как видно из толкований, все три поэта использовали слова хадисов в прекрасном поэтическом стиле, что позволяет широко раскрыть значение хадиса всего лишь в четырёх строках.

Следующий хадис: Правоверный (мумин) не бывает сытым перед плачущим (от голода).

Джами:

Тот, кто в стране мусульманства
Проникнут чистотою веры,
Как может допустить, что когда он сыт.
(В то же время) сосед его сидит голодным.

Таким образом, четверостишье Джами намного расширяет рамки сказанного в хадисе, делает его более конкретным, усиливает силу воздействия

Навои:

Если человек правоверный, как он может терпеть
Когда сам сыт, сосед же голодный
Необходимо ему тоже доставить долю
Из своей скатерти хоть кулоч, хоть умоч.

Эту мысль Навои выражает шире и предметно. Используя слова «кулоч» (кулоч – сладость) и «умоч» (умоч – жидкое блюда из теста наподобие клёцек), Навои ещё более повышает художественность толкования, а это, в свою очередь, помогает более полному осознанию содержания хадиса.

Физули: Правоверен тот, кто по возможности
Не оставляет соседа без внимания,
И в прекрасные ночи, будучи сытым,
Не оставляет голодным соседа своего.

Физули толкует хадис более упрощенно, правоверный не оставит своего соседа нуждающимся, ложась спать сытым, — говоря так призывает людей быть внимательными к ближнему и быть человечными.

Джами, Навои и Физули с особым мастерством через художественные образы доносят содержание данного хадиса до своего народа.

Такие примеры можно продолжать, однако мы здесь, пожалуй, остановимся и попытаемся сделать выводы.

В качестве заключения можно сказать Абдурахмон Джами, Алишер Навои и Мухаммад Физули мастерски и полно воспользовались возможностями языка при раскрытии содержания и значения хадисов. Поэтические толкования «Арбаин» не повторяют друг друга, каждое имеет свою интонацию, свои образы.

AMIR TEMUR DAVLATINING TASHQI SIYOSATI

ULUG‘BEK ABDULLAYEV
Dotsent, t.f.n., TDSHU

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Amir Temurning tashqi siyosati, uning diplomatik strategiyasi hamda Yaqin va O‘rta Sharqdagi siyosiy jarayonlarga munosabati tahlil etiladi. XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda yuz bergan siyosiy parokandalik, iqtisodiy*

tanazzul va mo‘g‘ul hukmronligining zaiflashuvi Sohibqironning xalqaro siyosat maydoniga faol kirib kelishiga imkon yaratgani yoritilgan. Maqolada Amir Temurning Buyuk Ipak yo‘lini tiklash, adolatli boshqaruvni qaror toptirish va mintaqada tinchlik o‘rnatish yo‘lidagi diplomatik va harbiy choralari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Sharifxon Bidlisiy kabi tarixchilarning asarlari asosida Temurning g‘arbiy yurishlari, Yevropa davlatlari bilan bilvosita aloqalari va xalqaro vaziyatdan o‘z manfaatlari yo‘lida oqilona foydalanish siyosati ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot Sohibqironning Yevropa va Sharq o‘rtasidagi siyosiy muvozanatni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, tashqi siyosat, diplomatiya, Yevropa, Yaqin Sharq, Kichik Osiyo, Zafarnoma, Buyuk Ipak yo‘li, tarixiy manbalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается внешняя политика Амира Темура, его дипломатическая стратегия и участие в политических процессах Ближнего и Среднего Востока. Показано, что политическая раздробленность, экономический упадок и ослабление монгольского владычества в конце XIV – начале XV веков создали условия для активного выхода Сахибкирана на международную арену. В статье анализируются меры Темура по восстановлению Великого шелкового пути, утверждению справедливого управления и обеспечению стабильности в регионе. На основе трудов Низамаддина Шамия, Шараф ад-Дина Йязди, Хафиза Абру и Шарифхана Бидлиси исследуется политика Темура в отношении западных стран, его косвенные контакты с Европой и умелое использование международной обстановки в интересах своего государства. Исследование раскрывает роль и значение Амира Темура в установлении политического баланса между Востоком и Западом.*

Ключевые слова: *Амир Темур, внешняя политика, дипломатия, Европа, Ближний Восток, Малая Азия, Зафарнома, Великий шелковый путь, исторические источники.*

Abstract. *This article examines the foreign policy of Amir Timur, his diplomatic strategy, and his involvement in the political processes of the Near and Middle East. It is demonstrated that political fragmentation, economic decline, and the weakening of Mongol dominance in the late 14th and early 15th centuries created favorable conditions for the Sahibqiran’s active entry onto the international stage. The study analyzes Timur’s efforts to restore the Great Silk Road, establish just governance, and ensure regional stability. Drawing upon the works of Nizam al-Din Shami, Sharaf al-Din Yazdi, Hafiz Abru, and Sharif Khan Bidlisi, the article explores Timur’s policy toward Western countries, his indirect contacts with Europe, and his skillful use of the international situation to serve the interests of his state. The research reveals the role and significance of Amir Timur in establishing the political balance between East and West.*

Keywords: *Amir Timur, foreign policy, diplomacy, Europe, Near East, Asia Minor, Zafarnama, Great Silk Road, historical sources.*

Amir Temur siyosat maydoniga chiqqandan keyin Movarounnahr sarhadlarini mustahkamlab, kuchli markazlashgan davlat qurishga kirishgan paytda Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda muhim siyosiy-tarixiy o‘zgarishlar yuz bermoqda edi. XIV asrning oxirgi choragida bu hududlarda mo‘g‘ullar tomonidan barpo etilgan Hulagular davlati parchalanib, bir qancha kichik xonliklar va mahalliy sulolalar yuzaga kelgandi. Aholi o‘rtasida mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi kurash mayllari paydo bo‘lgan va u tobora kuchayib bormoqda edi. Sharqshunos I.P. Petrushevskiyning qayd etishicha, Hulagular davlatining parchalanishi butun Eronda mo‘g‘ul zulmi butunlay tugatildi, degan ma’noni bildirmaydi, chunki bir qancha viloyatlarda hukmronlik hamon turk-mo‘g‘ul harbiy-ko‘chmanchi zodagonlari qo‘lida saqlanib qolgan va ular Chingizxonning buyuk

Yasa qonunlariga qattiq rioya etgan holda feodal-ekspluatatorlik boshqaruv usullarini davom ettirmoqda edi[1].

Bu davr tarixini o‘rganishda ham Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma”lari, Muiniddin Natanziyning “Muntaxab-ut tavorixi Muiniy”[2], Hofizi Abruning “Zubdat ut-tavorix” (“Solnomalar qaymog‘i”) Fasix Havofiy va Sharifxon Bidlisiylarning asarlari katta qimmatga ega. Shohruxning saroy tarixchisi bo‘lgan Hofizi Abru (Shahobiddin Abdulloh bin Lutfulloh bin Abdurashid al-Havofiy)ning yuqorida aytilgan noyob asari haqida V.V. Bartold “Хафиз-и Абру и его сочинения” maqolasida batafsil ma’lumot beradi[3].

Sharifxon Bidlisiyning «Sharafnoma» asarida XIV asrda Yaqin Sharq va Eronda bo‘lib o‘tgan voqealar, mayda hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar manzarasi qisqa lavhalarda xolis tasvirlangan. «Sharafnoma» Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati va turli hukmdorlar bilan munosabatlarini o‘rganishga ham ma’lum darajada yordam beradi.

Hukmdorlarning bunday shafqatsizligi va zolimligi tanazzulga uchragan Yaqin Sharq mamlakatlaridagi siyosiy-iqtisodiy ahvol qay darajada yomonlashganini ko‘rsatib turibdi. Xalqni ezish, adolatsizlikni avj oldirish va o‘zaro nizolarga berilib, mamlakat taqdirini o‘ylamay qo‘ygan zolim hukmdorlar uzoqqa bora olmasligi tarixdan ma’lum. XIV asr o‘rtalarida – Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, Movarounnahrda markazlashgan, adolatli qonunlar bilan boshqariladigan davlat barpo etib, aholiga har qanday ziyon-zahmat yetkazishga chek qo‘ygan bir paytda Yaqin Sharq mamlakatlari ana shu tarzda parchalanib, siyosiy-iqtisodiy inqiroz botqog‘iga botib ketgan edi.

Tarix tajribasidan ma’lumki, har qanday kuchli, markazlashgan davlat kichik-kichik bo‘lakchalarga ajralib, parchalanib ketsa, yagona boshqaruv zaiflashsa, qonunlar bajarilmasa va eng yomoni, aholi shafqatsiz zulm-zo‘ravonlik ostida qolsa, bunday o‘lkalarga tashqi tajovuzlar kuchayib ketadi. Ular kuchli davlatlar tomonidan osonlikcha ishg‘ol etiladi. Qadimgi Gresiya va Rim imperiyalari, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Mo‘g‘ullar saltanati yoki keyingi O‘rta Osiyodagi uch xonlik davri bunga yaxshi misol bo‘la oladi. Mamlakatning parchalanib, mayda bo‘lakchalarga bo‘linib ketishi, kichik hukmdorlar o‘rtasidagi tinimsiz adovat va o‘zaro urushlar shubhasiz bunday o‘lkalarni halokatga olib kelar edi. XIV asrda Yaqin Sharq va Eron ana shunday tanazzulga giriftor bo‘lgandi.

Jahon savdo yo‘llari, xususan Buyuk ipak yo‘lini tiklashni maqsad qilgan Amir Temur Yaqin Sharqqa befarq qaray olmas edi. Bu hududlardagi tinimsiz o‘zaro urushlar savdo karvonlari va xojilarni xaj ziyoratiga emin-erkin borib kelishiga monelik qilardi. Va eng muhimi iqtisodiy tanazzul kuchayib, fuqaro og‘ir ahvolda qolgan edi. Kuchli davlatlar o‘rtasida talash maydoniga aylangan bu hududlarni birlashtirish va adolat o‘rnatish, aholining osoyishtaligi ta’minlash hayotiy zarurat edi. Bu ulkan vazifani bajarish kuchli siyosatchi va yetuk davlat arbobi bo‘lgan Amir Temur zimmasiga tushdi.

---

[1] История Ирана с дреснейших времен до конца XVIII века. Изд. Ленинградского университета, 1958. – С. 211.

[2] Bu asarning uchta qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ular Sankt-Peterburg, London va Parijda saqlanadi. I.P. Petrushevskiyning ta‘kidlashicha, mazkur asar bizgacha yetib kelmagan turkiy manbalarga tayanib yozilgani jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. (Ko‘rsatilgan asar. – S. 212). Yaqinda mazkur asarning sharqshunos G‘ulom Karimov tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi “Sohibqiron hayotidan lavhalar” nomi bilan “Jahon adabiyoti” jurnalida (2006 yil, 3-4 –sonlari) e’lon etildi.

[3] В. В. Бартольд. Сочинение. Т.VIII. – С. 74-97.

Amir Temur Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo etib, unga Shimol va Sharqdan bo‘ladigan xavf-xatarlarni ma’lum darajada bartaraf etganidan keyin o‘z mamlakatining janubi va g‘arbi – Yaqin va O‘rta Sharq, Kichik Osiyo hududlari bilan shug‘ullanishga kirishdi. Bu hududlar XIV asr o‘rtalarida kichik-kichik davlatlarga bo‘linib ketganligi, siyosiy jihatdan ham, iqtisodiy jihatdan ham parokandalik kuchayganligini yuqorida aytib o‘tdik. “Kichik Osiyoda ham Saruaniylar, Oydiniylar, menteshoilar, Takaelilar, Karmiyonilar, Karamoniylar, Usmonlilar kabi bir qator katta-kichik sulolalar”[1] o‘zaro urushlar girdobida edi. Shu yillarda Yevropa ham aynan shunday ahvolda edi. Italiya mayda davlatchalarga (Florensiya, Siyena, Piza, Milan, Genuya, Venesiya, Savoyya kabi) bo‘linib ketgan, siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar kuchaygan edi. Fransiyada ham mayda mahalliy hokimlar qirolga deyarli bo‘ysunmay qo‘ygandi. Angliya va Fransiya orasida uzoq davom etgan kurash (“yuz yillik urush”) har ikki mamlakatning sillasini quritgandi. Ispaniya bilan Angliya hamda Portugaliya o‘rtasida ham keskin ziddiyatlar mavjud edi. Vizantiya imperiyasi esa Usmonli turklar zarbasi ostida halokatga yaqinlashib qolgandi. Bu murakkab ahvol Amir Temurning Yaqin Sharqda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishiga yo‘l ochib berdi. U qo‘shni mamlakatlarda yuz berayotgan siyosiy-iqtisodiy tangliklardan o‘z vaqtida foydalana oldi.

Sohibqiron O‘rta va Yaqin Sharq o‘lkalariga otlanar ekan, chingiziylardan bo‘lgan Hulagu tomonidan zabt etilgan ulkan hududlarga da’vogar ekanini ochiq bayon etdi. Ma’lumki, buyuk xon Munkening farmoniga ko‘ra, Hulagu Amudaryo janubidagi yerlarni qaytadan egallagan edi. U 1256-yilda Shimoliy Erondagi ismoiliylarni bo‘ysundirgach, 1258-yilda Iroqda so‘nggi abbosiy xalifa al-Musta’sim qo‘shinlarini yengib, Bag‘dodga kirib boradi. Suriya hududlarida urush qiladi, ammo 1260-yilda Misr mamluklaridan yengiladi. Shunga qaramay, u Eron, Iroq, Kavkaz va Kichik Osiyoni birlashtiruvchi ulkan saltanatni vujudga keltirgan edi. Hulagu mana shu hududlarda “elxon” (ya’ni “ulug‘ xonga itoat etuvchi”) unvoni bilan hukm yuritadi. Bir asr hukm surgan Elxoniylar sulolasi o‘rnida 1353-yildan keyin Jaloiriylar, Muzaffariylar hamda Sarbardorlar davlati tashkil topadi[2]. Amir Temur shu paytgacha asosan sharqiy Xurosonni (markazi Hirot) bo‘ysundirishga intilgan edi. Uning g‘arb yo‘nalishidagi harakati va ma’lum ma’noda g‘arbiy o‘lkalarning siyosatiga tortilishi g‘arbiy Xurosondagi Sarbadorlar (markazi Sabzavor) hukmdori Ali Muayyad Mozondaron amiri Vali bosqinidan yordam so‘rab murojaat qilganidan so‘ng boshlangan. Bu voqea Davlatshoh Samarqandiyning “Shoirlar bo‘stoni” kitobida bayon qilingan. Lekin tarjimon B. Ahmedovning Temur Ali Muayyadni o‘ldirdi degan fikri uydirma. Ali Muayad Temur dushmandlariga qarshi kurashda yaralanib vafot qilgani manbada aytilgan.[3]

Amir Temur Eron hamda Yaqin Sharqqa otlanar ekan, birinchi navbatda “Hulagu taxti”da osoyishtalik o‘rnatishni asosiy maqsad qilib oladi. Bu siyosiy reja amalda Islom dinini himoya qilish, mazkur tarqoq mamlakatlardagi o‘zaro qirg‘inlar tufayli behuda qon to‘kishlarga chek qo‘yish, fuqaro osoyishtaligini ta’minlash shiori ostida o‘tkaziladi.

Sohibqiron qo‘shni mamlakatlardagi siyosiy, iqtisodiy hayotni, aholining kayfiyati, hukmdorlarning vaziyati, qo‘shinning ahvolini sinchkovlik bilan puxta o‘rgangan. U kuchli ayg‘oqchilar (razvedka) tizimiga ega edi. Bundan tashqari, amirlar, elchilar, savdogarlar turli maqsadlar bilan o‘zga ellarga borganda, o‘sha mamlakatlar haqida puxta ma’lumotlar olib kelishgan. Masalan, muqaddas Haj safariga borgan amir Sayfuddin karvon yo‘lidagi barcha

[1] Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001. – B. 209.
[2] Босворт К.Э. Мусулманские династии. – М.: Наука, 1971. – С. 200-201.
[3] Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. T., 1981, B. 118.

mamlakatlar vaziyati haqida mufassal ma'lumotlar to‘plagan edi. U 1378-yilda safardan qaytgach, ayniqsa, Eron va Xurosonda elxoniylar o‘rnida hukmdorlik qilayotgan mayda hokimlar mamlakatni izdan chiqarib yuborgani, yurt inqirozga yuz tutgani, mavjud siyosiy vaziyatda bu o‘lkalarni osonlik bilan qo‘lga kiritish mumkinligi haqida axborot bergani ma'lum.

Sharafiddin Yazdiyning yozishicha, 1376-yilda amirzoda Jahongir vafot etgandan keyin amir Sayfiddin safarga otlanadi: “Va Sayfiddinbek bu jihatdin barcha ishdin ilikni yuvub, dunyo bilan hech e'tiqodi qolmay, ijozat tilab, Ka'bag‘a bordi». Uning safardan qaytishi ham “Zafarnoma”da qisqagina bayon qilingan: “Bu mahalda Hoji Sayfiddinbek Hijoz safaridin kaytib, hazrat Sohibqiron qoshida keldi va Eron mamlakatida bo‘lg‘on podshohlarning ahvollarini arzadosht qildi”[1].

Shu bilan birga Sohibqiron qo‘shni mamlakatlardagi aholining hukmdorlardan noroziligidan ham ustalik bilan foydalangan. Bu o‘rinda ham Islom, shariat qonunlarining homiysi sifatida ish tutgan.

Jumladan, “Temur tuzuklari”da Seiston safari haqida shunday yoziladi: “Seiston valiysi … elchi orqali sovg‘a-salomlar yuborib, mendan yordam so‘radi: “Dushmanlarim menga zulm qilib, qo‘limdan yetti qal'amni tortib oldilar. Agar mendan dushman qo‘lini qisqa qilsalar, askarlariga olti oylik oziq-ovqatni yetkazib berardim”[2]. Bunday takliflar, albatta, inobatga olingan.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, Sohibqiron “Xorazm andishasidan tinchigach (ya'ni o‘z mamlakatining shimoliy hududlarini mustahkamlab bo‘lgach – U.A.), Xuroson ahvolini tartibga solishni iroda qildi”[3]. Bu davrda yuqorida aytilganidek, Xuroson va Eron bir qancha mayda davlatlarga bo‘linib ketgan, iqtisodiy tanazzul kuchayib, aholining turmushi ancha og‘irlashgan edi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: “Ul mahalda Eron viloyatida har mamlakatda bir jamoat bosh chiqarib, podshohlik qilur edilar. Chig‘atoy ulusi va Jo‘ji ulusini o‘z gumashtalarining tasarrufi ostiga olganidan so‘ng muborak xotirig‘a tushtikim, Eron viloyatini zabt qilg‘ay, Eron sari mutavajjih bo‘ldi”[4].

Demak, Amir Temur parchalanib ketgan va o‘zaro urushlar girdobida qolgan Erondagi kichik davlatlarni birlashtirish orqali (aslida Hulagu taxtini qayta egallash) markazlashgan mamlakat hududlarini kengaytirishni rejalashtirgan. Bu o‘rinda ham Movarounnahrga janubdan yuz berishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish asosiy o‘rinda turgan. Mazkur siyosiy tadbir amalga oshgandan keyin bu yerlarda ham adolat va osoyishtalik o‘rnatish, hokimiyatni suiiste'mol qilish hollari va o‘zaro qirg‘inlarga chek qo‘yish ko‘zda tutilgan. Bu maqsadga erishish orqali islom qoidalarini mustahkamlash asosiy niyat qilib olingan.

Shu o‘rinda yana bir qator muhim siyosiy-ijtimoiy sabablar mavjudligini ham aytib o‘tish kerak:

1. Hulagu saltanati parchalanib, kichik davlatchalarga bo‘linib ketgach, ikki qudratli davlat – Misr mamluklari va Oltin O‘rda xonligi bu hududlarga ko‘z tika boshlagan edi. Arab manbalarida qayd etilishicha, sulton Beybars va Berkaxon o‘rtasida bu xususda bitim tuzilib, ikki yuz yil orasida Qohira bilan Saroy Berka orasida besh yuz martaga yaqin elchilik aloqalari bo‘lib o‘tgan edi[5]. Misr bo‘lajak muhorabalarda Suriya (Shom)ni, Oltin O‘rda Ozarbayjonni istehkom qilishni

[1] Yazdiy. Zafarnoma. – B. 81, 86; Tilman Nagel. Timur – zavoyevatel. – S. 192-193.
[2] Temur tuzuklari. – B. 35.
[3] Nizomiddin Shomiy. – B. 112.
[4] Sharafiddin Ali Yazdiy. – B. 88.
[5] Амин ал-Холи. Связи между Нилом и Волгой. М., 1962, С.15.

mo‘ljallagan, g‘alabadan keyin Hulagu saltanatini o‘zaro bo‘lishib olish rejalashtirilgan edi. Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan paytda ham ana shu yashirin siyosiy reja kun tartibida turardi. Agar bu reja amalga oshib, Yaqin va O‘rta Sharq mamluklar va Oltin O‘rda tasarrufiga o‘tsa, Movarounnahr kuchli tahlika ostida qolishi muqarrar edi. Sohibqiron tomonidan taxtga o‘tkazilgan g‘ayratli To‘xtamishxon bu siyosiy kurashga faol aralashib, tez orada xavfli raqibga aylandi. U qisqa fursatda Oq O‘rda va Ko‘k O‘rdani birlashtirib, kuchli hukmdor bo‘lib olgach (1376-yil), Amir Temurni pisand qilmay qo‘ydi. Jo‘ji ulusiga tobe bo‘lgan Xorazmning qo‘ldan ketishi unga aslo tinchlik bermas edi. U mazkur hududni qaytarib olishga ojizligini anglab, asosiy kuchlarini Kavkazga to‘plab, Darband darasini harbiy qarorgohga aylantirdi va Janubiy Ozarbayjonni qo‘lga kiritishni mo‘ljalladi. Arab muarrixi Ibn Tag‘riberdining yozishicha, To‘xtamish yuborgan elchi 1384-yil 26-martda Qohiraga yetib keladi va izzat-ikrom bilan kutib olinadi[1]. Ayni shu kunlarda turk sultoni Yildirim Boyazid va Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmad yuborgan elchilar ham Qohiraga kelgan edi. Ibn Tag‘riberdining yozishicha, Misr sultoni To‘xtamishxon, Yildirim Boyazid va Qozi Burhoniddinning Amir Temurga qarshi Ittifoq tuzish haqidagi taklifiga qo‘shiladi[2]. Arab tadqiqotchisi Said Abdulfotih Ashur “Mamluklar hukmronligi davrida Misr va Shom” asarida bu xususda shunday yozadi: “Turkiy davlatlarning mamluklar saltanatiga tahdidi 15-asrda kuchaydi. Ayni shu paytlarda Mamluklar davlati ichida notinchlik va fitnalar ko‘paygan, bu davlatning zaifligi ko‘rinib qolgan va o‘zini mudofaa etishga ojizligi namoyon bo‘lib qolgan edi. Ushbu tashqi xatar asosan Temurlang tomonidan tug‘ilmoqda edi”[3]. Bu haqda yana Ibn al-Frotning “Tarix ad-duval va al-muluk” asarida ham ma’lumotlar berilgan. Jumladan, u To‘xtamishxon Amir Temurga qarshi “Mudofaa ittifoqi” tuzish istagini bildirib, Sulton Barquq huzuriga elchilarini yuborgani, Sulton Boyazid yuborgan elchilar turk sultoni ham Amir Temurga qarshi jangda ittifoqdosh bo‘lishga rozi bo‘lib, Misr sultoni ixtiyoriga ikki yuz ming askar yuborishga tayyor ekanini bildirgani haqida yozadi[4]. Shuningdek, Al Maqriziy “Kitab as-suluk fi ma‘rifat duval al-muluk” asarida ham bu masalani batafsil yoritgan[5].

Turk olimi Ismoil aka bu haqda shunday yozadi: “Ayni choqda Qozi Burhoniddin (Qaysari–Sivas hukmdori) Temurga qarshi bir jabha qurishga kirishgandi... Uning bu tahlikali harakati tez orada o‘z mevasini berib, Qozi Burhoniddin, Boyazid, Barquq, To‘xtamish o‘rtasida bir ittifoq yaratildi”.

Mazkur masala o‘zbek sharqshunosi Sanjar G‘ulomovning “Amir Temur va Boyazid munosabatlari” maqolasida ham keng yoritilgan[6]. Ayniqsa muallif tahlil doirasiga kiritgan eron olimi Abdulhusayn Navoiyning “Asnod va makotiboti tarixi Eron (az Teymur to shoh Ismoil)” kitobi hamda “Usmoniylar yozishmalari” to‘plamidan olingan qaydlar diqqatga sazovor.

Amir Temur mohir sarkarda va dono davlat arbobi sifatida mazkur muxolif siyosiy kuchlar birlashib ketsa, o‘z saltanati qanchalik katta tahlika ostida qolishini yaxshi anglab yetdi. Bu siyosiy omil sobiq Hulagu taxtini o‘z nazorati ostiga olishni taqozo qilardi.

2. Yaqin Sharq mamlakatlari muqaddas Haj safari va Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega edi. Ayni shu yillarda bu

---

[1] ابن تنگربردی. النجوم الظاهرةفی ملوك مصر والقاهرة. قاهرة،١٩٥٦، جزء-١٢، ص-٢٢٣.

[2] ابن تنگربردی. النجوم الظاهرةفی ملوك مصر والقاهرة. قاهرة،١٩٥٦، جزء-١٢، ص-٢٢٣.

[3] سعد عبد الفتاح عشور. العصر المماليكی فی مصر و الشام. قاهرة ,١٩٦٥, ص-٢٥٢

[4] ابن الفرات. تاريخ ابن الفرت. بيروت. جزء-٩، ص-٣٨٢

[5] المقرزی. "كتاب السلوك فی معرفة دول الملوك". قاهرة، ١٩٥٨- ١٩٣٤، جزء-٣، ص-٤٩٥

[6] S.G‘ulomov. Amir Temur va Boyazid munosabatlari. “Sharqshunoslik”, 7-son, 1996 y., B. 73-83.

hududlarda hokimiyat izdan chiqib, karvon yo‘llarida qaroqchilik avj olib, savdogarlar va ziyoratchilarga katta ziyon-zahmat yetkazmoqda edi. Shuningdek, g‘ayridinlar (jumladan gruzinlar)ning musulmonlar ustiga bosqinchilik yurishlari tez-tez sodir bo‘lib turardi. Ayniqsa, Qoraqo‘yunli Qora Yusuf turkman hukmronlik qilayotgan hududlarda bu illat juda kuchaygandi. Mazkur yerlardagi aholi o‘z hukmdorlaridan norozilik bildirib, Sohibqirondan madad so‘rab tinimsiz murojaat qilishar ediki, Amir Temur bu da‘vatlarni oqibatsiz qoldirishni xohlamas edi. Bu haqda “Temur tuzuklari”da shunday ma’lumot bor: “…mendan qochib qaysar (Yildirim Boyazid nazarda tutilmoqda) panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig‘iga aylanib, ayniqsa ikki muqaddas shahar (ya’ni Makkai mukarrama va Madinai munavvara) ziyoratiga qatnovchilarning karvonlariga ko‘p zarar keltirayotganligi xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o‘sha taraflardan bir jamoat kishilar kelib, ular ham Qora Yusufning jabr-zulmidan arz qildilar. Shuning uchun Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko‘zini g‘aflat uyqusidan ochib qo‘yishim lozim ko‘rindi”[1].

Muhim savdo yo‘lida joylashgan Tabriz va Bag‘dod hududlarini egallab olgan Qora Yusuf va Sulton Ahmad Jaloyirning Muqaddas Haj safariga chiqqan yo‘lovchilarga ziyon-zahmat yetkazishi, hozirgi atama bilan aytsak, jangarilik (terrorchilik) qilib, qaroqchilik bilan shug‘ullanishiga chek qo‘yish Sohibqiron siyosatining uzviy qismi hisoblanadi. Umuman, tiyiqsiz jangarilik, terrorizmga qarshi kurash hamma zamonda muhim ahamiyat kasb etgan. Jangarilar faoliyati hamisha tinch aholini chalg‘itib, osoyishta hayotni izdan chiqargan. Amir Temurning Yaqin Sharqdagi yo‘lto‘sarlarga qarshi kurashib, savdo yo‘llari xavfsizligini ta‘minlashga intilishi katta ijobiy hodisa edi.

Sohibqironning Iroqqa nisbatan munosabatida ham adolat tamoyili ustuvorligini ko‘ramiz. Iroq aholisining muzaffariylar va boshqa turli toifadagi hukmdorlar zulmidan shikoyat qilib yozgan arizasi Sohibqiron uchun juda qo‘l keladi[2]. Shu o‘rinda yana quyidagi siyosiy vaziyatni ham ta’kidlash kerak.

Eron va Yaqin Sharqda mo‘g‘ullar (Hulagu avlodlari) hukmronlik qilgan yillarda islom dinining mavqei ancha susayib qolgan edi. Xuddi shu holni Markaziy Osiyo sharqidagi jetalar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mo‘g‘ul xukmronlari o‘z manfaatlari yo‘lida islom qonun-qoidalari bilan mutlaqo hisoblashmas edilar[3]. Bu ahvol mo‘g‘ullardan keyingi hukmdorlar davrida ham ma’lum darajada davom etgan.

Movarounnahrda adolatli qonunlar tufayli mustahkam intizom o‘rnatgan Amir Temur qo‘shni davlatlarda islomning g‘orat qilinishi va karvon yo‘llarida oshkora talonchilik hukm surishiga aslo toqat qila olmasdi. Mana shu holatlar ham uning Eron va Yaqin Sharqqa yurishlariga jiddiy sabab bo‘ldi. Shu tarzda Amir Temur islomni g‘oyaviy bayroq sifatida o‘zining boshqa davlatlar va xalqlar bilan bo‘lgan munosabatlarida hamisha bedahl saqlashga, uni bosh masala tarzida har vaqt diqqat markazida tutishga qattiq e’tibor berib keldi. Bu hol Amir Temurning Yaqin va O‘rta Sharq siyosatidagi asosiy g‘oyaviy asos hisoblanadi.

Amir Temurning Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga otlanishiga sabab bo‘lgan navbatdagi muhim omil – karvon yo‘llarini, ayniqsa, shu davrda rivoj topgan Buyuk ipak yo‘lini o‘z nazorati ostiga olish rejasi bilan izohlanadi. Hali kemasozlik va dengiz savdosi keng rivojlanmagan

[1] Temur tuzuklari. – B. 66.
[2] Tuzuklar. – B. 56.
[3] Mannonov B. Amir Temur diplomatiyasi // «O‘zbek diplomatiyasi tarixi» to‘plami. – B. 66.

sharoitda bu karvon yo‘li Sharq va G‘arbni bog‘laydigan asosiy aloqa vositasi bo‘lib, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy mavqega, demak, katta xalqaro ahamiyatga ega edi.

I.P. Petrushevskiy Amir Temurning harbiy yurishlari asosida “ma’lum iqtisodiy reja bor” deb to‘g‘ri ta’kidlaydi. Uning fikricha, Eron, Kavkazorti va Old Osiyo mamlakatlarining ishg‘ol qilinishi ham aynan shu maqsadga bog‘liq edi. Shimoldagi yo‘llar (Qora dengiz bo‘yi va Kaspiy bo‘yi cho‘llaridagi) ustidan Amir Temur o‘zining doimiy hukmronligini o‘rnatmay, balki “uni yopib qo‘ymoqchi bo‘ldi, shu maqsadda bu yo‘llarda joylashgan yirik shaharlar – Urganch, Saroy Berka, Ashtarxon, Azov va boshqalarni yakson qildi”[1]. Bu ongli tadbir natijasida Amir Temur muhim savdo karvonlari Movarounnahr hududidan, xususan, Samarqanddan o‘tishiga va mamlakat iqtisodini rivojlantirishga to‘la erishdi. Sohibqironning tashqi mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarini bir yoqlama baholab, faqat istilochilikka bog‘lab qo‘yish noto‘g‘ridir. Savdo-iqtisodiy aloqalari esa Movarounnahr aholisiga ham, boshqa qo‘shni mamlakatlarga ham katta iqtisodiy naf keltirgan. Demak, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishga qaratilgan faoliyati katta xalqaro ahamiyat kasb etadi. Sohibqironning tashqi siyosati va harbiy faoliyatiga ana shu nuqtai nazardan yondashish to‘g‘ri bo‘ladi.

Bu xususda A. Ziyo bildirgan quyidagi fikr ibratlidir: “To shu choqqacha Amir Temur yuritgan tashqi siyosat masalalariga baho berilganda, - deb yozadi u, - deyarli doim bir an’ana hukm surib kelgan, ya’ni Sohibqironning harbiy yurishlari faqatgina uning harbiy manfaati va saltanatparastlik rejalarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida amalga oshirilgan. Go‘yo uning butun faoliyati “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” yurishlardan iborat bo‘lgan va butun umrini u shunga bag‘ishlagan. Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, Amir Temur hech qachon “uch yillik”, “besh yillik”, “yetti yillik” yurish rejalarini qilmagan. Birinchidan, mazkur tushunchalarni Sharafiddin Ali Yazdiy taomilga kiritgan. Undan oldin qalam yuritgan Shomiy, Natanziy kabi tarixchilarning asarlarida bunday ta‘riflar yo‘q. Ikkinchidan, hatto ushbu ta’riflar shartli tarzda qabul qilinganda ham Sohibqiron muttasil va to‘xtovsiz har kuni, har oyda urush bilan mashg‘ul bo‘lgan, degan xulosaga kelish noto‘g‘ri. Zero, odatda jang bir necha soat davom etadi. Qolgan vaqt unga tayyorgarlikka, bir manzildan ikkinchisiga ko‘chishga sarf bo‘lgan…”[2]. Bir so‘z bilan aytganda, Amir Temur davri davlatimiz ichki va tashqi siyosatini faqat jangu jadallarga bog‘lab bayon qilish ham ilmiylikka, ham o‘sha zamon tarixiy voqeligiga ziddir.

Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati, uning faoliyati o‘rta asrlar geosiyosiy tizimida muvozanatni ta’minlash, xalqaro savdo yo‘llarini tiklash va Markaziy Osiyoni siyosiy markazga aylantirishga qaratilgan murakkab strategik siyosat sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Sohibqironning tashqi siyosiy faoliyati bevosita harbiy ekspansiya emas, balki iqtisodiy, diplomatik va madaniy barqarorlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

Amir Temur Yevropa va Sharq mamlakatlaridagi siyosiy parokandalikni chuqur tahlil qilib, o‘z siyosiy rejasini shu asosda shakllantirgan. U o‘z davrida global savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashni asosiy maqsad deb bilgan va shu yo‘nalishda xalqaro aloqalarni rivojlantirgan. Manbalarda keltirilganidek, Sohibqironning diplomatik faoliyati o‘sha davr Yevropa davlatlari bilan bilvosita aloqalar o‘rnatish, ularning siyosiy ahvolidan xabardor bo‘lish hamda Markaziy Osiyo manfaatlariga mos ravishda strategik qarorlar qabul qilish bilan tavsiflanadi.

---

[1] Петрушевский И.П. Иран под властью Тимура и тимуридов. – В кн.: «История Ирана». – М., 1977. – С. 162.

[2] Ziyo A. Ko‘rsatilgan asar. – B. 223.

U Yaqin va O‘rta Sharqda barqarorlikni tiklash, savdo yo‘llarini, ayniqsa Buyuk Ipak yo‘lini qayta jonlantirish hamda adolatli boshqaruv tamoyillarini o‘rnatish orqali xalq farovonligini ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Sohibqironning diplomatik siyosati o‘sha davrdagi Yevropa va Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy tarqoqlikdan oqilona foydalanish, ularning kuch nisbatini o‘rganib, o‘z manfaatlari yo‘lida muvozanatni saqlashga asoslangan edi.

Shunday qilib, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, Amir Temurning Yevropa davlatlariga nisbatan tashqi siyosati — bu o‘rta asrlar diplomatiyasining yuksak namunasi bo‘lib, u xalqaro munosabatlarda kuch va adolat muvozanatini yaratishga qaratilgan geosiyosiy konsepsiya sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001. – B. 151–234.
2. Бартольд В.В. Тимур и Тимуриды // История Туркестана. Соч. – М., 1963. – Т. 2, ч. 1. – С. 157–162.
3. Босворт К.Э. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии / Пер. с англ. и примеч. П.А. Грязневича. – М.: ИВЛ, “Наука”, 1971. – С. 217–220.
4. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar to‘g‘risida / Fors tilidan B. Axmedov tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1967. – 86 b.
5. G‘ulomov S. Amir Temur va Boyazid munosabatlari // “Sharqshunoslik”, 1996. – B. 74–83.
6. Mannonov B. Amir Temur diplomatiyasi // “Sharqshunoslik”, 1996. – B. 10–37.
7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan Yu. Hakimjonov tarjimasi; nashrga tayyorlovchi A. O‘rinboyev. – T.: O‘zbekiston, 1996. – 527 b.
8. Петрушевский И.П. Иран под властью Тимура и Тимуридов // История Ирана. – М.: Наука, 1977. – С. 160–164.
9. Пигулевская Н.В., Якубовский А.Ю., Петрушевский И.П., Строева Л.В., Беленицкий А.М. История Ирана с древнейших времен до конца XVIII в. – М.: Наука, 1958. – С. 164–242.
10. Temur tuzuklari. O‘zbek, rus, ingliz, fransuz tillarida / Akademik B. Ahmedov tahriri ostida; fors tilidan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarjimasi. – T.: Adabiyot va san‘at, 1996. – 343 b.
11. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma (Movarounnahr voqealari 1360–1370) / Mas‘ul muharrir, so‘zboshi mualliflari va tarjimasi: A. O‘rinov, B. Muqtarov, O. Buriyev. – Toshkent: Kamalak, 1994. – 288 b.
12. ابن الفرات .تاريخ ابن الفرات. – بيروت. – جزء 9. – ص. 382.
13. ابن تنگربردى .النجوم الظاهرة في ملوك مصر والقاهرة. – القاهرة، 1956. – جزء 12. – ص. 223.
14. المقريزي .كتاب السلوك في معرفة دول الملوك. – القاهرة، 1934–1958. – جزء 3. – ص. 495.
15. سعيد عبد الفتاح عشور .العصر المملوكي في مصر والشام. – القاهرة، 1965. – ص. 252.
16. جوزيف داهموس .سبع معارك فاصلة في العصور الوسطى / ترجمة: محمد فتحي الشاعر. – ط. 2. – القاهرة: الهيئة المصرية العامة للكتاب، د.ت. – ص. 165.

O‘ZBEKISTON AN’ANAVIY KULOLCHILIK MAKTABLARINING IJTIMOIY VA MADANIY XUSUSIYATLARI

BOBIR ODILOV
Dotsent, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, TDSHU
ORCID ID: 0000-0002-9961-3071

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida shakllangan an’anaviy kulolchilik maktablari va ularning ramziy-bezak tizimi tarixiy, semantik hamda madaniy-antropologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxeologik topilmalar, yozma manbalar va etnografik materiallar asosida kulolchilik bezaklarining kelib chiqishi, evolyutsiyasi hamda diniy va ijtimoiy mazmuni yoritilgan. Natijalar kulolchilik ramzlari ibtidoiy davrlardan boshlab islomiy va zamonaviy bosqichlargacha uzluksiz rivojlanganini ko‘rsatadi. Ramzlar tizimi jamiyatning kosmogonik tasavvurlari, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy identitetini aks ettiruvchi muhim madaniy kod sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Kulolchilik san’ati, ramz va belgilar, an’anaviy bezaklar, madaniy meros, kosmogonik tasavvurlar, diniy e’tiqodlar, ijtimoiy identitet, semantik tahlil.*

Abstract: *This article analyzes the traditional pottery schools of Uzbekistan and their symbolic decorative system through historical, semantic, and cultural-anthropological approaches. Based on archaeological findings, written sources, and ethnographic materials, the study examines the origins, evolution, and religious as well as social meanings of pottery ornaments. The results demonstrate that symbolic motifs in pottery have developed continuously from prehistoric times through the Islamic and modern periods. The system of symbols is interpreted as an important cultural code reflecting cosmological views, religious beliefs, and social identity. Thus, pottery is considered not only a material craft but also a significant medium of cultural memory and symbolic expression.*

Key words: *Pottery art, symbolic motifs, traditional ornaments, cultural heritage, cosmological concepts, religious beliefs, social identity, semantic analysis.*

Аннотация: *В данной статье анализируются традиционные школы керамики Узбекистана и их символико-декоративная система на основе исторического, семантического и культурно-антропологического подходов. На базе археологических находок, письменных источников и этнографических материалов раскрываются происхождение, эволюция и религиозно-социальное значение орнаментов. Результаты исследования показывают, что символическая система керамики формировалась с древнейших времен и последовательно развивалась в исламский и современный периоды. Символы рассматриваются как важный культурный код, отражающий космогонические представления, религиозные верования и социальную идентичность общества.*

Ключевые слова: *Керамическое искусство, символические мотивы, традиционный орнамент, культурное наследие, космогонические представления, религиозные верования, социальная идентичность, семантический анализ.*

INTRODUCTION/ ВВЕДЕНИЕ/KIRISH O‘zbekiston an’anaviy hunarmandchiligi asrlar davomida o‘zining rang-barang mahsulotlari bilan dunyo bozorlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lib kelgan. Savdo-sotiq hamda o‘zaro madaniy aloqalarning kuchayishi hunarmandchilik mahsulotlariga bo‘lgan talab va ularni yasash uslubiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

O‘zbek kulolchilik san’ati juda qadimiy tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u turli an’analar va urf-odatlarni o‘zida aks ettiruvchi ramzlar tizimini yaratgan. Kulolchilikning ilk bosqichlaridan boshlab ramz va belgilar qo‘llanilgan bo‘lib, ular ajdodlarimizning olam, tabiat va koinot haqidagi tasavvurlarini ifodalagan (Masson, 1971, p. 35; Lollekeva, 1988, p. 98).Shakl va tasvirlar

muayyan tegishlilik yoki yovuz kuchlardan himoya qiluvchi ramziy kuch sifatida qaralgan. Natijada, o‘zbek hunarmandlarining bugungi kungacha ramz sifatida aks ettirgan belgilari shakllangan (Janabayeva, 2019, p. 8; Sukhareva, 2011, p. 11).Kulolchilikda uchraydigan ramzlar xilma-xilligi va mazmuniga ko‘ra turli davr g‘oyalari hamda tasavvurlarining mahsuli hisoblanadi. Ayniqsa, hayot, tiriklikni asrovchi kuchlar, olam qatlamlari va koinot jismlarining falsafiy talqinlari ramzlarda mujassam bo‘lgan (Martens, 2017, p. 17).

METHODS/ МЕТОДЫ / TADQIQOTNING USULLARI

Mazkur tadqiqot tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, semantik tahlil hamda madaniy-antropologik yondashuvlar asosida olib borildi. Qoya tosh rasmlari, arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda etnografik kuzatuvlar tahlil qilindi. Qoya tosh rasmlarida tasvirlangan shakllar insonlarning atrof-muhitni anglash va voqealarni ifodalashga bo‘lgan intilishidan kelib chiqqan (Kabirov, 1976, p. 22). Shakllar mulk belgisi, urug‘ yoki ustaning shaxsiy tamg‘asi sifatida qo‘llangan (Askarov, 1973, p. 103; Mahmud Qoshg‘ariy, 1963, p. 167).

Chiziqli belgilar bronza davridan buyon kulolchilik bezaklarida uchrab, keyinchalik yozuv tizimlari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan (Askarov, 1973, p. 74; Evans, 1895, p. 84). Xususan, Farg‘ona vodiysi va Xumbuztepa yodgorliklaridan topilgan sopol buyumlarda chiziqli ramzlar keng uchraydi (Litvinskiy, 1973, p. 161; Baratov, 2019, pp. 48–49).

RESULTS/ РЕЗУЛЬТАТЫ/ NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekiston hududida shakllangan an’anaviy kulolchilik maktablari va ularning ramziy-bezak tizimi uzoq tarixiy jarayonlar mahsuli ekanini, bu jarayonlar esa ibtidoiy jamiyatlardan to islomiy davrgacha bo‘lgan madaniy qatlamlar, diniy qarashlar, xo‘jalik tizimlari va estetik ideallar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini ko‘rsatadi. Arxeologik, etnografik va san’atshunoslik manbalari asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik buyumlari nafaqat kundalik ehtiyojni qondirish vositasi sifatida, balki jamiyatning dunyoqarashi, kosmogonik tasavvurlari, ijtimoiy tuzilmasi va diniy e’tiqodlarini ifodalovchi muhim ramziy makon sifatida ham xizmat qilgan (Массон, 1971; Пугаченкова, 1965; Harris et al., 1993).

Eng qadimgi davrlarga oid topilmalar shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyo hududida sopol idishlar ishlab chiqarish neolit davrida shakllanib, Joytun madaniyati yodgorliklarida bu jarayon nisbatan yuqori texnologik darajaga ko‘tarilgan (Массон, 1971). Bu davr sopol buyumlari shakl jihatdan sodda bo‘lsa-da, ularning yuzasida uchraydigan geometrik belgilar, chiziqlar, nuqtalar va soddalashtirilgan shakllar insoniyatning borliqni ramziy ifodalashga bo‘lgan ilk urinishlarini aks ettiradi (Лоллекова, 1988). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki kulolchilar idishlarni qo‘lda shakllantirgan, ularni quyoshda quritgan va ochiq olovda pishirgan bo‘lib, bu jarayonning texnologik izlari keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan (Аскаров, 1973). Shuningdek, bezak berish jarayoni idish pishirilishidan avval amalga oshirilgan bo‘lib, bu ramzlarning mustahkam saqlanishiga xizmat qilgan (Лоллекова, 1988).

Muqaddas toshlar bilan bog’liq ziyoratgohlardan biri Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Oqtosh ota ziyoratgohidir. Tadqiqotchi F. Sh. Akchayevning qayd etishicha, ziyoratgohdagi tuproq turli-xil teri kasalliklari, xususan, oq dog’, yara va toshmalarga davodir [21. B. 192]. Ziyoratgohga bugungi kunda shu qishloqda istiqomat qiluvchi yuz hamda qirq urug’i vakillaridan tashqari, Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari ziyoratchilar ham tashrif buyuradilar. Shuning uchun tuproqdan malham va tumor sifatida foydalanish hozirgi kunga qadar aholi o’rtasida saqlanib qolgan.

Tuproq kulti bilan bog’liq qarashlar o’zbeklarning an’anaviy xo’jalik hayoti va moddiy madaniyatida ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Ma’lumki, aholi turar-joylari va ular bilan bog’liq xo’jalik binolari moddiy madaniyatning muhim etnik komponentlaridan biridir. Uy-joylarning

shakllanishi va yuksalishi ko'plab omillar, xalqning turmush tarzi, xo'jalik faoliyati turlari, aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda tabiiy-geografik muhitga bevosita bog'liq bo'ladi.

Xususan, uylarni fasad va ichki qismlarini suvashda namanganlik ustalar o'ziga xos mayin tuproq – "arzik"dan foydalanadilar. Arzikning ikki turi vodiyda keng tarqalgan. Masalan, aholining kam ta'minlagan qismi asosan, pishirilmagan arzik ishlatgan. O'rta hol va o'ziga to'q aholi esa katta doshqozonlarda pishirilgan arzikdan foydalangan va ushbu an'ana hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Bugungi kunda Namangan shahri, Kosonsoy, Chust, Uychi, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida arzik tayyorlovchi maxsus ustalar faoliyat yuritib kelmoqda [22. *Dala yozuvlari. Namangan viloyati aholi punktlari. 2026-yil*]. Mahalliy ustalarning aytishicha, arzik tuprog'i asosan, hudud atrofida joylashgan adirlik va tepaliklardan qzib olinadi. Chunki, viloyatning shimoliy hududlaridagi tepaliklarda tuproqning ana shunday qatlamlari mavjud bo'lib, bunday tuproqlarni boshqa joylarda uchratish deyarli imkonsiz [23. B. 178].

Bundan tashqari, xalq hunarmandchiligida ham tuproqdan unumli foydalaniladi. Chunki, xalq hunarmandchiligi hamma joyda bir tekisda rivojlanmay, dastlab faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab ham taraqqiy etgan. Masalan, sifatli tuproq bor joyda kulolchilik, jun va teri ko'p joyda to'qimachilik va ko'nchilik, daryo bo'ylarida kemasozlik rivojlangan.

Tadqiqotchilarning yozishicha, Xorazm vohasi kulolchiligida boshqa hududlar singari mahalliy tuproqdan foydalaniladi. Uning sof, qora, ko'kimtir va qizil loykor tuproq kabi turlari mavjud bo'lib, o'zining xususiyati hamda ishlatilishiga qarab s*yershira loy, oq loy, pat loy va koshin loy* kabilarga bo'linadi [24, B. 12].

Tadqiqotchi H. Xudayberganovning qayd etishicha, Xorazm kulolchiligi o'zining xomashyo va ishlanish uslublari jihatidan muhim ahamiyatga ega. Vohalik kulollar asosan, sifatli va mahalliy soz tuproqdan foydalangan. Loyning elastik cho'ziluvchan va egiluvchan xususiyatlarini saqlash uchun qum, qamish to'zg'og'i tandir lovi uchun esa somon qo'shilgan. Shuningdek, voha kulolchiligida yana qizil kesak, oq tuproq – angob (loya) ishqor tayyorlash uchun mahalliy charan (chag'on) o'simligi va boshqa tabiiy xom ashyolar ishlatiladi. Oq tuproq, qizil kesak kabi xom ashyolar Qoraqalpog'istondagi Sulton Uvays tog'idan keltirilgan. Charan o'simligini ustalar uzoq qumloq joylarda izlab topib keltirishgan. Kulollarning aytishicha, 200 dona bodiye yasash uchun 500 kg mahalliy soz tuproq, 40 litr suv, 80 kg qum, 2 kg qamish to'zg'og'i kerak bo'lgan. Tayyorlangan xamir (loy)ni ustalar oyoq kuchi yordamida uzoq va ko'p kuch sarflab tepkilab pishirganlar [25, B. 21].

Vodiydagi kulolchilik markazlari tabiiy xom-ashyo asosida, ya'ni Rishtondagi Tuproqxona ("Xoki surx" – "qizil tuproq"), G'urumsaroydagi Adir, Chodakdagi Xokdom, Sangdagi Kulol mahalla, Asakadagi Xonariqbo'yi tuproqxonasi ushbu markazlarni vujudga keltirgan [26. Dala yozuvlari. *Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton qishlog'i. 2024-yil; Namangan viloyati Pop tumani Chodak qishlog'i. 2025-yil; Namangan viloyati Pop tumani Sang qishlog'i. 2025- yil*]. Kulolchilikda turli mineral konlari ham muhim bo'lib, Rishtonga gilbo'ta Isfara, mag'l va jo'sha (qizil tuproq) Chorku, G'urumsaroyga oqtosh hamda ishqor tog'lik qirg'izlar, mis mahalliy konlar va Qo'qondan keltirilgan [27*. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani G'urumsaroy qishlog'i. 2025-yil*].

Farg'ona vodiysidagi qishloq kulollarining mahsulot ishlab chiqarish uslubi umumiy xarakteriga ko'ra, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarinikiga o'xshash xarakterga ega. Biroq, ayni paytda, vodiy hunarmandlari mahsulot tayyorlash borasida ayrim etnohududiy usullarni ham qo'llaganlar. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, vodiylik kulollar mahalliy tuproq loyi xususiyatlarini yaxshi bilgan, shuni hisobga olgan holda o'z uslublarini ishlab chiqqanlar. Rishtonning qizil tuprog'i shirali bo'lib, loyiga

G'urumsaroy va Shahrixondagi kabi qamish kuli hamda to'zg'oq qo'shilmagan. Masalan, G'urumsaroyda kosa devori qalin, poshnasi novcha, Shahrixonda kosa devori past, devori qalin, ichi keng, poshnasi yupqa, Rishtonda esa kosa devori shirali loy tufayli yupqa, baland, poshnasi novcha tarzda yasalgan [28. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Rishton tumani Rishton qishlog'i. 2024-yil*].

Lekin, shu bilan birga, vodiy kulolchiligida ham ayrim etnohududiy jihatlar ham ko'zga tashlanadi. Chunonchi, vodiydagi tandirchilik sohasi o'lkadagi kulolchilik markazlari bilan kam aloqada rivojlanganligi uchun homiy-pirlar obrazlari o'ziga xos shaklda yuzaga kelgan. Chunonchi, vodiyning ayrim qismlarida tandirchilar kulolchilikdagi Amir Kulol obrazini "Mehri kulol" nomi bilan ataydilar va ushbu homiy-pirga topingan. Mahalliy tandirchilar uning qabrini So'x tumanining Gul qishlog'ida joylashgan deb ko'rsatadi [29. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani Gul qishlog'i. 2025-yil*]. Demak ushbu obrazni shakllanishida qadimiy soz tuproq konlari asosida vujudga kelgan hunarmandchilik bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar muhim rol o'ynagan. Umuman olganda, hunarmandchilik risolalarida hunarmandlarni xom-ashyoga yuqori hurmat ko'rsatishi qayd etilgan[30. C. 251].

Hunarmandchilikda kulollarni tuproqxonaga behurmat munosabatda bo'lish, homiy-pir g'azabini keltiradi va soz tuproqni yo'qolib ketishiga olib keladi deb ishongan. Soha pir-homiysidan madad so'rab, tuproqxonaga "chiroq yoqish" odati ham mavjud [31. *Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qorashahar qishlog'i. 2020-yil*]. Kulollar tuproq, loy va loyxonaga ham alohida e'tibor bilan qaragan.

Bundan tashqari, vodiy qoraqalpoqlari o'z yashash joylarining tabiiy iqlim sharoiti, ekin maydonlarining tabiiy tanlanish holati hamda tuproqning strukturasidan kelib chiqib, dehqonchilikning ayrim turlari bo'yicha ixtisoslasha borgan. Chunonchi, Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Kichik Oqtepa qishlog'i tuprog'ining strukturasi xalq orasida "*qattiq kesakli*" deb atalib, yeri qattiq bo'lganligi bois poliz ekinlari yetishtirish uchun qulay hisoblanadi [32. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Kichik Oqtepa qishlog'i. 2023-yil*]. Tekislikda yashovchi aholi esa tabiiy unsurlardan issiq qum va tuproqdan foydalangan. Hunarmandlar yoki o'tirib ishlovchi boshqa kasb egalari yoz oylarida cho'llarga chiqib, tanalarini qumga ko'mganlar. Ya'ni, insonning kasali va davolash usullari o'xshash bo'lganligi bilan davo bo'ladigan unsur ikki xil edi. Aynan shu holat xalqona tibbiyotning hududiy o'ziga xoslik kasb etishiga tabiiy muhitning ta'sirini ko'rsatadi [33. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor va Namangan viloyati Pop tumani Navbahor qishloqlari. 2025-yil*].

Tabiat mo'jizalaridan biri bo'lgan tuproqdan xalq tabobatida ham unumli foydalaniladi. Jumladan, Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'ida har yili avgust oyining oxirida an'anaviy "Qum sayli" bo'lib o'tadi. Minglab odamlar dardlariga davo izlab, bu yerga keladilar va issiq qumga ko'milib yotadilar. Odamlar oz-ko'pligini yo'l chetida to'plangan mashinalarga qarab bilsa bo'ladi. Yo'ldan eng yaqin qum tepaligiga chiqishingiz bilan ko'z oldingizda qiziq manzara namoyon bo'ladi: yuzlab erkaklar, ayollar va bolalar qumga ko'milib yotgan bo'ladilar. Ular quyoshning o'tkir tig'idan qo'lbola chodirlar va zontiklar yordamida saqlanadilar. Aytishlaricha, qirq-ellik yillar avval qumlik bir necha chaqirimlarga cho'zilgan. Ammo, cho'l asta-asta o'zlashtirilib, ekin maydonlariga aylantirilgan, qumliklar bir necha qismlarga bo'linib, yo'qola boshlagan. Hozir katta-kichik qum tepaliklaridan bir nechtasi qoldi, xolos [34. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2024-yil*].

Qadim zamonlardan beri odamlar qizigan qum yordamida davolanib keladilar. Moziyning mashhur tabiblari Abu Ali ibn Sino va Galen ham bu haqda eslab o'tgan. Bugun bunday davo usulini psammoterapiya (psammo – yunon tilida qum) deb ataladi. Uning og'riq qoldirish, shamollash, shish qarshi kurashish xususiyati bor, modda almashuv jarayonini barqarorlashtiradi [35. B. 1]. Bo'g'in

mushaklari, osteoxondroz, nevralgiya, bod (revmatizm), radikulit, surunkali bronxit, surunkali pielonefrit, jigar hastaligi, safro yo'llari kasalligi, poliomelit va raxit asoratlari, ayollarning jinsiy kasalliklarida psammoterapiya tavsiya etiladi. Ammo, qumda hamma ham davo topa olmaydi. Misol uchun, onkologik, yurak-tomir, sil kasallari, shuningdek, surunkali xastalik avjiga chiqqanlarga qum terapiyasi sayli mumkin emas [36. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2024-yil*].

Tuproq bilan arxaik qarashlar o'zbeklarning dafn marosimlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Axborotchilarning aytishicha, dafn marosimlaridagi asosiy yumushlardan biri – qabr kovlashdir. Tadqiqotlar davomida vodiy aholisining qabr kovlashda yerning qatlamiga qarab, kimgadir yumshoq, kimgadir toshli shag'al joylar to'g'ri kelishi, yana kimgadir go'r kavlayotganda, suv chiqib ketishi, ularning "o'sha inson xaqida yaxshi odam edi, go'ri ham oson kavlandi" yoki "o'zi fe'li sal torroq edi, go'ri ham shag'alli joydan nasib qildi", suv chiqib, bir necha marta kavlanishga to'g'ri kelsa, "ana tuproq ham qabul qilmayapti" degan tasavvurlariga duch kelindi [37. *Dala yozuvlari. Farg'ona vodiysi Buvayda tumani Yangihayot qishlog'i. 2020-yil*]. Shuningdek, vodiy aholisi orasida agarda toshli joy bo'lsa yoki ilon chiqsa, yon atrofdagi odamlar hayotlik vaqtida odamlarga ko'proq ziyon yetkazgan ekan degan fikrlar ham saqlanib qolgan [38. Dala yozuvlari. *Andijon viloyati Buloqboshi tumani Nayman qishlog'i. 2013-yil*].

Qabr bir marta kavlangan, agarda qabrdan suv chiqsa, tagiga taxta qo'yib, keyin ko'milgan. Shu sababli, vodiy aholisi tuprog'i yumshoq joylardan nasib qilsin deb, niyat qiladi. Qabr kavlashga qarab janoza tayinlanadi. Tadqiqotchi M. B. Karimovaning qayd etishicha, Andijon viloyati Buloqboshi tumanida ayollar qabri erkaklarnikiga qaraganda 30 sm chuqurroq qilib (buni sababi, erkak kishining ayoldan ustun turishi bilan izohlanishidir), Qo'qon shahrida esa erkak va ayolar qabri bir xil chuqurlikda kavlanadi [39. B. 84].

Shuningdek, Qo'qon shahrida yer zax bo'lgani uchun mayitni ba'zan qarindoshlar uchun ajratilgan pishiq g'ishtdan bino qilingan maxsus xilxonaga ko'mishga ruxsat berilgan [40. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri. 2024-yil*]. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'ida esa yer osti suvlari yaqin bo'lganligi va qabr o'pirilishi xavfi yuqori bo'lganligi uchun mayitni o'ra shaklida dafn etish keng tarqalgan. Bunday qabrlarda jasad chuqurl ustiga tuproq uyib yoki tekislab dafn etiladi Mayitni qabrga qo'yayotganda boshi ostiga o'z tomorqasi, yeri, tuprog'i, asosan, ko'pincha devori kesaklari qo'yiladi. Dafn ishtirokchilari ham tuproqqa duo o'qilgach, yig'ilgan tuproq qabrga mayitning boshi yon atrofiga joylashtiriladi [41. *Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2025-yil*].

Xullas, o'zbeklarda Ona zamin – Yer (tuproq)ni e'zozlash bilan bog'liq e'tiqodlar juda qadim tarixga ega bo'lib, bu tarixiy, arxeologik, etnografik, yozma va boshqa manbalarda o'z aksini topgan. Ajdodlarimiz tomonidan eng asosiy tirikchilik manbai – yer doimo ko'z qorachig'idek avaylab saqlangan va ardoqlanganki, bu kabi ezgu an'analarni hozirgi davrda ham yanada izchil davom ettirish nihoyatda zarur. Shu boisdan ham inson, qolaversa, butun jonzotning asosi saxovatli maskani yer (tuproq)ni e'zozlash, musaffo saqlab, uni meliorativ holatini yaxshilagan holda kelajak avlodlarga yetkazish, shuningdek, ona zamin bilan bog'liq azaliy qadriyatlarni yoshlar ongiga yanada chuqurroq singdirish va kundalik hayotga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Миллий Энцклопедияси, 8-ж. – Тошкент, 2004. – Б. 629.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-ж. – Тошкент, 2008. – Б. 193.
3. Бўриев О., Шарипов Ф. Ўзбекларда заминни эъзозлаш билан боғлиқ қадимги эътиқодлар /

“Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида “Ўзбекистон этнологиясининг назарий-услубий муаммолари” мавзусидаги VIII анъанавий Республика илмий анжумани материаллари.– Тошкент, 2020. – Б. 191.

4. Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Dang’ara tumani Tumor va Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumani Axsi qishloqlari. 2025-yil.

5. Соатов Ғ. Зардуштийлик маданияти ва маънавияти. – Қарши: Насаф, 2004. – Б. 11.

6. Бўриев О., Шарипов Ф. Ўзбекларда заминни эъзозлаш билан боғлиқ қадимги эътиқодлар... – Б, 192.

7. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 114.

8. Yuqoridagi asar... – B. 125.

9. Обидов Р., Сарварова Д. Муқаддас одат ва мустажоб дуолар. – Тошкент: Моваройуннаҳр, 2003. – Б. 29.

10. Юз бир ҳадис. – Тошкент: Меҳнат, 1991. – Б. 6.

11. Халмуратов Б. Р. Увол рамзи билан боғлиқ халқ қарашлари // Имом Бухорий сабоқлари. – 2018. – №3. – Б. 66.

12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Иймон / Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. –Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 181.

13. Qur'oni Karim. A'rof” surasi, 56- oyat

14. Отабоев Ш. Экология, дин ва саломатлик. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2007. – Б. 67.

15. Qur'oni Karim. “Baqara” surasi, 205-oyat.

16. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръон ва Суннатдаги илмий мўъжизалар. – Тошкент: Hilol, 2022. – Б. 14

17. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Kultepa qishlog’i. 2025- yil.

18. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Alami qishlog’i. 2024-yil.

19. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Norin tumani Toshqin qishlog’i. 2024-yil.

20. Хайитова Ф. Б. Ўзбек халқи этномаданиятида зиёрат ва зиёратгоҳлар тарихи (Қашқадарё воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Қарши, 2021. – Б. 41.

21. Акчаев Ф. Ш. Жиззах воҳасини табиат мўъжизалари ва географик объектлар билан боғлиқ зиёратгоҳлари / “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида “Ўзбекистон этнологиясининг назарий-услубий муаммолари” мавзусидаги VIII анъанавий Республика илмий анжумани материаллари.– Тошкент, 2020. – Б. 192.

22. Dala yozuvlari. Namangan viloyati aholi punktlari. 2026-yil.

23. Абдусатторов Ш. А. Анъанавий уй-жойлар ва ундаги ўзгаришлар (Наманган вилояти мисолида) / “Академик Карим Шониёзов ўқишлари” туркумида “Ўзбекистон этнологиясининг назарий-услубий муаммолари” мавзусидаги VIII анъанавий Республика илмий анжумани материаллари.– Тошкент, 2020. – Б. 178.

24. Бобожонов Д., Абдуллаев М. Хоразм амалий санъат усталари. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2010. – Б. 12.

25. Худайберганов Х. С. Хоразм воҳаси анъанавий ва замонавий кулолчилигининг этноҳудудий хусусиятлари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020. – Б. 21.

26. Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton qishlog’i. 2024-yil; Namangan viloyati Pop tumani Chodak qishlog’i. 2025-yil; Namangan viloyati Pop tumani Sang qishlog’i. 2025-yil.

27. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Pop tumani G’urumsaroy qishlog’i. 2025-yil.

28. Dala yozuvlari. Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Rishton tumani Rishton qishlog’i. 2024-yil.

29. Dala yozuvlari. Farg’ona viloyati Uchko’prik tumani Gul qishlog’i. 2025- yil.

30. Атаджанова Д. Ш. Ритуально-обрядовая сторона деятельности кузнецов «охангари» по данным «Рисолаи-охангри» / Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. Халқаро анжуман материаллари. – Ташкент, 2004. – С. 251.

31. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Qorashahar qishlog'i. 2020-yil.

32. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Kichik Oqtepa qishlog'i. 2023-yil.

33. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor va Namangan viloyati Pop tumani Navbahor qishloqlari. 2025-yil.

34. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2024-yil.

35. https://ru.wikipedia.org/wiki.

36. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Buvayda tumani Bo'stonbuva qishlog'i. 2024-yil.

37. Dala yozuvlari. Farg'ona vodiysi Buvayda tumani Yangihayot qishlog'i. 2020-yil.

38. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqboshi tumani Nayman qishlog'i. 2013-yil.

39. Каримова М. Б. XX аср ўзбек аёллари турмуш тарзида ислом дини: анъанавийлик ва модернизацион жараёнлар (Фарғона водийси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022. – Б. 84.

40. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Qo'qon shahri. 2024-yil.

41. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2025-yil.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING VETERINARIYA STRATEGIYASI: BUXORO VA XIVA XONLIKLARI BILAN CHORVACHILIK ALOQALARI TAHLILI (XIX ASR OXIRI)

SHOHSANAM BAZARBAYEVA

University of Business and science nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola XIX asr oxirida Turkiston general-gubernatorligi tomonidan chorva kasalliklari (epizootiya) tarqalishining oldini olish maqsadida qabul qilingan veterinariya nazorati choralarini tahlil qiladi. Maqolada mustamlaka ma'muriyatining Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mavjud kuchli chorvachilik aloqalari, jumladan, tirik chorva savdosi, chorvadorlarning an'anaviy migratsiyasi va tranzit yo'llaridan foydalanish kabi omillar o'rganilgan.

XIX asr oxirida Turkiston mustamlaka ma'muriyati chorva mollari kasalliklari kirib kelishini oldini olish maqsadida chegaralarda veterinariya punktlari tashkil etish loyihasini ishlab chiqadi. Turkiston o'lkasining chorvachilik bo'yicha qaysi qo'shni davlatlar va xonliklar bilan iqtisodiy aloqalari borligini o'rganadi: ayniqsa Buxoro amirligi va Xiva xonliklari bilan aloqalar muhimligi aniqlanadi.

Maqolada chorvachilik savdosi, teri savdosi, migratsiya, yaylovlarga o'tkazish va tranzit yo'llarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Komissiya ayniqsa Buxoro va Xiva chorvadorlarining Turkistondagi yaylovlar va suv manbalaridan foydalanishini qayd etadi va shu sababli chegara hududida veterinariya punktlarini ochish zarurligini ta'kidlaydi.

1891-yil 10-avgustda general-gubernator Buxoro amirligida veterinariya punktlarini tekshirish uchun komissiya yuborishni topshiradi; ekspeditsiyani N. Brovnikov boshqaradi va 1892-yilda Samarqandda bu ishlar tashkil etilishi haqida muvofiqlik so'raladi.

- Turkiston o'lkasining chorvachilik aloqalari asosan Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mustahkam bo'lgan; Angliya tasarrufidagi Osiyo mamlakatlari va Afg'oniston bilan savdo kamroq bo'lgan.

- Chorvachilikning turli shakllari (teri savdosi, jonli chorva savdosi, yaylovlarga o'tkazish, tranzit)

kasalliklar tarqalish xavfini oshirish sabablaridan biri bo‘lgan.

- Chorvadorlarning an’anaviy migratsiya va yaylovlarga erkin ko‘chishi veterinariya nazoratini murakkablashtirgan: suv manbalari (quduqlar, buloqlar) va tog‘ yaylovlari kabi nuqtalar kasalliklar tarqalishi uchun potensial fokus hisoblangan.

- Mustamlaka komissiyasi o‘tkazgan o‘rganish natijalari chegara hududlarida veterinariya punktlarini ochish zaruratini asoslab bergan — ayniqsa Buxoro bilan chegara hududlari birinchi navbatda qamrab olinishi lozim.

- Amaliy jihatdan, muvaffaqiyat uchun nafaqat punktlar ochish, balki mahalliy chorvadorlar bilan munosabatlarni tartibga solish, suv manbalari va yaylovlar uchun foydalanish qoidalari, shuningdek moliyaviy hamda logistika ta’minoti masalalari ham hal etilishi kerak edi.

Kalit so`zlar: *Buxoro amirligi, Xiva xonligi, veterinariya siyosati, iqtisodiy aloqalar, chorva mollari, veterinar shifokorlar, veterinar feldsherlar.*

ANNOTATION

This article analyzes the veterinary control measures taken by the Turkestan Governor-Generalship at the end of the 19th century to prevent the spread of livestock diseases (epizootics). The article examines such factors as the strong livestock relations of the colonial administration with the Bukhara Emirate and the Khiva Khanate, including live livestock trade, traditional migration of herders, and the use of transit routes.

Traditional migration and free migration of herders to pastures complicated veterinary control: points such as water sources (wells, springs) and mountain pastures were potential foci for disease spread.

- The results of the study conducted by the colonial commission justified the need to open veterinary points in the border areas - especially the border areas with Bukhara should be covered first.

- Practically, for success, it was necessary not only to open points, but also to regulate relations with local livestock breeders, rules for the use of water sources and pastures, as well as to resolve issues of financial and logistical support.

Keywords: *Bukhara Emirate, Khiva Khanate, veterinary policy, economic relations, livestock, veterinary doctors, veterinary feldshers.*

KIRISH

XIX asr oxirida mustamlaka ma’muriyati qo‘shni davlatlardan va xonliklardan chorva mollari kasalliklari kirib kelishining oldini olish uchun veterinariya punktlarini tashkil etish qaror loyihasini ishlab chiqqan. Mazkur hujjatni ishlab chiqishdan avval mustamlaka ma’muriyati, birinchi navbatda, Turkiston o‘lkasi chorvachilik sohasida qaysi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilishini o‘rganib chiqadi. Bunda nafaqat chorva mollari hamda xomashyolar tijorati, balki chorva mollarining migratsiyasi ham hisobga olingan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Ularning fikriga ko‘ra, mazkur davrda Turkiston o‘lkasi Angliya qo‘l ostidagi Osiyo davlatlari va Afg‘oniston bilan chorvachilik bo‘yicha savdosi kamroq ulushni tashkil etgan. Qashg‘ar va Turkiston o‘rtasidagi chorvachilik munosabatlari ko‘proq teri savdosi bilan aloqalar bo‘lgan. Jumladan, har yili minglab chorva mollari terilari Qashg‘ardan Turkiston o‘lkasiga kirib kelgan. Turkiston o‘lkasining Buxoro amirligi hamda Xiva xonliklari bilan chorvachilik yo‘nalishida munosabatlari ancha kuchli bo‘lgan. Birinchidan, har yili mazkur xonliklardan o‘lkaga ko‘p sonli qo‘y va qoramollar tijorat uchun yetkazib berilgan. Ikkinchidan, Buxoro amirligi va Xiva xonligi chorvadorlari o‘z chorvalarini o‘tlatish uchun Turkistondagi yaylovlarga olib kelgan yoki aksincha, Turkiston chorvadorlari xonliklar hududlaridagi yaylovlarga chorvalarini boqish uchun borgan. Uchinchidan, Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkiston o‘lkasi chorvadorlari ushbu uchta hududdan o‘z chorvalarini haydab o‘tish uchun tranzit yo‘l sifatida foydalangan. Shu sababli

mazkur uchta muzofot o‘rtasida chorvachilik sohasida aloqalar kuchli bo‘lgan. Mustamlaka ma’muriyatining chegara hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etish uchun tuzilgan komissiya bu masalalarning barchasini o‘rganib chiqadi. Jumladan, ular Buxoro amirligi va Xiva xonligi chorvadorlari Turkiston o‘lkasidagi tog‘larga chorvalarini o‘tlatishga olib kelishini aniqlagan. Bundan tashqari, ayrim chorvadorlarning cho‘l hududlaridagi quduqlarda va tog‘larda buloqlari mavjud bo‘lgan. Boshqacha aytganda, chorvadorlar bir hududdan ikkinchi hududga erkin ko‘chib yurgan. Bu chorvadorlar uchun an’anaviy odat hisoblangan. Komissiya chorvalarning mazkur harakatlarini o‘rganib chiqadi. Umuman olganda, ushbu komissiya Turkiston o‘lkasining ko‘proq Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chorvachilik sohasida iqtisodiy munosabatlari borligini qayd etadi. Shu sababli komissiya birinchi navbatda o‘lkaning Buxoro amirligi bilan chegaradosh hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etish lozim deb hisoblaydi[1:32-varaq orqasi].

1891-yil 10-avgustda Turkiston general-gubernatori Buxoro amirligida veterinariya punktlarini tashkil etish masalasini o‘rganish uchun amirlikka komissiya yuborishga topshiriq bergan. Mazkur ishga Turkiston o‘lkasi bosh veterinariya hamda general-gubernator maslahatchisi bo‘lgan N. Brovnikov rahbarlik qilgan. U mazkur ekspeditsiyani amalga oshirish uchun 1892-yilda Samarqand viloyat harbiy gubernator huzurida bo‘ladi. Jumladan, u Turkiston general-gubernatorining viloyat boshlig‘iga aytgan topshirig‘ini yetkazadi. Unga ko‘ra, Samarqand viloyat harbiy gubernatori Buxoro amirligi ma’muriyatiga ushbu ekspeditsiya ularning hududiga borayotganligi hamda ularga kerakli sharoitlar yaratib berishni so‘raydi. Shuningdek, N.Brovnikov viloyat boshlig‘idan uning qo‘l ostidagi veterinar shifokorlardan birini unga yordamchi sifatida qo‘shib yuborishni iltimos qiladi[1:12-varaq].

1892-yilda Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligiga xat yuboradi. U xatida Turkistonda veterinariya nazoratini tashkil etishi uchun Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatining ayrim aholi punktlarida veterinariya punktlarini tashkil etganligini qayd etadi. Biroq, ular bu bilan bir qatorda Buxoro, Xisor va Petro-Aleksandrsk shaharlarida ham veterinariya punktlarini tashkil etish zarur deb topganligini aytadi. Ushbu veterinariya punktlarini har biriga 1 nafardan veterinariya shifokorlari, 2 nafardan feldsher hamda tarjimon tayinlash ko‘zda tutgan. Mustamlaka ma’muriyatining rejasiga ko‘ra, Buxoro, Hisor va Petro-Aleksandrovsk shaharlaridagi veterinariya punktlari xarajatlarining yarmi Turkiston general-gubernatorligi davlat xazinasidan hamda qolgan qismi Buxoro amirligi va Xiva xonligi hukumatlari tomonidan qoplanishi lozim bo‘lgan. Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya agentligi rahbaridan bu masala bo‘yicha Buxoro amiri bilan bog‘lanish hamda Buxoro va Hisorda tashkil etish rejalashtirilgan veterinariya punktlarining xarajatlarini to‘lashda ishtirok etishni so‘raydi. Mustamlaka ma’muriyatining hisob kitobiga ko‘ra, bu veterinariya punktlarining har birining bir yillik xarajati 3805 rublni tashkil etgan[1:45-varaq].

Boshqa tomondan, mustamlaka ma’muriyati veterinariya sohasidagi eng katta xavfni Buxoro amirligidan kutgan. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Birinchidan, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasidagi chegaralar uzun bo‘lgan va chegaralarni nazorat qilish ishlari amalga oshirilmagan. Masalan, arxiv manbalariga ko‘ra, har yili Buxoro amirligi chorvadorlari minglab chorva mollarini Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on va Jizzax uyezdlaridagi yaylovlarga boqish uchun olib kelgan. Shuningdek, Afg‘onistondan Buxoro amirligiga har yili ko‘plab chorva mollari kirib kelgan. Buxoro amirligida ular veterinariya nazoratidan o‘tkazilmagan. Keyinchalik esa ushbu chorvalar Buxoro amirligidan Turkiston hududiga sotish va yaylovlarda boqish uchun olib kelingan[1:34-varaq].

Yuqoridagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, Turkiston general-gubernatorligi, birinchi navbatda, Buxoro amirligi bilan qo‘shni hududlarda veterinariya punktlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu chorva mollarining yuqumli kasalliklari kirib kelishining oldini oladigan yagona chora sifatida ko‘riladi. Chunki Buxoro amirligi va Afg‘onistondan Turkistonga sotish uchun olib keligan turli turdagi chorva mollarini o‘sha veterinariya punktlarida tekshirish va ularni karantinga olish imkoni paydo bo‘lar edi. Biroq, amalda bu ishni ro‘yobga chiqarish deyarli imkonsiz edi. Chunki yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi chegaralar juda uzun bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu chegaralarning aksariyat qismi tekisliklardan iborat edi. Bu esa Buxoro amirligi chorvadorlarining turli geografik yo‘llar orqali Turkiston o‘lkasiga kirib kelish imkonini bergan. Turkiston general-gubernatorligining veterinariya boshqarmasi bu murakkablikka darhol e'tibor qaratgan. Masalan, Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasidagi Hisor tog‘ tizmalari orqali chegarani kesib o‘tuvchi 17 ta yo‘l mavjud bo‘lgan. Bu degani mustamlaka ma'muriyati o‘sha 17 ta yo‘lning har biriga bittadan veterinariya punktlarini tashkil etish vazifasini qo‘ygan. Bundan tashqari, Nurota bekligi va Jizzax uyezdi chorvadorlarining ikki hududda ham chorva mollarini sug‘orish uchun quduqlari mavjud bo‘lgan. Bu esa chorvadorlar bir hududdan ikkinchi hududga tez-tez ko‘chib o‘tganligini anglatgan. Jumladan, veterinariya mutaxassislari quyidagi savollarni qo‘yadi: Nurota va Jizzax podalari uchun umumiy sug‘orish joyi bo‘lib xizmat qilgan quduqlar atrofida qanday veterinariya nazoratini o‘rnatish mumkin? Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasi janubiy chegaralari bo‘ylab o‘tgan ushbu 17 ta o‘tkazish punktida bir nechta veterinariya punktlarini tashkil etish uchun qancha mablag‘ kerak bo‘ladi? Bu savollardan ko‘rinib turibdiki, veterinariya mutaxassislari Buxoro amirligi bilan qo‘shni uyezdlarda veterinariya nazaratini o‘rnatish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan qiyin ish ekanligini tushungan. Shu sababli mustamlaka ma'muriyati birinchi navbatda moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga harakat qilgan. Buning uchun ular juda oddiy usuldan foydalangan. Bu usul esa ta'qiqlardan iborat edi. Masalan, Jizzax va Nurota o‘rtasidagi chegarani nazorat qilish uchun mahalliy aholining yordamidan foydalangan. Ma'muriyat aholiga Buxoro amirligidan kelgan chorvalarni sotib olmaslikni va ular bilan savdo aloqalarini olib bormaslikni so‘raydi. Janubiy chegara hisoblangan Hisor tog‘ tizmalari orqali o‘tgan 17 ta o‘tkazish punktini esa chorva haydash uchun berkitib qo‘ygan[1:34-varaq orqasi].

Boshqa tomondan, mazkur veterinariya-sanitariya chora-tadbirlari mazmun mohiyati tushunarsiz edi. Bu fikrlar mustamlaka ma'muriyatining iqtisodiyot sohasida xizmat qiluvchi ayrim amaldorlari tomonidan aytilgan. Ularning fikriga ko‘ra, chegara hududlardan o‘lkaga chorva mollarining kirib kelishi to‘xtatilsa, mintaqadagi chorvachilik sohasi inqirozga yuz tutar edi. Bundan tashqari, ularning fikriga ko‘ra, chorva mollarining bir hududdan ikkinchi hududga yaylov qidirib kelish amaliyotini tugatishga sabab bo‘lar edi [1:35-varaq] Bu esa mahalliy aholining iqtisodiy hayotiga katta zarar yetkazgan.

Mustamlaka ma'muriyatining boshqa vakillari bu turdagi veterinariya nazoratini o‘rnatish ham iqtisodiy jihatdan, ham veterinariya jihatidan o‘zini oqlamasligini qayd etadi. Ular mazkur choralar o‘rniga Buxoro amirligining o‘zida veterinariya punktlarini tashkil etishni maslahat beradi. Ularning fikriga ko‘ra, mazkur punktlar doimiy tarzda amirlikdagi chorva mollarining salomatligini tekshirib boradi. Agar ushbu veterinariya shifokorlari va feldsherlari amirlikda chorva mollari kasalliklarini aniqlasa, darhol Turkiston o‘lkasidagi hamkasblariga xabar berishi lozim edi. Shunda Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati Buxoro amirligi bilan barcha chegaralarni yopishi va chorva mollarining o‘lkaga kirib kelishiga yo‘l qo‘ymasligi ko‘zda tutilgan edi. Agar amirlikda chorva kasalliklari aniqlanmasa, Buxoro amirligidan Turkiston o‘lkasiga

chorva mollarining erkin kirib kelishiga yo‘l qo‘yish lozim edi. Mazkur amaldorlar Buxoro amirligining Qorategin, Hisor, G‘uzor va Qarshi kabi shahar va muzofotlarida allaqachon 4 ta veterinariya punktlari faoliyat yuritayotganligini eslatib o‘tadi. Ular qo‘shimcha chora sifatida Buxoro amirligi va Afg‘onistondan olib kelingan chorva mollari eng ko‘p sotiladigan Turkiston o‘lkasidagi bozorlarda veterinariya nazoratini o‘rnatishni tavsiya etadi. Bunda chorva mollari chegaralarda emas, balki aniq bir mol bozorlarida veterinariya tekshiruvidan o‘tkazilgan. Agar kasallik aniqlansa, ushbu chorva mollarini darhol karantinga olish mavjud bo‘lardi [1:35-varaq-35-varaq orqasi].

Turkiston o‘lkasiga Buxoro amirligidan chorva mollari, asosan, G‘uzor, Qarshi, Hisor, Qorategin va Buxoro shaharlaridan yuborilgan. Shu sababli veterinariya mutaxassislari mazkur shaharlarda veterinariya punktlarini tashkil etishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, Buxoro amirligining Qoratog‘, Kofirnixon va Fayziobod hududlaridan ham o‘lkaga chorva mollari olib kelingan. Mazkur 3 ta hudud Dushanbe shahriga yaqin bo‘lgan. Shu sababli mustamlaka ma’muriyati Dushanbe shahrida ham veterinariya punktini tashkil etishga qaror qiladi. Ushbu G‘uzor, Qarshi, Hisor, Qorategin bekliklari hamda Buxoro va Dushanbe shaharlaridagi mazkur veterinariya punktlarida 1 ta veterinar shifokor, 2 ta veterinar feldsher va tarjimon lavozimlari ta’sis etilgan[1:36-varaq]. Tarjimon har doim veterinar shifokorning yonida yurishi talab qilingan.

Mustamlaka ma’muriyatining rejasiga ko‘ra, Buxoro amirligining Qorategin bekligidagi veterinariya punkti beklikning Garm shahrida joylashishi ko‘zda tutilgan. Mazkur punktda veterinar shifokor, feldsher va tarjimon ishlashi rejalashtirilgan. Ya’ni, bir veterinar feldsheri esa beklikning Obigarm aholi punktida xizmat olib borishi tayinlangan [1:36-varaq].

G‘uzor hamda Qarshi shaharlarida ham shu manzara ko‘zga tashlanadi. Boshqacha aytganda, veterinar shifokorlari va feldsherlari shaharning turli qismlarida faoliyat yuritgan. Xususan, G‘uzor shahridagi veterinar punktida 1 ta veterinar shifokor va 1 ta veterinar feldsher veterinariya punktining o‘zida faoliyat yuritgan bo‘lsa, ikkinchi feldsher Darbandda xizmat faoliyatini olib borgan. Qarshi shahridagi veterinariya punktida ham veterinar shifokor, feldsher va tarjimon ishlagan. Ikkinchi veterinar feldsheri esa Shahrisabzda o‘z faoliyatini olib borgan. Dushanbe shahridagi veterinariya punkti bir qancha bekliklardagi veterinariya holatiga javobgar bo‘lgan. Xususan, mazkur punktda xizmat olib borgan veterinariya shifokorlari va feldsherlari Hisor, Baljuvon, Kulob, Qo‘rg‘ontepa va Kobodiyon bekliklarida veterinariya ishlarini olib borgan [1:36-varaq].

Hisor veterinariya punkti sharqdan Dushanbe, janubdan Amudaryo, shimolda Turkiston general-gubernatorligi hamda g‘arbdan Kerki, G‘uzor va Yakkabog‘gacha bo‘lgan hududlarda faoliyat olib borgan. Qarshi veterinariya punkti Hisordan Buxoro shahrigacha bo‘lgan hududlarda veterinariya xizmatlarini olib borgan. Umuman olganda, Buxoro va Qarshi shaharlaridagi veterinariya punktlarining xizmat olib borish joylari aniq belgilanmagan edi. Shu sababli, mazkur ikkita veterinariya punktida xizmat qilgan shifokorlar va feldsherlar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo‘lib turgan [1:36-varaq].

Panj va Amudaryo o‘tish joylaridagi veterinariya nazorati Dushanbe veterinariya punktining xizmat doirasiga kirgan. Biroq, mazkur hududlar o‘rtasida katta masofa mavjud bo‘lgan va shu sababli veterinariya punktining chegara hududlarida o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoni yo‘q edi. Shu sababli Amudaryo va Panj daryolarida faoliyat olib borgan bojxona muassasalari veterinariya nazoratida ham ishtirok etgan. Zarur hollarda bojxona muassasasi boshlig‘i Dushanbe veterinariya punktidan veterinar shifokorni chaqirtirgan, bundan tashqari Saroy va Pattakesar kabi o‘tkazish punktlarining har birida bittadan feldsher doimiy tarzda

ishlagan [1:36-varaq]. Ular ham Dushanbe veterinariya punktiga bo‘ysungan.

Turkiston general-gubernatorligi nafaqat o‘lkada balki qo‘shni xonliklarda ham veterinariya nazoratini amalga oshirishga harakat qilgan. Jumladan, 1912-yil yanvar oyida Turkiston general-gubernatori Buxoro amiri bilan veterinariya va chorvachilikka oid memorandum tuzgan. Mazkur kelishuvga ko‘ra, Buxoro amirligining G‘uzor va Qarshi shaharlarida veterinariya punktlari tashkil etilgan. Ushbu muassasalarning sarf-xarajatlari Buxoro amirligi tomonidan qoplangan. Ushbu 2 ta veterinariya punktlaring har birida veterinar shifokor, veterinar feldsher, 2 ta qo‘riqchi, tarjimon kabi lavozimlar joriy qilingan. Ushbu lavozim egalarining maoshlari bir-biridan farq qilgan, maoshdan tashqari xodimlarga qo‘shimcha ijtimoiy to‘lovlar amalga oshirilgan. Masalan, ushbu punktlarda xizmat qilgan veterinar shifokorlarga bir yilda jami 1825 rubl to‘langan. Ushbu summaning 600 rubli oylik maosh sifatida, 600 rubli oziq-ovqat xarajatlari uchun, 300 rubli turar joy xarajatlari uchun, 300 rubli transport xarajatlari uchun, hamda 25 rubli kanselyariya mahsulotlari xarajatlari uchun berilgan. Veterinar feldsheri uchun jami 530 rubl to‘langan bo‘lib, uning 92 rubl oylik maosh uchun, 192 rubl oziq-ovqat xarajatlari uchun, 96 rubl turar joy xarajatlari uchun hamda 50 rubl transport xarajatlari uchun bo‘lgan. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, mazkur veterinariya punktlarida 2 ta qo‘riqchi tarjimon lavozimi bo‘lgan. Ularning biri otliq qo‘riqchi bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi qo‘riqchi esa o‘z faoliyatini piyoda amalga oshirgan. Otliq qo‘riqchi tarjimon uchun bir yilda oylik maosh sifatida jami 360 rubl to‘langan bo‘lsa, piyoda qo‘riqchi – tarjimonga 240 rubl berilgan. Yuqorida qayd etganimizdek, ushbu oylik maoshlar va xarajatlar Buxoro amirligi tomonidan qoplangan, biroq G‘uzor va Qarshi shaharlardagi ushbu veterinariya punktlarining faoliyatlari va ularning moliyaviy xarajatlari Turkiston general-gubernatorlining Samarqand viloyat harbiy gubernatori tomonidan nazorat qilingan. Shuningdek, viloyat harbiy gubernatori Ichki ishlar vazirligiga mazkur veterinariya punktlarining faoliyatlari haqida hisobot berib turgan [2:153-varaq].

Buxoro amirligining G‘uzor va Qarshi shaharlaridagi veterinariya punktlariga shifokor yoki feldsher tayinlash bir oz boshqacha usulda amalga oshirilgan. Masalan, Turkiston o‘lkasidagi veterinariya punktlardagi veterinar shifokorlar va feldsher lavozimlariga tayinlanish uchun faqatgina bilimli va tajribali bo‘lish yetarli bo‘lgan. Biroq, mazkur veterinariya punktlarida talabgor bilim va tajribadan tashqari xushmuomala hamda ma’naviy va axloqiy fazilatlari yuqori bo‘lishi lozim bo‘lgan. Bu lavozimlarga shaxslarni Turkiston general-gubernatorining o‘zi tayinlagan. Bundan ko‘rinadiki, qo‘shni xonlikka ishga yuborilayotgan shaxs o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lishi bilan birga mustamlaka ma’muriyati siyosatini to‘g‘ri va to‘liq tushunishi lozim bo‘lgan. Boshqa tomondan, G‘uzor va Qarshi shaharlardagi ushbu muassasalarga talabgorlar Samarqand viloyat veterinariya boshqarmasiga qarashli tashkilotlardan tanlab olingan. Shu sababli 1912-yil yanvar oyida Samarqand viloyat veterinariya inspektori N. Nikiforov viloyatdagi veterinariya va chorvachilikka oid barcha tashkilotlariga ikki nomzodning ism va familiyalarini yuborishni so‘ragan [2:153-varaq orqasi].

Veterinar shifokorlar hamda tibbiyot xodimlari qo‘shni xonliklarga veterinariya tadqiqotlari uchun borib turgan. Xususan, 1892-yilda tibbiyot fanlari doktori I. Suvorov hamda veterinar shifokor N. Bronikov Buxoro amirligining Qarshi muzofotiga veterinariya tadqiqoti uchun ekspeditsiya uyushtiradi. Mazkur ekspeditsiya Toshkentdan yo‘lga chiqib, Qarshiga yetib boradi. Ular u yerdan G‘uzor orqali Sherobod, Kabodiyon, Qo‘rg‘ontepa, Ko‘lob, Baljuvon va Garm kabi hududlarga boradi. Ekspeditsiya qaytishda Garmdan yo‘lga chiqadi hamda Fayziobod, Qorategin, Dushanbe, Xisor, Qoratog‘, G‘uzor hamda Qarshi orqali Toshkentga yetib keladi. Ekspeditsiya a’zolari o‘zlari bilan tahlil uchun kerak bo‘ladigan asbob-uskunalar apparatlarlarini olib borgan.

Ushbu apparatlarning og‘irligi jami 12 kg. bo‘lib, ular 2 ta katta sandiqqa joylangan edi. Ushbu jihozlarga gigiyena laboratoriyasi deb ta’rif berilgan. Chunki ular ushbu asboblar yordamida Buxoro amirligining mazkur hududlardagi aholi va chorva mollari ichadigan suvlarni tekshirib chiqqan. Masalan, ular Qarshi shahridagi ichimlik suvini atroflicha o‘rgangan [1:6-varaq].

Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasidagi veterinariya nazorati va hamkorligida Buxoro siyosiy agentligi muhim o‘rin tutgan. Xususan, agentlik amirlikdagi chorvachilik va veterinariya holatini kuzatib borgan. Ular bu ma’lumotlar asosida Turkiston general-gubernatoriga sohaga oid o‘zlarining tavsiyalarini berib borgan. XX asr boshlarida siyosiy agentlikning general-gubernatoriga yozgan xatida bu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Siyosiy agentlik mazkur davrda Buxoro amirligidan Turkiston o‘lkasiga chorva mollari kasalliklari kirish xavfi kamligini tasdiqlaydi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu davrda qo‘zi kabi yosh hayvonlar ko‘pincha sovuqdan o‘lgan bo‘lsa, qoramollar, qo‘ylar va tuyalar asosan ozuqa va suv yetishmasligidan nobud bo‘lgan. Juda oz chorva mollarigina kasallikdan o‘lgan [3:16-varaq].

Lekin siyosiy agentlik Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasida chorva savdosi rivojlanganligini qayd etadi. Bundan tashqari, amirlikning chorva xomashyolari Rossiya imperiyasining markaziy qismlariga ham eksport qilingan. Buxorodagi siyosiy agentlik shularni inobatga olgan holda, Turkiston general-gubernatoriga Buxoro amirligida ham veterinariya chora-tadbirlarini amalga oshirishni tavsiya etadi[3:16-varaq].

Siyosiy agentlik Buxoro amirligida veterinariya holatini o‘rganish nafaqat kasalliklarni oldini olish, balki mustamlaka ma’muriyatining siyosiy maqsadlariga ko‘ra ham muhim deb hisoblangan. Jumladan, u Buxoro amirligining tog‘li hududlarida otlarning ko‘plab zotlari mavjudligini qayd etadi. Shu sababli agentlik boshlig‘i general-gubernatorga mazkur zotdor otlardan O‘rta Osiyoda joylashgan harbiy garnizonlarda otliq va artilleriya bo‘linmalarida foydalanishni maslahat beradi. Shu sababli u amirlikdagi veterinariya mutaxassislari faqatgina veterinariya nazoratini olib bormasdan, balki yilqichilikni yaxshilash ma’suliyatini ham yuklash lozim deb hisoblaydi. Umuman olganda, siyosiy agentlik boshlig‘i ushbu siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga ko‘ra Buxoro amirligiga veterinar shifokorlarni yuborish maqsadga muvofiq deb hisoblagan[3:16-varaq].

Siyosiy agentlik Buxoro amirligining qaysi hududlarida veterinariya punktlarini tashkil etishni aniqlash uchun birinchi bu hududga veterinariya mutaxassislarini xizmat safariga yuborish kerak deb hisoblaydi. Ularning fikriga ko‘ra, butun amirlik hududida 1 nafar doimiy veterinar shifokor va 1 nafar veterinar feldsherini tayinlash yetarli bo‘lgan. Ushbu shifokor va feldsherning doimiy turar joyi va faoliyati markaziy shaharlardan birida bo‘lish tavsiya etiladi. Ularning fikriga ko‘ra, shifokor va feldsherlar bitta joyda turib faoliyat olib boradi va faqat kerakli vaqtlarda amirlikning boshqa hududlariga xizmat safariga chiqadi[3:16-varaq orqasi].

Buxorodagi siyosiy agentlik amirlikda 5 yoki 6 ta veterinariya punktlarini tashkil etsa, ularni shifokorlar bilan ta’minlash imkonsiz bo‘lib qoladi. Ularning fikriga ko‘ra Buxoro amirligiga asosan past malakali va ilmsiz xodimlar yuborilgan. Ular Buxoro amirligida veterinariya nazoratini doimiy tarzda olib bora olmaydi. Siyosiy agentlik ularning tajribasi shularni ko‘rsatishini aytadi. Ular bunga bir qancha misollar keltiradi. Xususan, veterinariya sohasidagi quyi xodimlar aholidan keragidan ortiq soliq undirish holatlari ro‘y bergan. Bundan tashqari mazkur xizmatchilar aholi bilan to‘g‘ri muloqatga kirisha olmagan. Bu esa xalqning noroziligiga sabab bo‘lgan[3:17-varaq].

Mustamlaka ma’muriyati fikriga ko‘ra, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida veterinariya ishlari tashkil etilmagan. Shu sababli ular Xiva xonligidan Turkiston o‘lkasiga chorva yuqumli kasalliklari kirib kelish xavfi yuqori deb hisoblagan. Bunga bir qancha ma’lumotlarni

asos qilib ko‘rsatadi. Ularning fikriga ko‘ra, Xiva xonligidan Turkiston o‘lkasiga chorva mollari va xomashyolari ikki yo‘l bilan kirib kelgan. Birinchi yo‘l bu – Buxoro amirligi orqali bo‘lgan. Rossiya imperiyasi vakillarining fikriga ko‘ra, Xiva xonligidagi chorva mollari dastlab Buxora amirligi hududiga o‘tgan hamda amirlik orqali Turkiston o‘lkasiga kirib kelgan. Ikkinchi yo‘l Xiva xonligi va Turkiston general-gubernatorligi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirilgan. Xususan, har yili minglab qo‘y va qo‘zi terilari xomashyo sifatida Turkiston o‘lkasiga eksport qilingan. Mazkur eksport ishlari uchta yo‘l bilan amalga oshirilgan. Boshqacha aytganda, Xiva xonligidan Turkistonga chorva mollari terilari Chorjo‘y, Qo‘ng‘irot va Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo‘limi orqali kirib kelgan[1:34-varaq].

Turkiston general-gubernatorligi Xiva xonligi bilan ham veterinariya sohasida hamkorlik qilgan. Mustamlaka ma’muriyati xonlikdan Turkiston o‘lkasiga chorva mollarining yuqumli kasalligi kirib kelishining oldini olish uchun chegarada bir qancha veterinariya punktlarini tashkil etish maqsadga muvofik deb hisoblagan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidan Turkiston o‘lkasiga chorva mollari va xomashyolari asosan Petro-Aleksandrovsk, Qo‘ng‘irot va Xiva shaharlari orqali kirib kelganligini hisobga olgan holda o‘lka veterinariya mutaxassislari ushbu uchta shaharda veterinariya punktlarini tashkil etishni ma’muriyatga tavsiya etadi. Mazkur davrda Petro-Aleksandrovsk harbiy garnizonida 1 nafar veterinar shifokor faoliyat yuritib kelayotgan edi. Bu hududdagi veterinariya nazorati mazkur shaxsga yuklatilgan. Biroq, Qo‘ng‘irot va Xiva shaharlarida hali veterinariya punktlari tashkil etilmagan edi. Shu sababli mustamlaka ma’muriyati ushbu shaharlarda veterinariya punktlarini tashkil etishni hamda ularning har biriga bir nafardan feldsher va tarjimon tayinlashni rejalashtirgan. Ularning rejasiga ko‘ra, Xiva xonligidan Turkiston o‘lkasiga Qo‘ng‘irot shahri orqali kirib kelayotgan chorva mollari terilari Qo‘ng‘irot veterinariya punkti shifokorining tekshiruvidan o‘tishi lozim bo‘lgan. Chegaradan faqatgina veterinariya shifokorining ma’lumotnomasiga ega bo‘lgan teri mahsulotlari o‘tkazilgan. Chorjo‘y shahri orqali xonlikdan o‘lkaga kirib kelayotgan teri xomashyolari Xiva yoki Petro-Aleksandrovskdagi veterinar shifokorlar tomonidan nazorat qilingan. Bu yerda ham tegishli veterinariya sertifikatlarini olgan mahsulotlar chegaradan o‘tkazilgan[1:36-varaq].

Mustamlaka ma’muriyati Afg‘onistondan Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasiga olib kelinadigan chorvalarni veterinariya ko‘rigidan o‘tkazish yo‘llarini ham qidiradi. Mazkur davrda Afg‘onistondan chorva mollari Amudaryo va Panj daryolari orqali olib o‘tilgan. Shu sababli imperiya vakillari Buxoro amirligi va Afg‘oniston chegaralarida ham veterinariya punktlarini tashkil etishni maqsad qiladi. Panj daryosi bo‘ylab chorvalarni o‘tkazish punktlari ko‘p bo‘lgan. Mustamlaka ma’muriyati ushbu o‘tkazish joylarining bir qismini yopishni tavsiya qiladi. Ularning fikriga ko‘ra, bu aholining va davlatlarning iqtisodiy salohiyatlariga ta’sir o‘tkazmaydi. Ularning fikriga ko‘ra, Buxoro va Afg‘oniston o‘rtasida veterinariya nazoratini o‘tkazish Turkistonga yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam bergan. Ular, shuningdek, bu choralar Buxoro amirligidagi chorvachilik sohasi uchun ham foydali bo‘ladi deb hisoblagan[1:35-varaq orqasi].

Mustamlaka ma’muriyati Panj va Amudaryo orqali chorva mollarini olib o‘tish va tashish uchun beshta o‘tish joylarini ochiq qoldirish hamda qolganlarini yopib tashlashni maqsad qilgan. Ochiq qoldirilgan chorva mollarini o‘tkazish joylari quyidagilar edi: Saroy, Pattikesar, Kelif va Kerki. Mazkur ochiq qoldirilgan o‘tish joylaridan tashqari boshqa barchasi yopilgan. Yopilgan o‘tish joylari orqali chorva mollarining o‘tmasligini nazorat qilish chegara qo‘shinlari zimmasiga yuklangan. Buxoro amirligi va Afg‘oniston chegaralaridagi chorva mollarini olib o‘tish uchun mo‘ljallangan beshta o‘tish joyida bittadan veterinariya feldsheri tayinlangan. Har bir o‘tish joyidagi feldsher veterinariya nazoratiga javobgar bo‘lgan[1:36-varaq].

Sharqiy Turkistondan Turkiston general-gubernatorligining Farg‘ona viloyatiga teri mahsulotlari olib kelingan. Mazkur xomashyolarni veterinariya tekshiruvidan o‘tkazish uchun Ergashtom chegara oldi o‘tkazish punktida bir nafar veterinar feldsheri faoliyat olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblangan[1:36-varaq].

O‘rta Osiyoga Xitoydan kirib kelgan chorva mollari va turli xil chorvachilik mahsulotlari o‘lkada vabo va boshqa epizootiyalar tarqalishiga sabab bo‘lgan. Shu sababli kasalliklardan himoya sifatida veterinariya tibbiyotini yo‘lga qo‘yganlar. Rossiya imperiyasining Xitoy chegarasidagi sanitariya nazorati va Xitoydagi ayrim konsulliklarga veterinariya shifokorlarini tayinlash va tegishli idoralar bilan kelishilgan holda Davlat kengashiga quyidagi yashash joylariga veterinariya shifokorlarini tayinlash bo‘yicha takliflar berilgan: 1) Qashg‘ar, G‘ulja, Urumchi, Chuguchak va Urg‘u veterinariya shifokorlariga Xitoyga bo‘ysunuvchi hokimiyatdan olingan chorva mollarni tekshirish va ularning tabiatini aniqlash;

2) vujudga kelayotgan epizootiyaning rivojlanish darajasi hamda mulkga tahdid soluvchi xavf darajasi to‘g‘risida vakolatli organlarga zudlik bilan xabar berish;

3) Xitoydagi chorva mollarining kasalligi sababli bu hududlarda chorva mollari va xomashyo sotib olishning iloji yo‘qligi haqida mahalliy savdogarlarni ogohlantirish; 4) Xitoyning mahalliy hokimiyat organlariga aniqlangan epizootiyaning mohiyatini va uni imkon qadar tezroq to‘xtatish choralarini ko‘rishni tushuntirish; 5) agar Xitoy hukumati xohlasa, hamkorlikda vaboga qarshi choralar ko‘rish kabilar bo‘lgan [4]. Bundan tashqari, Ichki ishlar vazirligi Yettisuv viloyatining Xitoy bilan chegaradosh Xorgos, Kaljat, Norin, Kopal kabi hududlarda kuzatuv veterinariya postlarini tashkil etishni rejalashtirgan.

1902-yilning sentyabr oyida Turkiston o‘lkasining ko‘plab hududlarida qoramollar orasida o‘lat tarqalganligi haqida xabarlar tarqalgan. Mazkur kasallik o‘lkaga Xitoy tomondan kirib kelgan deb hisoblangan. Davriy matubot bu kasallikning tarqalishini o‘z sahifasida quyidagicha tasvirlaydi: “Sharqda surunkali ravishda Yettisuv viloyatiga qo‘shni Xitoydan olib kelingan epizootiya asta-sekin Avliyoota va Chimkent tumanlariga kirib, nihoyat, Toshkentga yetib borgan. Yettisuvdan o‘lat to‘g‘ridan-to‘g‘ri tog‘lar orqali Andijon uyezdidagi Farg‘onaning sharqiy qismigacha yetib borgan. Uzoq janubda Afg‘oniston chegarasida, Kushka daryosi vodiysida epizootiya paydo bo‘lib, so‘ngra Afg‘oniston chegaralaridan tog‘li Buxoroga tarqalgan va Buxoro mulklari orqali nazoratsiz ravishda Samarqand viloyatining Jizzax uyezdigacha yetib borgan. Shunday qilib, epizootiyaning sharqiy oqimi bilan janubiy oqim deyarli qo‘shilib ketadi va butun Turkiston o‘lkasi vabodan zarar ko‘rgan” [5]. Mazkur kasallik, ayniqsa, Buxoro hududida jiddiy tus olgan.

Turkiston o‘lkasi vaboga qarshi mustaqil kurash olib bora olmas edi. Vabo paydo bo‘lganda, o‘lkada vaboga qarshi zardobni tayyorlash bo‘yicha stansiya bo‘lmagan va uni Transbaykaldan yoki Kavkazortidan buyurtma qilish kerak bo‘lgan. O‘lkada mavjud bo‘lgan veterinariya shifokorlari soni faqatgina infeksiya yo‘llarini aniqlash uchun yetarli bo‘lgan bo‘lib, unga qarshi kurashishga ojiz edi. Xitoy hududidan tarqalgan bu kasallik qishloq xo‘jaligiga ham katta ziyon yetkazgan [5].

Mustamlaka ma’muriyati 1894-yildan boshlab Rossiya imperiyasining Yevropa qismi va G‘arbiy Sibir teri zararkunandalaridan holi hududga aylanganligini hamda natijada bu joylarda chorvachilikning o‘zi ham, chorvachilik xomashyolari ham, qushxonalar ham rivojlanganligini ta’kidlaydi. Bu imperiyada yildan-yilga odamlar mehnatini qo‘llab-quvvatlash ortib borishiga va daromadli sohaga aylanishiga sabab bo‘lgan deb hisoblangan. Veterinariya mutaxassislari bu tajribani O‘rta Osiyoda ham amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, agar

epizootiya O‘rta Osiyo yerlarida ildiz otishiga yo‘l qo‘yilsa, chorvadorlar o‘z podalari bilan doimiy harakatda bo‘lganligi sababli hayvonlar kasalliklari butun mintaqaga tarqaladi. Ular katta xarajatlar evaziga infeksiyaning tarqalishi Uralsk, Orenburg, Troisk, Kurgan, Petropavlovsk va Omsk kabi imperiyaning chorvachilikka boy mintaqalarida allaqachon yo‘q qilinganligini hamda O‘rta Osiyoda bu borada ishlar qilinmasa, u yerlarga yetib borishi mumkinligiga ishoniladi [5].

Bunday holatlarda iqtisodiyotga xavf kattaroq bo‘lgan. Kavkazorti hududlarida kasal chorvalarni o‘ldirish joriy qilingan bo‘lib, vaboga qarshi chora-tadbirlar uchun davlat har yili 600 rubldan 1100 rublgacha mablag‘ ajratgan. 1903-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tadigan Butun Rossiya imperiya veterinariya kongressida O‘rta Osiyo chorvalari orasida tarqalgan epizootiyaga e’tibor qaratilib, chorvadorlar yashaydigan chekka hududlarda tarqalgan vabo kasalliklariga chora-tadbirlar ko‘rishlariga umid qilishgan [5].

XULOSA

Ma’muriyat o‘lkaga kasalliklar kirib kelishi xavfini Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan mavjud bo‘lgan kuchli iqtisodiy aloqalar, xususan, tirik chorva savdosi, chorvadorlarning an’anaviy migratsiyasi va tranzit yo‘llari bilan bog‘lagan. Bu esa veterinariya nazoratini aynan ushbu chegaralarga qaratishni taqozo etgan.

Veterinariya nazoratini to‘liq o‘rnatish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan murakkab vazifa bo‘lgan. Chegaralarning uzunligi va chorvadorlarning erkin harakati nazoratni qiyinlashtirgan. Shuning uchun ma’muriyat dastlab moliyaviy xarajatlarni kamaytirish maqsadida Buxoro va Xiva xonliklarini ham veterinariya punktlarini moliyalashtirishga jalb qilishga uringan, shuningdek, mahalliy aholi yordamida savdo taqiqlari orqali nazoratni o‘rnatishga harakat qilgan.

FOYDALANILGAN MANBA ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish.

2. O‘zbekiston Milliy Arxivi, I-12-fond, 1-ro‘yxat, 14-ish.

3. O‘zbekiston Milliy arxivi, I.17-fond, 29-ro‘yxat, 1126-ish.

4. Туркестанские ведомости, 1897, № 56.

5. Туркестанские ведомости, 1902, № 73.

6. И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский ведомости, 1907, № 67.

7. Никитин И.Н. Исторические этапы формирования, развития и совершенствования государственной ветеринарной службы России. С. 5.

8. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. – Санкт-Петербург. – 1908.

9. Петков П., Горячкин А. Развитие животноводства в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, - 1968.

10. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. – Ташкент, 1969.

11. Shchekin V.A. Chorvachilik. Maxsus qism. (2-nashr). – Toshkent: O`quvchi. 1968.

12. Агзамов К., Скляр И. Племенное, молочное скотоводство в совхозе “Чиназ”. – Ташкент: Узбекистан, 1965.

"BAHR UL-ASROR" VA "TARIXI MULLOZODA" ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

SIYOVASH HAFIZOV
Tayanch doktorant, TDSHU

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishi Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror" va Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaroning "Tarixi Mullozoda" asarlari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, olib borilgan izlanishlar natijasida ular o'rtasidagi o'xshash jihatlar aniqlandi. Tadqiqot ishi doirasida asar mualliflarining hayoti, ilmiy merosi, asarlari va ularning qo'lyozma nusxalari ko'rib chiqilib, tadqiqot doirasidagi qismlarining tarjimasi amalga oshirildi. Buxoro shahri va shahar atrofida dafn etilgan aziz avliyolarning muborak mozorlari va maqbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar ikki asarni birlashtiruvchi asosiy omil, deb topildi. "Bahr ul-asror" va "Tarixi Mullozoda" asarlarining qo'lyozma nusxalarini o'rganish asnosida, mualliflar tomonidan saralab olingan turli ma'lumotlarning manbasi bilan keltirilishiga e'tibor qaratildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida ikkala asarda ham ilk islom davridan to XV asr o'rtalarigacha Buxoro va uning atrofidagi mahalla va qasabalarda yashab, ijod qilgan aziz avliyolar, shayxlar, tasavvuf namoyondalari hamda tarixiy shaxslarga doir muhim biografik ma'lumotlar keltirilgani aniqlandi. Buyuk shaxslarning hayoti, faoliyati, ibratli hikoyalari va mangu qo'nim topgan joylari "Tarixi Mullozoda"da batafsilroq, "Bahr ul-asror"da esa muxtasar bayon etilganining guvohi bo'lindi. Mahmud ibn Vali o'zi asarini yozishda Muin ul-fuqaroning kitobidan foydalanganmi? degan savolga javob topishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Muin ul-fuqaro, Mahmud ibn Vali, Mirakshoh Husayniy, Muhammad Porso, Quzzoti saba', Aqiliy imomlar, Shoristonlik imomlar, Hasan Namadpo'sh.*

Abstract. *This study is devoted to a comparative analysis of "Bahr al-Asrar" by Mahmud ibn Vali and "Tarikh-i Mullozoda" by Ahmad ibn Mahmud Muin al-Fuqaro. As a result of the research conducted, a number of similarities between these two works have been identified. Within the scope of the study, the lives of the authors, their scholarly legacy, their works, and the manuscript copies of these works were examined, and selected sections relevant to the research were translated. It was determined that the main unifying factor between the two works is the information they provide about the blessed tombs and mausoleums of revered saints buried in the city of Bukhara and its surrounding areas. During the study of the manuscript copies of both "Bahr al-Asrar" and "Tarikh-i Mullozoda", particular attention was paid to how the authors selected and cited their sources of information. The findings reveal that both works contain important biographical data on revered saints, sheikhs, representatives of Sufism, and historical figures who lived and created in Bukhara and its surrounding neighborhoods and settlements from the early Islamic period up to the 15th–16th centuries. It was observed that the lives, activities, exemplary stories, and burial places of these prominent figures are described in greater detail in "Tarikh-i Mullozoda", whereas they are presented more concisely in "Bahr al-Asrar". The study also attempts to address the question of whether Mahmud ibn Vali made use of Muin al-Fuqaro's work while composing his own.*

Keywords: *Muin al-Fuqaro, Mahmud ibn Vali, Mirakshah Husayni, Muhammad Parsa, Quzzat-i Saba', Aqili Imams, Shoriston Imams, Hasan Namadpush.*

Аннотация. *Настоящее исследование посвящено сравнительному анализу произведений «Бахр ал-асрар» Махмуда ибн Вали и «Тарихи Муллазаде» Ахмада ибн Махмуда Муин ал-Фукара. В результате проведённого научного анализа выявлен ряд сходных черт между указанными трудами. В рамках исследования были рассмотрены биографии авторов, их научное наследие, корпус сочинений, а также рукописные списки данных произведений; осуществлён перевод фрагментов, непосредственно относящихся к теме исследования. Установлено, что ключевым объединяющим фактором обоих произведений является содержащаяся в них информация о почитаемых святых, их благословенных захоронениях и мавзолеях, расположенных в городе Бухаре и его окрестностях. В*

процессе изучения рукописных списков «Бахр ал-асрар» и «Тарихи Муллазаде» особое внимание уделено принципам отбора материала и способам привлечения источников, используемых авторами. Результаты исследования показывают, что в обоих произведениях представлены ценные биографические сведения о святых, шейхах, представителях суфизма, а также исторических личностях, проживавших и осуществлявших свою деятельность в Бухаре и прилегающих к ней махаллях и поселениях с раннего исламского периода вплоть до XV–XVI веков. При этом установлено, что жизненный путь, деятельность, поучительные повествования и места погребения этих выдающихся личностей в «Тарихи Муллазаде» освещены более развернуто, тогда как в «Бахр ал-асрар» они изложены в более сжатой форме. Кроме того, в исследовании предпринята попытка дать ответ на вопрос о том, в какой мере Махмуд ибн Вали опирался на труд Муин ал-Фукара при создании собственного произведения.

Ключевые слова: *Муин ал-Фукара, Махмуд ибн Вали, Миракшах Хусайни, Мухаммад Парса, Кузза-и саба', Акили имамы, Шаристанские имамы, Хасан Намадпуш.*

KIRISH. O‘rta asr kitobat san’atida o‘tgan avliyo zotlar, shayxlar, davlat arboblari va donishmand olimlarning biografik ma’lumotlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘plab asarlar yaratilgan. Bunday asarlarni yaratishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ularning ilmiy merosi, xulq-atvori, odobi va ezgu amallarini kelajak avlodga o‘qib-o‘rganib, ibrat olishlari uchun yetkazishdan iborat bo‘lgan. Shunday asarlar qatorida Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaroning “Tarixi Mullozoda” va Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Tarix fanlari doktori K.R. Rahimovning tabiri bilan aytganda “Tarixi Mullozoda” asari o‘ziga xos tarixiy ziyoratnoma janrida yozilgan bo‘lib, Buxoro shahri va shahar atrofida joylashgan 150dan ortiq aziz avliyo va ulug‘ zotlarning mozorlari, ularning hayot yo‘li va ilmiy merosi haqidagi ma’lumotlarni, shuningdek, islom dini shariat qoidalari bo‘yicha o‘tganlarning qabrlarini ziyorat qilish odoblarini o‘z ichiga oladi. “Bahr ul-asror” asari esa dunyoning yaratilishidan to XVII asr o‘rtalarigacha Movarounnahr, Xuroson, Eron, Dashti Qipchoq, Sharqiy Turkiston, Afg‘onistonda yuz bergan siyosiy voqealar hamda mazkur hududlarga doir tarixiy-geografik ma’lumotlar bilan birga, etnografiya, o‘simlikshunoslik, ma’danshunoslik, hayvonot olami va tasavvuf ilmiga oid muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Mahmud ibn Vali qator siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar to‘g‘risida yozish asnosida, ulamolar, shayxlar, olimlar, faqihlar, muhaddislar, mutasavviflar va amirlar biografiyasiga doir bir biridan qiziq va muhim ma’lumotlarni keltiradi. Bu asarning biografik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etishiga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish doirasida o‘zbek, rus, ingliz, fors va tojik tillaridagi qator adabiyotlar bilan birgalikda “Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror”ning zamonamizgacha yetib kelgan qo‘lyozma nusxalaridan ham faol ravishda foydalanildi. Xususan, “Tarixi Mullozoda”ning O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondida №47/2, №48/1, №49/1, №1384/1 inventar raqamlari ostida saqlanadigan hamda “Bahr ul-asror”ning Londondagi India Office kutubxonasida №575 inventar raqami ostida muhofaza etiladigan qo‘lyozma nusxalari tadqiqotga faol ravishda jalb etildi.

Shu bilan birga, “Tarixi Mullozoda”da nomlari zikr etilgan ulug‘ zotlarga doir ma’lumotlarni olishda Ahmad Gulchin Maoniy tomonida so‘z boshi, izohlar, tadqiq va ilovalar bilan 1960 va 1961 yillarda chop etilgan “Muin ul-fuqaro, Ahmad ibn Mahmud. Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxuro”, shuningdek, “Tarixi Mullozoda”ni o‘zbek tiliga tarjima qilib, izohlar, ilovalar va tadqiq bilan nashrga tayyorlagan K.R. Rahimovning “Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda dar zikr mazoroti Buxoro” kitoblaridan foydalanildi. “Bahr ul-asror” va uning mullifi haqida ma’lumot berishda V.V. Bartoldning 1904 yilda chop etilgan “Отчёт о

командировке в Туркестан” (“Turkistonga safar hisoboti”), B.A. Ahmedovning 1977 yilda nashr etilgan “Махмуд ибн Вали. Море тайн относителъно доблестей благородных” (“Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor”) va 1994 yil dunyo yuzini ko‘rgan “Tarixdan saboqlar”, pokistonlik olim Riyoz ul-Islom tomonidan 1980 yil nashr etilgan “Mahmud b. Amir Wali Balkhi. The Bahr ul-asrar travelogue” (“Mahmud ibn Amir Balxiy. Bahr ul-asror safarnoma”), afg‘onistonlik olim Moyil Hiraviy tomonidan 1981 yilda nashr etilgan “Mahmud Iban-i-Amir Wali Bahrul-asrar. A chapter of Balkh” (“Mahmud ibn Amir Vali. Bahr ul-asror. Balx qismi”), rassiyalik olim A.K. Alekseyev tomonidan 2006 yil chop etilgan “Политическая история Тукай-Тимурдов” (“To‘qay Temuriylarning siyosiy tarixi”) asalari hamda tojikistonlik tadqiqotchi F.A. Saidov tomonidan 2022 yilda himoya qilingan “Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины XVII вв” (“Mahmud ibn Valining XVI asr oxiri – XVII asr birinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonga doir tarixiy-geografik ma’lumotlari”) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasidan foydalanildi.

Mazkur tadqiqot doirasida ikki asarning o‘zaro o‘xshah va farqli jihatlarini aniqlashda qiyoslash, ma’lumotlar ketma-ketligini ta’minlashda davrlashtrish hamda qo‘lyozmalardagi ma’lumotlarni talqin qilishda germenevtika metodlaridan foydalanildi. Qo‘lyozmada kelgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki haqiqatdan yiroqligini anqilashda tarixiy tandiqiy metoddan istifoda etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. XIV asr 30 yillalarida Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaroning Buxoro tarixi, shahar va uning atrofida joylashgan 150dan ortiq ulug‘ zotlarning mozorlari, o‘tgan aziz avliyolarning qabrini ziyorat qilish odoblariga bag‘ishlangan “Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxoro” (“Buxoro mozorlari to‘g‘risida Mullozodaning tarix kitobi”) hamda XVII asr 40 yillarida Mahmud ibn Amir Valining tarix, geografiya, ilmi nujum, o‘simlikshunoslik, etnografiya, tasavvuf singari sohalarni qamrab oluvchi “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” (“Olijanob kishilarning fazilatlari haqida sirlar dengizi”) asari o‘rtasida ko‘p o‘rinlarda o‘zaro o‘xshash jihatlarga duch kelishimiz mumkin. Bu o‘xshashliklar mualliflarning hayoti, faoliyati, asarlarda bayon qilingan mavzularni o‘z ichiga olib, mazkur tadqiqot ishida zikr etilgan asarlarning o‘xshash va farqli jihatlari ustida bahs yuritiladi.

Birinchi navbatda ikkala muallifning ham tavallud va vafoti haqida manbalarda deyarli aniq ma’lumot uchramaydi. Muin ul-fuqaro naqshbandiya tariqati pirlaridan Xo‘ja Muhammad Porsoning shogirdlaridan ekanligi hamda o‘zining “Tarixi Mullozoda” asarini shayxi vafotidan ya’ni 1420 yildan keyin yozganini inobatga oladigan bo‘lsak, u taxminan XIV asr oxirlarida dunyoga kelib, taxminan XV asr o‘rtalari yoki ikkinchi yarmigacha umr kechirgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin[1]. Mahmud ibn Valining 19 yoshida shayx Sayyid Mirakshoh Husayniy xizmatiga kirib, 10 yil davomida to shayxning vafotiga qadar (1614) unga muridlik qilgani[2], shuningdek, “Bahr ul-asror” asari 1045 yil 11 shavvol/ 1636 yil 18 martda[3] yozib tugatilganini inobatga oladigan bo‘lsak, muallifning 1595/96 yillarda tavallud topib, XVII asr 40 yillari o‘rtalarida ham hayot ekanligi anglashiladi.

“Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asari mualliflarining nomlari va nisbalari turli asarlarining turli nusxalarida har xil ko‘rinishlarda keladi. Xususan, Muin ul-fuqaroning nomi

[1] Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda dar zikr mazoroti Buxoro / Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Rahimov K.R. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 13.
[2] Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma (fotokopiya). – London: India Office, №575. – V. 4b.
[3] O‘sha asar – V. 408b.

asarning qo‘lyozma nusxalarida “Ahmad ibn Mahmud[1]”, “Ahmad ibn Muhammad[2]”, “Muhammad ibn Mahmud[3]”, “Mullozoda” va “Buxoriyzoda[4]” ko‘rinishlarida uchraydi. Muin ul-fuqaroga ulamolar va ruhoniylar oilasidan kelib chiqqanligi uchun “Mullozoda” va Buxoro diyorida tug‘ilib, yashab ijod qilganligi uchun “Buxoriyzoda” nisbasi berilgan. “Bahr ul-asror” asarining muallifi ham asarning turli qo‘lyozmalarida “Mahmud ibn Vali[5]”, “Amir Holati Kosoniy[6]”, “Mahmud ibn Amir Vali Balxiy[7]” va “Xo‘ja Mahmud Kitobdor[8]” shaklida eslatilgan. Mahmud ibn Valining otasi XVI asar o‘rtalarida hozirgi Namangan viloyatining Kosonsoy tumanidan Balx shahriga ko‘chib borgani va Mahmud Balxda tug‘ilib voyaga yetgani uchun uning ismiga “Kosoniy” va “Balxiy” nisbalari hamda ashtarxoniylardan Balx hukmdori Nadr Muhammadxon (1606-1642; ikkinchi marta 1646-1651) saroyida bosh kutubxonachi sifatida faoliyat yuritgani sababli “Kitobdor” so‘zi qo‘shilgan.

Muin ul-fuqaro va Mahmud ibn Vali ulamolar oilasida tavallud topgan hamda ikkalasi ham tariqatga ergashgan. Xususan, Muin ul-fuqaro “Tarixi Mullozoda”ning “Shoristonlik imomlar qabrlari” nomli bo‘limida o‘zining Buxoro shahridagi Shoriston ulamolari avlodidan ekanligini qayd etib o‘tadi[9]. Mahmud ibn Vali esa XVI asrning mashhur tariqat vakillaridan Sayyid Ahmad Xo‘ja Sayyid Jaloliddin Kosoniy avlodidan ekanligini “Bahr ul-asror” asarida qayd etib o‘tgan[10]. Jaloliddin Kosoniy esa islom fiqhiga doir “Hidoya” asarining muallifi Burhoniddin Marg‘iloniy avlodidan bo‘lgan[11].

Muin ul-fuqaro ham Mahmud ibn Vali ham tasavvuf tariqatlariga ergashib, ulug‘ shayxlar xonaqohida nafsni poklash va kamolga erish bilan shug‘ullangan. Xususan, Muin ul-fuqaro naqshbandiya tariqatiga ergashgani va uning piri – zamonasining naqshbandiya tariqati shayxi Xo‘ja Muhammad Porso (1348-1420) bo‘lganini “Tarixi Mullozoda” asarida zikr etadi[12]. Mahmud ibn Vali ham 19 yoshida shayx Sayyid Mirakshoh Husayniy xizmatiga kirib, 10 yil davomida tasavvuf ilmini o‘rganadi. Hatto o‘z murishidiga bag‘ishlab, “Ravoyihi tayyiba” (“Yoqimli xushbo‘yliklar”) asarini yozadi[13]. Garchi Mahmud ibn Vali qaysi tariqat vakili ekanligi to‘g‘risida ma’lumot bermagan bo‘lsa-da, tadqiqotchilar tomonidan uning murshidan ta’limni Buxoroda

[1] Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №47/2, №48/1, №49/1, №1384/1.

[2] Ahmad ibn Muhammad Muin ul-fuqaro. Kitobi Mullozoda. Qo‘lyozma. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ARM. №09/902.; Ahmad ibn Muhammad Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №4589.

[3] Muhammad bin Mahmud. Tarixi Mullozoda. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №5056/1.

[4] Mullozoda. Tarixi toifai fuzaloi Buxoro. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №46/1.

[5] Bahr ul-asror. India Office, №575. – V. 1a.

[6] Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma. – Toshkent: O‘zR FA SHI, №2372. – V. 4b.

[7] Mahmud Iban-i-Amir Wali Bahrul-asrar. A chapter of Balkh. Edited by Mayel Herawi. – Afghanistan: Academy Science of Afghanistan, 1981. – P. 3.

[8] Мухаммад Амин ибн Мухаммад Замани Бухари. Мухит ат-таварих // Ромаскевич А.А. Иранские источники по истории туркмен и Туркмении XVI-XIX вв. Т. II. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1938. – С. 10.

[9] Muin ul-fuqaro, Ahmad ibn Mahmud. Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxuro. So‘z boshi, tahrir, izohlar va ilovalar muallifi Ahmad Gulchin Maoniy. – Tehron: Eronshunoslik tadqiqotlar markazi, 1991. – B. 66.

[10] Bahr ul-asror. India Office, №575. – V. 146a.

[11] Саидов Ф.А. Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины XVII вв. Дисс. – Душанбе, 2022. – С. 20.

[12] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 13.

[13] Bahr ul-asror. O‘zR FA SHI, №2372. – V. 4a.

olgan bo‘lishi kerak, degan taxminalaridan kelib chiqib, u ham naqshbandiya tariqatiga ergashgan deyishimiz mumkin[1].

Mualliflarning qoldirgan ilmiy merosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Muin ul-fuqaroning ikki asari – “Tarixi Mullozoda dar zikri mazorati Buxoro” (“Buxoro mozorlari haqida Mullozodaning tarix kitobi”) va “Xulosat ul-manoqib” (“Manoqib” asarining qisqartmasi)[2] hamda Mahmud ibn Vali sakkiz asari – “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” (“Olijanob kishilarning fazilatlari haqida sirlar dengizi”), “Muhabbatnoma” (“Muhabbat qissasi”), “Gulkada” (“Gullar maskani”), “Najmi soqib” (“Porloq yulduz”), “Nuhzat ul-arvoh” (“Ko‘ngilni ochuvchi ruh”), “Axloqi Husayniy (“Yaxshi axloqlar”), Ravoyihi tayyiba” (“Yoqimli xushbo‘yliklar”) va g‘azal, qasida va she’rlardan iborat 50 ming baytli “Devon”[3] yaratgani ma’lum bo‘ladi. Muin ul-fuqaro asarlarining qo‘lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan, ammo Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” (faqat I va VI jildlari)dan tashqari qolgan asarlarining qo‘lyozmalari hanuz topilganicha yo‘q.

“Tarix Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarining o‘z ichiga oladigan mavzulariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, biri Buxoro tarixi, geografiyasi, tarixiy obidalari, shahar va uning atrofida joylashgan aziz avliyolar mangu qo‘nim topgan joylar, islom dini shariat qoidalari bo‘yicha o‘tganlarning qabrlarini ziyorat qilish odoblari, tasavvuf shayxlarining ibratli hayot yo‘llari haqida qimmatli ma’lumot berishiga, boshqasining umumiy tarix, xususan, yer yuzida hayot elementlari, inson, hayvonot, nabotot olamining paydo bo‘lishi, islomgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo, Rum va Eron hududlarida hukmronlik qilgan hukmdorlar, rahmat Payg‘ambari Muhammad (s.a.v) hazratlarining siyratlari, xulafoyi roshidin, islom o‘lkasi hukmdorlari, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, g‘aznaviylar, buvayhilar, saljuqiylar, xorazmshohlar, muzaffariylar, mo‘g‘ullar davlati, Chig‘atoy va Jo‘ji uluslari, Amir Temur va temuriylar davlati, shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi tarixi, shuningdek, o‘simlikshunoslik, minerologiya, entnografiya, tasavvuf, ulug‘ ulamolar va va mashoyixlar, amirlar va boshqalar to‘g‘risida hikoya qilishining guvohi bo‘lamiz.

“Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarining tuzilishiga e’tibor beradigan bo‘lsak ular orasidagi katta farqni uchratishimiz mumkin. Muin ul-fuqaroning “Tarixi Mullozoda asari tuzilishiga ko‘ra muqaddima, uch qism va yigirma to‘qqiz bo‘limdan iborat bo‘lsa[4], Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asari fotiha (muqaddima), yetti jild va xotima qismlaridan hamda har bir jild alohida to‘rt rukn (qism)dan tashkil topgan[5]. “Tarixi Mullozoda”ning hajmi turli qo‘lyozmalarni solishtirib ko‘rish natijasida yuz yoki bir yuz o‘n besh sahifa ekanligi anglashilsa, “Bahr ul-asror” asarining faqat VI jildi mingdan ortiq ikki tomonlama (a-b) varaqlardan iboratdir.

Tarix fanlari doktori K.R. Rahimov olib borgan tadqiqotlari natijasida O‘zbekistonning turli qo‘lyozma fondlarida “Tarixi Mullozoda”ning jami 55 ta qo‘lyozma va toshbosma nusxasi

[1] Mahmud b. Amir Wali Balkhi. The Bahr ul-asrar travelogue. Edited by Riazul Islam. – Karachi: Institute of Central and West Asian Studies, 1980. – P. 1.
[2] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 14-15.
[3] Bahr ul-asror. O‘zR FA SHI, №2372. – V. 4b-5a.; Ахмедов Б.А. Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 5.; Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 224-225.
[4] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 19.
[5] Бартольд В.В. Отчёт о командировке в Туркестан. – Санкт-Петербург: Императорской академии наук, 1904. – С. 76.

mavjudligi aniqlangan bo‘lsa [1] , manbashunos R.L.G‘afurova mazkur asarning xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan 40 ta nusxasi haqida ma’lumt bergan[2]. “Bahr ul-asror” asarining esa faqat 6 ta qo‘lyozma nusxasi ma’lum. Bulardan to‘rttasi O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondida (№1375, 1385, 2372, 7418), bittasi Qo‘qonda (№6842) va bittasi Londondagi India Office kutubxonasida (№575) saqlanadi[3]. “Tarixi Mullozoda” asari deyarli to‘liq holda saqlanib qolgan. Ammo “Bahr ul-asror”ning faqat I jildi (qisman birinchi va ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi ruknlari) va VI jildi (qisman birinchi va ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi ruknlar) bizgacha yetib kelgan.

“Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarini o‘zaro bog‘lab turuvchi asosiy omil bu ikkala asarning ham Buxoro va uning atrofida joylashgan ulug‘ zotlar va aziz avliyolarning mangu qo‘nib topgan joylari, qabrlari va maqbaralari haqida muhim ma’lumotlarni berishidir. “Tarixi Mullozoda” asarida VIII asardan to XV asar o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda Buxoro va uning atrofida dafn etilgan ulug‘ zotlar maqbaralari haqida ma’lumot berilsa, “Bahr ul-asror” asari XVII asr 40-yillarida yaratilganligi uchun VIII asardan to XVII asr boshlarigacha “Baldayi Foxira”da mangu qo‘nim topgan aziz avliyolarning muborak marqadlari haqida hikoya qiladi. Quyida mazkur asarlarda Buxoro va uning atrofidagi maqbaralar hamda ularda dafn etilgan ulug‘ zotlar to‘g‘risidagi qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tamiz.

“Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarida Buxoro xalqi orasida Ayyub alayhissalomning qabri (ammo Muhyiddin Navaviy aytganidek, aslida, Ayyub alahissalomning qabri bu yerda emas), shuningdek, ba’zi sahobalar, jumladan, Xo‘ja Uhbon, Ka’b Ahbor va Muhammad bin Vo’se (r.a)larning qabrlari shaharda joylashganligi haqida rivoyatlar mavjudligi, lekin bu haqiqatga to‘g‘ri kelmasligi hamda Buxoroda bironta ham sahoba dafn etilmagani ta’kidlangan[4]. Ushbu asarlarda birininchilardan bo‘lib zikr etilganlar orasida Abu Hafs Kabir rahmatullohi alayhni ko‘rsatishimiz mumkin. Mualliflar o‘sha yerda joylashgan qabrlar sirasiga Abu Hafs Kabirning farzandi Abu Hafs Sag‘irning qabri kirishi hamda u zoti muborak hazrat Xo‘janing qibla tomonida joylashganini qayd etishgan. Ta’kidlashlaricha, hazrati Usmon ibn Affon (r.a)ning qabri Xo‘janing bosh tomonida joylashgan. Lekin bu haqiqatdan ancha yiroq bo‘lib hazrati Usmon (r.a) Madina shahrida vafot etganlar. Atrofdagi qabrlardan biri qirq yil uxlamasdan tunlarni tongga yetkazgan “Shayx Shabbedor” laqabi bilan mashhur qozi imom Abdulvohid Shahidga tegishlidir[5].

Keyingi o‘rinda Saffor laqabli immolar qabri, jumladan, Abu Ibrohim Ismoil ibn Nasr as-Safforga ishora qilingan[6]. “Tarixi Mullozoda”da shu o‘rinda yana ikki qabrga Abu Is’hoq Ibrohim ibn Ismoil as-Saffor va Abu-l-Homid Hammod ibn Ibrohim as-Safforga ishro qilingan bo‘lib[7], bu ismlar Mahmud ibn Valining kitobida uchramaydi. Shaharning shimolida joylashgan qabrlardan biri bu Safarkadar qishlog‘idan Abdulloh ibn Muborak rahmatullohi alayhning shogirdi Xo‘ja Abu Hafs Sag‘ir Safkardariydir. Mualiflar Xo‘janing Marvdagi suhbatlarda ishtirok etishi hamda muazzin voqeasini bayon qilishgan. Chashmayi Ayyubda joylashgan qabrlardan biri sifatida Ka’b ibn Said al-Omiriy rahimahullohning qabri tilga olingan hamda etik voqeasi va Ka’bning kofirlar

[1] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 13.
[2] Гафурова Р.Л. Китоби Мулла-заде. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 9-10.
[3] Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – С. 18-19.
[4] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 29.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 133a.
[5] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 72-74.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 133a-b.
[6] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 32.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 133b.
[7] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 75-76.

qo‘lida shahid bo‘lishi zikr etilgn[1]. Chashmayi Ayyub alayhissalom maqbarasining sharqida joylashgan qabr Mavlono Jamoliddin Mahbubiyning o‘g‘li Mavlono Shamsiddin Mahbubiyga tegishlidir. Maqbara yonidagi qabristonda asl nasabi Uboda ibn Somit (r.a) borib taqaladigan Mavlono Jamoliddin Mahbubiy avlodlaridan “Sharh ul-Viqoya” asarining muallifi Xovand Sadr ush-shari’aning qabri joylashgan[2].

Buxoroning qibla tomonidagi Sumitan qishlog‘ida joylashgan qabrlardan Imom Abu Bakr Sa’d, Abu Bakr Muhammad ibn al-Fazl ibn Ja’far al-Buxoriy va Abu Umar Usmon ibn Ibrohim ibn Ahmad ibn Muhammad al-Fazliy zikr etilgan. “Bahr ul-asror”da faqat ularning vafot etgan yillari qayd etilgan bo‘lsa, “Tarixi Mullozoda” anchayin kengroq ma’lumotlar berilgan[3].

“Bahr ul-asror”da Bahrom Chubin avlodlaridan bo‘lgan Somoniy hukmdorlardan Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad ibn Somon, Abu-l-Hasan Nasr ibn Ahmad, Abu Ya’qub Is’hoq ibn Ahmad, Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil, Abdulmalik Nuh ibn Nasr, Abu-l-Qosim Nuh ibn Mansur ibn Nuhning qabrlari Buxoroda joylashganligi eslatilgan bo‘lsa[4], “Tarixi Mullozoda” muallifi ularga qo‘shimcha ravishda Abu Nasr Ahmad ibn Ismoil, Abu-l-Hasan Nars ibn Ahmad ibn Ismoil, Abu Solih Mansur ibn Nuh ibn Nasr va Abu-l-Horis Mansur ibn Nuhni ham eslatib o‘tadi[5].

Somoniy hukmdorlar qabridan janub tomonga qarab borilsa, “Tarixi Buxoro” va “Fazoil us-sahoba al-arba’a” asarlari muallifi G‘unjor al-Hofiz va Hojiyon darvozasining shimolida, Abu Bakr Fazl maqbarasi qarshisida Ismoiliy imomlarning qabri joylashgan. Ikki asarda ham bu yerda dafn etilgan imomlar sifatida Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Is’hoq ibn Isroil al-Ismoiliy va uning farzandi Abu-l-Hasan Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy eslatilgan[6]. Abu Bakr Fazl rahmatullohi alayhning qabridan sharq tomonda joylashgan qabrlar Sattojiy imomlar qabrlari sifatida tilga olingan bo‘lib, u yerda Mavlono Sayfiddin Sattojiy va Mavlono Jamoliddin Sattojiy dafn etilgan. Negadir “Bahr ul-asror” muallifi Sayfiddin Sattojiyni ham Jamoliddin Sattojiy deb qayd etgan[7]. Ikkala asarda ham Jamoliddin Sattojiyning qoldirgan ilmiy merosi, Shayx Maslahatiddin bilan bo‘lgan suhbati va Mavlona Shams ul-aimma Kardariy bilan sodir bo‘lgan voqea bayon qilingan[8]. Undan tashqari mazkur Sattojiy imomlar qabri yonida Mavlono Jamoliddinning o‘g‘li Amir Shamsiddinning, uning qabri oldida o‘g‘li Xovanzoda Sharafiddinning, Mavlono Jamoliddin qabrining oyoq tomonida uning boshqa o‘g‘li Mavlono Kamoliddinning, uning yonida farzandi Xovand Shoh Faxriddinning, uning naryog‘ida Xovand Tojiddinning, uning oldida farzandi Xovand Sadriddinning hamda Abu Bakr Fazl rahimahulloh qabrining qibla tomonida Solori Haj rahimahullohning qabrlari joylashganligi zikr etilgan[9].

“Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarida Miqdom hovuzi (Chorshanba tepaligi) atrofida dafn etilganlar sifatida Hoshidi Kamgunoh, Xo‘ja Dahniyoz, Imom Ibrohim al-Basir al-Maydoniy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Ismoil, Xo‘ja Imom Sufo’iy, Imom Abdulkarim ibn Abu Hanifa al-Andaqiy, Xo‘ja Sulaymon, Mavlono Muzaffar va Mavlono Tohirlar yodga

[1] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 33-34.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 134a.
[2] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 79-80.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 134a.
[3] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 83-84.
[4] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 134a-134b.
[5] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 36-40.
[6] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 84-85.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 134b.
[7] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135a.
[8] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 39-40.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135a.
[9] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 89-90.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135a-b.

olingan[1]. Asarlarda Subadmun[2] qishlog‘ida dafn etilgan ulug‘ zotlar orasida Xo‘ja Abdulloh bin Muhammad ibn Ya’qub ibn al-Horis as-Subadmuniy, Mavlono Shams ul-aimma Kardariy va Mavlono Badriddinlarning qabrlari qayd etilgan[3].

Muin ul-fuqaro va Mahmud ibn Vali Shayx Abu Bakr Abu Is’hoq al-Kalabodiyning shogirdi Shayx Imom Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkir al-Jandiyning maqabarisi shaharning janubida joylashgani hamda Xo‘ja rahimahullohdan it to‘g‘risidagi savol so‘rashganini bayon qilgan[4]. Undan tashqari asarlarida Shams ul-mulk va Xo‘ja Porado‘z hamda Xo‘ja Porado‘z maqbarasidagi Shayx Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad al-Iskof, Shayx Sirojiddin Xilvatiy, Shayx Mahmud Sambusapaz va Xo‘ja Muhammad Sarojgon qabrlari haqida rivoyat qilishgan[5].

“Bahr ul-asror”da Fathobodning ruhni ko‘taruvchi qabrlari orasida Shayx Sayfiddin al-Boxarziyning, uning farzandi Xovand Jaloliddin Shahid va Boxarziyning nabirasi Abu-l-Mafoxir Yahyo ibn Ahmad al-Boxarziy, uning yonida farzandlari Xovand Burhoniddin Shahid va Ruhiddin Dovud, shuningdek, Fathobodning shimolida Azizon tepaligida so‘fiy ashoblar Shamsiddin Xurd va Sa’diddin Xorazmiylar zikr etilgan[6]. “Tarixi Mullozoda”da esa yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda Sayfiddin al-Boxarziyning o‘g‘li Xovand Mutahhariddin qabri hamda Azizon tepaligidagi Shamsiddin Kalon qabri, shuningdek, Fathoboddan shahar tomonga borishda Mavlono Jamoliddin va Xo‘ja Qut qabrlari ham esga olinadi[7].

“Bahr ul-asror” asarida Sadr tepaligidagi qabrlar orasidan faqat Abu Shu’ayb Solih al-Buxoriy qabri haqida so‘z borsa[8], “Tarixi Mullozoda”da mazkur qabrdan tashqari Imom Ali ibn Mansur ibn Shu’ayb, Abu Ali Nasafiy va Xo‘ja Abdulloh Xayroxariyning mozorlari shu yerda joylashgani eslatib o‘tilgan[9]. Mahmud ibn Vali o‘z asarida buyuk Burhoniy sadrlar orasidan Burhon ul-aimma va Sadr Halim haziralari va buyuk sadrlar maqbarasining shimoliy qismidagi Imom Abu Bakr Xoharzoda, Mavlono Shams ul-aimma Halvoiy, Qozi Imom Ali Sug‘diy, Mavlono Jamoliddin Mahbubiy va Imom Sharafiddin Abdurahmon rahimahumullohlarning qabri joylashganini keltirgan bo‘lsa[10], Muin ul-fuqaro yuqoridagi qabrlarga ishora qilish bilan birga Burhoniy sadrlar silsilasi haqida ham anchayin batafsil ma’lumotlarni berib o‘tadi[11].

Xo‘ja Abu Bakr Tarxon tepaligidagi qabrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak “Bahr ul-asror”da bu joydagi qabrlardan “Al-Jome’ al-musnad” asari muallifi Abu Bakr Abdulloh ibn Muhammad ibn Tarxon, Imom Alouddin al-Buxoriy, uning o‘g‘li Mavlono Hofiziddin al-Kabir, Mavlono Tojiddin al-Musaddir va uning qibla tomonida farzandlarining mozorlari qayd etilgan[12]. “Tarixi Mullozoda”da esa bulardan tashqari Alouddin Abu Abdulloh al-Buxoriy, Mavlono Husomiddin, Mavlono Burhoniddin Anjirfag‘naviy, Mavlono Burhoniddin Arshadiy, Xo‘ja Yusuf,

[1] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 41-42.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135b.
[2] “Tarixi Mullozoda”da “Subadmun”, “Bahr ul-asror”da esa “Safidmun” (qarang: Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 92.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135b.)
[3] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 92-94.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 135b-136a.
[4] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 43.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136b.
[5] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 94-96.; Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136a.
[6] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136a-b.
[7] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 99-100.
[8] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136b.
[9] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 47.
[10] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136b.
[11] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 102-107.
[12] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 54-55.

Mavlono Najmiddin O‘troriy, Xo‘ja Najmiddin al-G‘ijduvoniy va Xo‘ja Sa’diddin Mas’ud al-G‘ijduvoniylarning mozorlari elatiladi[1].

Ikkala asarda ham yetti qozi qabristonidagi qabrlardan “Amad ul-aqso” va “Taqvim ul-usul” asarlarining muallifi Qozi Imom Abu Zayd ad-Dabusiy[2], Qozi Imom Abu Ja’far ash-Sha’biy, “Sharh at-Ta’arruf” asari muallifi Qozi Imom Ismoil Mustamliy, Qozi Imom Zavzan, “Fatvo” asarining muallifi Qozi Imom Zahriddin va Qozi Imom Badeuddinning mozorlari tilga olingan[3]. “Bahr ul-asror”dagi ma’lumotlarga ko‘ra, yetti qozi qabristonida yuqoridagi qozilardan tashqari Imom Toj ul-islom Hamza, Mavlono Husomiddin Axsikatiy, Qozixon nomi bilan mashur – “Fatvo”, Jome’ ul-kabir” va “Jome’ us-sag‘ir” asarlarning muallifi Qozi Imom Faxriddin, qabrida Payg‘ambar sallallohu alayhi vasallamning mo‘yi muboragi bo‘lgan Dehqon Sug‘diy, Shayx Hasan Namadpo‘sh, umridan biron marta ham janobatdan g‘usl qilmagan Shayx Ali va ulamolar ustozi Hamididdin Shoshiyning mozorlari joylashgan[4]. “Tarixi Mullozoda” muallifi bularga qo‘shimcha ravishda Mavlono Husomiddin al-Asiliy, uning o‘g‘li qozi Mavlono Sirojiddin al-Asiliy hamda Imom Xatib Abu-l-Ma’oniyning qabrlari ham shu yerda ekanini aytib o‘tgan[5].

Mahmud ibn Vali Aqiliy imomlar qabristonidagi faqat bitta mozorni – Mavlono Sharafiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Umar al-Aqiliy rahimahullohning qabrini eslatgan bo‘lsa[6], Muin ul-fuqaro mazkur qabrga qo‘shimcha ravishda Mavloni Sharafiddin Abu-l-Qosim al-Aqiliy al-Ansoriy, Mavlono Shamsiddin Ahmad al-Aqiliy va Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Abu Suhayl ibn Abu Is’hoq al-Attobiy al-Buxoriyning qabrlari ham mazkur qabristonda joylashganini zikr etgan[7]. “Bahr ul-asror”da Abu Bakr Homid rahimahulloh tepaligidagi qabrlar orasidan faqat ul zotning qabri keltirilgan[8]. “Tarixi Mullozoda”da esa unga qo‘shimcha ravishda Xo‘ja Gulrez va Xo‘ja Abdurahmon Karminagiy rahimahumullohning qabrlari ham mazkur tepalikda joylashganligi qayd etilgan[9].

Mahmud ibn Vali shoristonlik imomlar qabrlari to‘g‘risida yozar ekan, Xo‘ja Yusuf Hamadoniy xalifalaridan Xo‘ja Abdulloh Baraqiy va Xo‘ja Hasan Andaqiy, “At-Ta’aruf” asarining muallifi Shayx Abu Bakr al-Kalabodiy, “Shir’at ul-islom” asari muallifi va Imomzoda nomi bilan mashhur Rukniddin Muhammad ibn Abu Bakr, uning o‘g‘li Imom Sa’diddin va uning farzandi Imom Rukniddin ash-Shahidlarning qabrlarini zikr etadi[10]. Muin ul-fuqaro yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda Mavlono Faxriddin Muhammad ibn Muhammad ash-Shoristoniy, Mavlono Rukniddin Abdurahim ibn Ahmad ash-Shoristoniy, Mavlono Jamoliddin Muhammad ibn Abdurahim ash-Shoristoniy, Mavlono Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad al-Qazviniy, Mavlono Jamoliddin al-Xalaf al-Buxoriy, Mavlono Nosiriddin Imomzoda, Imom Rukniddin Moziy va Mavlono Abdurahmon al-Buxoriyning mozorlari ham shu yerda joylashganini yozadi[11].

---

[1] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 136b-137a.
[2] “Bahr ul-asror” asarida Ibn Sino qozi Abu Zayd ad-Dabusiyning xolasining o‘g‘li ekanligi qayd etilgan (qarang: Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 137a.)
[3] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 109-111.
[4] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 137a-b.
[5] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 56-59.
[6] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 137b.
[7] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 114-116.
[8] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 137b-138a.
[9] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 61.
[10] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 138a.
[11] Rahimov K.R. Tarixi Mullozoda – B. 117-120.

“Bahr ul-asror”da Sard-u-xushk masjidining sharq tomonidagi hamda shahar va uning atrofidagi qabrlar orasidan Imom Abdulloh Muhammad ibn Fazl al-Sharafduniy, Mavlono Badriddin Varsakiy, Raziyuddin Nishopuriy, “Al-Yaminiy” asarining muallifi Abu Nasr ibn Abdulkibor (Abdujabbor), Xo‘ja Halim Daymuniy, Nurobod maqbarasi, Xo‘ja Avliyo Kalon, Xo‘ja G‘arib, Xo‘ja So‘kmon, Shayx Nuriddin, Abu-l-Hasan Hamadoniy, Shayx Nuriddin Xilvatiy, Mavlono Nuriddin Sayrafiy, Mavlono Badriddin va Bobo Muborak (Tohir) Chohortoqiy qabrlari tilga olinadi[1]. “Tarixi Mullozoda” muallifi esa ulardan tashqari Imom Qozixon, “Kulliya” asarining muallifi Sulaymonshoh, Xo‘ja Umar G‘oziy Rig‘damuniy va farzandi Abu Bakr va Shayx Muhammad Hallojning mozorlarini ham eslatib o‘tadi[2].

“Tarixi Mullozoda”dagi mozorlar zikri Bobo Tohir Chohortoqiy bilan o‘z nihoyasiga yetsa, “Bahr ul-asror”da esa shahar tashqarisidagi boshqa aziz avliyolarning qabrlar bilan davom etib, to muallif yashab ijod qilgan zamongacha ya’ni XVII asr 30-40 yillarigacha dafn etilganlar to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beriladi[3]. Mahmud ibn Vali faqat Buxoro va uning atrofidagi mozorlar bilan cheklanib qolmasdan, “Bahr ul-asror” VI jildi to‘rtinchi ruknining Balx viloyati tarixiga bag‘ishlangan qismida mazkur zaminda yashab ijod qilgan ulug‘larga doir qimmatli biografik ma’lumotlarni ham keltiradi[4].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, olib borilgan izlanishlar natijasida “Tarixi Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlari hamda uning mualliflari o‘rtasida qator o‘xshash jihatlar borligiga guvoh bo‘ldik. Mualliflar biografiyasiga doir juda kam ma’lumot saqlangani, tug‘ilgan va vafot etgan sanalari aniq qayd etilmagani, ikkalasi ham diniy ziyolilar oilasida dunyoga kelib, tariqatga ergashgani va boshqalar shular jumlasidandir. “Tarix Mullozoda” va “Bahr ul-asror” asarlarini birlashtirib turuvchi jihat bu – ikkala asarda ham Buxoro va uning atrofida dafn etilgan ulug‘larning maqbara va mozorlari haqida ma’lumot berishidir. Asarlardagi ma’lumotlar bir biriga juda yaqin bo‘lib, takror holatlar juda ko‘p uchraydi. Voqealar “Tarixi Mullozoda”da batafsilroq yoritilgan bo‘lsa, “Bahr ul-asror”da nisbatan qisqaroq ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shularni inobatga olgan holda, garchi Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror”da Buxora va uning atrofida dafn etilgan aziz avliyolar mozorlari haqida hikoya qilish uchun Muin ul-fuqaroning “Tarixi Mullozoda”dasidan foydalangani to‘g‘risida biron bir yerda ishora qilmagan bo‘lsa ham, berilgan ma’lumotlarning bir biriga juda yanqinligi va biri ikkinchisini takrorlashi hamda “Tarixi Mullozoda” “Bahr ul-asror”dan ikki asr oldinroq yaratilganidan kelib chiqib, Mahmud ibn Vali Muin ul-fuqaroning ma’lumotlaridan ham foydalangan bo‘lishi kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda dar zikr mazoroti Buxoro / Fors tilidan tarjima, muqaddima, tadqiq, izohlar, ilovalar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Rahimov K.R. – Toshkent: Fan, 2019. – 216 b.

2. Ahmad ibn Mahmud Muin ul-fuqaro. Tarixi Mullozoda. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №47/2, №48/1, №49/1, №1384/1, №4589

3. Ahmad ibn Muhammad Muin ul-fuqaro. Kitobi Mullozoda. Qo‘lyozma. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ARM. №09/902.

[1] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 138a-b.
[2] Ahmad Gulchin Maoniy. Tarixi Mullozoda – B. 63-68.
[3] Bahr ul-asror. India Office, №575 – V. 138b-158a.
[4] O‘sha asar – V. 305a-374a.

4. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma (fotokopiya). – London: India Office, №575. – 409 v.

5. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo‘lyozma. – Toshkent: O‘zR FA SHI, №2372. – 533 v.

6. Muhammad bin Mahmud. Tarixi Mullozoda. Qo‘lyozma. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №5056/1.

7. Muin ul-fuqaro, Ahmad ibn Mahmud. Tarixi Mullozoda dar zikri mazoroti Buxuro. So‘z boshi, tahrir, izohlar va ilovalar muallifi Ahmad Gulchin Maoniy. – Tehron: Eronshunoslik tadqiqotlar markazi, 1991. – 106 b.

8. Mullozoda. Tarixi toifai fuzaloi Buxoro. O‘zR FA SHI Asosiy qo‘lyozmalar fondi. №46/1.

9. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – 432 б.

10. Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимурдов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – 229 с.

11. Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относителъно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – 168 с.

12. Бартольд В.В. Отчёт о командировке в Туркестан. – Санкт-Петербург: Императорской академии наук, 1904. – 108 с.

13. Гафурова Р.Л. Китоби Мулла-заде. – Ташкент: Фан, 1992. – 154 с.

14. Мухаммад Амин ибн Мухаммад Замани Бухари. Мухит ат-таварих // Ромаскевич А.А. Иранские источники по истории туркмен и Туркмении XVI-XIX вв. Т. II. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1938. – 700 с.

15. Саидов Ф.А. Историко-географические сведения Махмуда ибн Вали о Мавераннахре и Хорасане конца XVI – первой половины XVII вв. Дисс. – Душанбе, 2022. – 158 с.

16. Mahmud b. Amir Wali Balkhi. The Bahr ul-asrar travelogue. Edited by Riazul Islam. – Karachi: Institute of Central and West Asian Studies, 1980. – 205 p.

17. Mayel Herawi. Mahmud Iban-i-Amir Wali Bahrul-asrar. A chapter of Balkh. – Afghanistan: Academy Science of Afghanistan, 1981 – 354 p.

TEOKRATIK DAVLATLAR SIYOSIY TIZIMI TRANSFORMATSIYASINI O‘RGANISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI

DILSHODA XODJIMURATOVA
Boshqarma boshlig‘i t.f.d. (DSc), TDSHU

Annotatsiya. *Maqola teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o‘rganishning nazariy-metodologik paradigmalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda teokratik hokimiyat modelining legitimlik manbalari, normativ-huquqiy asoslari, institutlar iyerarxiyasi va diniy doktrina bilan siyosiy boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir mexanizmlari konseptual tadqiq etilgan. Muallif tomonidan teokratik tizimlarda siyosiy evolyutsiya jarayonlari “institutsional adaptatsiya”, “normativ transformatsiya” va “gibridlashuv” kategoriyalari orqali talqin etilgan. Maqolada teokratik davlatlar transformatsiyasi nafaqat sekulyarizatsiya jarayoni bilan, balki ichki legitimlikni qayta ishlab chiqish, hokimiyat vakolatlarini institutsional qayta taqsimlash va global siyosiy muhitga moslashuv orqali amalga oshishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, teokratik siyosiy tizimlarning barqarorligi va transformatsiya salohiyati ularning mafkuraviy qatlamlari, huquqiy institutlari hamda siyosiy elitaning strategik tanlovlari bilan uzviy bog‘liq ekani ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar. *Teokratik davlat, siyosiy teologiya, siyosiy tizim transformatsiyasi, institutsional adaptatsiya, “dinamik muvozanat” nazariyasi, “sekulyar adaptatsiya” nazariyasi gibrid siyosiy model.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу теоретико-методологических парадигм изучения трансформации политических систем теократических государств. В ней концептуально исследуются источники легитимности теократической модели власти, её нормативно-правовые основания, иерархия институтов, а также механизмы взаимодействия религиозной доктрины и политического управления. Автор интерпретирует процессы политической эволюции в теократических системах через категории «институциональная адаптация», «нормативная трансформация» и «гибридизация». В статье научно обосновывается, что трансформация теократических государств осуществляется не только посредством секуляризации, но и через воспроизводство внутренней легитимности, институциональное перераспределение властных полномочий и адаптацию к глобальной политической среде. Кроме того, показано, что устойчивость и трансформационный потенциал теократических политических систем неразрывно связаны с их идеологическими основаниями, правовыми институтами и стратегическими выборами политической элиты.*

Ключевые слова: *теократическое государство, политическая теология, трансформация политической системы, институциональная адаптация, теория «динамического равновесия», теория «секулярной адаптации», гибридная политическая модель.*

Abstract. *The article is devoted to the analysis of theoretical and methodological paradigms for studying the transformation of political systems in theocratic states. It conceptually examines the sources of legitimacy of the theocratic model of governance, its normative and legal foundations, the hierarchy of institutions, and the mechanisms of interaction between religious doctrine and political authority. The author interprets the processes of political evolution in theocratic systems through the categories of “institutional adaptation,” “normative*

transformation," and "hybridization." The study substantiates that the transformation of theocratic states occurs not solely through secularization, but also through the reproduction of internal legitimacy, the institutional redistribution of power, and adaptation to the global political environment. Furthermore, it demonstrates that the stability and transformative capacity of theocratic political systems are closely linked to their ideological foundations, legal institutions, and the strategic choices of the political elite.

Keywords: *theocratic state, political theology, political system transformation, institutional adaptation, "dynamic equilibrium" theory, "secular adaptation" theory, hybrid political model.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari va ichki ijtimoiy-siyosiy talablar teokratik davlatlar siyosiy tizimlari transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Mazkur transformatsiya jarayonlari xorijiy mamlakatlar tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixi nuqtai nazaridan dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Teokratiyada din siyosiy tizimning markaziy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi, bu esa davlat boshqaruvi, qonunchilik va jamiyat munosabatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi. Ushbu tizimlar o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lib, ularning transformatsiyasini tahlil qilishda an’anaviy siyosiy nazariyalarni qo‘llash yetarli bo‘lmaydi. Zero, ularda diniy va siyosiy hokimiyat birlashib, jamiyatdagi turli ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Teokratik davlatlar siyosiy tizimlari transformatsiyasini o‘rganishda uslubiy yondashuvlar to‘g‘ri tanlanishi tadqiqot natijalari samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Teokratik davlatlar o‘ziga xos tarixiy, madaniy va diniy xususiyatlarga ega bo‘lgani sababli, ularni tadqiq qilish uchun faqat an’anaviy nazariyalar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Hududiy, etno-diniy xususiyatlarni inobatga oluvchi interpretativ va tuzilma-funksional yondashuvlar, shuningdek, dinamik jarayonlarni tahlil qilish uchun tarixiy-siyosiy tadqiqot uslublari muhim o‘rin tutadi.

Teokratik davlatlar siyosiy tizimini tadqiq etish metodologiyasining nazariy asoslari rossiyalik olim Vladimir Yakunin va fransiyalik ekspert Olive Rua tomonidan o‘rganilgan[1]. Ularning fikricha, teokratik davlatlar siyosiy tizimini o‘rganishda tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali teokratik davlatlarning ichki siyosiy jarayonlari, institutsional tuzilmalari va ularning o‘zaro aloqadorligi chuqur tahlil qilinishi mumkin. Teokratik davlatlar transformatsiyasini o‘rganishda tarixiy-qiyosiy metod salmoqli ahamiyatga ega. Teokratik davlatlar rivojlanishining tarixiy bosqichlarini tahlil qilish orqali ularning zamonaviy holatini tushunish mumkin. Xususan, V.Yakuninning "dinamik muvozanat" nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining muhim jihatlarini ochib beradi. Bu nazariyaga ko‘ra, teokratik davlatlar rivojlanishida an’anaviy va modern elementlar o‘rtasidagi muvozanat doimiy ravishda o‘zgarib turadi, bu esa siyosiy tizimning dinamik xarakterini belgilab beradi. O.Ruaning "sekulyar adaptatsiya" nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining xususiyatlarini ochib beradi. Uning ta’kidlashicha, teokratik davlatlarda sekulyarizatsiya jarayonlari o‘ziga xos tarzda kechmoqda va bu jarayon diniy institutlar transformatsiyasiga olib kelmoqda.

Fransiyalik Jil Kepel teokratik davlatlar siyosiy tizimidagi siyosiy tizimning institutsional modernizatsiyasi, davlat boshqaruvining ratsionalizatsiyasi, siyosiy qarorlar qabul qilish

[1] Якунин В.И. Государственная политика в контексте глобальных вызовов современности. М.: – 624 с.; Вызовы мирового неравенства и ценностные альтернативы развития человечества // Этап: Экономическая теория, анализ, практика, № 1, – С. 7-19.; Roy Olivier. The Failure of Political Islam. Harvard University Press. Cambridge. 1994. – 256 pp.; Globalized Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press. 2004. – 320 pp.; The Crisis of Culture: Identity Politics and the Empire of Norms. Oxford University Press. 2024. – 232 pp.

mexanizmlari takomillashuvi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi kabi transformatsion jarayonlarni ta'kidlaydi[1]. Jil Kepel teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini "ikki vektorli rivojlanish" hamda "texnologik modernizatsiya" nazariyalari orqali izohlaydi. Xususan, "ikki vektorli rivojlanish" nazariyasiga ko'ra, teokratik davlatlar bir vaqtning o'zida ham an'anaviy qadriyatlarni saqlashga, ham zamonaviy taraqqiyot talablariga javob berishga intilmoqda. Shuningdek, "texnologik modernizatsiya" nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining texnologik jihatlarini ochib beradi. Uning fikricha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi teokratik davlatlar siyosiy tizimining modernizatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Eronlik olim Abbos Milaniy teokratik davlatlar siyosiy tizimining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilar ekan, teokratik davlatlar siyosiy tizimini o'rganishda institutsional yondashuvning zarurligini qayd etadi. Bu yondashuv orqali teokratik davlatlarning siyosiy institutlari, ularning funksiyalari va o'zaro munosabatlari o'rganiladi. Uning muhim xususiyatlari sifatida siyosiy tizimning modernizatsiyasi, davlat boshqaruvida zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi, xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishini zikr etiladi. Xususan, Abbos Milaniy teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini "integratsion modernizatsiya" nazariyasi orqali tushuntiradi. Bu nazariyaga ko'ra, teokratik davlatlar xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuv jarayonida o'z siyosiy tizimini modernizatsiya qilishga majbur bo'lmoqda[2].

Mazkur olimlar teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o'rganishda zamonaviy tizimli, institutsional, qiyosiy, ekspert baholash, kontent-tahlil usullarini qo'llashni tavsiya etadilar. Teokratik davlatlar siyosiy tizimini o'rganishda fanlararo yondashuv muhimligini ta'kidlaydilar. Bu yondashuv siyosatshunoslik, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik va boshqa fanlar uslublarining integratsiyasini nazarda tutadi. Eronlik Valiy Nasr teokratik davlatlar siyosiy tizimini o'rganishda empirik tadqiqotlar ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday tadqiqotlar siyosiy institutlar faoliyatining monitoringi, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining tahlili yo'nalishlarida olib borilishi kerak. Jumladan, V.Nasr teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini "sinkretik modernizatsiya" nazariyasi orqali tushuntiradi. Uning bu nazariyasiga ko'ra, teokratik davlatlar rivojlanishida an'anaviy diniy qadriyatlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalari sintezi kuzatilmoqda[3]. O'z navbatida, rossiyalik olim Aleksey Malashenko teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini tushuntirishda "adaptiv modernizatsiya" nazariyasini ilgari suradi. Uning fikricha, teokratik davlatlar zamonaviy talablarga moslashish jarayonida o'z an'anaviy asoslarini saqlab qolgan holda, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilmoqda[4].

Teokratiya siyosiy hokimiyatni tashkil etishning tarixan birinchi shakli hisoblanadi. Bugungi kunda konfessional stereotiplar va diniy mafkura siyosatning faol elementiga aylanmoqda, teokratik davlat muammosi esa alohida dolzarblik kasb etmoqda. Tarixiy ensiklopediyalarda teokratiya ruhoniylar qo'lida siyosiy va ma'naviy hokimiyat to'plangan davlat shakli sifatida ta'riflanadi. Siyosatshunoslik ensiklopedik lug'atida teokratiya ruhoniylar hokimiyati mavjudligi bilan tavsiflanadigan boshqaruv shakli sifatida tushuniladi. Olimlar, davlatda ruhoniylarning

---

[1] Кепель Жиль. Джихад: Экспансия и закат исламизма. – М: Ладомир, 2004. – 468. с.

[2] عباس میلانی. تجدد و تجددستیزی در ایران. اختران، دات، کتاب آمه. 1381. – 376 ص.

[3] ولی رضا نصر. دموکرات های مسلمان: تحلیل دو دهه ظهور دموکراسی اسلامی // خردنامه همشهری آبان ۱۳۸۶ شماره ۲۰.

[4] Малашенко А.В. Мусульманские страны. Религия и политика (70-80 гг.). – М.: Наука, 1991. – 183 с.

yetakchi rolini e'tiborga olgan holda, teokratik hokimiyat rahbarining o'ziga xos mavqeini teokratiyaning asosiy xususiyati deb hisoblaydilar. Demokratiya nazariyasining hukmron paradigmasiga zid bo'lgan zamonaviy hokimiyat munosabatlari konsepsiyalari va nazariyalari keng doiralarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Zamonaviy teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilishda rossiyalik olim I.V.Kudryashovaning "ko'p omilli transformatsiya" nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Bu nazariyaga ko'ra, teokratik davlatlar siyosiy tizimining o'zgarishi ichki va tashqi omillarning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuz bermoqda.

Teokratiya – kuchga asoslangan diniy hokimiyat bo'lib, uning ajralmas xususiyati sifatida diniy rahbarlar yoki nufuzli shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil yurisdiksiya huquqi namoyon bo'ladi. Teokratiya – bu diniy-siyosiy hokimiyat munosabatlari tizimidir. Teokratiyaning tashqi belgilariga yo'naltirilgan an'anaviy nuqtai nazardan, teokratik hokimiyatning diniy xarakteri uning amalga oshirilishida diniy rahbarlar ishtirok etishi bilan belgilanadi.

Yanada chuqurroq tahlil qilinganda, teokratik hokimiyatning diniy tabiati uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. U diniy legitimatsiya, ya'ni hokimiyatning ilohiy kelib chiqishi va uning vakolatlarining diniy tasdiqlanishi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, teokratik hokimiyatning diniy xarakteri uning diniy maqsadlari va vazifalarida, diniy qadriyatlar va aqidalarni amalga oshirishga yo'naltirilganligida ifodalanadi.

Teokratiyaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda, hokimiyatning bu shakli institutsional va funksional transformatsiyadan o'tayotganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda teokratik tizimlarda diniy va dunyoviy hokimiyat o'rtasidagi chegaralar tobora noaniqlashib bormoqda. Teokratik davlatlar siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyati shundaki, u an'anaviy diniy institutlar bilan zamonaviy davlat boshqaruvi tuzilmalarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Bunda eronlik tadqiqotchi Vali Nasr qayd etganidek, diniy legitimatsiya zamonaviy boshqaruv mexanizmlari bilan birgalikda amal qiladi [2] . Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining ratsionalizatsiyasi hozirda teokratik davlatlarda kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biridir. Diniy asoslangan qarorlar zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va ilmiy yondashuvlar bilan to'ldirilmoqda. Teokratik davlatlar siyosiy tizimining yana bir muhim xususiyati bu fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishidir. Teokratik davlatlarda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik institutlari faoliyati kengaymoqda, biroq bu jarayon diniy-huquqiy normalar doirasida amalga oshirilmoqda.

1979-yili islom inqilobidan so'ng Eronda davlat siyosiy tizimi "Veloyate faqih" tamoyili asosida shakllantirilgani mamlakat diniy-siyosiy tizimi transformatsiyasining o'ziga xos jihati bo'ldi. Mazkur tizim diniy va dunyoviy hokimiyat uyg'unligini ta'minlab, kuchli teokratik boshqaruvni o'rnatdi. Barcha davlat institutlari ruhoniyat nazoratiga o'tib, shariat ahkomlari to'liq joriy etildi. Eron teokratik tuzumining asosiy tayanchiga aylangan Islom inqilobi posbonlari korpusi kabi harbiy-diniy tuzilmalar shakllantirildi. Eron teokratik tizimi diniylik va dunyoviylikning sintezini namoyish etmoqda. Bunda Islom inqilobi posbonlari korpusi kabi tuzilmalar harbiy-siyosiy funksiyalar bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni ham bajarmoqda. Bu esa o'z navbatida, teokratik davlat transformatsiyasining zamonaviy bosqichi sifatida baholanishi mumkin.

---

[1] Кудряшова И. В. Фундаментализм в пространстве современного мира . – Полис. Политические исследования. 2002. № 1. ─ С. 69.

[2] ولی رضا نصر و تحلیل دو دهه ظهور دموکراسی‌اسلامی..(https://www.hamshahrionline.ir/news/37321/).

Teokratik davlat yoki qabila-urug‘ ittifoqi dunyoviy hukumat sharoitida ham bo‘lishi mumkin. Saudiya Arabistoni, Bahrayn, Qatar, O‘mon kabi teokratik davlatlar diniy rahbarlari qo‘lida oliy siyosiy rahbarlik funksiyalarining yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Hukmron e’tiqod normalarini amalda ro‘yobga chiqarish, shuningdek dinni himoya qilish va tarqatish bilan bog‘liq funksiyalarni bajarish majburiyatlari ushbu teokratik davlatlarning rahbarlariga yuklatilgan. Agar davlatda hayot faoliyatining asosiy sohalari din normalari bilan tartibga solinsa, davlat diniy-huquqiy ko‘rsatmalarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ysa va hokimiyat tuzilmalarining faoliyati unga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, bunday davlatda diniy va siyosiy hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlaridan qat’i nazar, u teokratik davlat hisoblanadi.

Teokratiyada diniy-huquqiy tartibga solishning genetik va mantiqiy ustuvorligi haqidagi tezis zamonaviy tarixiy voqealar bilan ham tasdiqlanadi. Masalan, Afg‘onistonda qurolli muxolifat teokratik davlatning musulmon ideallarini amalga oshirishga urinib, bu yo‘nalishdagi faoliyatini diniy rahbarlar va ilohiyotchilar hokimiyat tuzilmalarini shakllantirishdan emas, balki nazorat ostidagi hududlarda dunyoviy hokimiyat tomonidan ta’minlanadigan shariat qonunlarini joriy etishdan boshlagan. Shu bilan birga, teokratiya tushunchasini ochib berishda uning diniy rahbarlarning siyosiy rahbarligi kabi belgisidan voz kechmaslik kerak. Bu belgi ko‘plab teokratiyalarning tarixiy voqeligini to‘g‘ri aks ettiradi.

Diniy rahbarlar tomonidan muhim ijtimoiy-siyosiy funksiyalarning bajarilishi ularning diniy normalarni biluvchilar va talqin qiluvchilar sifatidagi mavqei bilan izohlanadi. Teokratiyada hayot faoliyatining asosiy sohalarini diniy e’tiqod belgilagani bois, uning to‘liq bilimiga ega bo‘lgan kishilarga obyektiv ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ijtimoiy munosabatlar tuzilishining o‘zgarishi doimiy normativ tartibga solishni talab etadi va bu borada diniy rahbarlarning diniy-huquqiy ko‘rsatmalarni yaratishdagi roli beqiyosdir.

Teokratik davlatlarda diniy-siyosiy munosabatlar barcha ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarni tizimli qamrab oladi. Teokratik hokimiyatning siyosiy funksiyalari din manfaatlari bilan uzviy bog‘liq. E’tiqod ijtimoiy hayotning yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilaydi, siyosiy hokimiyat esa boshqaruv institutlari yordamida ularni amalda ro‘yobga chiqaradi. Hokimiyat tuzilmalarida institutsional shakllanib, din siyosatni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Teokratiyada siyosiy funksiyalarni bajaruvchi institutlar va tashkilotlarning butun majmuasi diniy ruh bilan sug‘orilgan. Diniy mafkura boshqaruv va norasmiy shaxslararo munosabatlarning butun iyerarxiyasini qamrab olib, mavjudlikning barcha qatlamlarini to‘ldiradi. U sud, ta’lim sohalarini monopollashtiradi, ijtimoiy-siyosiy va xususiy hayotga kirib boradi. E’tiqodning ayrim postulatlari teokratiyada diniy-siyosiy munosabatlarni mustahkamlab, siyosiy tus oladi.

Teokratiyalarni turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin. O‘zining tarixiy ifoda shakllariga qarab, ular davlatga o‘tish bosqichida turgan teokratik qabila-urug‘ ittifoqlari va teokratik davlatlarga bo‘linadi. Teokratiyaning barcha nomlangan shakllarida ichki zaruriy belgi - diniy-siyosiy hokimiyat munosabatlari mavjud bo‘lsa-da, ular o‘rtasida chegara o‘tkazish imkonini beruvchi farqlar ham mavjud. Davlatga o‘tish bosqichidagi teokratik qabila-urug‘ ittifoqlarida hayot faoliyati sohalarining dunyoviy va diniy sohalarga bo‘linishi mavjud emas. Teokratik davlatlar o‘zining rivojlanish darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Zamonaviy teokratik davlatlarda ijtimoiy hayot sohalarining dunyoviy va diniy sohalarga bo‘linishi kuzatiladi, lekin diniy institutlar va normalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Hokimiyat tuzilmalari aniq iyerarxiyaga ega bo‘lib, hokimiyat subyektlari vakolatlari va majburiyatlari belgilangan.

Bir qator olimlar teokratiyalarni ularda diniy va dunyoviy jihatlarning farqiga asoslanib tasniflaydilar va “differensiatsiyalashmagan” teokratiya - oliy hokimiyat dunyoviy va muqaddas

funksiyalarni bir vaqtning o‘zida bajaruvchi tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladigan, hamda “differensiatsiyalashgan” teokratiya – oliy hokimiyat diniy va dunyoviy institutlar tomonidan amalga oshirilsa-da, ular o‘rtasida funksional farq mavjud bo‘lgan teokratiyalarni ajratib ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, xristian davlatlari ko‘rinishidagi G‘arbiy Yevropa teokratiyasi differensiatsiyalashgan, musulmon teokratiyasi esa differensiatsiyalashmagan teokratiya hisoblangan. Jumladan, Robert fon Mol teokratiyalarni tasniflashda ularda diniy va dunyoviy jihatlarning nisbati mezoniga yana bitta - teokratik hokimiyat rahbarining diniy-siyosiy maqomi mezonini qo‘shgan. Teokratik davlatlar uchun siyosiy va diniy tuzilmalarning institutsional qo‘shilishi xosdir. Teokratiyalar diniy asoslarga ko‘ra ham tasniflanishi mumkin[1].

Misrlik siyosatshunos Sulaymon at-Tamaviy fikricha, xalifalikda hokimiyat tashkil etilishi parlamentarizm tamoyillariga o‘xshash, davlat boshlig‘i va hukumat funksiyalarini amalga oshiruvchi xalifning huquqiy maqomi esa respublikadagi prezident holatiga yaqin. Davlat teokratiyasi ma’lum boshqaruv shakllaridan jiddiy farq qiladi va uning biror turi bilan aynanlashtirilishi mumkin emas. Teokratiya, kamida, monarxiya va respublika bilan bir xil darajadagi mavqeni egallashi kerak. Bu uch davlat shakli o‘rtasidagi farqlar nafaqat huquqiy, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarda ham namoyon bo‘ladi. Zamonaviy teokratik davlatlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda diniy va dunyoviy hokimiyat institutlari o‘rtasida funksional taqsimot mavjud bo‘lsa-da, diniy institutlar yetakchi mavqeni saqlab qoladi[2]. Bu esa o‘z navbatida davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga va jamiyat hayotining barcha sohalarida barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Teokratik davlatlarda siyosiy va diniy hokimiyat birlashib, hokimiyatning qonuniyligi ilohiy manbaalardan kelib chiqadi. Din qonunlari va diniy rahbarlar davlat boshqaruvida asosiy rol o‘ynaydi. Bunday tizimlarda shariat yoki boshqa diniy qonunlar davlat konstitutsiyasi darajasida qo‘llanilishi mumkin. Eronning Islom Respublikasi bu borada yorqin misol hisoblanadi. Shariat qonunlarining siyosiy tizimga ta’siri nafaqat huquqiy sohani, balki ijtimoiy hayotni ham qamrab oladi. Shariatning amalda qo‘llanilishi ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlashga qaratilgan, biroq bu holat modernizatsiya jarayonlariga qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Britaniyalik tadqiqotchi Rodjer Ouenning “global integratsiya” nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining xalqaro jihatlarini tushuntiradi[3]. Bu nazariyaga ko‘ra, globallashuv jarayonlari teokratik davlatlar siyosiy tizimining ochiqligini oshirmoqda va ularning xalqaro hamjamiyat bilan integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda. Oliver Roy teokratik boshqaruv evolyutsiyasida ichki va tashqi omillarning ta’sirini alohida qayd etadi. Uning fikricha, globalizatsiya va texnologik rivojlanish teokratik davlatlarning milliy boshqaruv tizimiga o‘zgarishlar kiritishiga turtki beradi. Teokratik davlatlarda transformatsiya jarayonlari qator omillar bilan bog‘liq. Jamiyatdagi modernizatsiya jarayonlari, ayniqsa, yosh avlodning sekulyarlashuvga moyilligi, siyosiy tizimga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, Eronda 2022-yildagi ommaviy norozilik namoyishlari siyosiy tizimda islohotlar o‘tkazish zaruratini kun tartibiga olib keldi. Teokratik davlatlarda siyosiy islohotlarning muvaffaqiyati ijtimoiy guruhlar manfaatlarini hisobga olish va ularning jarayonda faol ishtirokini ta’minlash bilan bog‘liq. Xalqaro bosim va

[1] Моль Р. Энциклопедия государственных наук / Пер. А. Попова. – СПб.; – М.: М.О. Вольф, 1868. – 591 с.

[2] Аттамави Сулейман Мохаммад. Теория злоупотреблений властью. Издание третье. Издательский дом «Арабская мысль». Книга. – Каир.1978.

[3] Owen R. State, Power and Politics in the Making of the Modern Middle East. Routledge, 2004, – 279 pp.

G‘arb davlatlarining inson huquqlari va demokratiya standartlarini ilgari surishi sharoitida teokratik davlatlarda tashqi siyosiy strategik qarorlar qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘ldi.

Teokratik davlatlar siyosiy tizimining asosiy institutlaridan biri bo‘lgan diniy institutlarning rolida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Zamonaviy teokratik davlatlarda diniy institutlar an’anaviy diniy funksiyalar bilan birga, ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni ham bajarmoqda. Bu esa o‘z navbatida diniy institutlarning modernizatsiyasini taqozo etmoqda. Teokratik davlatlar siyosiy tizimining muhim xususiyati shundaki, ular zamonaviy davlat boshqaruvi texnologiyalarini joriy etish bilan birga, an’anaviy diniy-ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolishga intilmoqda. Bu esa siyosiy tizim transformatsiyasining murakkab va ziddiyatli xarakterini belgilab beradi.

Eronlik Xamid Dabashiyning “fuqarolik transformatsiya” nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi evolyutsiyasining muhim qonuniyatlarini ochib beradi. Uning fikricha, teokratik davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi siyosiy tizimning demokratlashuviga olib kelmoqda. X.Dabashiy teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining muhim jihati sifatida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy teokratik davlatlarda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, kasaba uyushmalari kabi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati kengaymoqda [1]. Teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasiga globallashuv jarayonlari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, transmilliy aloqalarning kuchayishi teokratik davlatlar siyosiy tizimining ochiqligini oshirmoqda. Teokratik davlatlar siyosiy tizimida kuzatilayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilar ekan, ularda sekulyarizatsiya tendensiyalari kuchayib borayotganini qayd etadi. Bu esa, o‘z navbatida, diniy va dunyoviy hokimiyat o‘rtasidagi munosabatlarning qayta ko‘rib chiqilishini talab etmoqda.

Teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir jihat – bu siyosiy elitalar o‘zgarishi masalasidir. Rossiyalik olim Georgiy Mirskiyning “elitar transformatsiya” nazariyasi teokratik davlatlar siyosiy tizimi evolyutsiyasida elitalarning rolini tushuntiradi. Bu nazariya teokratik davlatlarda an’anaviy diniy elita bilan zamonaviy texokratik elita o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishini tahlil qiladi. G.Mirskiy ta’kidlaganidek, teokratik davlatlarda an’anaviy diniy elita bilan birga, zamonaviy texokratik elitaning mavqei ham kuchayib bormoqda [2]. Teokratik davlatlar siyosiy tizimi transformatsiyasining nazariy asoslarini tahlil qilishda bir qator fundamental yondashuvlarni ko‘rib chiqish lozim. Teokratik davlatlar evolyutsiyasi uch bosqichli nazariy model orqali tushuntirilishi mumkin: an’anaviy teokratiya, modernizatsiyalangan teokratiya va postmodern teokratiya. Har bir bosqich o‘ziga xos institutsional tuzilma va boshqaruv mexanizmlari bilan xarakterlanadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

Teokratik davlatlarda siyosiy tizimlarning transformatsiyasi, asosan, din va davlat aloqalari evolyutsiyasiga bog‘liq. Bu jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan uslubiy yondashuvlar, diniy qonunlarning ijtimoiy va siyosiy hayotga ta’siri, bu qonunlar zamonaviylashtirilishi yoki liberallashtirilishi, shuningdek, diniy liderlarning siyosiy vazifalardagi rolini tahlil qilishni olib borishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu o‘zgarishlar, ko‘p xolatlarda, ichki va tashqi bosimlar, bilim darajasining oshishi va globallashuv ta’siri ostida amalga oshiriladi. Teokratik

[1] Dabashi H. Theology of Discontent: The Ideological Foundation of the Islamic Revolution in Iran. NYU Press. 1992, – 706 pp.

[2] Мирский Г.И. Ислам в истории и современности // Новая и новейшая история. 2010. № 1.

tizimlarda diniy qonunlarning ijtimoiy normalar, madaniyat va xatto iqtisodiy faoliyatlarga qanday ta'sir qilishini o'rganish, ushbu qonunlarning siyosiy tizimlarga qanday o'zgarishlar kiritishi mumkinligi haqida keng ma'lumot beradi. Teokratik davlatlarda siyosiy tizimlar o'zgarishi, nogiron ichki omillardan tortib, globallashuv kabi tashqi omillargacha ko'plab ta'sirlar ostida amalga oshadi.

Teokratik davlatlarda siyosiy tizimlar o'zgarishi va demokratlashuvi jarayoni tahlili, ushbu davlatlardagi hokimiyat bo'linmasini, huquqiy davlat tamoyillarini joriy etish, shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojlanishini o'rganishni talab etadi. Ushbu transformatsiyalarning muvaffaqiyatli yaki nomuvaffaqiyatli bo'lishi, diniy qadriyatlar bilan demokratik prinsiplar orasidagi balansni topish qiyinchiligiga bog'liq. Ilmiy tadqiqotlarda, bu jarayonlarni tahlil qilishda tarix va siyosiy fanlar nazariyalaridan foydalanish lozim. Transformatsiyalar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo'lishi, diniy qadriyatlar bilan demokratik prinsiplar orasida muvozanatni ushlash bilan bog'liq. Teokratik davlatlarda diniy qonunlarning zamonaviylashtirilishi yoki liberallashtirilishi, xususan, shariat qonunlari huquqiy islohotlar bilan moslashtirilishi, demokratizatsiya jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аттамави Сулейман Мохаммад. Теория злоупотреблений властью. Изд. 3-е. – Каир: Издательский дом «Арабская мысль», 1978.
2. Кепель Жиль. Джихад: Экспансия и закат исламизма. – М.: Ладомир, 2004. – 468 с.
3. Кудряшова И. В. Фундаментализм в пространстве современного мира // Полис. Политические исследования. 2002. № 1. – С. 69.
4. Малашенко А. В. Мусульманские страны. Религия и политика (70–80 гг.). – М.: Наука, 1991. – 183 с.
5. Мирский Г. И. Ислам в истории и современности // Новая и новейшая история. 2010. № 1.
6. Моль Р. Энциклопедия государственных наук / Пер. А. Попова. – СПб.; М.: М.О. Вольф, 1868. – 591 с.
7. Якунин В. И. Государственная политика в контексте глобальных вызовов современности. – М., 624 с.; Вызовы мирового неравенства и ценностные альтернативы развития человечества // Этап: Экономическая теория, анализ, практика. № 1. – С. 7–19.
8. Dabashi H. Theology of Discontent: The Ideological Foundation of the Islamic Revolution in Iran. NYU Press, 1992. – 706 pp.
9. Owen R. State, Power and Politics in the Making of the Modern Middle East. Routledge, 2004. – 279 pp.
10. Roy Olivier. The Failure of Political Islam. Harvard University Press, 1994. – 256 pp.
11. Roy Olivier. Globalized Islam: The Search for a New Ummah. Columbia University Press, 2004. – 320 pp.; The Crisis of Culture: Identity Politics and the Empire of Norms. Oxford University Press, 2024. – 232 pp.
12. عباس میلانی .تجدد و تجددستیزی در ایران. تهران: اختران، 1381. – 376 ص.
13. ولی رضا نصر .دموکرات‌های مسلمان: تحلیل دو دهه ظهور دموکراسی اسلامی // خردنامه همشهری، آبان ۱۳۸۶، شماره ۲۰.
14. ولی رضا نصر .تحلیل دو دهه ظهور دموکراسی اسلامی. Электрон манба: https://www.hamshahrionline.ir/news/37321/

ZAMONAVIY DAVR AQSH VA XITOY MUNOSABATLARIDA TAYVAN MUAMMOSI

HABIBULLO SADIBAQOSEV
Siyosiy fanlar doktori (DSc), O'zXIA

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy davrda AQSh va Xitoy o'rtasidagi strategik raqobat kontekstida Tayvan muammosining geosiyosiy, harbiy-iqtisodiy va nazariy jihatlari tahlil qilinadi. XXI asr boshidan xalqaro tizimda kuchlar muvozanatining o'zgarishi, Xitoyning tezkor iqtisodiy va harbiy yuksalishi hamda Hind–Tinch okeani mintaqasining strategik ahamiyati oshishi fonida Tayvan masalasi global xavfsizlik arxitekturasining markaziy elementiga aylangani asoslab beriladi. Maqolada Tayvanning geografik joylashuvi, Birinchi orol zanjiridagi o'rni va Xitoyning A2/AD strategiyasi doirasidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada Tayvanning global yarimo'tkazgich ishlab chiqarishidagi ustuvor mavqei, "kremniy qalqoni" konsepsiyasi va AQShning texnologik qaramlikni kamaytirishga qaratilgan siyosati tahlil etiladi. Energetik qaramlik, ehtimoliy dengiz blokadasi va kiberxavfsizlik tahdidlari Tayvanning asosiy strukturaviy zaifliklari sifatida baholanadi. AQShning "strategik noaniqlik" siyosati, 1979-yilgi Taiwan Relations Act doirasidagi majburiyatlari hamda mintaqaviy ittifoqlarni mustahkamlash jarayoni alohida ko'rib chiqiladi. Nazariy jihatdan masala realizm, neorealizm va liberalizm yondashuvlari asosida sharhlanadi. Realizm Tayvan muammosini kuch siyosati va xavfsizlik dilemmasi doirasida izohlasa, liberalizm iqtisodiy o'zaro bog'liqlikning urush ehtimolini kamaytiruvchi omil sifatidagi rolini ta'kidlaydi. Ssenariy tahlili orqali strategik noaniqlikning davom etishi, qisman blokada, cheklangan harbiy eskalatsiya va keng ko'lamli bosqin variantlari baholanadi.*

Tayanch so'z va iboralar: *AQSh–Xitoy strategik raqobati, Tayvan muammosi, Hind–Tinch okeani mintaqasi, "strategik noaniqlik", A2/AD konsepsiyasi, Birinchi orol zanjiri, yarimo'tkazgich ta'minot zanjiri, "Kremniy qalqoni", xavfsizlik dilemmasi, geosiyosiy kuchlar muvozanati.*

Аннотация: *В данной статье анализируется тайваньский вопрос в контексте стратегического соперничества между Соединёнными Штатами и Китаем в современную эпоху, рассматриваются его геополитические, военно-экономические и теоретические аспекты. С начала XXI века изменения баланса сил в международной системе, стремительный экономический и военный подъём Китая, а также возрастание стратегического значения Индо-Тихоокеанского региона превратили тайваньскую проблему в центральный элемент глобальной архитектуры безопасности. В статье исследуются географическое положение Тайваня, его место в цепи Первых островов и значение в рамках китайской стратегии A2/AD (ограничение доступа и блокирование зоны). Также рассматривается ведущая роль Тайваня в мировом производстве полупроводников, концепция «кремниевого щита» и политика США, направленная на снижение технологической зависимости. Энергетическая зависимость, риск возможной морской блокады и киберугрозы оцениваются как ключевые структурные уязвимости Тайваня. Анализируются политика США «стратегической неопределённости», обязательства в рамках Закона об отношениях с Тайванем 1979 года, а также процесс укрепления региональных союзов. С теоретической точки зрения проблема интерпретируется через призму реализма, неореализма и либерализма. Реализм объясняет тайваньский вопрос в рамках политики силы и дилеммы безопасности, тогда как либерализм подчёркивает роль экономической взаимозависимости в снижении вероятности войны. На основе сценарного анализа оцениваются возможные траектории развития, включая сохранение стратегической неопределённости, частичную блокаду, ограниченную военную эскалацию и широкомасштабное вторжение.*

Ключевые слова: *стратегическое соперничество США и Китая, тайваньский вопрос, Индо-Тихоокеанский регион, стратегическая неопределённость, концепция A2/AD, цепь Первых островов,*

цепочка поставок полупроводников, «кремниевый щит», дилемма безопасности, геополитический баланс сил.

Abstract: *This article analyzes the Taiwan issue within the context of strategic competition between the United States and China in the contemporary era, examining its geopolitical, military-economic, and theoretical dimensions. Since the beginning of the 21st century, shifts in the balance of power in the international system, China's rapid economic and military rise, and the growing strategic significance of the Indo-Pacific region have transformed the Taiwan issue into a central element of the global security architecture. The article explores Taiwan's geographic location, its position within the First Island Chain, and its importance within China's A2/AD (anti-access/area denial) strategy. The article further examines Taiwan's leading role in global semiconductor production, the concept of the "silicon shield," and U.S. policies aimed at reducing technological dependence. Energy dependence, the risk of a potential maritime blockade, and cybersecurity threats are assessed as Taiwan's key structural vulnerabilities. The U.S. policy of "strategic ambiguity," its commitments under the 1979 Taiwan Relations Act, and the strengthening of regional alliances are also analyzed. From a theoretical perspective, the issue is interpreted through the lenses of realism, neorealism, and liberalism. Realism explains the Taiwan question within the framework of power politics and the security dilemma, while liberalism emphasizes the role of economic interdependence in reducing the likelihood of war. Through scenario analysis, possible trajectories are evaluated, including the continuation of strategic ambiguity, partial blockade, limited military escalation, and large-scale invasion.*

Keywords: *U.S.–China strategic competition, Taiwan issue, Indo-Pacific region, strategic ambiguity, A2/AD concept, First Island Chain, semiconductor supply chain, silicon shield, security dilemma, geopolitical balance of power.*

Kirish: XXI asr boshidan boshlab xalqaro tizim yirik transformatsiya bosqichiga kirdi. Bir qutbli tartibning nisbiy zaiflashuvi va yangi kuch markazlarining shakllanishi global siyosatda strategik raqobatni kuchaytirdi. AQSh va Xitoy o‘rtasidagi tizimli qarama-qarshilik zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy determinanti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur raqobatning markazida esa Tayvan muammosi turibdi. Tayvan masalasi oddiy hududiy nizo emas, balki mintaqaviy xavfsizlik, global iqtisodiyot, texnologik ustunlik va normativ tartib bilan bog‘liq murakkab geosiyosiy masala. Bugungi sharoitda Tayvan Hind–Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini belgilovchi strategik nuqtasiga aylangan. Uning Birinchi orol zanjiridagi joylashuvi Xitoyning Tinch okeaniga to‘liq chiqish imkoniyatini cheklaydi, AQSh va uning ittifoqchilari uchun esa mintaqaviy tiyib turish (deterrence) siyosatining tayanch elementi hisoblanadi. Tayvan global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining markazlaridan biri bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot (sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, mudofaa sanoati va avtomobilsozlik) aynan shu ta’minot zanjirlariga tayanadi. Tayvandagi har qanday beqarorlik global iqtisodiy inqiroz xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Tayvan masalasi endilikda faqat Xitoy–Tayvan munosabatlari doirasida emas, balki AQSh–Xitoy strategik raqobatining markaziy elementi sifatida qaralmoqda. Harbiy modernizatsiya, A2/AD strategiyasi, “strategik noaniqlik” siyosati va iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik kabi omillar ushbu muammoni ko‘p qatlamli va murakkab jarayonga aylantirmoqda. Shu bois maqolada Tayvan muammosining geosiyosiy, harbiy-iqtisodiy va nazariy asoslari kompleks tahlil qilinadi.

Usullar: Ushbu maqolada kompleks va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Avvalo strukturaviy-tahliliy usul asosida AQSh–Xitoy strategik raqobatining xalqaro tizimdagi o‘rni va Tayvan muammosining geosiyosiy determinantlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida Xitoyning A2/AD strategiyasi va AQShning “strategik noaniqlik” siyosati o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, siyosiy realizm, neorealizm va liberalizm nazariyalariga tayangan holda konseptual-tahliliy metod

qo‘llanildi, bu esa muammoni turli nazariy prizmalarda sharhlash imkonini berdi. Statistik va faktologik ma’lumotlar asosida Tayvanning yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishidagi ulushi, energetik qaramligi va harbiy salohiyati baholandi. Ssenariy tahlili (scenario analysis) usuli orqali ehtimoliy rivojlanish variantlari prognoz qilindi. Mazkur metodlar tadqiqotning obyektivligi va tizimliligini ta’minlashga xizmat qildi.

Natijalar va mulohaza: XXI asr boshidan boshlab xalqaro tizim tub o‘zgarishlar bosqichiga kirdi. Ko‘p qutbli dunyo modelining asta-sekin yemirilishi va yangi kuch markazlarining shakllanishi fonida AQSh–Xitoy strategik raqobati global tartibning asosiy determinantiga aylandi. Ushbu tizimli qarama-qarshilikning markazida Tayvan turibdi. Tayvan masalasi nafaqat hududiy suverenitet nizosi, balki xalqaro normalar, savdo arxitekturasi, ta’minot zanjirlari xavfsizligi va demokratik institutlarning barqarorligi bilan bog‘liq kompleks muammo hisoblanadi[1]. Bugungi sharoitda Tayvan Hind-Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini belgilovchi geosiyosiy markazga aylangan.

Xitoyning Jahon savdo tizimiga integratsiyalashuvi global iqtisodiy muvozanatni tubdan o‘zgartirdi. Xitoy qisqa muddatda dunyoning ishlab chiqarish markaziga aylandi, texnologik sohada yuqori o‘sish sur’atlariga erishdi, harbiy-dengiz kuchlarini keskin kengaytirdi. Bugungi kunda Xitoy dunyodagi eng yirik flotlardan biriga ega bo‘lib, uzoq masofali raketa tizimlari, kiberurush salohiyati va uchuvchisiz platformalar bo‘yicha sezilarli ustunlikka erishmoqda. Bu jarayon AQSh uchun strategik chaqiriq yuzaga keltirdi. AQSh uzoq vaqt davomida dengiz ustunligi va yuqori aniqlikdagi zarba berish qobiliyatiga tayangan bo‘lsa, Xitoyning A2/AD (anti-access/area denial) konsepsiyasi ushbu ustunlikni cheklashga qaratilgan[2]. Center for Strategic and International Studies (CSIS) tomonidan o‘tkazilgan harbiy simulyatsiyalar Tayvan bo‘g‘ozidagi ehtimoliy mojaro sharoitida AQShning uzoq masofali aniqlikdagi o‘q-dorilari qisqa muddatda tugashi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu esa sanoat bazasini modernizatsiya qilish va mudofaa ishlab chiqarishini kengaytirish zarurligini anglatadi.

Tayvan orollar zanjirining markazida joylashgan bo‘lib, u Xitoyning Tinch okeaniga to‘liq chiqish imkoniyatini cheklaydi. Agar Tayvan ustidan nazorat Pekinga o‘tsa, Xitoyning dengiz kommunikatsiyalari kengayadi va Yaponiya hamda Filippin yo‘nalishidagi bosim kuchayadi[3]. Tayvanning ahamiyati uch asosiy omilda namoyon bo‘ladi:

1. Tayvan geografik joylashuvi sababli AQSh va ittifoqchilari uchun mintaqaviy barqarorlikning tayanch nuqtasidir. U Xitoyning dengizdagi harakat erkinligini nazorat qiluvchi “tabiiy platforma” hisoblanadi.

2. Global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining katta qismi Tayvan hissaga to‘g‘ri keladi. Smartfon, sun’iy intellekt tizimlari, avtomobil sanoati va mudofaa texnologiyalari Tayvan chiplariga bog‘liq. Tayvanning destabilizatsiyasi global iqtisodiyotda zanjirli inqirozni keltirib chiqarishi mumkin.

[1] Быков Н.Р. (2024). Геополитический статус Тайваня: анализ ключевых характеристик и исторического контекста. Этносоциум и межнациональная культура, 6 (192), 57-69.

[2] Чжан Цзинюнь (2025). Китай и США: стратегии взаимодействия в международных отношениях. Общество: политика, экономика, право, (7), 102-106. Doi: 10.24158/pep.2025.7.13

[3] Why Taiwan Is So Important for China — and Equally Crucial for the United States.Strategic Position, Technology and Sea Control https://www.geopolitika.it/en/why-taiwan-is-so-important-for-china-and-equally-crucial-for-the-united-states-strategic-position-technology-and-sea-control/

3. Tayvan Sharqiy Osiyoda demokratik boshqaruv modeli sifatida avtoritar boshqaruvga alternativ tizimni namoyish etadi. Shu bois Tayvan masalasi xalqaro siyosatda normativ qarama-qarshilik elementiga ham ega.

So‘nggi yillarda Tayvan o‘z mudofaa siyosatini qayta ko‘rib chiqdi: majburiy harbiy xizmat muddati uzaytirildi, dron va raketa tizimlari kengaytirildi, assimetrik mudofaa konsepsiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilindi. Assimetrik strategiya Xitoyning miqdoriy ustunligini texnologik moslashuvchanlik orqali muvozanatlashtirishga qaratilgan[1]. Biroq Xitoyning kiber salohiyati va blokada strategiyasi Tayvanning harbiy bo‘lmagan zaifliklarini kuchaytiradi.

Tayvanning asosiy strukturaviy zaifligi bu energetik qaramlik. Tabiiy gaz zaxiralari taxminan 8 kun, ko‘mir 42 kun, energiya o‘zini o‘zi ta’minlash darajasi esa atigi 2 foiz atrofida. Dengiz blokadasi savdo yo‘llarini uzishi, energiya importini to‘xtatishi, iqtisodiy tizimni falaj holatga keltirishi mumkin[2]. Bu holatda Xitoy minimal harbiy aralashuv bilan maksimal strategik natijaga erishishi mumkin. Shuning uchun Tayvan uchun energetik diversifikatsiya, LNG terminallarini kengaytirish va zaxira infratuzilmasini mustahkamlash strategik ustuvor vazifa hisoblanadi.

So‘nggi davrda AQSh–Tayvan aloqalari mazmun jihatidan mustahkamlanmoqda. Prezident Donald Trampning Xitoy Raisi Si Szinpin bilan 2025-yil oktabr oyida o‘tkazgan uchrashuvida Tayvan masalasi kun tartibiga kiritilmagan. Bu esa Vashington Tayvan bo‘yicha yon berishga tayyor degan taxminlarni inkor etdi. Shundan so‘ng AQSh va Tayvan o‘rtasida savdo kelishuvi imzolandi, unga ko‘ra AQSh Tayvanga nisbatan boj stavkalarini pasaytirdi. O‘z navbatida, Tayvan texnologik kompaniyalari AQShda kamida 250 milliard dollarlik investitsiya kiritishni rejalashtirdi. Dunyodagi yetakchi yarimo‘tkazgich ishlab chiqaruvchi kompaniya TSMC AQShdagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishini e’lon qildi. Tayvan AQSh boshchiligidagi “Pax Silica” tashabbusiga qo‘shildi, bu esa sun’iy intellekt davri uchun ishonchli ta’minot zanjirlarini shakllantirishga qaratilgan. Mudofaa sohasida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi: 11,5 milliard dollarlik qurol-yarog‘ paketi e’lon qilindi va yangi bitimlar ehtimoli saqlanib qolmoqda[3].

Ilgari AQSh jamoatchiligi ongida Tayvan “kichik, ammo qat’iyatli demokratiya” sifatida tasvirlangan. Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishidan so‘ng Tayvan demokratiya va hududiy yaxlitlik tamoyillarini himoya qilish kontekstida talqin qilindi. Biroq hozirgi bosqichda “kremniy qalqoni” (silicon shield) haqidagi yondashuv o‘zgarib bormoqda. Ilgari Tayvanning global yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishdagi monopoliyaga yaqin mavqei uni himoya qiluvchi omil sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, endilikda aynan shu omil AQSh uchun strategik qaramlik va zaiflik sifatida talqin qilinmoqda.

AQShning 2025-yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasida Tayvanning geografik va iqtisodiy ahamiyati qayd etilgan bo‘lsa-da, iqtisodiy siyosat doiralarida Tayvanga qaramlikni tezda kamaytirish g‘oyasi ilgari surilmoqda. Ayrim rasmiylar 2028–2029-yillarga borib Tayvan yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishining 40 foizini AQShga ko‘chirish mumkinligini ta’kidlamoqda. Tayvan tomoni esa buni real emas, deya baholamoqda[4]. Bunday yondashuv Tayvanni AQSh strategik balansidagi “majburiyat” sifatida ko‘rishga olib kelmoqda. Bu esa Pekinning “muqarrarlik narrativi”ga mos tushadi. Xitoy rasmiylari Tayvan bilan “birlashuv” tarixiy zarurat ekanini ta’kidlab, AQShni aralashmaslikka undaydi.

[1] Губин Андрей Владимирович (2016). Тайваньский кризис – новая надежда. Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право, 9 (4 (48)), 108-128.
[2] Yen, A. (2025, January 19). Taiwan at the crossroads of the US-China rivalry. Ketagalan Media.
[3] Ryan Hass. (2026, February 18). America’s narrative on Taiwan needs an update. Brookings Institution.
[4] Ryan Hass. (2026, February 18). America’s narrative on Taiwan needs an update. Brookings Institution.

AQSh–Xitoy o‘rtasida Tayvan sababli urush muqarrar emas. Xitoy harbiy salohiyatini sezilarli oshirgan bo‘lsa-da, amfibiya desanti orqali tog‘li va zich aholi yashaydigan orolni egallash Ikkinchi jahon urushidagi Normandiya operatsiyasiga teng darajadagi murakkab operatsiya bo‘ladi. Tayvan assimetrik mudofaa imkoniyatlarini kengaytirmoqda: dronlar, mobil raketa tizimlari, dengiz minalari, havo mudofaasi vositalari va boshqa texnologiyalarni rivojlantirmoqda. AQSh esa Yaponiya, Janubiy Koreya, Avstraliya va Filippin bilan birgalikda Birinchi orol zanjiri bo‘ylab harbiy tayyorgarlikni kuchaytirmoqda. Sanksiyalar tahdidi Pekinni yetarlicha qo‘rqitmayotgan bo‘lishi mumkin, biroq harbiy tayyorgarlik va ishonchli tiyib turish strategiyasi real ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhimi Pekin hali ham harbiy ssenariy xavfini ehtiyotkorlik bilan baholamoqda.

AQShning iqtisodiy kelajagi sun’iy intellekt rivojiga bog‘liq. Bu jarayonning apparat asosi aynan Tayvanda ishlab chiqariladigan ilg‘or chiplar hisoblanadi. AQSh innovatsiyalarni ishlab chiqishda yetakchi bo‘lsa-da, ishlab chiqarish infratuzilmasi Tayvanga tayanadi. TSMC va boshqa tayvanlik kompaniyalar AQShda investitsiyalarni oshirayotgan bo‘lsa-da, ilmiy-tadqiqot va eng ilg‘or ishlab chiqarish quvvatlari asosan Tayvanning o‘zida qolmoqda. Yaqin o‘n yillikda AQShning Tayvanga texnologik qaramligi saqlanib qoladi, deyish mumkin.

2026-yil boshida Xitoy Raisi Si Szinpin o‘zining Yangi yil murojaatida “milliy qayta birlashuv” jarayonini “zamonaviy davrning to‘xtatib bo‘lmas tarixiy tendensiyasi” sifatida baholadi. Uning ta’kidlashicha, materik Xitoy va Tayvan o‘rtasidagi “qon-qarindoshlik rishtalari” ushbu jarayonning asosini tashkil etadi[1]. Si Szinpin nutqi Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasining Tayvan atrofida o‘tkazgan keng ko‘lamli harbiy mashg‘ulotlari ortidan yangradi. “Justice Mission 2025” kod nomi ostida tashkil etilgan ushbu mashqlar ikki kun davom etib, orolni qamal qilish ssenariysini simulyatsiya qildi hamda jonli o‘q otish amaliyotlarini o‘z ichiga oldi. Rasmiy Pekin bu harakatlarni “separatistik kuchlar” va “tashqi aralashuv”ga qarshi qat’iy ogohlantirish sifatida talqin qildi. Mazkur mashg‘ulotlar geografik qamrovi jihatidan Tayvan atrofida o‘tkazilgan eng yirik harbiy mashqlar sifatida qayd etildi. Harbiy faollik AQSh tomonidan Tayvanga qiymati 11,1 milliard dollarlik eng yirik qurol-yarog‘ paketi tasdiqlanganidan so‘ng amalga oshirildi. Bu esa Tayvan masalasining nafaqat Xitoy–Tayvan o‘qi, balki AQSh–Xitoy geosiyosiy raqobati doirasida ham keskinlashayotganini ko‘rsatadi.

Pekin Tayvanni o‘z hududining ajralmas qismi deb hisoblaydi va zarurat tug‘ilganda kuch ishlatish ehtimolini istisno qilmaydi. Bunga javoban Tayvan rahbariyati orolning amalda mustaqil siyosiy tuzilma ekanini ta’kidlaydi. Tayvan prezidenti Uilyam Lai Ching-te Yangi yil murojaatida mamlakat “yanada xavfsiz va barqaror” bo‘lishi zarurligini qayd etdi. Uning bayonotiga ko‘ra, Xitoyning kengayib borayotgan strategik ambitsiyalari sharoitida Tayvan jamiyati o‘zini himoya qilishga tayyor ekanini namoyon etishi lozim. Lai o‘z nutqida milliy suverenitetni qat’iy himoya qilish, mudofaa salohiyatini mustahkamlash, butun jamiyat darajasida barqarorlik va qarshilik mexanizmlarini shakllantirish ustuvor vazifa ekanini ta’kidladi[2]. Bu yondashuv Tayvan hukumatining “status-kvo”ni saqlash va bir vaqtning o‘zida mudofaa imkoniyatlarini kuchaytirish strategiyasiga mos keladi.

Hozirgi kunda Tayvan o‘z prezidenti, armiyasi, pasporti va valyutasiga ega bo‘lsa-da, rasmiy ravishda atigi 11 davlat hamda Muqaddas Taxt (Vatikan) tomonidan tan olingan. Xitoy esa boshqa

[1] China’s Xi says ‘reunification’ with Taiwan ‘unstoppable’ | Xi Jinping News | Al Jazeera https://www.aljazeera.com/news/2026/1/1/chinas-xi-says-reunification-with-taiwan-unstoppable

[2] President Lai delivers 2026 New Year’s Address https://english.president.gov.tw/News/7067

davlatlardan Pekin bilan diplomatik aloqalarni saqlash uchun Tayvanni rasman tan olmaslikni talab qiladi. AQSh Tayvanni rasmiy ravishda mustaqil davlat sifatida tan olmasa-da, 1979-yildagi "Taiwan Relations Act" doirasida orolning o'zini himoya qilish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash majburiyatini olgan. Vashington Tayvanning asosiy qurol-yarog' yetkazib beruvchisi hisoblanadi. Biroq mazkur qonun AQShni ehtimoliy Xitoy blokadasi yoki bosqini sharoitida bevosita harbiy aralashuvga majbur etmaydi. Bu holat "strategik noaniqlik" siyosati sifatida talqin qilinadi.

Realizm nuqtai nazaridan Tayvan muammosi klassik kuch siyosati (power politics) namunasidir. Neorealistik yondashuvga ko'ra, xalqaro tizim anarxik bo'lib, davlatlar o'z xavfsizligini ta'minlash uchun nisbiy kuchni maksimal darajada oshirishga intiladi. Xitoy uchun Tayvan ustidan nazorat o'rnatish mintaqaviy gegemoniyaga erishish va Birinchi orol zanjiri cheklovlarini bartaraf etish imkonini beradi. Bu esa uning dengiz kommunikatsiyalari va strategik imkoniyatlarini kengaytiradi. AQSh Tayvanni Hind–Tinch okeani mintaqasida kuchlar muvozanatini saqlovchi tayanch nuqta sifatida ko'radi. Shu bois xavfsizlik dilemmasi yuzaga keladi: Xitoyning harbiy modernizatsiyasi AQShni harbiy ittifoqlarni mustahkamlashga undaydi, bu esa Pekin tomonidan tahdid sifatida talqin qilinadi. Offensive realizm (J. Mearsheimer konsepsiyasi) Xitoyning "milliy qayta birlashuv" narrativini strategik ekspansiya sifatida talqin qiladi. Kuchlar o'zgarishi nazariyasiga ko'ra, ko'tarilayotgan davlat mavjud status-kvoni qayta ko'rib chiqishga intiladi. Bu kontekstda Si Szinpin tomonidan ilgari surilayotgan tarixiy birlik g'oyasi faqat ideologik emas, balki geostrategik maqsadga xizmat qiladi. Liberalizm Tayvan masalasini iqtisodiy o'zaro bog'liqlik prizmasida ko'radi. Global yarimo'tkazgich ta'minot zanjirlari, savdo hajmi va investitsiya oqimlari harbiy eskalatsiya narxini keskin oshiradi. TSMC ishlab chiqaradigan ilg'or chiplar AQSh va global iqtisodiyot uchun ulkan ahamiyatga ega. Liberal nazariyaga ko'ra, yuqori iqtisodiy integratsiya urush ehtimolini kamaytiradi, chunki to'qnashuv barcha tomonlar uchun katta iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi.

Tayvan atrofidagi strategik vaziyatni baholashda ssenariy tahlili kerak, chunki u ehtimoliy rivojlanish yo'nalishlarini tizimli ravishda ko'rib chiqish va har bir ssenariyning siyosiy, harbiy hamda iqtisodiy oqibatlarini prognoz qilish imkonini beradi. Eng ehtimoliy ssenariy sifatida strategik noaniqlik (strategic ambiguity) siyosatining davom etishini ko'rish mumkin. AQSh Tayvanni rasmiy tan olmasdan mudofaa salohiyatini qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Xitoy esa harbiy bosim, mashg'ulotlar va diplomatik izolyatsiya orqali psixologik va siyosiy ta'sirni kuchaytiradi, biroq to'liq harbiy harakatdan tiyiladi. Bu modelda keskinlik yuqori darajada saqlanadi, lekin ochiq urush yuz bermaydi. Mazkur ssenariy iqtisodiy o'zaro bog'liqlik va global bozorlar barqarorligi tufayli qisqa muddatda eng maqbul variant hisoblanadi. Ikkinchi ssenariyda Pekin to'liq bosqin o'rniga bosqichma-bosqich iqtisodiy va harbiy bo'lmagan bosim strategiyasini qo'llaydi. Dengiz va havo hududida qisman blokada, kiberhujumlar, logistika uzilishlari va savdo yo'llarining cheklanishi orqali Tayvanning iqtisodiy tizimi zaiflashtiriladi. Bu holatda rasmiy urush e'lon qilinmaydi, ammo energetik va savdo qaramligi sababli orol iqtisodiy zaiflikka duch kelishi mumkin. Bunday yondashuv Pekin uchun nisbatan past riskli va xalqaro hamjamiyat reaksiyasini minimal darajada saqlovchi strategiya bo'lishi mumkin. Uchinchi ssenariyda qisqa muddatli va hududiy jihatdan cheklangan harbiy eskalatsiya yuzaga keladi. Masalan, kichik orollar ustidan nazorat uchun to'qnashuv yoki raketa zarbalari orqali siyosiy signal yuborish. Bu variantda AQSh bevosita aralashish yoki aralashmaslik masalasida murakkab tanlovga duch keladi. Cheklangan harbiy to'qnashuv tezkor diplomatik vositachilik orqali to'xtatilishi mumkin, biroq xatolik (miscalculation) xavfi yuqori bo'ladi. Eng xavfli ssenariy bu amfibiya desanti va keng ko'lamli harbiy operatsiya. Bunday operatsiya logistika, dengiz ustunligi va havo nazorati talab

qiladi hamda regional ittifoqchilarni jalb etish ehtimolini oshiradi. Bu global iqtisodiy inqiroz, yarimo‘tkazgich ta’minot zanjiri uzilishi va mintaqaviy xavfsizlik tizimining transformatsiyasiga olib keladi. Biroq bunday operatsiya katta yo‘qotishlar va noaniqliklar sababli eng kam ehtimolli variant sifatida baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasida siyosatshunos olim Sh. Sharipov “O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyati huquqiy asoslarining shakllantirilishi” nomli maqolasida O‘zbekistonda mavjud milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritishi, tashkil etilishi borasida barcha huquqiy normativ asoslarni tahlil qilib, bir qator qonun loyihalari va tashabbuslarni ilgari surgan. Tadqiqotchi E. Abdullayeva o‘zining “O‘zbekistondagi milliy madaniy markazlarning ahamiyati” maqolasi xalqlarning milliy madaniy yodgorliklari aslab-avaylash, milliy qadriyatlarni saqlab qolish kabi masalalarda ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqqan. Taniqli olim V. G. Iofening “Mustaqil O‘zbekistonda turkiy xalqlarning milliy-madaniy markazlari va ularning O‘zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotidagi o‘rni” maqolasida turkiy xalqlarga tegishli milliy-madaniy markazlar faoliyatini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishni, zamonaviy texnologik imkoniyatlardan ushbu tashkilotlar faoliyatida qo‘llash kabi masalalarni alohida tahlil qilgan. Olima Nigora Ochilovaning “O‘zbekiston milliy-madaniy markazlarining jamiyat hayotida tutgan o‘rni” nomli tadqiqotida O‘zbekistonda mavjud millat va elatlar o‘rtasidagi munosabatlarni bir muvozanatda ushlab turish uchun milliy-madaniy markazlar faoliyatini yaxshilash kerakligi alohida ta'kidlanadi.

Tojikistonda “Tojikiston davlat qurilishi jarayonida milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi” nomli tadqiqot ishida tojik xalqining milliy urf-odatlari, mentalitetini saqlab qolishda milliy madaniy markazlar faoliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Olim M. Babajanovaning “Tojikistonning madaniy merosi va fuqarolik o‘zligining shakllanishi” maqolasida mustaqillik

yillarida Tojikistonda milliy identetlik masalasi eng kam tadqiq etilgan soha ekanligi ta'kidlab, milliy markazlar faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish kerakligi bayon qiladi.

Turkmanistonda Nargiza M.Seytimbetova "Qoraqalpog'iston Respublikasi turkman milliy madaniy markazlari" mavzusidagi maqolasida turkman milliy-madaniy markazining O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyati, turkman xalqi milliy urf-odatlarini mustahkamlashga intilishi kabilarga alohida to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga, Turkman madaniyat siyosatiga doir davlat strategiyasida turkman milliy-madaniy markazlarini integratsiyalashtirish va optimallashtirish vazifasi ustuvor o'ringa qo'yilgan. Ushbu maqola Markaziy Osiyoda mavjud milliy madaniy markazlar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, mintaqaviy integratsiya yo'lida birgalikda hamkorlik qilishi, va ularni takomillashtirish borasida samarador mexanizmlar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada muallif turli tadqiqot usullaridan foydalangan holda Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilgan. Xususan, Markaziy Osiyoda milliy madaniy markazlarning qaror topishi, huquqiy asoslari, rivojlanishi va institutsionallashuvini o'rganishda tarixiy metod, tarixiy institutsionalizm, kontent-tahlil va event tahlil kabi tahliliy yondashuvlardan foydalanilgan. Shuningdek, muallif Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlar faoliyatini tahlil qilishda qiyosiy-siyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Markaziy Osiyo davlatlarida milliy-madaniy markazlarning paydo bo'lishi sovet davrining so'nggi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda sotsialistik g'oyalar doirasida etnik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlashga e'tibor kuchaygan edi. Bunday markazlar asosan 1990-yillarning boshida, Sovet Ittifoqi parchalanishi natijasida turli etnik guruhlar orasida madaniy o'zligini namoyon etish ehtiyoji kuchaygan paytda tashkil etildi[1]. Ular turli jamoalarning tillari, urf-odatlari va san'atini qo'llab-quvvatlash, madaniy merosni saqlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun faoliyat yuritdi. Bu markazlarning tashkil etilishi siyosatdagi muhim o'zgarish hisoblanadi. Natijada, milliy-madaniy markazlar turli etnik guruhlar o'rtasida muloqot va o'zaro tushunishni rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Ular nafaqat madaniy markaz sifatida, balki qo'shma tadbirlar va faoliyatlar orqali munosabatlarni mustahkamlashning muhim vositasi sifatida ham xizmat qildi.

Milliy-madaniy markazlar o'zining institutsional shakllangan, tizimli va ko'p qirrali faoliyati orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarida istiqomat qiluvchi turli millat va elatlarning madaniy o'ziga xosligini saqlash, rivojlantirish va avloddan avlodga yetkazishda fuqarolik jamiyatining muhim institutlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu markazlar milliy madaniyat, ma'naviy meros, til, urf-odat va an'analarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash orqali etnik guruhlarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish va madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi[2].

Shuningdek, milliy-madaniy markazlar ixtiyoriylik, shaffoflik va inklyuzivlik tamoyillari asosida faoliyat yuritib, ko'p millatli jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida ish olib bormoqda. Natijada ushbu institutlar Markaziy Osiyo mamlakatlarida barqarorlikni

[1] N. Nurullayeva. The role of national-cultural centers in strengthening interethnic relations in Uzbekistan. Journal of Social sciences and Humanities. Volume 3, Issue 4, 2025. –P.52.

[2] M. Turayeva. Tolerance on the example of national and cultural centers in Uzbekistan. International journal of History and Political sciences. Volume 2, issue 6. 2022. –P.7.

ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy muvozanatni saqlash va umumiy fuqarolik o‘zligini shakllantirish jarayonida muhim rol o‘ynashini amalda isbotlamoqda.

O‘zbekiston. Markaziy Osiyo davlatlarida milliy madaniy markazlarga yaratib berilgan imkoniyatlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatning barcha millat va elatlarning teng huquqliligini ta’minlashga bo‘lgan sadoqatini tasdiqlaydi. Shuningdek, “Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Milliy-madaniy markazlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorlar to‘plami respublika hududida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatiga yo‘l qo‘yish, ularga teng institutsional imkoniyatlar yaratib berish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakatda millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p millatli jamiyat modelini shakllantirish, etnik guruhlarning madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qonuniy fuqarolik institutlari sifatida milliy-madaniy markazlarni rivojlantirishni belgilab kelmoqda.

UNDP statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 130 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ular orqali 130 dan ortiq millat va elat vakillarining tili, madaniyati, urf-odat va an’analari saqlanib, rivojlantirilmoqda[1]. Ushbu markazlar davlat ro‘yxatidan o‘tgan nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida ta’lim, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, xalq diplomatiyasi va yoshlar bilan ishlash sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lib, o‘z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar. Xususan, milliy tillarda gazeta va jurnallar chop etilishi, radio va teleko‘rsatuvlar tayyorlanishi, umumxalq va madaniyat bayramlarining o‘tkazilishi bu muassasalarning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda.

Qozog‘iston. Qozog‘iston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘zini ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli davlat sifatida rivojlantirishni strategik ustuvor yo‘nalish qilib belgiladi. Mamlakatda milliy-madaniy markazlar faoliyatiga ruxsat berish, ularning huquqiy maqomi va teng institutsional imkoniyatlarini ta’minlash millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu institutlar etnoslarning tili, madaniyati, tarixiy xotirasi va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan qonuniy fuqarolik jamiyati tashkilotlari sifatida shakllanib bo‘ldi.

Hozirgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda Qozog‘istonda 800 dan ortiq etnomadaniy birlashma va milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda[2]. Ular mamlakatda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning manfaatlarini ifoda etadi. Ushbu markazlar ta’lim, madaniyat, san’at, ommaviy axborot vositalari, yoshlar siyosati va xalq diplomatiyasi sohalarida faoliyat olib borib, jamiyatning ajralmas boyligi sifatida etnik xilma-xillikni mustahkamlashga hissa qo‘shmoqda. Xususan, milliy tillarda faoliyat ko‘rsatayotgan yakshanba maktablari, folklor jamoalari, madaniy festival va bayramlar, shuningdek, etnik media loyihalari ushbu muassasalarning amaliy samaradorligini namoyon etmoqda[3].

[1] UNDP. (2020). Human Development Report: Uzbekistan – Social Cohesion and Ethnic Diversity. New York. –P.23.

[2] The Assembly of People of Kazakhstan. // Electron resource: https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-berlin/press/article/details/12279

[3] T. Alexandrov. Ethno-cultural associations in Kazakhstan: The Soviet footprint and resources for civil society. Cambridge Journal of Eurasian studies. 2018. –P. 55.

Qozog‘istonda milliy-madaniy markazlar faoliyati alohida institutsional mexanizm - Qozog‘iston xalqlari assambleyasi orqali muvofiqlashtirilib kelinmoqda. 1995-yilda tashkil etilgan ushbu tuzilma milliy-madaniy markazlarni yagona platformada birlashtirdi va davlat hamda etnik jamoalar o‘rtasidagi muloqotning barqaror forumini yaratdi. Assambleya nafaqat maslahat organi, balki millatlararo siyosatni amalga oshirishda me’yoriy, tashkiliy va g‘oyaviy vazifalarni bajaruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritadi[1]. Uning parlamentdagi kvota asosidagi vakilligi milliy-madaniy markazlarning siyosiy jarayonlardagi institutsional ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlarning huquqiy asoslari Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda “Millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi” keltirilgan va mustahkamlangan.

Qirg‘iziston. Qirg‘iz Respublikasi tarixan ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli jamiyat sifatida rivojlanib kelgan bo‘lib, mustaqillikdan keyingi davrda millatlararo totuvlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda milliy-madaniy markazlarning tashkil etilishi, ularning huquqiy maqomining belgilanishi va teng institutsional imkoniyatlarning yaratilishi millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish uchun muhim mexanizm bo‘ldi[2]. Ushbu institutlar mamlakatda istiqomat qiluvchi etnik guruhlarning madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan birga fuqarolik birligini mustahkamlashga qaratilgan.

Hozirgi rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Qirg‘izistonda 80 dan ortiq millat va elat vakillarining tili, madaniyati va an’analarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 30 dan ortiq milliy-madaniy markaz va etnik birlashma faoliyat yuritmoqda[3]. Ushbu markazlar asosan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ta’lim, madaniyat, folklor, ommaviy tadbirlar, yoshlar bilan ishlash va jamoatchilik bilan muloqot sohalarida faoliyat olib boradi. Milliy tillarda yakshanba maktablarining tashkil etilishi, madaniy bayramlar va an’anaviy tantanalarning o‘tkazilishi, shuningdek, etnik jamoalarning madaniy merosini targ‘ib qiluvchi tadbirlarning uyushtirilishi ushbu muassasalarning amaliy samaradorligini ko‘rsatmoqda.

Qirg‘izistonda milliy-madaniy markazlar faoliyatini davlat muvofiqlashtiradi, bu jarayonda Qirg‘iziston xalqlari assambleyasi muhim rol o‘ynaydi[4]. Ushbu institut milliy-madaniy markazlar va etnik jamoalarni yagona muloqot maydonida birlashtiradi hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasida vositachi vazifasini bajaradi. Assambleya doirasida millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni asrash va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish maqsadida turli dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Qirg‘iziston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Millatlararo munosabatlar va etnik siyosat konsepsiya”si millatlararo munosabatlar va milliy madaniy markazlar faoliyatini qomumiy himoya qiladi.

Tojikiston. Tojikiston Respublikasi tarixan ko‘p millatli jamiyat sifatida shakllangan. Hozirgi rasmiy va xalqaro hisobotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Tojikistonda o‘nlab milliy-madaniy markazlar va etnik jamoalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tashkilotlar mamlakatda istiqomat

[1] A.Z. Zhumanova, T.K. Sakabai, Zh.A. Karsybaeva. The main activities of the national cultural centers of the Central Kazakhstan at a boundary of XX-of the 21st centuries. История. Философия». № 1(93), 2019. –P.60.

[2] Naralieva, D., Bikbulatova, S., Kim, N., Bikbulatova, A., & Karyeva, A. Multicultural Society of Kyrgyzstan: Analysis of the Legal Aspects … International Journal on Culture, History, and Religion, 7(1), 2025. –P.475.

[3]The Eurasian Peoples’ Assembly and the Assembly of the Peoples of Kyrgyzstan signed a Cooperation Agreement. // Electron resource: https://eurasia-assembly.org/en/news/eurasian-peoples-assembly-and-assembly-peoples-kyrgyzstan-signed-cooperation-agreement

[4] Chotayeva.Ch. Multiculturalism of Bishkek city: ethnicity and language in Soviet and post-Soviet times. “Linguistics and Literary Studies”. 2019. –P.77.

qiluvchi turli millat va elatlarning tillari, madaniyatlari, urf-odatlari va an'analarini saqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu markazlar asosan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat yuritadi va madaniy tadbirlar, folklor ansambllari, milliy bayramlarni nishonlash, til o'rganish kurslari va yoshlar loyihalari orqali etnik guruhlarning madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Milliy-madaniy markazlarning ahamiyati shundaki, ular nafaqat madaniy merosni asrash, balki millatlararo muloqotni mustahkamlash, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan etnik nizolarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan, ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining vositachilari sifatida davlat va etnik jamoalar o'rtasida muloqot maydonini yaratadi va inklyuziv fuqarolik identifikatsiyasini shakllantirishga hissa qo'shadi[1]. Ayniqsa, fuqarolar urushidan keyingi ijtimoiy tiklanish jarayonida madaniy xilma-xillikni tan olish va uni institutlar orqali boshqarish Tojikistonda barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'ldi. Qiziqarli jihati shundaki, Tojikistonda faqatgina "Madaniyat to'g'risidagi" qonunda etnik-madaniy markazlar faoliyati borasida huquqiy-normativ jihatlari haqida keltirilgan.

Turkmaniston. Turkmanistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi muhim xususiyatlardan biri - mamlakatda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik va fuqarolar birdamligini ta'minlashga qaratilgan izchil va markazlashgan davlat siyosatining amalga oshirilishidir. Ushbu siyosat jamiyatning etnik, madaniy va diniy xilma-xilligini barqarorlik manbai sifatida boshqarish tamoyiliga asoslanib, millatlararo munosabatlarni institutsional tartibga solishni ko'zda tutadi. Ko'p millatli jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash va uzoq muddatli ijtimoiy integratsiyani ta'minlash davlatning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda milliy madaniy markazlar muhim ijtimoiy-institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy madaniy markazlar Turkmanistonda yashayotgan turli millat va elatlarning madaniy, lisoniy va an'anaviy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan maxsus muassasalardir. Ushbu markazlar etnik o'ziga xoslikni saqlab qolish va rivojlantirishdan tashqari, bu guruhlarni milliy qadriyatlar asosida jamiyatga uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur institutlar etnik va fuqarolik o'ziga xosliklari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi mexanizmlar sifatida talqin etiladi. Milliy madaniy markazlar orqali etnik guruhlar o'z madaniy xususiyatlarini saqlab qolgan holda umumiy siyosiy, huquqiy va madaniy makonga qo'shiladilar. Bunday yondashuv assimilyatsiya yoki ajralish xavfini kamaytiradi va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga ko'maklashadi[2]. Xususan, madaniy tadbirlar o'tkazish, til va urf-odatlarni targ'ib qilish, milliy bayramlarni nishonlash orqali turli etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirish millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, "Millatlar o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida"gi Turkmaniston qonunida milliy madaniy markazlarni muvofiqlashtirish borasida alohida bandlar keltirilgan.

Shu o'rinda, Markaziy Osiyo davlatlari milliy madaniy markazlardagi muammo va kamchilikni alohida tahlil qilish muhim hisoblandi. Markaziy Osiyo davlatlarida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar o'rtasida mintaqaviy va chegaralararo hamkorlikning institutsionallashgan tarmog'i yo'qligi ularning samaradorligini cheklovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda

[1] Faucher, C. *Minority rights and cultural policy in post-conflict Tajikistan. Central Asian Survey,* 34(2), 2024. –P. 228.

[2] Ksenia G. Muratshina. Cultural Exchanges between Russia and Turkmenistan: Structure, Dynamics, and Defining Features. Changing Societies & Personalities, Vol. 4, No. 4, 2020. –P.512.

milliy madaniy markazlar asosan milliy siyosiy va huquqiy doiralarda ish olib bormoqda hamda qo‘shni mamlakatlardagi o‘xshash madaniy muassasalar bilan barqaror, tizimli va rasmiy hamkorlik mexanizmlariga ega emas. Ushbu vaziyatni nazariy jihatdan tahlil qilganda, Amitav Acharya tomonidan taklif etilgan mintaqaviy institutsionalizm tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvga ko‘ra, mintaqaviy o‘ziga xoslik va hamkorlik nafaqat rasmiy davlatlararo institutlar, balki norasmiy va yarim rasmiy madaniy tashkilotlar, jumladan, madaniyat markazlari, jamoat platformalari va fuqarolik jamiyati tarmoqlari orqali ham shakllanadi [1]. Acharya ta’kidlaydiki, bunday institutlar mintaqada ishonch muhitini mustahkamlash, umumiy tarixiy xotira va madaniy kodlarni qayta tiklash, hamda “pastdan yuqoriga” integratsiya jarayonlarini rag‘batlantirish borasida muhim rol o‘ynaydi[2].

Biroq, Markaziy Osiyo sharoitida bu amaliy imkoniyatlar amalda to‘liq ro‘yobga chiqmayapti. Milliy madaniy markazlar faoliyati ko‘pincha milliy madaniy siyosatning ichki qismi bo‘lib qolmoqda va ularning chegaralararo tashabbuslari yakka tartibda hamda vaqti-vaqti bilan amalga oshirilmoqda. Natijada, madaniyatlararo muloqot institutsional darajaga ko‘tarilmay, asosan norasmiy aloqalar yoki alohida tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Shu sababli, milliy madaniy markazlar o‘rtasida mintaqaviy darajada muvofiqlashtirilgan platformalarning mavjud emasligi Markaziy Osiyoda umumiy mintaqaviy madaniy makon va umumiy madaniy o‘ziga xoslikni shakllantirish jarayonini sekinlashtirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, mintaqada uzoq muddatli ijtimoiy integratsiya, madaniy diplomatiya va millatlararo ishonchni mustahkamlash imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, quyidagi samarador mexanizmlarni ilgari surish mumkin. Markaziy Osiyo davlatlaridagi milliy-madaniy markazlarning institutsional samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini oshirish masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy sharoitlarda milliy-madaniy markazlar faqatgina etnik an’analar va madaniy merosni saqlash hamda targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar sifatida emas, balki ijtimoiy hamjihatlik, madaniyatlararo muloqot va inklyuziv rivojlanishga hissa qo‘sha oladigan fuqarolik jamiyati tizimining faol tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan, “NNT + milliy-madaniy markaz” tizimli hamkorlik mexanizmini joriy etish Markaziy Osiyoda milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirishning ilmiy asoslangan va institutsional jihatdan samarali yondashuvi hisoblanadi.

Ushbu mexanizmning nazariy asosi neoinstitutsional nazariya va ijtimoiy kapital tushunchasiga tayanadi. Neoinstitutsional yondashuvlarga ko‘ra, milliy-madaniy markazlarning samaradorligi nafaqat ularning ichki tashkiliy salohiyati, balki ular faoliyat yuritayotgan keng qamrovli huquqiy, me’yoriy va institutsional muhit bilan ham belgilanadi. Ularning davlat institutlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa sub’yektlari bilan o‘zaro hamkorligi ularning moslashuvchanlik, innovatsion faoliyat va barqarorlik qobiliyatini belgilaydi. Ijtimoiy kapital nazariyasi esa nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikning ko‘p madaniyatli jamiyatlarda ishonch tarmoqlari, gorizontal aloqalar va jamoaviy harakat qobiliyatini qanday oshirishini tushuntiradi[3]. Shu jihatdan, “NNT + milliy-madaniy markaz” modeli institutsional izolyatsiyani bartaraf etish va

[1] Acharya, A. After liberal hegemony: The advent of a multiplex world order. Ethics & International Affairs, 31(3), 2017. –P.275.

[2] Acharya, A. The end of American world order. Cambridge: Polity Press. 2014. –P.91.

[3] Scott, W. R. (2024). Institutions and organizations: Ideas, interests, and identities (4th ed.). SAGE Publications. –P.56.

milliy-madaniy markazlarni keng fuqarolik tarmoqlariga integratsiyalashning samarali mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ushbu hamkorlik doirasida milliy-madaniy markazlarning madaniy faoliyati ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, fuqarolik tashabbuslari va himoya amaliyotlari bilan uzviy bog‘lanadi. Nodavlat tashkilotlar loyihalarni boshqarish, mablag‘ jalb qilish, grantlar olish, monitoring va baholash bo‘yicha to‘plangan tajribaga ega bo‘lib, bu milliy-madaniy markazlarning tashkiliy barqarorligini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Natijada milliy-madaniy markazlar ramziy madaniyat sub’yektlari rolidan chiqib, ijtimoiy integratsiya, madaniyatlararo muloqot, yoshlar va ayollar ishtiroki, bag‘rikenglikni targ‘ib qilish masalalarini hal etishga qodir ijtimoiy faol institutlarga aylanadi.

“NNT + milliy-madaniy markaz” hamkorlik mexanizmining muhim jihati uning davlat va turli etnik jamoalar o‘rtasidagi muloqotni institutsionallashtirish qobiliyatidadir. Birgalikda harakat qiluvchi milliy-madaniy markazlar va NNTlar etnik guruhlarning ijtimoiy-madaniy manfaatlarini uyushgan va konstruktiv tarzda ifoda etuvchi vositachi institutlar vazifasini bajaradi. Bu ehtimoliy ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga, inklyuziv siyosatni ishlab chiqishga va ishtirokchilikka asoslangan boshqaruvni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday yondashuvlar Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy asoslarda aks ettirilgan etnik xilma-xillik va ijtimoiy birdamlikni boshqarish bo‘yicha xalqaro ilg‘or tajribalarga mos keladi[1].

Shuningdek, “NNT + milliy-madaniy markaz” hamkorlik modeli madaniy diplomatiya va xalq diplomatiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Milliy-madaniy markazlarning NNTlar orqali mintaqaviy va transchegaraviy loyihalarda ishtirok etishi Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, umumiy mintaqaviy identitetni shakllantirish hamda barqaror hamkorlik muhitini yaratishga zamin yaratadi. Bu holat madaniyatni ijtimoiy rivojlanishning muhim resursi sifatida talqin qiluvchi UNESCO konseptual yondashuvlari bilan hamohangdir[2].

Yuqoridagi mexanizm bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlarining milliy-madaniy markazlari o‘rtasidagi hamkorlik platformasini joriy etish, mintaqaviy integratsiya jarayonlarining hozirgi bosqichida ijtimoiy-madaniy omilning institutsional ahamiyatini oshirishning muhim mexanizmi sifatida baholanishi mumkin. Ushbu tashabbus mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni nafaqat siyosiy va iqtisodiy manfaatlar doirasida, balki jamiyatlararo, madaniy va o‘ziga xoslik darajasida ham mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuvni ifodalaydi.

Fikrimizcha, platformaning muhim funksiyalaridan biri konseptual va institutsional darajalarda madaniy kodlarni saqlash va uzatish mexanizmini yaratishdir. Har bir milliy-madaniy markaz platforma orqali o‘ziga xos madaniy kodlar - til, urf-odatlar, marosimlar, tarixiy xotira, an’anaviy san’at va zamonaviy madaniy ifodalarni taqdim etar ekan, bu jarayon mintaqadagi madaniy xilma-xillikni tan olish va qonuniylashtirish vazifasini bajaradi. Natijada, etnomadaniy xilma-xillik potensial ijtimoiy ziddiyat manbai sifatida emas, balki mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash resursi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ushbu raqamli platforma fuqarolarning madaniy ishtirokini kengaytirishga qaratilgan samarali vosita sifatida muhim

[1] OSCE High Commissioner on National Minorities. (2025). The Ljubljana guidelines on integration of diverse societies. OSCE. // Electron resource: https://hcnm.osce.org/hcnm/107875

[2] UNESCO. (2024). Cultural diversity and sustainable development. UNESCO Publishing. // Electron resource: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000249172

ahamiyat kasb etadi. Platforma orqali mintaqa aholisi madaniy tadbirlar, festival va ko‘rgazmalar, ilmiy-ma’rifiy uchrashuvlar, ta’lim dasturlari haqida doimiy, ochiq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladi[1]. Bu madaniyatni passiv iste’mol sohasidan faol ijtimoiy muloqot va ishtirok maydoniga aylantiradi.

Platformaning yana bir muhim ilmiy jihati uning mintaqaviy ijtimoiy kapitalni shakllantirish va mustahkamlashdagi roli bilan bog‘liq. Milliy-madaniy markazlar o‘rtasida doimiy raqamli aloqalarning o‘rnatilishi o‘zaro ishonch, madaniy yaqinlik va institutsional hamkorlikni kuchaytiradi. Bu Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining nafaqat davlatlararo, balki jamiyatlararo darajada ham chuqurlashuviga asos yaratadi. Platforma, shuningdek, tadqiqot va tahliliy faoliyat uchun muhim axborot bazasiga aylanishi mumkin. Raqamli madaniy ma’lumotlar asosida qiyosiy madaniy tadqiqotlar, etnosiyosiy tahlil, madaniy siyosat samaradorligini baholash, mintaqaviy o‘ziga xoslikning o‘zgarishini o‘rganish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa platformaning nafaqat amaliy, balki ilmiy-uslubiy ahamiyatini ham oshiradi.

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi milliy-madaniy markazlar faoliyatini tizimli tahlil etish va ularning institutsional, tashkiliy hamda funksional samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy mexanizmlarni ishlab chiqish mintaqada barqaror ijtimoiy-siyosiy rivojlanishni ta’minlash nuqtayi nazaridan katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tashkilotlar ko‘p millatli jamiyat sharoitida millatlararo totuvlikni mustahkamlash, madaniy rang-baranglikni saqlash va ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirishda muhim vositachilik vazifasini bajaradi.

Chunonchi, milliy-madaniy markazlar faoliyatidagi mavjud institutsional nomutanosibliklar, resurslarni taqsimlashdagi cheklovlar, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, ushbu markazlar faoliyatini baholashda nafaqat madaniy tadbirlar ko‘lamini, balki ularning ijtimoiy muloqot, madaniy diplomatiya va mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga qo‘shgan institutsional hissasini ham har tomonlama inobatga olish lozim.

Natijada, Markaziy Osiyo mamlakatlari sharoitida milliy-madaniy markazlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan yagona konseptual yondashuvni ishlab chiqish, ularni nodavlat notijorat tashkilotlari, ta’lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirish, shuningdek, raqamli hamkorlik platformalarini joriy etish mintaqada barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va madaniy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim strategik omil sifatida baholanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

1. Laruelle, M. *Managing nationalism: Political identities and memory wars in Central Asia*. London: Routledge. 2017. –P.89.

2. Putnam, R. D. E Pluribus Unum: Diversity and Community. *Scandinavian Political Studies*, 30(2), 2025. –P.154.

3. N. Nurullayeva. The role of national-cultural centers in strengthening interethnic relations in Uzbekistan. Journal of Social sciences and Humanities. Volume 3, Issue 4, 2025. –P.52.

[1] UNESCO. (2025). UNESCO Global Report on Cultural Policies | Culture: The Missing SDG. UNESCO. // Electron resource: https://www.unesco.org/en/culture/global-report

4. M. Turayeva. Tolerance on the example of national and cultural centers in Uzbekistan. International journal of History and Political sciences. Volume 2, issue 6. 2022. –P.7.

5. UNDP. (2020). Human Development Report: Uzbekistan – Social Cohesion and Ethnic Diversity. New York. –P.23.

6. The Assembly of People of Kazakhstan. // Electron resource: https://www.gov.kz/memleket/entities/mfa-berlin/press/article/details/12279

7. T. Alexandrov. Ethno-cultural associations in Kazakhstan: The Soviet footprint and resources for civil society. Cambridge Journal of Eurasian studies. 2018. –P. 55.

8. A.Z. Zhumanova, T.K. Sakabai, Zh.A. Karsybaeva. The main activities of the national cultural centers of the Central Kazakhstan at a boundary of XX-of the 21st centuries. История. Философия». № 1(93), 2019. –P.60.

9. Naralieva, D., Bikbulatova, S., Kim, N., Bikbulatova, A., & Karyeva, A. Multicultural Society of Kyrgyzstan: Analysis of the Legal Aspects … International Journal on Culture, History, and Religion, 7(1), 2025. –P.475.

10. The Eurasian Peoples' Assembly and the Assembly of the Peoples of Kyrgyzstan signed a Cooperation Agreement. // Electron resource: https://eurasia-assembly.org/en/news/eurasian-peoples-assembly-and-assembly-peoples-kyrgyzstan-signed-cooperation-agreement \

11. Chotayeva.Ch. Multiculturalism of Bishkek city: ethnicity and language in Soviet and post-Soviet times. "Linguistics and Literary Studies". 2019. –P.77.

12. Faucher, C. *Minority rights and cultural policy in post-conflict Tajikistan. Central Asian Survey*, 34(2), 2024. –P. 228.

13. Ksenia G. Muratshina. Cultural Exchanges between Russia and Turkmenistan: Structure, Dynamics, and Defining Features. Changing Societies & Personalities, Vol. 4, No. 4, 2020. –P.512.

14. Acharya, A. After liberal hegemony: The advent of a multiplex world order. Ethics & International Affairs, 31(3), 2017. –P.275.

15. Acharya, A. The end of American world order. Cambridge: Polity Press. 2014. –P.91.

16. Scott, W. R. (2024). Institutions and organizations: Ideas, interests, and identities (4th ed.). SAGE Publications. –P.56.

17. OSCE High Commissioner on National Minorities. (2025). The Ljubljana guidelines on integration of diverse societies. OSCE. // Electron resource: https://hcnm.osce.org/hcnm/107875

18. UNESCO. (2024). Cultural diversity and sustainable development. UNESCO Publishing. // Electron resource: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000249172

19. UNESCO. (2025). UNESCO Global Report on Cultural Policies | Culture: The Missing SDG. UNESCO. // Electron resource: https://www.unesco.org/en/culture/global-report

OZARBAYJONNING DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISH TAJRIBASI

RUHSORA ELMURATOVA
O'qituvchi, TDSHU

Annatatsiya: *Ushbu maqolada Ozarboyjon davlatida dezinformatsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi taxlilga bag‘ishlanadi. Unda Ozarboyjon dezinformatsiyaga qarshi kurashishda keng qamrovli yondashuvdan foydalanganligi jumladan, qonunchilik va Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati kabi davlat choralari masalasi ko‘rib chiqiladi. Maqolada ta‘kidlanishicha, Dezinformatsiya bugungi kunda xavfli darajaga yetganligi va milliy, global xavfsizlikka tahdid solayotganligi, matbuot erkinligi va matbuotning asosiy tamoyillariga putur yetkazadi, shuningdek vaziyat va ichki muammolar tufayli Ozarboyjon siyosatining asosiy ustuvor muammolaridan biri ekanligi ta’kidlanadi. Shuni nazarda tutgan holda, “Soxta* ***xabarlarni*** *fosh qilish: dezinformatsiyaga qarshi kurash” deb nomlangan Global Media Forumlari tashkillashtirilib, ishtirokchilarni birlashtirgan forumdagi panel sessiyalarida dezinformatsiyaga qarshi kurash, sun’iy intellektning voqelikka ta’siri, ommaviy axborot vositalari va dezinformatsiya, media savodxonligini oshirish, iqlim harakati va ommaviy axborot vositalari kabi mavzular muhokamalarida davlat rahbarlarining ishtiroki etiborni tortadi. Ushbu tadbirda dezinformatsiya insoniyat tarixida juda keng tarqalgan hodisa ekanligi va axborot kuchli vosita bo‘lib bunda asosiy savol bu ma’lumotdan qanday foydalanish mumkinligi masalasi o‘taga tashlangani, uni echish masalasining xavfli tomoni dezinformatsiya manipulyatsiya orqali Ozarbayjon xalqiga qarshi psixologik urushda asosiy qurolga aylanib borayotganligi ta’kidlanadi.*

Tadqiqot orqali davlat axborot xavfsizligini saqlash davlat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Tizimli va qiyosiy yondashuvni qo‘llash orqali tadqiqot Ozarboyjon davlatining mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini kengroq tushunish imkonini beradi. Ushbu maqola xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va mintaqaviy tadqiqotlar sohasidagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli bo‘lib, Ozarboyjon strategik ustuvorliklari tajribasi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar. *Davlat, jamiyat, siyosat, qonun, Axborot urushi, dezinformatsiya, xavfsizlik, mojaro, tahdid, muammo.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу борьбы с дезинформацией в Азербайджане. В ней рассматривается вопрос государственных мер, включая использование Азербайджаном комплексного подхода к борьбе с дезинформацией, в том числе законодательства и деятельности Службы государственной безопасности. В статье подчеркивается, что дезинформация сегодня достигла опасного уровня и угрожает как национальной, так и глобальной безопасности. Дезинформация подрывает свободу прессы и основополагающие принципы печати, а также является одной из главных приоритетных проблем азербайджанской политики в силу сложившейся ситуации и внутренних проблем.*

В этой связи были организованы Глобальные медиафорумы под названием «Разоблачение фейковых нарративов: борьба с дезинформацией», объединившие участников в панельных дискуссиях по таким темам, как борьба с дезинформацией, влияние искусственного интеллекта на реальность, СМИ и дезинформация, повышение медиаграмотности, борьба с изменением климата и СМИ. Примечательно участие глав государств в дискуссиях. Данное событие подчеркивает, что дезинформация является

очень распространенным явлением в истории человечества, а информация — мощным инструментом. Главный вопрос заключается в том, как использовать эту информацию и как ее применять. Опасность дезинформации заключается в том, что она становится главным оружием в психологической войне против народа Азербайджана посредством манипуляций.

Исследование подчеркивает, что поддержание информационной безопасности государства также влияет на процессы региональной интеграции, которые зависят от сложных взаимоотношений между государством и обществом. Используя системный и сравнительный подход, исследование дает более широкое понимание усилий азербайджанского государства по обеспечению региональной стабильности. Данная статья будет интересна ученым и практикам в области международных отношений, политологии и региональных исследований и предоставляет ценные сведения об опыте реализации стратегических приоритетов Азербайджана.

Ключевые слова: *государство, общество, политика, право, информационная война, дезинформация, безопасность, конфликт, угроза, проблема.*

Abstract: *This article analyzes the fight against disinformation in Azerbaijan. It examines government measures, including Azerbaijan's comprehensive approach to combating disinformation, including legislation and the activities of the State Security Service. The article emphasizes that disinformation has reached dangerous levels and threatens both national and global security. Disinformation undermines press freedom and fundamental principles of the press and is a key priority for Azerbaijani policy due to the current situation and domestic challenges. In this regard, Global Media Forums were organized under the title "Exposing Fake Narratives: Countering Disinformation," bringing together participants in panel discussions on topics such as countering disinformation, the impact of artificial intelligence on reality, media and disinformation, improving media literacy, and combating climate change and the media. The participation of heads of state in the discussions is noteworthy. This event highlights the pervasiveness of disinformation throughout human history, and the power of information in its application. The key question is how to harness this information and apply it. The danger of disinformation lies in its potential as a key weapon in the psychological warfare waged against the people of Azerbaijan through manipulation.*

The study emphasizes that maintaining state information security also impacts regional integration processes, which depend on complex state-society relationships. Using a systemic and comparative approach, the study provides a broader understanding of the Azerbaijani state's efforts to ensure regional stability. This article will be of interest to scholars and practitioners in the fields of international relations, political science, and regional studies, and provides valuable insights into Azerbaijan's experience in implementing its strategic priorities.

Key words: *state, society, politics, law, information war, disinformation, security, conflict, threat.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi axborot makonida dezinformatsiya, yolg‘on xabarlar va manipulyativ kontentning keskin ko‘payishiga olib keldi. Ayniqsa, siyosiy jarayonlar, qurolli mojarolar va ijtimoiy inqirozlar davrida dezinformatsiya axborot xavfsizligiga jiddiy tahdid sifatida kuzatilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Janubiy Kavkaz mintaqasida muhim geosiyosiy o‘ringa ega Ozarbayjon Respublikasining dezinformatsiyaga qarshi

kurashish tajribasi ilmiy jihatdan tahlil qilishni talab etadi. Ozarbayjon dezinformatsiyaga qarshi kurashishda, qonunchilik va Davlat xavfsizlik xizmati ham keng qamrovli yondashuvdan foydalanadi. Jumladan, Davlat hodisani dezinformatsiya hisoblasa, Qorabog‘ mojarosi kontekstida faol qarshilik ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalqaro platformalarda va axborot makonida rasmiy pozitsiyani ilgari surish bo‘yicha sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Dezinformatsiya bugungi kunda xavfli darajaga yetib, milliy hamda global xavfsizlikka tahdid solmoqda. Bu haqda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti yordamchisi va Prezident ma’muriyatining Tashqi siyosat bo‘limi boshlig‘i Hikmat Hojiyev Ikkinchi Shusha Global Media Forumidagi ma’ruzasida “Soxta rivoyatlarni fosh qilish: dezinformatsiyaga qarshi kurash” mavzusidagi nutqida dezinformatsiya insoniyat tarixida juda keng tarqalgan hodisa ekanligini ta’kidladi. “Axborot kuchli vositadir, ammo asosiy savol bu ma’lumotdan qanday foydalanishdir. Shuningdek, “Texnologik yutuqlar va raqamlashtirish aniq ma’lumot olishni qiyinlashtiradi” (Hojiyev H. – c.1-8), deb ta’kidladi. Dezinformatsiya matbuot erkinligi va matbuotning asosiy tamoyillariga putur yetkazadi. U ma’lum maqsadlarga erishganida va matbuotning asosiy tamoyillarini buzganda, ma’lum guruhlarning manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda Ozarbayjonda Media savodxonligi hamda Dezinformatsiyaga qarshi kurash bo‘yicha “Yoshlar loyihasi” ishga tushganligi ham harakatlarning natijasidir.

Ozarbayjon Prezidenti yordamchisi va Prezident ma’muriyatining Tashqi siyosat bo‘limi boshlig‘i Hikmet Hojiyev **Dayaz** xabar berishicha, **3-Shusha** Global Media Forumida mamlakat mustaqilligi davrida Ozarbayjon ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi jiddiy qiyinchiliklar va shiddatli kurash bilan birga kechgani ma’lum qilingan. Ozarbayjon davlat va jamiyatga qarshi qaratilgan kuchli dezinformatsiya, manipulyatsiya va psixologik urush to‘lqiniga duch keldi, deb qo‘shimcha qildi. (Hojiyev H. – c.7),

“Ushbu axborot hujumining avj nuqtasi Vatan urushining 44 kuni o‘tdi. Biz Ozarbayjonga qarshi qaratilgan keng ko‘lamli dezinformatsiya kampaniyalariga guvohmiz. Biroq, Ozarbayjonlik jurnalistlar bilan ommaviy axborot vositalari shunchaki aniq faktlar va ma’lumotlarni taqdim etishmadi – ular Ozarbayjon va uning xalqiga qarshi qurilgan yolg‘onlarning butun tizimini yo‘q qilish uchun kurashdi. “professionallik, birlik hamda xalqaro hamkorlik tufayli biz ushbu axborot urushida muvaffaqiyatga erisha olganini ta’kidlashdan mamnunman” (Hojiyev H. – c.1-8), deb ta’kidladi Hojiyev.

Dezinformatsiyaning ko'p turlari yarim haqiqatga asoslangan bo'lib, yolg'onlar rostgo'y ma'lumotlar bilan aralashtiriladi yoki muhim kontekst yashiriladi. Bu ishonchlilikni oshirish uchun amalga oshiriladi. Bunday dezinformatsiya xabarlarida ko'pincha butunlay soxtalashtirilgan yoki noto'g'ri talqin qilingan bo'lishi mumkin bo'lgan "tadqiqotlar" yoki "guvohlar" keltirilgan. Ba'zan dezinformatsiya mutaxassislar yoki siyosiy strateglar tomonidan jamoatchilik fikrini buzish yoki shunchaki shubha va nizolarni qo'zg'atish uchun ehtiyotkorlik bilan tayyorlanadi.

Metodlar. Ushbu maqolani yozishda, Ozarboyjondagi axborot xavfsizligining oldini olishda dunyo tamadduniga ko‘rsatilgan ta’sirlari o‘rganilgan. Jumladan, dezinformatsiyaning turli davrlarga xos shakllari bayon etilib bugungi o‘quvchiga jamiyat rivojlanishidagi turli uslublarning joriylanishi shu bilan birga hokimiyat bilan xalq o‘rtasidagi madaniy muloqotning o‘zaro ta’siri mexanizmlari nazarda tutiladi.

Natijalar va muhokamalar Mazkur maqolada Ozarbayjonda dezinformatsiyaga qarshi davlat siyosati, institutsional mexanizmlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar faoliyati misolida tahlil qilinadi. Dezinformatsiya – (fransuzcha des – salbiy va information – axborot)

muayyan guruh va doiralarning g‘arazli maqsadlarga erishish yo‘lida soxta ma’lumotlardan foydalanish asosida ijtimoiy fikr kabi chalg‘itish maqsadida matbuot, radio, televideniye va internetda qo‘llaniladigan usul, vosita. (https://oyina.uz/uz/teahause/951). Dezinformatsiya tushunchasi va uning zamonaviy axborot makonidagi o‘rnini Ilmiy adabiyotlarda dezinformatsiya atamasi ataylab yolg‘on yoki chalg‘ituvchi axborotni tarqatish orqali jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish jarayoni sifatida talqin qilinadi (Aliyev G. 1998. 19.06). Raqamli jurnalistika sharoitida dezinformatsiya nafaqat individual foydalanuvchilar, balki tashkiliy va hatto davlatlararo darajada olib borilayotgan axborot urushlarining muhim vositasiga aylangan (McNair B. -2024.)

Ozarbayjon uchun dezinformatsiya masalasi ayniqsa Tog‘li Qorabog‘ mojarosi bilan bog‘liq davrlarda keskinlashgan bo‘lib, bu holat axborot frontida tizimli qarshi choralar ko‘rishni talab etdi. Ozarbayjonda dezinformatsiyaga qarshi davlat siyosatini rivojlantira borib, Ozarbayjon hukumati dezinformatsiyaga qarshi kurashni axborot xavfsizligining tarkibiy qismi sifatida belgilagan. Mamlakatda qabul qilingan **“Axborot, axborotlashtirish va axborotni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun** dezinformatsion kontent tarqalishini cheklashga qaratilgan huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. (Azərbaycan 460-IQ – İnformasiya, informasiyalaşdırma və informasiyanın)

Bundan tashqari, Prezident Administratsiyasi huzurida faoliyat yurituvchi Axborot siyosati bo‘limi davlat axborot strategiyasini muvofiqlashtiradi va yolg‘on xabarlar tarqalishiga tezkor javob choralarini ishlab chiqadi. Ushbu institutsional yondashuv Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashini markazlashgan va tizimli tusga keltirgani ko‘rsatadi.

Media va rasmiy axborot manbalarining roli. Ozarbayjon tajribasida rasmiy axborot resurslari dezinformatsiyaga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. **AZERTAC** davlat axborot agentligi ishonchli va tezkor axborot yetkazib berish orqali yolg‘on xabarlarga muqobil manba vazifasini bajaradi.(AZERTAC. Dec 11, 2025)

2020-yildagi Ikkinchi Qorabog‘ urushi davrida AZERTAC va boshqa rasmiy OAVlar:

– harbiy operatsiyalar bo‘yicha tezkor press-relizlar,

– foto va video dalillar,

– xorijiy OAVlar uchun ko‘p tilli axborot materiallari orqali dezinformatsion kampaniyalarga qarshi samarali axborot oqimini shakllantirdi (AZERTAC. Dec 11, 2025).

Raqamli platformalar va fact-checking amaliyoti so‘nggi yillarda Ozarbayjonda raqamli platformalarda fact-checking mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg‘on xabarlar rasmiy Telegram kanallari va hukumatga yaqin media platformalar orqali rad etib boriladi.

Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq noto‘g‘ri ma’lumotlar Sog‘liqni saqlash vazirligi va rasmiy OAVlar tomonidan tezkor inkor qilinib, ilmiy asoslangan axborot bilan almashtirilgan **(**J Med Internet Res 2020;22(6)**).** Bu holat dezinformatsiyaga qarshi kurashda **tezkorlik va ishonchli manbaning ustuvorligi** muhim ekanini ko‘rsatadi.

Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashish tajribasi zamonaviy nuqtai nazaridan quyidagi jihatlari bilan ahamiyatlidir:

– davlat va OAVlar o‘rtasidagi axborot siyosatining uyg‘unligi,

– rasmiy manbalarning tezkor va muntazam axborot berishi,

– ko‘p tilli jurnalistika orqali xalqaro auditoriyaga chiqish,

– raqamli platformalardan faol foydalanish.

Bu tajriba postsovet mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston uchun ham axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim amaliy model bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Dezinformatsiya yangi muammo emas. Davlatlar uzoq vaqtdan beri yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishiga qarshi kurashishga qaratilgan qonunlarni qabul qilib kelishgan, masalan, tuhmat, firibgarlik, yolg‘on reklama va yolg‘on guvohlik berish kabi masalalar bo‘yicha. Dezinformatsiya haqidagi hozirgi munozaralar qisman misli ko‘rilmagan hajmdagi ma’lumotlarni rekord tezlikda tarqatishga imkon beruvchi innovatsion texnologiyalar tomonidan yaratilgan yangi va tez rivojlanayotgan kommunikatsiya landshaftini aks ettiradi. Bizning davrimizning asosiy vazifasi ushbu zamonaviy va sifat jihatidan farq qiluvchi media landshaftida harakatlanish va uning inson huquqlarini, shuningdek, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni buzish o‘rniga himoya qilish va targ‘ib qilishga hissa qo‘shishini ta‘minlashdir.

Dezinformatsiya hodisasi turli muammolarni keltirib chiqaradi. Saylovlar kontekstida dezinformatsiyaning tarqalishi jamoatchilikning jarayonlarning ishonchliligiga ishonchini pasaytirishi va siyosiy ishtirok etish huquqini buzishi mumkin. Dezinformatsiya shuningdek, ozchiliklar, ayollar va har qanday “boshqalar”ga qarshi qaratilgan norozilik va nafrat nutqlarini rad etishni ham o‘z ichiga olishi mumkin, bu nafaqat dezinformatsiya bilan bevosita nishonga olinganlarga, balki inklyuzivlik va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga ham tahdid soladi. Ozarboyjonlik olim Hasan bey Zardabiy ta’kidlaganidek, “Dezinformatsiya, qasddan ijtimoiy ta’sir o‘tkazish usulimi yoki shunchaki noprofessionallikmi?” (Hasan-bey Zardabi. – b. 18 2024.) aynan shu fikrning o‘zidayoq ko‘rish mumkinki har qanday dizinformatsiyadagi axborot qaysidir usul yoki shaklni anglatar ekan.

Hususan, Stanislav Yeji Lek: “Dunyoga ochilgan derazani gazeta bilan yopish mumkin”,(Станислав E. Nov 27, 2025) kabi fikr ilgari surgan.

XIX asrda Ozarbayjon milliy matbuotining asoschisi, olim va ma’rifatparvar Hasan bey Zardabiy hamda XX asr shoiri, faylasuf, satirik va jurnalist Stanislav Yeji Lensning gazetalarga bo‘lgan munosabatiga bugungi kun nuqtai nazaridan nazar tashlasak, ommaviy axborot vositalariga munosabatda qarama-qarshilik yuzaga keladi, bu esa ma’lum bir vaqt, ijtimoiy-siyosiy muhit yoki ma’lum bir davrda sodir bo‘lgan voqealar orqali e’tiborni tortadi. Boshqacha qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari faqat xalqaro ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar hamda davrning “gullari” sanalgan global falokatlar uchun aniq maqsadlarni, majburiyatlarni belgilaydi. Ularga erishishda tegishli shakl va usullarga murojaat qiladi. Sodda qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari o‘z davrining ko‘zgusidir. Hasan bey Zardabiy aytganidek, ommaviy axborot vositalari mafkuraviy qurolga, ijtimoiy-siyosiy tafakkurning shakllanishiga, axborotlashgan jamiyatni yaratishga va dunyoqarashni rivojlantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan vositaga aylanib bormoqda. (Hasan bey Zardabiy. – b.19. 2024) Stanislav Yerji Lekning so‘zlariga ko‘ra, dunyoga derazani yopish orqali u davlat-xalq institutini falaj qiladi, ichki tartibsizlik, qarama-qarshilik va anarxiyani keltirib chiqaradi, ommani manipulyatsiya qiluvchi mafkuraviy mashina vazifasini bajaradi. Boshqacha aytganda, ommaviy axborot vositalari ham yaratishi, ham yo‘q qilishi mumkin.

Global ommaviy axborot vositalari, an’anaviy tamoyillardan (axborot, ta’lim, o‘yin-kulgi) asta-sekin uzoqlashib, davlatlar o‘rtasida salbiy ta’sir elementiga aylanib, ob’yektiv, adolatli va xolis axborotni yetkazish o‘rniga, jamoatchilik ongini manipulyatsiya qilmoqda va bu borada eng kuchli qurol dezinformasiyadir.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida korporativ manfaatlarga xizmat qilish, Ommaviy axborot vositalari, birinchi navbatda, ommaviy resursdir va jamiyat manfaatlariga xizmat

ko‘rsatishi joiz. Biroq, vaqti-vaqti bilan ushbu asosiy tamoyillardan chetga chiqadigan ommaviy axborot vositalari xususiy yoki korporativ yo‘nalishlarda o‘z vazifasini o‘taydi. Bunday hollarda, ular obektiv ma’lumot yetkazish o‘rniga, manipulyatsiya, jamoatchilik fikrini chalg‘itish, ommaviy psixologiyaga ta’sir qilish, qolaversa, uni davlat va milliy manfaatlarga qarshi yo‘naltirish kabi tamoyillarga amal qiladi. Mazkur holatda, ushbu maqsadlarga erishishning eng samarali yo‘li dezinformatsiya. Dunyo miqyosida ommaviy axborot vositalarining ko‘payishi ayniqsa, hozirgi paytda onlayn resurslar hamda ijtimoiy platformalarning an’anaviy ommaviy axborot vositalari (bosma, radio, televideniye) ga nisbatan ustunligi bilan yangi ommaviy axborot vositalarida (internet) auditoriya uchun jiddiy raqobatga guvoh bo‘linmoqda. Mazkur muhitda “eng aniq ma’lumot – bu eng dolzarb ma’lumot” tamoyili afzal ko‘riladi va natijada olingan ma’lumotlar tahlil qilinmaydi yoki aniqlanmaydi, balki darhol jamoatchilikka yuboriladi. Sun’iy raqobat muhitida yuzaga keladigan eng jiddiy va global muammo dezinformatsiyadir. (Ctanislav Yerji Leknin – b.19.2024)

Axborotning zamonaviy mavjudligi va axborot muhitiga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, shuningdek, keng auditoriyaga ma’lumot yetkazishning shakl va usullarining boyligi jurnalistikani intizom yoki ijodiy ish sifatida yo‘q bo‘lib ketish xavfi bilan yuzma-yuz qo‘yadi. Bugungi kunda axborot resurslarini olish yoki ma’lumot ishlab chiqarish uchun jurnalistika sohasida ko‘p yillik ta’lim endi shart emas. Kamera, ovoz yozuvchi hamda ruchka o‘rnini bosadigan eng so‘nggi telefon bilan har kim osongina ommaviy axborot vositalarining mavzusiga aylanishi mumkin. Bu esa jiddiy noprofessionallik muammosini keltirib chiqaradi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning o‘z vaqtida o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni ololmasligi va ijtimoiy sohada axborot bo‘shlig‘ining vujudga kelishi tashqi kuchlarning faollashishiga va ularning undan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishiga olib keladi. Natijada, jamiyat soxta ma’lumotlar iste’molchisiga aylanishi mumkin. Soxta ma’lumotlarning tez tarqalishi jamoatchilikning befarqligiga olib keladi. Bu yerdagi eng jiddiy muammo dezinformatsiyadir.

Zamonaviy dunyoimizning axborot girdobiga tushib qolgan jamiyat, uni boshqaradigan tabiat, maqsadlar va vazifalarni aniqlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Voqealarning dinamik rivojlanishi va yangilanib borayotgan axborotlarning kundalik oqimi jamoatchilikni aniq faktlarga e’tibor qaratishga, ularni tahlil qilishga va yaxshini yomondan ajratishga to‘sqinlik qiladi. Dezinformatsiyaning o‘zi axborotdir va u voqealarni ma’lum maqsadlar uchun ma’lum manfaatlar prizmasidan noto‘g‘ri talqin qilishni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda global miqyosda dezinformatsiyani asosiy vosita sifatida tanlagan kiberhujumlar vaqti-vaqti bilan jamiyatning barcha sohalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, 2021-yilda kiberhujumlar natijasida global iqtisodiyotga yetkazilgan zarar taxminan 6 trillion dollarni tashkil etdi. Shunday qilib, bu jarayonni to‘xtatish qiyin. Biroq, uni samarali shakllar va usullar orqali kamaytirish yoki qarshi choralar orqali mo‘ljallangan maqsaddan chetga surish mumkin.

Xalqaro amaliyot bu baloga qarshi kurashish uchun ikkita harakat yo‘nalishini taklif qiladi:

1. Jurnalistlik faoliyatni va ommaviy axborot vositalarining qonunlari, axloqiy xulq-atvor kodekslari bilan tartibga solish;

Bu sohada ko‘plab misollar mavjud. Masalan:

– Xalqaro Jurnalistlar Federatsiyasining “Jurnalistik xulq-atvor tamoyillari deklaratsiyasi”, 1-modda. “Jurnalistning birinchi vazifasi haqiqatni va jamoatchilikning haqiqatini bilish huquqini hurmat qilishdir”; 4-modda. “Jurnalist axborot olishda va fotosuratlar va hujjatlardan foydalanishda faqat sog‘lom maqsadlarga intilishi kerak”;

– Professional Jurnalistlar Jamiyatining “Axloq kodeksi”, 1-modda. “Haqiqatni izlang va uni

xalqqa yetkazing. Jurnalist haqiqatni hamma narsadan ustun qo‘yishi, shaxsiy manfaatlarni ko‘zlamasligi, axborot to‘plash va sharhlashda xolis va qo‘rqmas bo‘lishi kerak”(«Кодекс этики» Общества профессиональных журналистов).

– Birlashgan Gazeta Muharrirlari Tamoyillari deklaratsiyasi, 4-modda. “Haqiqat va aniqlik – ushbu tamoyillarga amal qilgan holda, jurnalist nafaqat o‘zining professional burchini bajarishi, balki o‘quvchining hurmati va ishonchini qozonishi kerak”;

– Avstriya Matbuoti Axloq kodeksi, 1-modda. “Jurnalistning eng muhim vazifasi axborot tayyorlashda haqiqat va vijdonga rioya qilishdir.”

– Buyuk Britaniya Jurnalistlar Milliy Kengashining Xulq-atvor kodeksi, 9-modda. “Jurnalist shaxsiy manfaatlar uchun haqiqatni buzib ko‘rsatmasligi kerak.” 11-modda. “Jurnalist nashr etilgan yoki olingan ma’lumotlardan shaxsiy manfaatlar uchun foydalanmasligi kerak.”

– Turkiya Matbuot Kengashining Professional Matbuot uchun tamoyillar kodeksi, 3-modda. “Jurnalistika, davlat muassasasi sifatida, shaxsiy yoki shaxsiy manfaatlar uchun ishlatilmasligi kerak.”

– Ozarbayjon OAV qonuni, 14-modda. “Faktlar va voqealar xolis taqdim etilishi (Алиев Гейдар. 1998.19.06)

2. Jamoatchilikni o‘qitish orqali dezinformatsiyaga qarshi ijtimoiy immunitetni rivojlantirish.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, qonunlar va professional etika kodekslari ko‘pincha dezinformatsiyaning jamiyatga ta’sirini oldini olishga qodir emas. Shuning uchun tadqiqotchilar jamoatchilikni haqiqiy ma’lumotni dezinformatsiyadan ajratishga o‘rgatish uchun samarali ko‘rinadigan usullarni, boshqacha aytganda, ijtimoiy immunitetni shakllantirishni afzal ko‘rishadi. Xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan va fuqarolik jamiyatiga qaratilgan beshta tamoyil qo‘llaniladi:

1. Karl Bernshteyn va Bob Vudvordning qoidasi: axborotning asl manbasini izlash. Agar bu manbalar bir-biridan mustaqil bo‘lsa, eng yaxshisi. Agar manba bo‘lmasa va xabar “ishonchli manba”dan olingan ma’lumotlarga asoslangan bo‘lsa, unda bu dezinformatsiya;

2. Axborotni sharhlardan farqlashni o‘rganing. Chunki har qanday talqin dezinformatsiya elementlarini o‘z ichiga olishi mumkin;

3. Har qanday ma’lumotda qarama-qarshi nuqtai nazarni qidiring. Agar qarama-qarshi nuqtai nazar bo‘lmasa va ma’lumot bir tomonlama qayta ishlansa, u dezinformatsiyadir;

4. Urushdan keyingi davrda xalqaro tashkilotlar vakillarining ozod qilingan hududlarga muntazam tashriflari tashkil etildi va ushbu hududlarda, xususan, Shushada turli global tadbirlar o‘tkazildi. Maqsad yangi davr haqida dezinformatsiya tarqalishining oldini olish edi.

5. Urushdan keyingi davrda davlat rahbari ishg‘oldan ozod qilingan hududlarga tashriflar chog‘ida nafaqat ichki auditoriyaga, balki xalqaro hamjamiyatga ham xabarlar yubordi va shu bilan Ozarbayjon, Qorabog‘ va arman vandalizmining og‘ir izlariga global e‘tiborni qaratdi.

5. Prezident Ilhom Aliyevning shaxsiy tashabbusi bilan yangi hamkorlik uchun yangi global Boku platformalari yaratildi, ushbu uchrashuvlarda yetakchi global ommaviy axborot vositalari va tahlil markazlari vakillarining ishtiroki ta’minlandi va ikki tomonlama va ko‘p tomonlama formatlarda turli rasmiy uchrashuvlar o‘tkazildi. Ushbu qadamlarning aniq natijalari yaqqol ko‘rinib turibdi. To‘liq ishonch bilan aytish mumkinki, bugungi kunda Ozarbayjon jamiyatida dezinformatsiyaga qarshi kurashning samarali modeli va kontseptual axborot strategiyasi shakllantirildi. Biroq, dezinformatsiyaga qarshi kurash barqaror bo‘lishi o‘rinli. Shuning uchun yaqin kelajakda 2022-2027 yillarga mo‘ljallangan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha milliy strategiya qabul qilinishi kutilmoqda.

Xulosa. Ushbu maqola Ozarbayjonda dezinformatsiyaga qarshi kurashni tahlil qiladi. Unda hukumatning choralari, jumladan, Ozarbayjonning dezinformatsiyaga qarshi kurashga keng qamrovli yondashuvi, jumladan, qonunchilik va Davlat xavfsizlik xizmati faoliyati ko'rib chiqiladi. Maqolada dezinformatsiya xavfli darajaga yetgani va ham milliy, ham global xavfsizlikka tahdid solgani ta'kidlangan. Dezinformatsiya matbuot erkinligi va matbuotning asosiy tamoyillariga putur yetkazadi va hozirgi vaziyat va ichki muammolar tufayli Ozarbayjon siyosati uchun asosiy ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu munosabat bilan Global Media Forumlari "Soxta rivoyatlarni fosh qilish: dezinformatsiyaga qarshi kurashish" nomi ostida tashkil etildi, unda ishtirokchilar dezinformatsiyaga qarshi kurashish, sun'iy intellektning voqelikka, ommaviy axborot vositalariga va dezinformatsiyaga ta'siri, ommaviy axborot vositalari savodxonligini oshirish, iqlim o'zgarishi va ommaviy axborot vositalariga qarshi kurashish kabi mavzular bo'yicha panel munozaralarida ishtirok etishdi.

Munozaralarda davlat rahbarlarining ishtiroki diqqatga sazovordir. Ushbu tadbir insoniyat tarixi davomida dezinformatsiyaning keng tarqalganligini va uni qo'llashda axborotning kuchini ta'kidlaydi. Asosiy savol - bu ma'lumotdan qanday foydalanish va uni qo'llash. Dezinformatsiyaning xavfi uning Ozarbayjon xalqiga qarshi manipulyatsiya orqali olib borilgan psixologik urushda asosiy qurol sifatidagi salohiyatidadir.

Tadqiqotda davlat axborot xavfsizligini saqlash murakkab davlat-jamiyat munosabatlariga bog'liq bo'lgan mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ta'sir qilishi ta'kidlangan. Tizimli va qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda, tadqiqot Ozarbayjon davlatining mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini kengroq tushunish imkonini beradi. Ushbu maqola xalqaro munosabatlar, siyosatshunoslik va mintaqaviy tadqiqotlar sohalaridagi olimlar va amaliyotchilar uchun qiziqarli bo'ladi va Ozarbayjonning strategik ustuvorliklarini amalga oshirishdagi tajribasi haqida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Dezinformatsiya turli sabablarga, jumladan, siyosiy, mafkuraviy yoki tijorat maqsadlarida yoki ularning kombinatsiyasiga ega bo'lishi mumkin. Hokimiyat va ta'sir lavozimlarida bo'lganlar tomonidan undan foydalanish davlat institutlariga bo'lgan ishonchni yo'qotishi va jamiyatning qutblanishiga va ijtimoiy bo'linishlarning kuchayishiga hissa qo'shishi, shu bilan populizm va avtoritarizmning gullab-yashnashi uchun qulay zamin yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алиев. Гейдар Президент Азербайджанской Республики г. Баку, 19 июня 1998 года. № 505-1Q. О свободе информации

2. Резолюции ООН по борьбе с дезинформацией: как противодействовать манипулированию информацией на международном уровне Human Constanta 17 сентября 2024 г.

3. Wardle, C., Derakhshan, H. *Information Disorder: Toward an interdisciplinary framework*. Council of Europe, 2024. https://internet-start.net/?q=1.+Wardle%2C+C.%2C+Derakhshan%2C+H.+Information+Disorder%3A+Toward+an+interdisciplinary+framework.+Council+of+Europe%2C+2024.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab.

4. McNair, B. *An Introduction to Political Communication*. Routledge, 2024. https://internet-+Communication.+Routledge% C+2024&utm

_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0&gsc.q.

5. Azərbaycan Respublikasının "İnformasiya, informasiyalaşdırma və informasiyanın mühafizəsi haqqında" Qanunu. // 460-IQ - **İnformasiya, informasiyalaşdırma və informasiyanın** ... e-qanun.az › framework

6. AZERTAC rasmiy sayti materiallari.// Dec 11, 2025 **...** ... **azertac** #новости #aztagram #instaaz #**azertag** # ... Подробнее на **сайте** АЗЕРТАДЖ в разделе "**Официальные** документы" Ссылка ...

7. Hoskins, A., O'Loughlin, B. *War and Media*. Polity Press, 2025.// https://internetstart.net/?q=5.+Hoskins%2C+A.%2C+O%E2%80%99Loughlin%2C+B.+War+and+Media.+Polity+Press%2C+2025.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab

8. World Health Organization. *Managing the Infodemic*, 2024.

9. AZERTAC rasmiy axborot materiallari va press-relizlari.// https://internet-start.net/AZERTAC.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0&gsc.q. AZERTAC.&gsc.page=1

10. O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi rasmiy axborotlari. https://internet-start.net/ _source=chromestore&utm _campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc. tab=0

11. McQuail, D. *McQuail's Mass Communication Theory*. Sage Publications, 2024.https://internet-start.net/?q=9.+McQuail%2C+D. +McQuail +Mass+

Communication+Theory.+Sage+Publications%2C+2024&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0&gsc.q=9.%20McQuai

12. Hikmet Hajiyev: Shusha Global Media Forum fosters emergence of new ideas and innovative perspectives. info@globalmediaforum.az/ 2025.

13. Hasan bey Zardabiy https://vsuete.com/monument-to-hasan-bek-zardabi-in-baku.https://internet-start.net/?q=Hasan+bey+Zardabiy+https%3A%2F%2

Fvsuete.com%2Fmonument-to-hasan-bek-zardabi-in-baku&utm

_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0&gsc.q=Hasan%20bey%20Zardabiy%20https%3A%2F%2Fvsuete.com%2Fmonument-to-hasan-bek-zardabi-in-baku&gsc.page=1

14. Закон Азарбайжанской Республики **от** 30 декабря 2021 года №471-VIQ О медиа. https://base.spinform.ru. https://internet-start.net. Fbase.spinform.ru.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=02Fbase.spinform.ru.&gsc.page=1

15. Kussainova M. Mehdiyev N. В Казахстане состоялось заседание Союза тюркских информационных агентств. В мероприяти принимали участие представители Турции,Азербайджана, казахстана, Кыргызстана, Узбекистана и Венгерии. https://www.aa.com.tr/ru

16. https://internet-start.net/?q=13.+www.turksoy.org+%E2%80%BA+ru-RU+.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0&gsc.q= www.turksoy.org › ru-RU .

17. Этический Кодекс Первый Кодекс Этики СигмаДельтаКи был позаимствован от Американского Общества Газетных Издателей в 1926 г. В 1973 г. СигмаДельтаКи написала свой собственный Кодекс, который был ревизован в 1984 г и 1987 гг. Настоящая версия Кодекса Этики Общества Профессиональных Журналистов была принята в сентябре 1996 г. www.spj.org › pdf › ethicscode-russianhttps://internet-

start.net/?qB2.&utm_source=chromestore&utm_campaign=chrome&utm_medium=extension#gsc.tab=0gsc.page=1
18. https://ru.wikipedia.org/wiki

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING INNOVATSION SALOHIYATI: GLOBAL INNOVATION INDEX REYTINGI TAHLILI

SIROJIDDIN MAXATOV
Tadqiqotchi, TDSHU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasining besh davlati – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonning innovatsion salohiyati Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO) tomonidan 2025-yil 16 sentyabrda e’lon qilingan Global Innovation Index 2025 (GII 2025) ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. GII 2025 ning 18-nashri 139 iqtisodiyotni qamrab oladi. Tahlil GII 2021-2025-yillardagi reyting dinamikasi, ustunlar bo‘yicha taqqoslama ko‘rsatkichlar, mintaqaviy tendensiyalar va strategik tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Alohida e’tibor O‘zbekistonning ilk bor Top-80 ga kirishi, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirishi va global innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi muammosiga qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion salohiyat, Global Innovation Index 2025 (GII 2025), Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Qozog‘iston, innovatsion overperformer, tadqiqot va ishlanmalar (R&D), intellektual mulk, WIPO.*

Abstract: *This article analyzes the innovation potential of five Central Asian states — Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Turkmenistan — based on the Global Innovation Index 2025 (GII 2025) released by the World Intellectual Property Organization (WIPO) on September 16, 2025. The 18th edition of the GII covers 139 economies. The analysis encompasses GII ranking dynamics from 2021 to 2025, pillar-by-pillar comparative indicators, regional trends, and strategic recommendations. Special attention is given to Uzbekistan’s historic entry into the Top 80, the Central and South Asia region’s first-ever overtaking of Latin America, and the global slowdown in innovation investment growth.*

Keywords: *innovation potential, Global Innovation Index 2025 (GII 2025), Central Asia, Uzbekistan, Kazakhstan, innovation overperformer, research and development (R&D), intellectual property, WIPO.*

Аннотация: *В данной статье анализируется инновационный потенциал пяти государств Центральной Азии — Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана — на основе данных Глобального инновационного индекса 2025 (GII 2025), опубликованного Всемирной организацией интеллектуальной собственности (WIPO) 16 сентября 2025 года. 18-е издание GII охватывает 139 экономик. Анализ включает динамику рейтингов GII 2021–2025 годов, сравнительные показатели по пилларам, региональные тенденции и стратегические рекомендации. Особое внимание уделяется историческому вхождению Узбекистана в Top-80, впервые достигнутому опережению регионом Центральной и Южной Азии Латинской Америки, а также замедлению роста глобальных инновационных инвестиций.*

Ключевые слова: *инновационный потенциал, Глобальный инновационный индекс 2025 (GII 2025), Центральная Азия, Узбекистан, Казахстан, инновационный опережающий (overperformer), научные исследования и разработки (R&D), интеллектуальная собственность, WIPO.*

1. Kirish

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar barqaror rivojlanishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani chuqurlashtirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanmoqda. Global Innovation Index (GII) esa innovatsion rivojlanishni baholovchi yetakchi xalqaro reytinglardan biri bo‘lib, u Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan Portulans instituti hamkorligida har yili e'lon qilinadi. Mazkur indeks siyosatchilar, tadqiqotchilar hamda xalqaro investorlar uchun muhim analitik axborot manbai hisoblanadi.

Indeksning 18-nashri hisoblangan GII 2025 139 ta iqtisodiyotni 78 ta ko‘rsatkich asosida baholagan bo‘lib, 2025-yil 16-sentyabr kuni "Innovatsiyalar chorrahada" (Innovation at a Crossroads) mavzusi ostida e'lon qilindi.[1] Mazkur nashr GII tarixida birinchi marta venchur kapital joylashuvi ma'lumotlarini eng yaxshi 100 innovatsion klaster reytingiga qo‘shdi.[2]

GII 2025 ning global kontekstida innovatsion investitsiyalar o‘sishi so‘nggi o‘n yillikning eng past darajasiga – 2024-yilda atigi 2,9 foizga – tushdi. Korporativ R&D xarajatlari inflatsiyani hisobga olgan holda real ifodasida 1 foizga o‘sgan bo‘lib, bu o‘tgan o‘n yillikning 4,6 foizlik o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan sezilarli pasayish hisoblanadi. Bundan tashqari, venchur kapital bozori ham qisqardi.[3]

Markaziy Osiyo mintaqasi bu global manzaraga nisbatan o‘ziga xos istisno ko‘rsatdi: O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘zlarining GII tarixi davomidagi eng yaxshi natijalarini qayd etdi[4] va Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasi va Karib havzasini mintaqaviy innovatsion ko‘rsatkichlar bo‘yicha ortda qoldirdi.[5] Ushbu maqolaning maqsadi GII 2025 natijalari asosida Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion salohiyatini har tomonlama tahlil qilish va ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

2. Innovatsion salohiyat: nazariy va konseptual asoslar

Innovatsion salohiyat tushunchasi zamonaviy iqtisodiy nazariyada markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Neoklassik iqtisodiy nazariya doirasida innovatsiya asosan texnologik omil (A) sifatida ishlab chiqarish funksiyasiga kiritilgan bo‘lib, Solow (1956) va Romer (1990) ning endogen o‘sish modellarida fundamental rol o‘ynaydi. Romerning endogen o‘sish nazariyasiga ko‘ra, bilim va innovatsiya "qaytim ortib boruvchi" (increasing returns) xususiyatiga ega: innovatsiyaga doimiy investitsiya kiritish uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosi hisoblanadi. GII 2025 metodologiyasi aynan shu nazariy asosga tayanadi — indeks innovatsion "kirish" (kapital, inson resurslari,

[1] WIPO. (2025). Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. Geneva: WIPO. Published 16 September 2025. ISBN 978-92-805-3556-3.

[2] WIPO GII 2025, p. 15.

[3] WIPO GII 2025, p. 21.

[4] WIPO GII 2025 Press Release. (2025, September 16). WIPO Global Innovation Index 2025 — Switzerland, Sweden, US Top Ranking. URL: wipo.int/pressroom/en/articles/2025/article_0009.html.

[5] WIPO GII 2025, p. 18.

institutlar) va “chiqish” (bilim, texnologiya, ijodiy mahsulotlar) o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchash orqali milliy innovatsion tizimlarni baholaydi.

Milliy innovatsion tizimlar (National Innovation Systems — NIS) nazariyasi Freeman (1987), Lundvall (1992) va Nelson (1993) asarlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu yondashuv innovatsiyani alohida firma yoki tadqiqotchi faoliyati sifatida emas, balki davlat, sanoat, universitetlar va moliya institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida ko‘radi. Markaziy Osiyo davlatlari nuqtai nazaridan bu nazariya ayniqsa dolzarb: mintaqadagi “innovatsion paradoks” — ya’ni kirish ko‘rsatkichlarining chiqish ko‘rsatkichlaridan yuqori bo‘lishi — aynan milliy innovatsion tizim elementlari o‘rtasidagi aloqalarning zaifligi bilan izohlanishi mumkin. O‘zbekiston va Qozog‘istonda ilmiy-tadqiqot natijalarining tijoratlashtirilmasligi, patent faolligining pastligi va universitetlar bilan sanoat o‘rtasidagi instituttsional bo‘shliq ushbu nazariy tushunchani amaliy jihatdan to‘liq tasdiqlaydi.

“Uchlik spiral” (Triple Helix) modeli — Etzkowitz va Leydesdorff (1995) tomonidan ishlab chiqilgan — davlat, universitet va sanoatning birgalikdagi innovatsion faoliyatini innovatsion rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘radi. Ushbu model Markaziy Osiyo uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega: O‘zbekistonning biznes muhiti bo‘yicha global 9-o‘rini — raqobatbardosh biznes ekotizimi mavjudligini ko‘rsatsa ham — ijodiy natijalar ustunida 95-o‘rinda turishi “uchlik spiral”ning amalda to‘liq ishlamasligini ko‘rsatadi. Porter’ning “olmos modeli” (Diamond Model, 1990) ham shu xulosani tasdiqlaydi: milliy raqobatbardoshlik faqat omil sharoitlari (resurslar, kadrlar) bilangina emas, balki mahalliy talab sifati, tegishli tarmoqlar klaster muhiti va firma darajasidagi raqobat bilan birga shakllanadi. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu to‘rtta qirradan hali ikki-uchtasini to‘liq rivojlantirmagan.

Nihoyat, absorptiv quvvat nazariyasi (Cohen & Levinthal, 1990) Markaziy Osiyo uchun yana bir amaliy tavsiya beradi: mamlakat xorijiy texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahalliy sharoitga moslashtirib rivojlantirish qobiliyati uning ichki R&D salohiyatiga bevosita bog‘liq. Bu degani, O‘zbekiston va Qozog‘iston xorijiy investitsiya va texnologiya transferini to‘liq o‘zlashtirish uchun avvalo mahalliy tadqiqotchilar va muhandislar sonini sezilarli ko‘paytirishi zarur. Fan va muhandislik yo‘nalishlarida bitiruvchilar ulushi bo‘yicha O‘zbekistonning 13-o‘rini — bu yo‘ldagi muhim ustunlik — absorptiv quvvatni yanada mustahkamlash uchun strategik tayanch bo‘lishi lozim. Ushbu nazariy fikr keyingi bo‘limlarda GII 2025 empirik ma’lumotlari bilan taqqoslab tahlil qilinadi.

3. GII 2025 metodologiyasi va o‘ziga xos yangiliklari

GII 2025 metodologiyasi ikki asosiy blokdan iborat: innovatsiya kirish omillari (Innovation Input Sub-Index) va innovatsiya chiqish natijalari (Innovation Output Sub-Index). Kirish omillari besh ustunni qamrab oladi: (1) institutlar; (2) inson kapitali va tadqiqotlar; (3) infratuzilma; (4) bozor rivojlanganligi; (5) biznes rivojlanganligi. Chiqish natijalari ikki ustundan: bilim va texnologiya natijalari hamda ijodiy natijalardan tashkil topadi.

GII 2025 ning oldingi nashrlardan asosiy farqi shundan iboratki, bu yil eng yaxshi 100 innovatsion klaster reytingi metodologiyasiga uchinchi o‘lchov sifatida venchur kapital bitimlarining joylashuvi qo‘shildi va “Shenzhen–Gonkong–Guangzhou” klasteri birinchi o‘ringa ko‘tarildi. GII 2025 da ishtirokchi iqtisodiyotlar soni 133 tadan 139 taga, ko‘rsatkichlar soni esa 80 tadan 78 taga o‘zgardi.

Mintaqamiz uchun ayniqsa muhim bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiradi: mehnat unumdorligining o‘sishi, fan va muhandislik yo‘nalishlarida bitiruvchilar ulushi, ta’limga sarflanayotgan xarajatlar, biznes muhiti sifati, yuqori texnologik tovarlar va xizmatlar eksporti,

foydali modellar va patentlar soni hamda venchur kapital jalb etish darajasi.[1]

4. Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi dinamikasi

4.1. Besh yillik taqqoslama tahlil (2021–2025)

Quyidagi jadvalda Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi o‘rni 2021-2025-yillar kesimida keltirilgan. Reyting o‘rinlarini taqqoslashda metodologik o‘zgarishlar va ma’lumotlar mavjudligining yildan yilga farqlanishi inobatga olinishi zarur:

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining GII reytingidagi o‘rni (2021-2025)

Davlat	2021	2022	2023	2024	2025
O‘zbekiston	86	82	82	83	79
Qozog‘iston	79	79	81	78	81
Qirg‘iziston	94	105	107	99	96
Tojikiston	111	116	108	107	108
Turkmaniston	–	–	–	–	–

Manba: WIPO GII Database, 2021–2025; GII 2025 – 139 ta iqtisodiyot qamrovi.

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, O‘zbekiston 2024-yildagi 83-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarilib, Top-80 ga ilk bor kirdi – bu davlatning GII tarixi davomidagi eng yaxshi natijasi hisoblanadi.[2] Qozog‘iston esa 78-o‘rindan 81-o‘ringa ikki pog‘ona tushdi – bu metodologik o‘zgarishlar va raqobat kuchayishi bilan izohlanadi.[3] Qirg‘iziston 99-o‘rindan 96-o‘ringa yaxshilandi.[4] Tojikiston 107-o‘rindan 108-o‘ringa bir pog‘ona tushdi.[5] Turkmaniston GII 2025 da ham ishtirok etmadi.[6]

4.2. GII 2025 ustunlar bo‘yicha taqqoslama tahlil

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston va Qozog‘istonning GII 2025 yetti ustuni bo‘yicha o‘rinlari keltirilgan. Bu tahlil ikkala davlatning kuchli va zaif tomonlarini aniqroq ko‘rish imkonini beradi:

2-jadval

O‘zbekiston va Qozog‘istonning GII 2025 ustunlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

GII 2025 ustunlari	O‘zb. o‘rni	Qoz. o‘rni	Qisqacha izoh
Institutlar	82	69	Qonun ustuvorligi, siyosiy muhit
Inson kapitali va tadqiqotlar	67	74	Ta’lim, R&D; Qirg‘iziston: 42-o‘rin

[1] WIPO GII 2025, Annex 1. Ishtirokchi iqtisodiyotlar ro'yxati va metodologik o'zgarishlar bayoni.

[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 4. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf. O'zbekiston GII 2025 da 79-o'rinni egalladi.

[3] WIPO GII 2025 Economy Profile: Kazakhstan, p. 4. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/kz.pdf. Qozog'iston GII 2025 da 81-o'rinni egalladi.

[4] IMP.News. (2025, November 10). Innovation Climbers of 2025. URL: imp.news. Qirg'iziston GII 2025 da 96-o'rinni egalladi.

[5] Asia-Plus. (2025). Tajikistan ranks 108th in Global Innovation Index 2025. URL: asiaplustj.info.

[6] WIPO GII 2025, Annex 1. Kiritilish uchun kirish quyi indeksi bo'yicha kamida 35 ta ko'rsatkich talab etiladi. Turkmaniston bu talablarni qondirmadi.

Infratuzilma	75	52	AKT, energetika, ekologiya
Bozor rivojlanganligi	88	83	Kredit, investitsiya, savdo
Biznes rivojlanganligi	60	89	O‘z.: biznes muhiti 9-o‘rin
Bilim va texnologiya natijalari	71	90	Patentlar, YaIMga nisbatan R&D xarajatkari
Ijodiy natijalar	95	102	Brend, media, ijodiy tovarlar

Manba: WIPO GII 2025 Economy Profiles (Uzbekistan, Kazakhstan)

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston infratuzilma va biznes rivojlanganligi yo‘nalishlarida Qozog‘istondan ustunlik qilmoqda – ayniqsa biznes muhiti quyi ustunida 9-o‘rin jahon miqyosida e’tiborga sazovor yutuqdir.[1] Qozog‘iston esa institutlar va inson kapitali yo‘nalishlarida O‘zbekistonga nisbatan yaxshiroq natija ko‘rsatmoqda.[2]

5. GII 2025: O‘zbekistonning tarixiy muvaffaqiyati

GII 2025 O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga molik natijani qayd etdi: davlat 79-o‘rinni egallab, o‘zining GII tarixi davomidagi eng yuqori ko‘rsatkichini qayd etd. WIPO Press Release da ta’kidlanishicha, O‘zbekiston to‘rtinchi yil ketma-ket “dinamik overperformer” ya’ni daromad darajasiga nisbatan yuqori innovatsion samaradorlikka ega mamlakat maqomini saqlab qoldi.

O‘zbekiston GII 2025 da quyidagi xalqaro ko‘rsatkichlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda: mehnat unumdorligining o‘sishi – dunyo bo‘yicha 6-o‘rin; fan va muhandislik yo‘nalishlaridagi bitiruvchilar ulushi – 13-o‘rin; biznes muhiti sifati quyi ustuni – 9-o‘rin; ta’limga sarflanayotgan xarajatlar – 24-o‘rin. Eurasianet nufuzli tahliliy nashri O‘zbekiston va Qozog‘istonni “innovatsion faollikning egizak markazlari” deb ta’rifladi.[3]

O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishidagi ayrim zaif jihatlar ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ijodiy natijalar ustunida 95-o‘rin, bilim va texnologiya natijalari ustunida 71-o‘rin hamda bozor rivojlanganligi ustunida 88-o‘rin qayd etilgani mamlakat innovatsion ekotizimida mavjud “bottleneck” ya’ni rivojlanishni sekinlashtiruvchi tor bo‘g‘in yoki cheklovchi omillar mavjudligini ko‘rsatadi.[4] Xususan, patent faolligining nisbatan pastligi, venchur kapital jalb etish darajasining yetarli emasligi hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining past ulushi innovatsion tizim natijalarining hali to‘liq darajada tijoratlashtirilmayotganini ko‘rsatadi.

6. GII 2025: Qozog‘istonning mintaqaviy pozitsiyasi

Qozog‘iston GII 2025 da 81-o‘rinni egallab, 2024-yildagi 78-o‘ringa nisbatan uch pog‘ona pastga tushishni qayd etdi. Biroq Qozog‘iston Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida Hindiston (38-o‘rin) va Eron (70-o‘rin) dan so‘ng to‘rtinchi o‘rinda egallamoqda.[5]

[1] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 5.

[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Kazakhstan, p. 5.

[3] Eurasianet. (2025, September 19). Kazakhstan and Uzbekistan deemed twin hotbeds of innovation. URL: eurasianet.org.

[4] WIPO GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan, p. 6.

[5] WIPO GII 2025 Press Release, op. cit.

GII 2025 natijalariga ko‘ra Qozog‘istonning ayrim raqobat ustunliklari saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat onlayn xizmatlari sifati bo‘yicha mamlakat dunyo bo‘yicha dastlabki o‘ntalikdan joy olgan. Shuningdek, foydali modellar (utility models) bo‘yicha 10-o‘rin, elektron ishtirok (e-participation) ko‘rsatkichi bo‘yicha 16-o‘rin hamda tadbirkorlik siyosati va madaniyati bo‘yicha 27-o‘rin qayd etilgan.

Qozog‘iston uchun asosiy rivojlanish imkoniyatlari innovatsiya natijalari bilan bog‘liq ustunlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, bozor rivojlanganligi ustunida 93-o‘rin, bilim va texnologiya natijalari ustunida 87-o‘rin hamda ijodiy natijalar ustunida 82-o‘rin qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat innovatsion tizimida yaratilayotgan ilmiy va texnologik salohiyat hali to‘liq iqtisodiy natijalarga aylantirilmayotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, tadqiqot va ishlanmalar (R&D) hamda innovatsion faoliyatga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hali yetarli darajada tijoratlashtirish bosqichiga chiqmayapti.

7. Mintaqaning qolgan davlatlari: GII 2025 tahlili

7.1. Qirg‘iziston: barqaror yuksalish tendensiyasi

Qirg‘iziston GII 2025 da 96-o‘rinni egallab, 2024-yildagi 99-o‘ringa nisbatan uch pog‘ona yaxshilanishga erishdi. Mamlakat ayrim global indikatorlar bo‘yicha alohida ajralib turadi: ta’limga sarflanadigan xarajatlar bo‘yicha dunyo miqyosida 5-o‘rin, past karbonli energiya ishlatish bo‘yicha esa 14-o‘rin qayd etilgan. Shu bilan birga, inson kapitali va tadqiqotlar ustunida 58-o‘rin egallagan.[1]

Biroq Qirg‘izistonning innovatsion rivojlanishidagi zaif jihatlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, raqamli infratuzilma, venchur kapital, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti hamda patent faolligi ko‘rsatkichlari nisbatan past. Bundan tashqari, iqtisodiyotning kichikligi va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar hajmining cheklanganligi mamlakat innovatsion ekotizimini tezkor kengaytirishga imkon bermaydi.

7.2. Tojikiston: struktural to‘siqlar muammosi

Tojikiston GII 2025 da 108-o‘rinni egallab, mintaqa ichida eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.[2] amlakat innovatsion rivojlanishida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan: R&D sohasiga sarflanadigan xarajatlarning YaIMga nisbati 0,1 foizdan past; malakali kadrlarning tashqi migratsiyasi (brain drain) yuqori darajada; kapital bozorlarining rivojlanmaganligi va xususiy sektorning innovatsiyaga qo‘shayotgan hissasining minimal darajasi. Ushbu omillar Tojikistonning innovatsion ekotizimini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydi.

7.3. Turkmaniston: institutsional shaffoflik muammosi

Turkmaniston GII 2025 reytingida ishtirok etmagan. Mamlakat GII uchun zarur bo‘lgan minimal ma’lumot talabini bajara olmadi: kirish quyi indeksi bo‘yicha kamida 35 ta ko‘rsatkich, chiqish quyi indeksi bo‘yicha esa kamida 15 ta ko‘rsatkich taqdim etilmagan. Ushbu holat xalqaro investorlar va donor tashkilotlar uchun mamlakat innovatsion ekotizimini aniq baholashni murakkablashtiradi.

8. Mintaqaviy yutuq: birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirish

GII 2025 ning eng muhim mintaqaviy yangiligi shundaki, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasini mintaqaviy GII reytingida

[1] WIPO GII 2025 Economy Profile: Kyrgyzstan

[2] WIPO GII 2025 Economy Profile: Tajikistan

ortda qoldirdi. GII 2025 hisobotida ta'kidlanishicha: ushbu siljish Hindiston, O‘zbekiston va Qozog‘istonning kuchli natijalar ko‘rsatishi bilan bog‘liq.[1]

Shu bilan birga, GII 2025 global tendensiyasi doirasida innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi Markaziy Osiyo uchun ham xavf tug‘diradi. R&D o‘sishi 2024-yilda 2,9 foizga tushdi va WIPO 2025-yilda bu ko‘rsatkich 2,3 foizgacha pasayishini bashorat qilmoqda.[2] Bunday sharoitda xususiy sektori zaif bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun davlat qo‘llab-quvvatlashining roli yanada oshishi zarur.

9. Qiyosiy tahlil: o‘xshash o‘tish iqtisodiyotlari tajribasi

Markaziy Osiyo davlatlarining innovatsion rivojlanish yo‘lini nazariy asoslar bilan birga ko‘rib chiqishda, o‘xshash o‘tish iqtisodiyotlari tajribasi qimmatli empirik dars beradi. Estoniya 2000-yillar boshida raqamli davlat xizmatlari va e-rezidentlik tizimini joriy etib, GII reytingida tezkor ko‘tarilishga erishdi — 2025-yilda 15-o‘rinni egallash orqali u o‘z iqtisodiyoti hajmiga nisbatan dunyo bo‘yicha eng samarali innovatsion tizimlardan biriga aylandi. Estoniyaning muvaffaqiyati instituttsional islohot (shaffof raqamli ma'muriyat), ta'limga strategik investitsiya va xalqaro hamkorlikni uyg‘unlashtirgan modelga asoslangan. Ushbu “kichik davlat, katta ambitsiya” yondashuvi O‘zbekiston va Qozog‘iston uchun ham dolzarb: iqtisodiy hajm emas, instituttsional sifat va siyosiy iroda innovatsion o‘sishning asosiy omili bo‘la oladi.

Koreya Respublikasi tajribasi Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston uchun eng muhim qiyosiy namuna hisoblanadi. Koreya 1960-yillarda past daromadli agrar iqtisodiyotdan bugun GII 2025 da 9-o‘rinni egallagan global innovatsion kuchga aylandi. Ushbu transformatsiya “innovatsion rivojlantiruvchi davlat” (developmental state) modeli asosida amalga oshdi: davlat strategik sanoat tarmoqlarini maqsadli moliyalashtirdi, sanoat va universitetlar o‘rtasida mustahkam instituttsional aloqalar o‘rnatdi va R&D xarajatlarini YaIMning 4,8 foiziga yetkazdi. O‘zbekistonning GII 2025 da ta'lim xarajatlari bo‘yicha 24-o‘rin hamda fan va muhandislik bitiruvchilari bo‘yicha 13-o‘rin egallashi — Koreya yo‘lidan ilhomlanib, ta'lim-sanoat-davlat uchligini mustahkamlash uchun muhim asos yaratmoqda.

Quyidagi jadvalda Markaziy Osiyo davlatlari va qiyosiy o‘tish iqtisodiyotlarining asosiy GII ko‘rsatkichlari taqqoslangan holda keltirilgan:

3-jadval

Markaziy Osiyo va qiyosiy davlatlarning GII 2025 ko‘rsatkichlari

Davlat	**GII 2025 o‘rin**	**YaIM/jon boshiga (USD)**	**Asosiy ustunliklar**	**Rivojlanish imkoniyatlari**
O‘zbekiston	79	~2 400	Biznes muhiti (9-o‘rin), mehnat unumdorligi (6-o‘rin), muhandislik bitiruvchilari (13-o‘rin)	Patent faolligi, venchur kapital, yuqori texnologik eksport
Qozog‘iston	81	~13 500	Institutlar (69-o‘rin), infratuzilma (52-o‘rin), e-ishtirok (16-o‘rin)	Bozor rivojlanganligi, bilim va texnologiya natijalari

[1] WIPO GII 2025 Press Release, op. cit.

[2] WIPO GII 2025, p. 22.

Davlat	GII 2025 o‘rin	YaIM/ jon boshiga (USD)	Asosiy ustunliklar	Rivojlanish imkoniyatlari
Estoniya (qiyosiy)	15	~28 000	Raqamli davlat xizmatlari, ICT ekotizimi, startap madaniyati	Kichik bozor hajmi, demografik cheklov
Koreya (qiyosiy)	9	~35 000	R&D (YaIMning 4,8%), patentlar, sanoat klasterlari	Demografik bosim, xizmatlar sektori ulushi

Manba: WIPO GII 2025; World Bank Open Data 2024; muallif tuzgan.

3-jadvaldagi qiyosiy ma’lumotlar muhim xulosaga olib keladi: O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘z daromad darajasiga nisbatan yuqori GII o‘rinlarni egallaydi — bu “overperformer” maqomini tasdiqlovchi empirik dalil. Shu bilan birga, Estoniya va Koreya bilan solishtirganda, Markaziy Osiyo davlatlari innovatsiyaning iqtisodiy samarasi — yuqori texnologiyali eksport, xalqaro patent, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb etish — bo‘yicha sezilarli farqga ega. Aynan shu farqni bartaraf etish — ya’ni innovatsion “kirish” ko‘rsatkichlari afzalligini “chiqish” natijalariga aylantirish — keyingi bo‘limda muhokama qilinadigan strategik tavsiyalarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

10. Strategik tavsiyalar

GII 2025 tahlili asosida Markaziy Osiyo davlatlari uchun quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchidan,

innovatsiya «output» ko‘rsatkichlarini kuchaytirish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim. O‘zbekiston va Qozog‘iston kirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha yaxshi natijalar ko‘rsatayotgan bo‘lsada, chiqish ko‘rsatkichlari – patentlar, yuqori texnologik eksport, ijodiy tovarlar – hali ham past. Bu «innovatsion paradoks»ni bartaraf etish uchun oliy o‘quv yurtlari va sanoat o‘rtasidagi texnologiyalar transferi mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash zarur.[1]

Ikkinchidan,

GII 2025 global tendentsiyasi doirasida innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuviga qarshi mintaqaviy miqyosda chora ko‘rish muhimdir. Venchur kapital bozorini rivojlantirish, «biznes-farishta» investitsiyalarini soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantirish va mintaqaviy innovatsion fond yaratish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish kerak.

Uchinchidan,

Qirg‘izistonning ta’lim xarajatlari bo‘yicha 5-o‘rini va past karbonli energiya bo‘yicha 14-o‘rini «yashil innovatsiya» ixtisoslashuvini shakllantirish uchun asos bo‘lishi mumkin. Mintaqaning gidroenergetika potentsiali va ta’lim tizimining nisbatan rivojlanishi bu ikkala ustunni «yashil texnologiyalar» eksporti bilan birlashtiruvchi innovatsion klaster shakllantirishga imkon beradi.

To‘rtinchidan,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi UP-158-sonli Farmoni. O'zbekiston-2030 Strategiyasi. Toshkent.

Turkmaniston uchun eng dolzarb masala xalqaro statistik shaffoflikni ta'minlash va GII ga qo‘shilishdir. GII ishtirokchisi bo‘lish nafaqat xalqaro e'tiborni jalb etadi, balki siyosatchilarni innovatsion tizimni o‘lchash va takomillashtirish uchun tizimli ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Beshinchidan,

Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasi birinchi bor Lotin Amerikasini ortda qoldirgandan foydalanib, mintaqaviy innovatsion hamkorlikni – texnologiyalar transferi, qo‘shma ilmiy dasturlar va innovatsion malaka oshirish – kuchaytirish strategik imkoniyat sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

11. Xulosa

GII 2025 natijalari Markaziy Osiyo mintaqasi innovatsion rivojlanishda tarixiy yutuqlarga erishayotganini tasdiqladi. O‘zbekistonning ilk bor Top-80 ga kirishi (79-o‘rin), Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasining Lotin Amerikasini ortda qoldirishi va Qirg‘izistonning 96-o‘ringa ko‘tarilishi – bularning barchasi mintaqaning 2013 yildagi holatidan tubdan farq qiladigan innovatsion ekotizim shakllanayotganini ko‘rsatadi. O‘zbekiston to‘rtinchi yil ketma-ket overperformer maqomini saqlab, 2013 yildagi 133-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarilish orqali 54 ta pog‘ona ko‘tarildi.

Biroq global innovatsion investitsiyalar o‘sishining sekinlashuvi (2024-yilda 2,9 foiz, 2025-yil uchun bashorat 2,3 foiz) va korporativ R&D xarajatlarining real ifodasida 1 foizga o‘sganligi kelajakda mintaqaning innovatsion tizimlarini moliyalashtirish uchun yangi manbalar va mexanizmlar izlashini taqozo etadi.

O‘zbekiston 2030-yilga borib GII Top-60 ga kirishni maqsad qilgan. GII 2025 natijalari ushbu maqsadning amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlaydi. Buning uchun mavjud kuchli tomonlar — xususan, mehnat unumdorligi, ta'limga sarflanayotgan xarajatlar va biznes muhiti — saqlab qolingan holda, zaif tomonlar — jumladan, patent faolligi, venchur kapital jalb etish va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti — bo‘yicha maqsadli siyosiy choralar amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, GII 2025 ning "Innovatsiyalar chorrahada" (Innovation at a Crossroads) mavzusi Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham to‘g‘ri: mintaqa innovatsion rivojlanishning to‘g‘ri yo‘liga kirgan, biroq hali bosib o‘tilishi zarur bo‘lgan uzoq yo‘l oldida turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2025). Global Innovation Index 2025: Innovation at a Crossroads. Geneva: WIPO. Published September 16, 2025. ISBN 978-92-805-3556-3.

2. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2025). GII 2025 Economy Profile: Uzbekistan. Geneva: WIPO. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf.

3. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2025). GII 2025 Economy Profile: Kazakhstan. Geneva: WIPO. URL: wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/kz.pdf.

4. WIPO Press Release. (2025, September 16). WIPO Global Innovation Index 2025: Switzerland, Sweden, US, the Republic of Korea and Singapore Top Ranking; China Enters Top 10. URL: wipo.int/pressroom/en/articles/2025/article_0009.html.

5. World Intellectual Property Organization (WIPO). (2024). Global Innovation Index 2024. Geneva: WIPO. ISBN 978-92-805-3492-4.

6. Eurasianet. (2025, September 19). Kazakhstan and Uzbekistan deemed twin hotbeds of innovation – global survey. URL: eurasianet.org.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi UP-158-sonli Farmoni. "O‘zbekiston – 2030" Strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent.

8. IMP.News. (2025, November 10). Innovation Climbers of 2025: Economies Reaching New Heights in the Global Innovation Index. URL: imp.news.

9. Asia-Plus. (2025). Tajikistan ranks 108th in Global Innovation Index 2025. URL: asiaplustj.info.